

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

***X.S. Muhiddinova, Z.I. Salisheva,
X.S. Po‘latova***

O‘ZBEK TILI

(Oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik)

*Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi
kengashi qarori bilan oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlari
uchun darslik sifatida tavsiya qilingan*

Qayta ishlangan 2-nashri

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2012

УДК: 811.512.133(075)

КБК 81.2 О‘zb

M 93

Mazkur darslik Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy ta‘lim muassasalarining rus guruhleri talabalari uchun tavsiya qilingan va 2006- yilda chop etilgan „O‘zbek tili“ darsligining takomillashtirilgan 2-nashridir. Darslikning ushbu nashri OTM o‘quv rejasida o‘zbek tili fani uchun ajratilgan soat hajmiga moslashtirildi. Unda rus guruhleri talabalarining umumiy o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida o‘zbek tilidan olgan bilim va malakalarini mustahkamlash, ularning o‘zbek tilidagi og‘zaki va yozma bog‘lanishli nutqini va turli nutq uslublarida matn tuza olish malakalarini takomillashtirish nazarda tutilgan.

Darslik har biri bir qancha mavzularni qamrab olgan 8 bo‘limga: 1. O‘tilganlarni takrorlash. 2. Subyektni ifodalash. 3. Predikatni ifodalash. 4. Obyektni ifodalash. 5. Belgini ifodalash. 6. Holatni ifodalash. 7. Fikrni bog‘lanishli ifodalash. 8. Fikrni turli nutq uslubida ifodalash bo‘limlariga bo‘lib berilgan. Darslikka, shuningdek, bog‘lanishli nutq, matn turlari, nutq uslublari va ularning lisoniy xususiyatlari bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar va shular yuzasidan maxsus mashqlar ham kiritildi.

Taqrizchilar: **M. Mirqosimova**, TDPU pofessori,
pedagogika fanlari doktori

O. Mo‘minova, O‘zDJTU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

SO‘ZBOSHI

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida“gi, „Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida“gi qonunlari o‘zbek tilini o‘qitishni tubdan isloh qilish, yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratish, o‘zbek tili ta‘limining yangi, samarali usullarini ishlab chiqish va ta‘lim jarayoniga tatbiq etish vazifalarini qo‘ygan.

Qo‘lingizdagi darslik hukumatimizning „Ta‘lim to‘g‘risida“gi va „Uzluksiz ta‘lim to‘g‘risida“gi qarorlarini amalga oshirish vazifalaridan kelib chiqqan holda yaratilgan. Darslikdan ko‘zlangan maqsad talabalarning quyi ta‘lim tizimlarida egallagan bilim va malakalarini nutq jarayonida kompleks holda tatbiq eta olishlariga erishishdir. Shu maqsadda darslikda ko‘proq sintaktik-sinonimik konstruksiyalarni o‘rgatishga keng e‘tibor qaratildi. Grammatik qoidalar qisqa va soddalashtirib berildi, grammatik atamalarni mumkin qadar kamroq berishga harakat qilindi. Nutq o‘stirishga qaratilgan yangi, qiziqarli ruknlar kiritildi (masalan, qiziqarli grammatika mashqlari, bilib oling, eshitish mashqi, test topshiriqlari, vaziyatli topshiriqlar kabi), rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish mashqlariga ham keng o‘rin berildi. Bu guruhdagi rusiy-zabon va o‘zbekzabon o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash imkoniyatini beradi.

Adabiy o‘qish uchun berilgan materiallarda o‘zbek xalqining ko‘hna tarixi, boy milliy qadriyatlari aks ettirilgan rivoyatlar, badiiy ijod namunalari, o‘zbek adabiyotining yorqin siymolari asarlaridan parchalar berib borildi. Shuningdek, darslikka nutq va bog‘lanishli matn turlari, nutq uslublari va ularning lisoniy xususiyatlari bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar va maxsus tizimli mashqlar kiritildi. Bog‘lanishli matnlar va adabiy o‘qish materiallariga talabalarni mustaqil ishlashga, ijodiy fikrlashga, qiyoslash va xulosa chiqarishga o‘rgatadigan savol va topshiriqlar qo‘yildi.

Ma'lumki, oliy ta'lim bosqichida talabalarning mustaqil ishlariga katta e'tibor qaratiladi. Shundan kelib chiqib, darslikka talabalarning mustaqil o'qishlari uchun qo'shimcha materiallar sifatida buyuk allomalarimiz, taniqli yozuvchi-shoirlarimiz haqida ma'lumotlar, ularning ayrim asarlaridan parchalar kiritildi. Darslikni yaratishda xorijiy tillar bo'yicha darsliklar tajribasini o'rganib chiqib hamda respublikamizda yashovchi rusiyzabon fuqarolarning o'zbek tilini yaxshi tushunishlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda hamda oliy o'quv muassasalarning rusiyzabon guruhlarida millatlar vakillarining borgan sari ko'payib borayotganini e'tiborga olgan holda grammatik qoidalarning barchasi (sarlavhalardan tashqari) faqat o'zbek tilida berildi.

**X.S. Muhiddinova,
pedagogika fanlari doktori**

O‘ZBEK TILI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TILIDIR

O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 4- moddasi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

*Mutavakkil Burhonov musiqasi,
Abdulla Oripov she’ri*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad, ilm-u fan ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t :

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi, senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas imoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash‘ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

N a q a r o t :

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi, senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.



Savol va topshiriqlar

1. Madhiya qachon, qayerda qabul qilingan?
2. Madhiyaga kuy bastalagan bastakor haqida nimalarni bilasiz?
3. Madhiya muallifi haqida so‘zlab bering.

O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

1- mavzu: FONETIK TOVUSH O‘ZGARISHLARI VA IMLO TAMOYILLARI

(Фонетические звуковые изменения и принципы правописания)

1- *masiq*. Matnni o‘qing va topshiriqni bajaring.

DAVLAT TILI TO‘G‘RISIDA

„Davlat tili“ deganda shu davlat hududida asosiy aloqa-aralashuv vositasi bo‘lgan til tushuniladi. Barcha davlat hujjatlari davlat tilida yoziladi, yig‘inlar, anjumanlar, uchrashuvlar shu tilda olib boriladi. Har bir davlat o‘z davlat tilining rivoji, shu tilning sofliqi, boyib borishini ta‘minlaydi, davlat tilini o‘rganish va o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. „Davlat tili haqida“gi Qonun 1989- yil 21- dekabrda XI chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, u 30 moddadan iborat edi. 1995- yil 21- dekabrda qonunning 24 moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi.

Respublikamizning har bir fuqarosi o‘z ona tili bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasining davlat tilini ham bilishi kerak. Davlat tiliga hurmat va e‘tiborning birinchi belgisi shu tilda to‘g‘ri, chiroyli so‘zlash va yozishdir.



Quyidagi savollarga javob bering

1. „Davlat tili haqida“gi Qonun qachon qabul qilindi?
2. Siz „Davlat tili“ deganda nimani tushunasiz?
3. „Davlat tili haqida“gi Qonun necha moddadan iborat edi?
4. Qonunning yangi tahriri qachon qabul qilingan va necha moddadan iborat?
5. Nima uchun davlat tilini barcha bilishi kerak?

2- *masiq*. „Davlat tili haqida“gi Qonun moddalarini diqqat bilan tinglang, tovushlarning to‘g‘ri talaffuz qilinishiga e‘tibor bering.

2- modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

7- modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalar va me‘yorlariga rioya etiladi. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta‘minlaydi.

15- modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an‘analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

22- modda. Respublikaning ma‘muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

(„Davlat tili haqida“gi Qonun moddalaridan.)

Talaffuz jarayonida so‘z tarkibidagi tovushlar turli o‘zgarishlarga uchraydi. Bu fonetik tovush o‘zgarishlari deb atalib, ularga tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashinishi, tovushlarning o‘zaro moslashuvi hodisalari kiradi. Masalan:

singil + im = singlim (2- bo‘g‘indagi i unlisi tushgan)

o‘rtog + im = o‘rtog‘im (q undosh g‘ ga almashyapti)

xursand — xursan (d undoshi tushyapti)

u + ga = unga (n undoshi orttirilyapti)

bilak + ga = bilakka (g tovushi k ga almashyapti)

chiroq + ga = chiroqqa (g tovushi q ga almashyapti)

Nutqdagi barcha tovush o‘zgarishlari ham yozuvda aks etavermaydi. Ayrim tovush o‘zgarishlari faqat og‘zaki nutq hodisasi hisoblanadi, ayrim tovush o‘zgarishlari esa yozuvda ham aks etadi. Shunga ko‘ra imlo tamoyillari mavjud. O‘zbek tilida 5 xil yozuv tamoyillari bor bo‘lib, bulardan quyidagi 2 tasi asosiy hisoblanadi:

1. Fonetik yozuv tamoyili. Bu tamoyilda so‘zlar qanday talaffuz etilsa, shunday yoziladi. Masalan: *o‘rtogqqa, burni, shahri* kabi.

2. Morfologik yozuv tamoyili. Bu tamoyilda so‘zlardagi tovush o‘zgarishlari faqat og‘zaki nutq hodisasi bo‘lib qoladi, ya‘ni qanday tovush o‘zgarishlari bo‘lishidan qat’i nazar so‘zlar morfologik qoidalar asosida yoziladi. Masalan: *xursand (xursan), dastlab (daslap), ketdi (ketti)* kabi.

3- mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi tovush o‘zgarishlariga e‘tibor bering.

1. Akrom *singlisining* gapiga miyig‘ida kulib qo‘ydi. 2. Biz o‘z *qishlog‘imizni* juda sevamiz. 3. Xalq *tinchligini* buzgan omon qolmas. 4. Xolam bizni *xursand* bo‘lib kutib oldilar. 5. „*Yigitcha*, yo‘l chiptangizni ko‘rsating,“ — dedi haydovchi. 6. Keksalarning *ko‘nglini* ko‘tarish kerak. 7. *Boshlig‘imiz* mehnat ta‘tiliga ketgan. 8. Bu yil hosil mo‘l, sanab *sanog‘iga* yeta olmaysiz.

4- mashq. Berilgan maqollar va topshiriqlardagi tovush o‘zgarishli so‘zlarni aniqlab, qanday tovush o‘zgarishi yuz berganini tushuntiring.

1. O‘nta bo‘lsa, o‘rni boshqa, qirqta bo‘lsa, qilig‘i. 2. Dushmanga sira bo‘yningni egma. 3. Tepdim, terakka chiqdim. 4. El og‘ziga elak tutib bo‘lmas. 5. Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar. 6. Otdan baland, itdan past. 7. Sog‘liging — boyliging. 8. Mehnatdan kelsa boylilik, turmush bo‘lar chiroyli. 9. Keladigan eshigingni qattiq yopma. 10. Qochoqqa shafqat yo‘q, qo‘rqoqqa hurmat.

5- mashq. Berilgan so‘zlarga *-ga, -ka, -qa* qo‘shimchalaridan mosini qo‘shing, so‘ng ushbu so‘zlarning qanday aytilishi va yozilishini tushuntiring.

Bog‘, chiroq, etak, chek, o‘rtoq, barg, xirurg, qirq, soliq, kiyik, chelak, kurak, quloq.

6- mashq. Matnni o‘qing. O‘zbek tilidagi atamalarning qanday yozilishi va atalishiga diqqat qiling.

Chorsu Toshkentning eski shahar qismining markazi hisoblanadi. Qadimda Toshkentning: Samarqand darvoza, Ko‘kcha darvoza, Chig‘atoy darvoza kabi darvozalaridan kirgan yo‘l Chorsuga olib kelar edi. Har bir yo‘nalishda Chorsuga yaqin joylarda ko‘plab mahallalar mavjud bo‘lib, bu yerda aholining chog‘roqqina hovlilari bo‘lar, shahar tashqarisida esa bog‘ hovlilari joylashgan edi. Birgina Samarqand darvoza yo‘nalishida O‘qchi, Ko‘mirchi, Chaqar, Suzukota, Sarchopon, Mirlar kabi mahallalar bo‘lgan.

Ushbu joy nomlarining to‘g‘ri shaklini bilib oling!

Bu — xato!

Ak-tepe

Toy-tyube

Beshagach

Kara-su

Yangi-yul

Bu — to‘g‘ri!

Oqtepa

To‘ytepa

Beshyog‘och

Qorasuv

Yangiyo‘l

7- *mashq*. Ushbu matnni diqqat bilan tinglang, ovoz chiqarib o‘qing va tarixiy sanalarni eslab qolishga harakat qiling.

O‘ZBEK YOZUVLARI TARIXIDAN

O‘zbek yozuvi uzoq tarixga ega. Bizning ota-bobolarimiz eramizning boshlarida oromiy va sug‘d yozuvlaridan, IV—VIII asrlarda esa runik va uyg‘ur yozuvlaridan foydalanganlar. VII asrda Movarounnahrni arablar bosib olgandan keyin, arab yozuvi joriy qilindi va u ming yildan ortiq davr amal qildi. Ushbu yozuvda mumtoz adabiyotimizning barcha durdonalari bitilgan.

O‘rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi tufayli 1929- yilda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tildi. 1940- yildan esa kirill alifbosi joriy qilindi. 1991- yildan O‘zbekiston tarixida yangi davr boshlandi. Biz o‘z mustaqilligimizni qo‘lga kiritdik va o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Shu bilan bir qatorda, 1993- yil 2- sentabrda lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosiga o‘tish haqida qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2005- yildan respublikamizda lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi to‘liq amal qila boshladi.



Savol va topshiriqlar

1. Matndagi spetsifik nutq tovushlari mavjud bo‘lgan so‘zlarni ko‘chiring va ular ishtirokida namunadagidek so‘z birikmalari tuzing.

Namuna: qadimgi — qadimgi xalqlar, ...

2. Savollarga javob bering, javoblaringizda spetsifik nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishga harakat qiling.
 1. Eng qadimgi o‘zbek yozuvlari qaysilar?
 2. Mumtoz adabiyotimiz qaysi yozuvda bitilgan?
 3. 1929 va 1940- yillarda qanday yozuvlar joriy qilingan edi?
 4. „Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi to‘g‘risida“gi qaror qachon qabul qilindi? Yangi alifboga qachondan o‘tiladi? Yangi alifboda nechta harf mavjud?

8- *mashq*. Kirill yozuvidagi ushbu matnni lotin yozuviga o‘girib yozing. Har ikki alifboda bir xil yoziladigan, qisman farq qiladigan va to‘liq farq qiladigan harflarni 3 ustunga ajratib yozib chiqing.

O‘zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan ajoyib an‘analaridan biri ota-onani e‘zozlash, izzat-ikromlarini, hurmatlarini joyiga qo‘yishdir. Farzand

uchun dunyoda ota-onadan ko‘ra mehribon, aziz va mo‘tabar zot yo‘q. Ota-ona farzandlarning suyanchig‘i, bitmas-tuganmas boyligidir. Ota-ona farzand uchun hech narsani ayamaydi. O‘zbek oilalarida ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo‘lish, duolarini olish har bir farzandning eng oliy burchidir.

9- mashq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling va har ikki tilda spetsifik hisoblangan tovushlarning talaffuziga e‘tibor bering.

Язык — бесценный дар, которым наделён человек. Язык — душа народа, человечество не существует без языка. Уважительное отношение к языку не зависит от многочисленности людей, пользующихся им. В языке отражается история и культура его творца — народа, народности. Издавна народы мира изучают языки для взаимного понимания и сотрудничества. Узбекский язык — духовное богатство узбекского народа. Он является государственным языком в нашей республике.



Savol va topshiriqlar

1. Matnga mos sarlavha qo‘ying.
2. Til to‘g‘risida qanday maqollarni bilasiz? Aytib bering va ma‘nosini tushuntiring.

ESHITISH MASHQI

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning „Ona tilim“ she‘rini diqqat bilan tinglang. Spetsifik nutq tovushlarining talaffuziga e‘tibor bering. She‘rni ifodali o‘qing va yod oling.

ONA TILIM

Ming yildirki, bulbul kalomi,
O‘zgarmaydi — yaxlit hamisha.
Lekin sho‘rlik to‘tining holi,
O‘zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan shaksiz,
Bulbul kuyin she‘rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman.

Ushbu soʻzlarning sinonimlarini bilib oling!

Yaxlit — bir butun, hamisha — doim, oʻzga — begona, kuy — musiqa.



Savol va topshiriqlar

1. Sheʼrning har bir satri maʼnosini tushuntiring va yoddan aytib bering.
2. Shoir „bulbul“ va „toʻti“ obrazlari orqali nima demoqchi?
3. Mustaqil oʻqish uchun berilgan matnlardan shoir Addulla Oripov haqidagi maʼlumotlarni topib oʻqing va u haqida soʻzlab bering.



Adabiy oʻqish

OʻZBEK ADABIY TILINING ASOSCHISI

Alisher Navoiy jahon adabiyotida salmoqli oʻrin egallaydi. Uning juda koʻp ilmiy, tarixiy asarlaridan tashqari, gʻazal va dostonlarining oʻzi bir necha yuz ming misrani tashkil qiladi. Navoiy sheʼrlarini oʻz ichiga olgan „Chor devon“ 47 ming misradan iboratdir. Badiiy ijodning goʻzal namunalarini toʻplagan „Xamsa“ asari 60 ming misraga yaqin sheʼrni oʻz ichiga oladi. Navoiyning 6 mingga yaqin forscha gʻazallari ham bor.

Sheʼr va tafakkurning buyuk sohibqironi boʻlgan Alisher Navoiy oʻzida tugʻilgan har bir fikrni sheʼr bilan ifoda qilardi. Bu haqda uning oʻzi ham

*Koʻnglimda ne maʼni boʻlsa erdi paydo,
Til aylar edi nazm libosida ado, — deb yozgan.*

Navoiygacha oʻzbek va umuman, turk xalqlari adabiyoti eron adabiyotining taʼsiri ostida edi. Hamma shoirlar deyarli fors tilida yozar edilar. Oʻzbek tilida yozish ayb sanalar va oʻzbek tilida yozilgan asarlarni saroy ahillari tan olmas edilar. Navoiy shunday bir sharoitda „Muhokamat ul-lugʻatayn“ nomli mashhur asarini yozib, oʻsha davrda „turk tili“ deb atalgan qadimgi oʻzbek tilining fors tilidan ham boy, rang-barang ekanini isbot qildi va oʻz asarlarini oʻzbek tilida bitdi. Shuning uchun Alisher Navoiyni oʻzbek adabiy tilining asoschisi deymiz.

***Alisher Navoiy aforizmlarini bilib oling va
ularga amal qiling!***

Insonni soʻz ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yoʻq ondin.

Chin doʻst moʻtabar, yaxshi soʻz muxtasar.

Bilmaganni soʻrab oʻrgangan olim, orlanib soʻramagan
oʻziga zolim.

Oz-oz oʻrganib dono boʻlur, qatra-qatra yigʻilib daryo boʻlur.

Oshning taʼmi tuz bilan, odam yaxshisi soʻz bilan.

Aytar soʻzni ayt, aytmas soʻzdan qayt.

BILIB OLING!

Oʻzbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan. Hududi 447 ming 400 kv. km. Aholisi 28 mln. dan ortiq. Poytaxti — Toshkent shahri. Oʻzbekiston Respublikasida 12 ta viloyat va 1 ta avtonom respublika bor. Ular bayrogʻimizda 12 ta yulduz shaklida tasvirlangan. Har bir viloyatning oʻz markazi boʻlib, ular Markaziy Osiyodagi eng katta shaharlar hisoblanadi. Bular: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Fargʻona, Andijon, Namangan, Qarshi, Termiz, Navoiy, Guliston va Urganch shaharlaridir.

2- mavzu: OʻZBEK TILIDA SOʻZ TARKIBI

(Sostav slova v uzbekskom yazyke)

Soʻzlar tarkibiga koʻra asos va qoʻshimchalarga boʻlinadi. Asos soʻzning asosiy lugʻaviy maʼnosini bildiradi. Qoʻshimchalar esa faqat asosga qoʻshilib maʼno ifodalay oladi. Ular bildiradigan maʼnolariga koʻra 2 turga boʻlinadi: soʻz yasovchi va shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar yangi lugʻaviy maʼno ifodalovchi

2. Bilim baxt keltirar. Bilimli kishi o‘zar, bilimsiz kishi to‘zar. Bilog‘on odamlarning so‘z, nasihatlaridan foydalan.

12- mashq. Berilgan so‘zlardan asosdosh so‘zlar yasang, so‘ngra ular-dan ot, sifat va fe‘l shakllarini hosil qilib, har qaysisini alohida guruhlarga ajratib yozing.

Gul, qalam, bil, yoz, aql, suv, ish, shifo, huquq, o‘qi.

13- mashq. Berilgan so‘zlardagi so‘z yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang va daftaringizga har birining chizmasini chizing.

Gulchi, soatsoz, O‘zbekiston, oshpaz, bog‘bon, zargar, sinfdosh, huquqshunos, shifokor, etikdo‘z.

14- mashq. Matnni diqqat bilan o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Hayot murakkab, lekin lazzatli. Inson hayoti egri-bugri, past-baland yo‘llardan, xursandchilik va tashvishlar, salomatlik va bemorlikdan, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikdan, yaxshi va yomon kunlardan iboratdir. Inson har qanday holatda ham yonida o‘ziga yaqin insonlar: ota-onasi, qarindosh-urug‘lari bilan bir qatorda, do‘stlarining turishini ich-ichidan xohlaydi. Do‘st deb bilgan kishisi yonida turganining o‘ziyoq insonga quvonchli kunlarda olam-olam shodlik, qayg‘uli kunlarda esa bir dunyo tasalli beradi, ma‘naviy madad baxsh etadi.



Topshiriqlar

1. Har bir so‘zni asos va qo‘shimchalarga ajratib chiqing.
2. Avval asosdosh so‘zlarni yozib chiqing, so‘ng boshqa so‘zlardan ham asosdosh so‘zlarni hosil qiling.

QIZIQARLI GRAMMATIKA MASHQLARI

Berilgan topishmoqlarni to‘g‘ri yechsangiz, o‘zbek tilidagi ayrim so‘zlar bilan tanishib olasiz.

Tovush emas, harf emas,
Tanho anglatmas ma‘no
Asoslarga qo‘shilib
Bildirar yangi ma‘no.

So‘zga yangi ma‘no bag‘ishlar
Yangi ma‘no, jilo bag‘ishlar
Nimaligin donolar topsin,
Misol bilan ham isbotlasin.

Terma, terim, terimchi
Qanday soʻzlar toping-chi?
Asos bilan yasovchi
Qoʻshimchadan iborat
Misol boʻladi „Suvchi“,
Nomi nima toping-chi?

15- mashq. Matndan asosdosh soʻzlarni toping. Yana qaysi soʻzlardan asosdosh soʻzlar hosil qilish mumkin? Daftaringizga yozib chiqing.

OʻZBEK XALQI — BOLAJON XALQ

Oʻzbeklarda „Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor“ degan maqol bor. Oʻzbek oilalari serfarzand boʻladilar. Oiladagi farzand ulgʻayib voyaga yetishi, ularni uyli-joyli qilish, kelin-kuyov, nabiralar koʻrish har birimizning orzu-istagimizdir. Oilada toʻngʻich farzand oʻzidan keyingi uka-singillarini katta qilishga yordam beradi. Oʻrtancha farzandlar va eng kichigi — kenjatoylar katta opalari yoki akalariga ergashib katta boʻladilar. Shu tarzda aka, uka, opa, singillar bir-birlariga mehri, gʻamxoʻr boʻlib boradilar.

Oʻzbek tilida soʻzlar ikki xil usul bilan yasaladi:

1. Morfologik usul. 2. Sintaktik usul

Morfologik usulda soʻzlar oʻzakka soʻz yasovchi affikslar qoʻshish orqali yasaladi. Masalan: *ish + chi — ishchi (ot)*

gul + la — gulla (feʼl)

kuch + li — kuchli (sifat)

mard + ona — mardona (ravish)

Bunday soʻzlar sodda yasama soʻzlar deyiladi. Oʻzbek tili soʻz yasovchi affikslarga juda boy. Soʻz yasovchi affikslar odatda oʻzakdan keyin qoʻshilib soʻz negizini hosil qiladi va koʻpincha bir oʻzakdan bir necha soʻzlar yasaladi. Bunday soʻzlar oʻzakdosh soʻzlar deyiladi. Masalan: *ishchi (ot)*, *ishsiz (sifat)*, *ishla (feʼl)*

Ushbu soʻzlarning oʻzagi *-ish*, *-chi*, *-siz*, *-la* affikslari soʻz yasovchi affikslardir. Sintaktik usulda birdan ortiq oʻzaklar qoʻshilib, yangi soʻz yasaladi. Masalan: *koʻz + oynak, beshik + tervatar, asta-sekin* kabi. Bunday soʻzlar qoʻshma yoki juft soʻzlar deyiladi. Juft va takroriy soʻzlar ikki soʻzning juftlashishidan hosil boʻlib, tarkibiga koʻra quyidagi tuzilishga ega boʻladi:

18- mashq. Berilgan soʻzlardan juft soʻzlar hosil qiling va maʼnolarini rus tiliga oʻgʻirgan holda tushuntiring.

Namuna: oʻgʻil va qiz — oʻgʻil-qiz

Katta va kichik, asbob va uskuna, kampir va chol, kun va tun, ota va ona, soya va salqin, kelish va borish, oldi va berdi, oldi va sotdi.

19- mashq. Mashqni davom ettiring.

Daryo nomlari: Sirdaryo, Oqdaryo, Qoradaryo ...

Joy nomlari: Chuqursoy, Kengsoy, Oqtepa ...

Shaxs nomlari: Gulchehra, Manguberdi ...

Narsa-buyum nomlari: teshikkulcha, tokqaychi ...

ESHITISH MASHQI

„Oʻzbekiston daryolari“ matnini diqqat bilan tinglang. Matndagi soʻzlarni jadvalga mos holda yozib boring va tuzilishini izohlang. Matnni davom ettiring.

OʻZBEKISTON DARYOLARI

Oʻzbekiston Oʻrta Osiyoda joylashgan. Oʻrta Osiyo qadimiy vaqtlarda Movarounnahr deb atalar edi. Bu ikki daryo oraligʻi degan maʼnoni bildiradi. Bu daryolar Sirdaryo va Amudaryo boʻlib, ular Oʻzbekiston hududidan oqib oʻtadi va Orol dengiziga borib quyiladi. Bulardan tashqari, Oʻzbekistonda yana Chirchiq, Zarafshon, Oqdaryo, Qorasuv, Boʻzsuv kabi daryolar va anhorlar ham bor. Bizning shahrimiz yaqinidan...

Sodda	Yasama	Qoʻshma	Juft
<i>daraxt</i> <i>qalam</i>	<i>daraxtzor</i> <i>qalamkash</i>	<i>qoʻlqop</i> <i>gulqaychi</i>	<i>qozon-tovoq</i> <i>bola-chaqa</i>

20- mashq. Nuqtalar oʻrniga mos keladigan soʻzlarni qoʻyib koʻchiring.

Namuna: yer ... — yer-suv

issiq —, yosh —, koʻrpa —, — chu-chuk, — ulov, — qoʻzi, togʻ —, baland—, — singil, — yorti.

21- mashq. Avval sodda soʻzlarni, keyin qoʻshma soʻzlarni koʻchiring. Har bir soʻzning tarkibini tushuntirib bering va chizmasini chizing.

Qo'shma so'zlarni qo'shib yoki ajratib yozilishiga ko'ra 2 ustunga bo'lib ko'chiring. Yozilishini esda tuting.

1. Tartibli, tartibbuzar, bodomzor, kuchsiz, otboqar, uzumzor, tepalik, tog'uzum, yaxshilik.

2. Oqdaryo, O'rta Osiyo, oqqush, o'rinbosar, sheryurak, atirgul, qirqog'ayni, yeryong'oq, har kim, Beldirsoy, Yunusobod, tarjimai hol

22- mashq. Matnni o'qing. Matndagi so'zlarni sodda, yasama, qo'shma, juft so'zlarga ajrating va yasalishini aniqlang.

Kamtarlik insonga xos eng go'zal fazilatlardan biridir. Kamtar deganda ko'z oldimizda mehnatsevar, xushmuomala, xushfe'l, kamgap, shirinso'z, rostgo'y kishi namoyon bo'ladi. Kamtar inson katta-kichikni doimo hurmat qiladi. U oddiy va ozoda kiyinadi, ortiqcha pardoz-andozlarga berilmaydi.

Kamtar kishi odobli, yaxshi xulqli bo'ladi, ota-onasi, qarindosh-urug'lari, do'st-birodarlari bilan suhbatlashganda, bahsmunozaralarda hech qachon qo'pollik qilmaydi, ular orasida doimo obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Shuning uchun xalqimiz orasida „Kamtariga kamol, manmanga zavor“ degan naql bor.

23- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring. O'zbek tilidagi joy nomlarining rus tilida berilishini kuzating va daftaringizga to'g'rilab ko'chiring. Qo'shma otlarning yozilishiga e'tibor bering.

Аральское море — уникальное озеро между крупных пустынь Средней Азии — Каракумов, Кызылкума, Устюрта, Приаральских Каракумов. Среди озёр земного шара Арал по величине занимает четвёртое место после Каспийского, Верхнего озера в Северной Америке и Виктории в Африке.

В последнее время Аральское море стало мелеть. Очень много воды забирают для народного хозяйства из Амударьи и Сырдарьи. Учёные давно предсказали, что Аральское море будет мелеть. Но никто не знал, что вокруг Арала начнётся опустынивание. Судьбой Арала стали заниматься учёные. Сейчас все знают, что очень важно сохранить уровень Арала.



Savollarga javob bering

1. Orol fojiasi haqida yana nimalarni bilasiz?
2. Orolbo'yi mamlakatlari ushbu fojining oldini olish uchun nimalar qilmoqdalar?
3. Siz suvning qadriga yetish deganda nimani tushunasiz?



AMIR TEMUR

Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aql-u idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Imon-e'tiqodli, halol, pok inson bo'lib yetishdi. U yoshligidan boshlab o'z oldiga ona yurtini mo'g'il bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi.

Amir Temur davlat qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharq va G'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilm-u fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takomilga yetdi. Shuning uchun uni „Buyuk sohibqiron“ deb ataydilar. Amir Temurning madaniyat va din ahllariga ko'rsatgan cheksiz mehr-muruvvati ayniqsa ibratlidir.



Savollarga javob bering

1. Amir Temur nima uchun buyuk sohibqiron deb ataladi?
2. Amir Temur vatanimizni kimlardan ozod qilgan?
3. Amir Temur davrida qurilgan me'moriy obidalardan qaysilarini bilasiz?
4. „Mustaqil o'qish“ qismidan Amir Temur haqida berilgan ma'lumotni o'qing va u haqida so'zlab bering.

Amir Temur o'gitlarini yod oling!

- Kuch adolatdadir.
- Yaxshi odam yurt tuzar, Yomon odam yurt buzar.
- Yaxshini yomon kunda sina.
- Bugungi ishni ertaga qoldirma.
- Aqlli dushman nodon do'stdan yaxshiroq.
- Odamlarga ishon, ammo shubha qil.
- Menda biror kimsaning haqi bo'lsa, haqini hech vaqt unutmadim.

- Biror kimsa bilan tanishgan bo'lsam, uni hech vaqt nazardan qoldirmadim.
- Chin do'st uldirki, do'stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

BILIB OLING!

O'zbekiston hududidan 2 katta daryo: Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi. Bu daryolar O'zbekistonning eng asosiy suv havzalari bo'lib, har ikkisi ham Orol dengiziga borib quyiladi. Shuningdek, mintaqada Tyan-shan, Oloy, Chotqol, Chimyon, Boysun tog' tizmalari, Qizilqum, Qoraqum, Mirzacho'l, Yozyovon kabi cho'llar ham bor. O'zbekiston serhosil yerlari, yashil vodiylari bilan mashur. U Markaziy Osiyodagi dehqonchilik bilan shug'ullanadigan eng katta respublikadir.

3- mavzu: O'ZBEK TILIDA GAP TUZILISHI (Структура предложения в узбекском языке)

O'zbek tilida gaplar asosan 3 ta bo'lakdan tashkil topadi. Bular bajaruvchi shaxs yoki predmet, harakat yo'nalgan shaxs yoki predmet va harakat-holatni bildiruvchi bo'laklar bo'lib, ularni logik jihatdan subyekt, obyekt va predikat deb, grammatik jihatdan esa ega, to'ldiruvchi yoki hol va kesim deb ataymiz. Masalan:

	SUBYEKT	OBJEKT	PREDIKAT
Masalan:	<u>Anvar</u>	<u>kitob</u>	<u>o'qidi.</u>
	<u>Nargiza</u>	<u>uyiga</u>	<u>ketdi.</u>

O'zbek tilida gap tuzilishida gap bo'laklari asosan quyidagicha joylashadi: ega gapning boshida, kesim gapning oxirida keladi, obyektни bildiruvchi so'zlar esa o'rtada joylashadi va kesimga bog'lanadi. Ushbu bo'laklar aniqlanishi kerak bo'lsa, aniqlovchi va holning boshqa turlari qo'llaniladi. Ular qaysi bo'lakni aniqlab kelayotgan bo'lsa, o'sha bo'lakdan oldin yoziladi. Masalan:

A'lochi talabalar ilmiy anjumanda yaxshi qatnashdilar.

O'zbek tilida subyekt va obyektlar asosan ot, olmosh yoki otlashgan so'zlar bilan, predikat — kesim esa fe'l va fe'l shakllari. ba'zi hollarda ot yoki otlashgan so'zlar bilan

Grammatika

ifodalanadi. She'riy asarlarda, maqollarda gap bo'laklari-ning tartibi o'zgarishi mumkin. Masalan: *Ko'p ertak eshitgandim, So'ylab berardi buvim.*

24- mashq. Gaplarni namunadagidek kengaytirib yozing.

Namuna: O'lkamizga go'zal bahor keldi.

Bahor keldi. Tabiat uyg'ondi. Quyosh nurlarini sochdi. Yerni ko'm-ko'k maysalar qopladi. Daraxtlar ko'kardi. Gullar ochildi. Qushlar uchib keldi.

25- mashq. Maqollarni o'qing va mazmunini tushuntiring. Qaysi gaplarda gap bo'lagi tartibi o'zgartirilganini aniqlang.

Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo'lar chiroyli.
Hunar bo'lsa qo'lingda,
Non topilar yo'lingda.
Tilingda bo'lsa boling,
Kulib turar iqboling.

26- mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. O'zbek va rus tillaridagi gap bo'laklarining tartibini qiyoslang.

КОВУН САЙЛИ

Узбекская земля — родина ароматных и сладких дынь. Здесь отмечается традиционный народный праздник Ковун сайли — праздник дынь — с древних времён. На Востоке отмечался он всегда с широким размахом. Праздник дынь отмечается во всех городах и кишлаках Узбекистана. Бахчеводы Сырдарьинской области, например, отправляют свои знаменитые мирзачульские дыни в города своей области, в столицу республики. Особенно радуются этому празднику люди, живущие в больших и шумных городах, потому что ароматная и спелая дыня наполняет сердца людей радостью, дарит им частичку природы.

27- mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Matnni do'stlik haqidagi maqollar bilan asoslab qayta so'zlab bering.

Дружба — это самые светлые отношения между людьми. У каждого человека должен быть хотя бы один преданный друг. Мы часто заблуждаемся, думая, что у нас много друзей. Прочность дружбы познаётся в беде. Настоящий друг может помочь не только делом, но и словом. Дружба часто про-

веряется временем и расстоянием. Где есть дружба, там самое тяжёлое становится лёгким. Когда друзья вместе, любая работа им по плечу. В дружбе проявляются такие качества человека, как преданность, честность, открытость, ответственность и верность.

28- mashq. Ushbu rivoyat matnini o‘qing va matn mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan so‘zlab bering.

TOSHDAN QATTIQ PAXTA

Bir rivoyatda aytilishicha, bir begunoh odamni tutib olib, sazoyi qiladigan bo‘lishibdi. Uni daraxtga bog‘labdilar, nazoratchilar qarab turishibdi. Birov kelib yuziga tupuribdi, birov kesak otibdi, birov tosh otibdi. Olomon ichida uning eng yaqin sirdosh do‘sti ham bor ekan. Do‘stida gunoh yo‘q, tuhmatga uchraganligini bilar ekan. Bekordan bekorga sazoyi qilinmoqda. Nima qilishini bilmabdi. Do‘stining sazoyi qilinishida qatnashmaslikning ham iloji yo‘q. Biroq do‘stini na urusha olmabdi, na unga tosh ota olmabdi. Nima qilishini bilmay, chophonining etagidan chigitday paxtani sug‘urib olib, do‘stiga qarab otibdi. Shunda, har xil so‘kish, haqoratlarga, tosh va kesaklarga bardosh berib turgan do‘sti jinday paxta yuziga tekkanda „dod“ deb hushidan ketgan ekan. Chunki uni do‘sti otdi-da!

29- mashq. Yuqoridagi matndan foydalanib, do‘stlik to‘g‘risida ijodiy matn tuzing.

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan tinglang va tayanch so‘zlarni yozib boring. So‘ngra ushbu so‘zlarning ma‘nosini sharhlagan holda matnni qayta tiklang.

Yoshi katta odam bilan yoshi kichik odam uchrashsa, albatta, kichigi birinchi bo‘lib salom beradi. Lekin qo‘l uzatish hamisha kattadan. Odamlar to‘plangan xonaga kirsangiz, bunda, shubhasiz, siz salom berishingiz shart. Bir kishi oldiga ikkinchi kishi kelsa, albatta, kelgan kishi salom beradi. Aslida esa kamtar, odobli kishi qachon men salom berishim kerag-u, qaysi paytlarda boshqalar menga salom berishi lozim deb o‘ylamaydi. Bunday kishilar birinchi bo‘lib salom beraveradilar. Bu yaxshi odat qadimdan insoniylik ziynati hisoblanadi.

Ariza — muayyan tashkilotga yoki biror shaxs nomiga iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjatdir. Eng keng tarqalgan va ko‘p ishlatiladigan ish qog‘ozi bo‘lib, barcha idoralarga yozilishi mumkin.

30- mashq. Ariza namunasini o'qing. Arizada qo'llanadigan nutqiy qoliplar va zaruriy qismlarning joylashishiga e'tibor bering.

O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti rektori

_____ga
Toshkent shahar Yunusobod tumani
19- daha 21- uy 5- xonadonda
yashovchi fuqaro
Sardorbek To'rabek o'g'lidan

ARIZA

Menga O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga kirish uchun tanlov imtihonlarida qatnashishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Arizaga quyidagi hujjatlarimni ilova qilaman:

1. Akademik litseyni bitirganligim to'g'risida guvohnoma.
2. Tug'ilganligim haqidagi guvohnomaning ko'chirilgan nusxasi.
3. Sog'lig'im haqida ma'lumotnoma.
4. Tavsifnoma.

sana

(imzo)

31- mashq. Namunadan foydalanib, nuqtalar o'rnini zarur so'zlar bilan to'ldirgan holda o'qishga kirish, ta'tilga chiqishga ruxsat so'rab ariza yozing. Tinish belgilarining qo'yilishi, joy nomlari hamda bosh harflarning yozilishiga e'tibor bering.

.....
kimga?

.....
kimdan?

ARIZA

1. Men sizdan ... (nimani?) ... so'rayman.
2. Menga (nimaga?) ruxsat berishingizni so'rayman.

sana

(imzo)

O'zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahridir. Toshkent viloyati respublikaning shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, hududi 15 ming 600 kv.km. Viloyat tarkibiga 15 ta tuman va 17 ta shahar kiradi. Toshkent shahri 1930- yildan beri O'zbekiston poytaxti hisoblanadi. Uning hududi 300 kv.km., aholisi 2500 mln. dan ortiq. Toshkent Markaziy Osiyodagi eng katta shahar va ilm-fan, sanoat markazidir.



Adabiy o'qish

Muhammad Yusuf

VATANIM

Men dunyoni nima qildim.

O'zing yorug' jahonim,

O'zim xoqon,

O'zim sulton.

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg'izim,

Yagonam deymi,

Toppingan koshonam deymi.

O'zing mening ulug'lardan

Ulug'imsan, VATANIM...

Shodon kunim gul otgan sen,

Chechak otgan izimga,

Nolon kunim yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga,

Singlim deymi.

Onam deymi,

Hamdard-u hamxonam deymi,

Oftobdan ham o'zing mehri

Ilig'imsan, VATANIM...

Sen Xo'jandsan,

Chingizlarga

Darbozasin ochmagan,

Temur Malik orqasidan

Sirdaryoga sakragan.

Muqannasan qorachig'i
Olovlarga sakragan,
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon
Cho'lig'imsan, VATANIM...

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin—Kurdistonda,
Boburing Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb,
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to'qson olti
Urug'imsan, VATANIM...

O'g'lim desam osmonlarga
G'irotda bo'lib uchgayman,
Chambil yurtida Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdagi
So'lig'imsan, VATANIM...

Sen — shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chirog'im,
Ota desam,
O'g'lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo'ynimdagi iftixorim,
Bo'ynimdagi tumorim,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, VATANIM!



Savol va topshiriqlar

1. Muhammad Yusuf kim? Siz uning yana qanday she'rlarini bilasiz?
2. She'rdagi nomlari tilga olingan tarixiy shaxslar haqida so'zlab bering.
3. Mustaqil o'qish qismidan Muhammad Yusuf tarjimai holini o'qib, so'zlab bering.

SUBYEKTNI IFODALASH

4- mavzu: SUBYEKTNI SHAXS VA KASB OTLARI VOSITASIDA IFODALASH

(Выражение субъекта названиями лица и профессии)

Грамматика

Subyekt harakatning bajaruvchisi bo'lib, **kim? kimlar? nima? nimalar?** so'roqlariga javob bo'ladi va gapda ega vazifasini bajaradi. Bunday so'zlar bosh kelishik shaklida qo'llanadi.

Masalan: Paxta (nima?) ochildi. Dalalarda terimchilar (kimlar?) paxta termoqdalar.

Kim?


Otam — muhandis.

Onam — shifokor. Biz o'z kasbimizni sevamiz.

Men — o'qituvchiman.

Subyekt shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o'rin-joy va mavhum otlar, olmoshlar va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi.

Otlarning yasalishi



Kim? (Kimlar?)

Ishchilar
O'qituvchi
Bog'bon
Dehqon

Ular ishlayaptilar.

Har kim ham o'qituvchi bo'la olmaydi.

U bog'lar, gulzorlar barpo qiladi.

Hech kim dehqonchalik ko'p ishlamaydi.

Bular — shaxs otlari. Bular — olmoshlar.

Shaxs otlari tub va yasama bo‘la oladi. Yasama otlar quyidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yasaladi:

-chi	ishchi	(ish-chi)
-kor	shifokor	(shifo-kor)
-bon	bog‘bon	(bog‘-bon)
-dor	amaldor	(amal-dor)
-soz	soatsoz	(soat-soz)
-gar	zargar	(zar-gar)
-kar	miskar	(mis-kar)
-do‘z	etikdo‘z	(etik-do‘z)
-shunos	tilshunos	(til-shunos)
-dosh	sinfdosh	(sinf-dosh)

32- mashq. Berilgan so‘zlardan tub va yasama shaxs otlarini alohida guruhlarga bo‘lib ko‘chiring. Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.

Dehqon, san‘atkor, baliqchi, dengizchi, hamshira, xonanda, shifokor, aloqachi, chorvador, soatsoz, havaskor, o‘qituvchi, talaba, savdogar, muharrir, tabib, qo‘shiqchi, shoir, sohibkor, muhandis, rassom, chizmakash, haydovchi, oshpaz, quruvchi, huquqshunos, darvozabon, zargar, tilshunos.

33- mashq. Berilgan so‘zlardan shaxs otlari hosil qiling va har biringning lug‘aviy ma‘nosini tushuntiring.

Namuna: Tarbiya — tarbiyachi (tarbiya ishi bilan shug‘ullanadigan shaxs)

Zar, o‘lka, non, bo‘yoq, darvoza, kimyo, musiqa, osh, samsa, gul, poda, dor, kabob.

34- mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan fe‘llarga mos shaxs otlarini topib, yig‘iq gaplar tuzing.

Kim? (kimlar?)	Nima qiladi?
.....	davolaydi
.....	teradilar
.....	tekislaydi
.....	randalaydi
.....	shug‘ullanadi
.....	pishiradi
.....	tikadi
.....	yozadilar
.....	boqadilar
.....	quradilar

35- *mashq*. Shoir Hamid Olimjonning „O‘zbekiston“ she‘ridan berilgan parchani o‘qing. Shaxs otlarini aniqlab, yasalishini izohlang.

Shoirlari g‘azal yozadi,
Kuychilari o‘qiyladi yalla,
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.

36- *mashq*. Matnni o‘qing. Qaysi so‘zlarni olmoshlar va unga sinonim so‘zlar bilan almashtirish mumkin?

Mening Vatanim O‘zbekistondir. O‘zbekiston — quyoshli o‘lka, shuning uchun O‘zbekistonning yeri oltin, havosi beg‘ubor, suvi shirindir. O‘zbekistonning so‘lim bahori, jazirama yozi, serhosil iliq kuzi, kumush qishi insonning ko‘ngliga quvonch bag‘ishlaydi. O‘zbekistonning xalqi ulug‘vor, buyuk, donishmanddir. O‘zbekiston boylikka kon diyor. O‘zbekistonning bitmas-tuganmas zaxiralari bizning faxrimiz. O‘zbekistonning tilni yorar qovuntarvuzlari, xushta‘m olma-yu anorlari, uzumlari jahonga mashhurdir. Bugungi kunda O‘zbekiston kelajakka ishonch bilan qadam tashlamoqda va jahonga yuz tutmoqda.

37- *mashq*. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. O‘zbekcha joy nomlarining rus tilida aytilishi va yozilishiga e‘tibor qiling hamda to‘g‘ri shaklda daftaringizga ko‘chiring. O‘zbekcha so‘zlarda urg‘uning qo‘yilishiga e‘tibor bering.

В старом Ташкенте были целые кварталы ремесленников, которые именовались по названиям ремёсел: Эгарчи (квартал мастеров седла), Такачи (кузнецы), Пичокчи (изготовители и инкрустаторы ножей), Укчи, Дуторчи и т. д. Нахождение целого квартала людей одного ремесла создавало здоровую конкуренцию. Обязательным элементом города было нахождение базаров у городских ворот. На этих базарах торговали с раннего утра. С наступлением полудня базар прекращал свою работу, и крестьяне, привозившие свою продукцию, расходились по домам.

Yodda tuting!

Bu — xato!

Uzbekistan
Tashkent
Samarkand
Buxara
Xarezm

Bu — to‘g‘ri!

O‘zbekiston
Toshkent
Samarqand
Buxoro
Xorazm

Fergana	Fargʻona
Kashkadarya	Qashqadaryo
Termez	Termiz
Kokand	Qoʻqon
Navai	Navoiy
Djizak	Jizzax
Margelan	Margʻilon

38- mashq. „Mening koʻcham, mahallam, shahrim nomi“ mavzusida kichik ijodiy insho yozing.

Oʻzbek tilida turli kasb-hunarni bildirish uchun mavhum ot yasovchi **-lik**, **-chilik** affiksleri qoʻshiladi. Masalan: *paxtachilik, tikuvchilik, dehqonchilik, savdogarchilik* kabi.

Bular shaxs otlari:

oʻqituv**chi**

shifok**or**

suv**chi**

usta

Bular kasb otlari:

oʻqituvch**ilik**

shifokor**lik**

suvch**ilik**

ustach**ilik**

zargar

zargar**chilik**

39- mashq. Quyidagi soʻzlardan kasb-hunarga oid soʻzlar yasang. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarning tagiga chizing.

Sanʼat ... oila

Somsa ... yigit

Terim ... qiz

Tarix ... olim

Soat ... usta

Etik ... amaki

Temir ... togʻam

Paxta ... doʻstim

40- mashq. Berilgan shaxs otlaridan foydalanib gaplar tuzing.

Namuna: Men talabaman. Xolam — tikuvchi. Siz filologsiz.

Chevar, tilshunos, haydovchi, muhandis, sardor, sotuvchi, xaridor, hamshira, shifokor, farrosh, zargar, konchi, toʻqimachi, oshpaz, talaba, ip yigiruvchi.

41- mashq. Matnni diqqat bilan tinglang. Soʻng ovoz chiqarib oʻqing va topshiriqlarni bajaring.

ESKI SHAHAR

Toshkentning eng gavjum va markazi boʻlgan eski shaharda katta bozor joylashgan. Oʻzbekistonning barcha viloyatlaridan, hatto chet ellardan kelgan mehmonlar, albatta, bu yerga kelmay ket-

maydilar. Bozorga kiraverishda kishini o‘ziga jalb qiluvchi qator savdo rastalari bor. Bu hunarmandlar rastalari bo‘lib, u beshikchilar rastasidan boshlangan. O‘zbek xalqi serfarzand xalq bo‘lgani sababli har bir xonadonda, albatta, beshik bo‘ladi. Beshikchilik qadimdan juda rivojlangan. Beshikchilar rastasi qatorida zargarlar rastasi joylashgan. Bu yerdan siz turli-tuman mo‘jizakor jilvalar bilan yasalgan zeb-u ziynatlarni: zirak, uzuk, tillaqosh, bilak-uzuklarni ko‘rasiz. Bu san‘at durdonalarini faqatgina toshkentliklar emas, balki chet ellik mehmonlar ham ko‘rgani keladi. Zargarlik do‘konlaridan so‘ng miskarlik va temirchilik rastalari boshlanadi. Bu yerda ketmon, belkurak, tasha, o‘roq, pichoq, chovli, xokandoz kabi turli uy-ro‘zg‘or anjomlari sotiladi va ta‘mirlanadi. Ushbu rastalarning qarama-qarshi tomonida esa o‘zbek milliy choponlari, zardo‘zlik buyumlari sotiladi.



Topshiriqlar

1. Matndan shaxs va kasb otlarini aniqlang va 2 guruhga ajratib yozing.
2. Matndagi otlardan avval shaxs otlari, so‘ngra kasb otlarini hosil qiling.

42- mashq. Matni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling. Shaxs otlari va kasb otlarini aniqlang va ularning o‘zbek tilidagi talaffuz va imlosiga e‘tibor bering.

ЗНАЕТЕ ЛИ ВЫ?

Врачевание в Средней Азии являлось очень древней и почётной профессией. Врачи — табибы передавали свои знания из поколения в поколение. Каждый табиб занимался узкой специализацией, были такие, как табиб — лечащий травами, суяк солувчи — костоправ и другие. Больные в зависимости от своей болезни ходили к тому или иному табибу. Врачами назначалась диета для больных. Многие из приёмов лечения используются и по сей день.

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan eshiting. Turli kasb-hunar va narsa-buyum otlarini ikki ustunga ajratib yozib boring. So‘ngra ularni tahlil qiling.

Gulchilar guli bilan,
Olim usuli bilan,
Ishchi mahsuli bilan,
Shoirilar she‘ri bilan,

Gilamdo‘z gilam bilan
O‘quvchi qalam bilan.
Xonanda maqom bilan,
Oshpazlar taom bilan,
Bog‘bonlar uzum bilan
Konchi qora gavhar-la
Paxtakorlar oq zar-la
„Labbay“, deydi Vatan da‘vatlariga
Savlat qo‘shib, el-u yurtning savlatlariga.

BILIB-OLING!

Toshkent viloyati respublikamizdagi aholi eng zich joylashgan hududdir. Bu yerda respublika aholisining deyarli chorak qismi — 3425 ming kishi yashaydi. Toshkent viloyatida Chirchiq, Olmaliq, Angren, Ohangaron, Bekobod, Yangiyo‘l, Yangiobod, Piskent, G‘azalkent, To‘ytepa, Chinoz, Bektemir kabi 10 dan ortiq shaharlar mavjud.



Adabiy o‘qish

NAQQOSHLIK VA TASVIRIY SAN‘AT

Qadimiy Sharqda naqqoshlik va o‘ymakorlik san‘ati juda rivojlangan edi. IX — XII asrlarda binolarni turli naqshlar bilan bezash juda keng tarqaldi. O‘sha davrlarda ustunlar, eshiklar va boshqa yog‘och buyumlarga o‘yib naqsh solish rasm bo‘lib, bu o‘ymakorlik san‘atini vujudga keltirdi. Bunday naqshlar devorlarga, idish-tovoqlarga ham tushira boshlandi. Shuningdek, naqsh bilan birgalikda, rasm chizish ham rivojlana boshlandi. Jumladan, Afrosiyobdagi binolardan birining devoriga kishilarning surati solingan. Samarqandning Registon maydonidagi Sherdor madrasasi peshtoqlaridagi sher tasviri ham bundan dalolat beradi. Umuman, naqqoshlik, o‘ymakorlik va tasviriy san‘at Sharqda binokorlik bilan barobar rivojlandi. Hozirgi kunda mamlakatimizda saqlanib qolgan barcha me‘morchilik obidalari bundan dalolat beradi. Sharq me‘morchiligining durdonalari bo‘lgan Ulug‘bek madrasasi, Go‘ri Amir maqbarasi, Sherdor, Tillakori madrasalari, Bibixonim masjidi, Ko‘kaldosh madrasasi, Xiva shahridagi betakror obidalar naqsh va o‘ymakorlik san‘ati bilan hozirgi kungacha butun jahon ahlini hayratga solib kelmoqda.

Xuddi shuningdek, kulolchilik ishlarida ham sharq san'ati yaq-qol ko'rinadi. Sirlangan va sirlanmagan sopol idishlarni yasash, ayniqsa, Samarqand, Toshkent va Zarafshon vodiysida juda keng rivojlangan. Ustalar qadimdan sirlangan idishlarga rangli bo'yoqlar bilan turli naqshlar va gullar solib bezaganlar. Bu san'at keyinchalik chinnisozlik sanoatida ham qo'llana boshlandi. Naqsh san'ati zardo'zlik kasbiga ham kirib bordi. Buxoro zardo'zlarining do'ppilari, turli kiyim-kechaklar, palaklarida, Xiva gilamlarida qadimiy naqsh san'ati hozirgacha saqlanib qolgan.



Topshiriqlar

1. Matndan kasb otlarini aniqlang va ularning yasalishini tushuntiring.
2. Ushbu kasb-hunarlar haqida so'zlab bering.

5- mavzu: SUBYEKTNI NARSA-BUYUM VA O'RIN-JOY OTLARI BILAN IFODALASH

(Выражение субъекта названиями предметов)

43- *masiq*. Ko'chiring. Narsa-buyum yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing. Ushbu so'zlarni ishtirok ettirib gaplar tuzing.

O'roq, kurak, qisqich, yotoq, kulgi, qiliq, to'siq, guldon, qirg'ich, chizg'ich, elak, suvdon.

Turdosh otlarning ko'pchiligi narsa-buyum otlaridir. Narsa-buyum otlari tub holda ham, yasama holda ham bo'ladi. Masalan:

<i>qalam</i>	<i>taroq</i>
<i>chelak</i>	<i>supurgi</i>
<i>soat</i>	<i>o'chirg'ich</i>
<i>daraxt</i>	<i>suzma</i>
<hr/>	
Bular tub otlardir.	Bular yasama otlardir.

Narsa-buyum otlari so'z yasovchi affikslar yordamida yasaladi. Bunda ba'zan turli tovush o'zgarishlari yuz beradi. Masalan: *tara+q = taroq*, *so'ra+q = so'roq*, *bo'ya+q = bo'yoq*.

O'zbek tilida o'rin-joy nomlari *-zor*, *-kor*, *-don*, *-loq*, *-kent*, *-iston*, *-liq*, *-goh* qo'shimchalari yordamida yasaladi.

Ushbu soʻzlarni bir-biriga qiyoslang va imlosiga eʼtibor bering!

paxtazor
daraxtzor
oʻtloq
Toshkent
Olmaliq
sayilgoh

Qashqadaryo
Mirzachoʻl
Markaziy Osiyo
Yakkasaroy
Qorasuv
Chinobod

Bular sodda yasama otlardir. Bular qoʻshma otlardir.

44- mashq. Berilgan feʼllardan narsa-buyum oti yasang. Ayrim soʻzlarda yuz bergan tovush oʻzgarishlarini tushuntiring.

Boʻyamoq, chopmoq, qirmoq, sovutmoq, qismoq, yelpimoq, supurmoq, elamoq, taramoq, ochmoq.

45- mashq. Matnni oʻzbek tiliga oʻgiring. Narsa-buyum otlarini aniqlab, yasalishini izohlang.

Особое место среди многочисленных видов народного прикладного искусства Узбекистана занимает художественная керамика. Её первые образцы восходят к временам глубочайшей древности. Это блюда — лаганы, сферические чаши — пиалы и касы, вазы, кувшины разнообразных размеров, от огромных до миниатюрных, удобные для употребления и в то же время изысканные по форме. В течение многих веков и по сей день керамические изделия пользуются спросом среди широких масс населения.



Topshiriq

Ushbu buyumlarni qaysi kasbdagi odamlar yasasini bilasizmi?

46- mashq. Matnni oʻqing. Joy nomlarini aniqlab, sodda yoki yasama ekanligini izohlang.

Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, yaʼni Rusiya Pomiridan to Xivaning keng dashtlarigacha choʻzilib boradi. Rusiya bilan Buxoro oʻrtasida boʻlgan urushdan oldin Buxoro shimol tarafdin Qizilqum sahrosi, Gʻarb tarafdin Sirdaryo hamda Hoʻqand xonligi, janubdin Afgʻoniston, Sharqdin turkman oʻlkasi va Xiva dashti bilan chegaradosh. Buxoro aholisining asosiy qismi oʻzbek, turkman, qirgʻiz, qozoq, tojik, yahudiy va arablar-

50- mashq. Yozuvchi Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanidan olingan „Usta Olim hikoyasi“ parchasini o‘qing. To‘quvchilarning avvalgi va hozirgi mehnat faoliyatlari jarayoni haqida gapirib bering.

USTA OLIM HIKOYASI

Men o‘zim asli qo‘qonlikman. Ota-onamdan yoshlikda yetim bo‘lib, tog‘amning qo‘lida o‘sdim. Yoshim 17—18 larga borgandan so‘ng o‘z kunim o‘zimga qolib, bir o‘rtog‘imning kengashi bilan bundan 20 yillar burun to‘quvchilik hunariga shogird tushdim. To‘rt yil chamasi qilgan xizmatimdan so‘ng haligi ustakorga xalfa bo‘lib ishlay boshladim. Boshqa yigitlardek ortiqcha o‘rinsiz sarflarim bo‘lmagani uchun oz zamon ichida to‘rt tilla pullik ham bo‘ldim. Ishimga ixlos bilan qaraganim uchun, mening to‘qigan ishlarim o‘zgalarnikidan qadrli yurar va xalq orasida ham otim „usta Olim kichkina“ bo‘lib shuhratlangan edim. Ma‘lumki, to‘quvchilar oldiga ko‘pincha xotin-qizlar yangi nusxa qidirib keladilar. Mening to‘qigan ishlarim va chiqargan yangi nusxalarim hammaga maqbul, ayniqsa, xotin-qizlar uchun mashhur bo‘lib, har doim to‘quv do‘konim yonidan xotin-qizlar arimas edilar...

Yodda tuting!

Yozuvchilar, mashhur shaxslarning tarjimai hollari odatda III shaxs nomidan yoziladi. Bunday tarjimai hol matnlarining qisqa, kengaytirilgan va ijodiy tarzda yozilgan shakllari bo‘ladi.

51- mashq. Matnni diqqat bilan o‘qing. Tarjimai holning yozilish shakliga e‘tibor qiling.

MAHMUD KOSHG‘ARIY

Mahmud ibn Muhammad Koshg‘ariy XI asrda yashab ijod etgan. Uning hayoti va ijodiyoti haqida yetarli ma‘lumot saqlanib qolmagan. Uning tug‘ilgan va vafot etgan yili ham noma‘lum. Otasi Husayn Koshg‘ardagi Beretan shahridan bo‘lgan. Koshg‘ariylar oilasi Bolosag‘unga (hozirgi Qirg‘izistonning To‘qmoq shahri) ko‘chib kelishganda, Mahmud yosh bola edi. Bo‘lajak olim, tilshunos va insoniyat tarixi madaniyatining ixlosmandi maktabda arab, fors tillarini chuqur o‘rganadi. U xalq yaratgan hikmatli so‘z, maqollarni yod olib yurar edi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar tarixi, tili urf-odatlarini puxta o‘rganish maqsadida butun O‘rta va

Ushbu soʻzlarni bir-biriga qiyoslang va imlosiga eʼtibor bering!

paxtazor
daraxtzor
oʻtloq
Toshkent
Olmalik
sayilgoh

Qashqadaryo
Mirzachoʻl
Markaziy Osiyo
Yakkasaroy
Qorasuv
Chinobod

Bular sodda yasama otlardir. Bular qoʻshma otlardir.

44- mashq. Berilgan feʼllardan narsa-buyum oti yasang. Ayrim soʻzlarda yuz bergan tovush oʻzgarishlarini tushuntiring.

Boʻyamoq, chopmoq, qirmoq, sovutmoq, qismoq, yelpimoq, supurmoq, elamoq, taramoq, ochmoq.

45- mashq. Matnni oʻzbek tiliga oʻgiring. Narsa-buyum otlarini aniq lab, yasalishini izohlang.

Особое место среди многочисленных видов народного прикладного искусства Узбекистана занимает художественная керамика. Её первые образцы восходят к временам глубочайшей древности. Это блюда — лаганы, сферические чаши — пиалы и касы, вазы, кувшины разнообразных размеров, от огромных до миниатюрных, удобные для употребления и в то же время изысканные по форме. В течение многих веков и по сей день керамические изделия пользуются спросом среди широких масс населения.



Topshiriq

Ushbu buyumlarni qaysi kasbdagi odamlar yasasini bilasizmi?

46- mashq. Matnni oʻqing. Joy nomlarini aniqlab, sodda yoki yasama ekanligini izohlang.

Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, yaʼni Rusiya Pomiridan to Xivaning keng dashtlarigacha choʻzilib boradi. Rusiya bilan Buxoro oʻrtasida boʻlgan urushdan oldin Buxoro shimol tarafdin Qizilqum sahrosi, Gʻarb tarafdin Sirdaryo hamda Hoʻqand xonligi, janubdan Afgʻoniston, Sharqdan turkman oʻlkasi va Xiva dashti bilan chegaradosh. Buxoro aholisining asosiy qismi oʻzbek, turkman, qirgʻiz, qozoq, tojik, yahudiy va arablar-

50- mashq. Yozuvchi Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanidan olingan „Usta Olim hikoyasi“ parchasini o‘qing. To‘quvchilarning avvalgi va hozirgi mehnat faoliyatlari jarayoni haqida gapirib bering.

USTA OLIM HIKOYASI

Men o‘zim asli qo‘qonlikman. Ota-onamdan yoshlikda yetim bo‘lib, tog‘amning qo‘lida o‘sdim. Yoshim 17—18 larga borgandan so‘ng o‘z kunim o‘zimga qolib, bir o‘rtog‘imning kengashi bilan bundan 20 yillar burun to‘quvchilik hunariga shogird tushdim. To‘rt yil chamasi qilgan xizmatimdan so‘ng haligi ustakorga xalfa bo‘lib ishlay boshladim. Boshqa yigitlardek ortiqcha o‘rinsiz sarflarim bo‘lmagani uchun oz zamon ichida to‘rt tilla pullik ham bo‘ldim. Ishimga ixlos bilan qaraganim uchun, mening to‘qigan ishlarim o‘zgalarnikidan qadrlı yurar va xalq orasida ham o‘tim „usta Olim kichkina“ bo‘lib shuhratlangan edim. Ma‘lumki, to‘quvchilar oldiga ko‘pincha xotin-qizlar yangi nusxa qidirib keladilar. Mening to‘qigan ishlarim va chiqargan yangi nusxalarim hammaga maqbul, ayniqsa, xotin-qizlar uchun mashhur bo‘lib, har doim to‘quv do‘konim yonidan xotin-qizlar arimas edilar...

Yodda tuting!

Yozuvchilar, mashhur shaxslarning tarjimai hollari odatda III shaxs nomidan yoziladi. Bunday tarjimai hol matnlarining qisqa, kengaytirilgan va ijodiy tarzda yozilgan shakllari bo‘ladi.

51- mashq. Matnni diqqat bilan o‘qing. Tarjimai holning yozilish shakliga e‘tibor qiling.

MAHMUD KOSHG‘ARIY

Mahmud ibn Muhammad Koshg‘ariy XI asrda yashab ijod etgan. Uning hayoti va ijodiyoti haqida yetarli ma‘lumot saqlanib qolmagan. Uning tug‘ilgan va vafot etgan yili ham noma‘lum. Ota-si Husayn Koshg‘ardagi Beretan shahridan bo‘lgan. Koshg‘ariylar oilasi Bolosag‘unga (hozirgi Qirg‘izistonning To‘qmoq shahri) ko‘chib kelishganda, Mahmud yosh bola edi. Bo‘ljak olim, tilshunos va insoniyat tarixi madaniyatining ixlosmandi maktabda arab, fors tillarini chuqur o‘rganadi. U xalq yaratgan hikmatli so‘z, maqollarni yod olib yurar edi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar tarixi, tili urf-odatlarini puxta o‘rganish maqsadida butun O‘rta va

Kichik Osiyoni kezib chiqdi. Uning birinchi asari „Javohir un- nahv fi lug‘ati turk“ („Turkiy tillarning yetakchi durdonalari“) hozirgacha topilmagan. 1076—77- yillarda yozilgan „Devon-u lug‘atit turk“ asarida turkiy xalqlarning o‘sha davrdagi lug‘ati jamlangan. Ayni paytda ushbu asarda O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati, ta‘lim-tarbiyasi, urf-odatlarini, rasm-rusumlarining izohi bilan 300 dan ortiq she‘riy parchalar, maqollar va hikmatli so‘zlardan namunalar ham berilgan. „Devon-u lug‘atit turk“ XI asrning eng qimmatli yodgorliklaridan biridir.

52- mashq. Matnni o‘qing. I tovushining talaffuziga va urg‘usiga e‘tibor bering. Avval I tovushi qisqa aytiladigan so‘zlarni, so‘ngra cho‘ziq aytiladigan so‘zlarni ko‘chirib yozing va uning talaffuzini yodda saqlashga harakat qiling.

Insonning ma‘naviy qiyofasi, muomalasi, odob-axloqi, madaniyati uning ona tili orqali namoyon etilishini ota-bobolarimiz yaxshi bilishgan. Shu boisdan ham kishilarni shirin zabon bo‘lishga undashgan. Kishi doimo birinchi navbatda so‘z ma‘nosiga ahamiyat berishi zarur. Ayniqsa ona tiliga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, unga keraksiz so‘zlarni aralash tirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Til mavsumiy libos emaski, ob-havo o‘zgarishiga qarab almashtirilsa. Insonning vatani va ona tili bitta. U ona tilini yaxshi bilgandagina bekam-u ko‘st bo‘lishi mumkin. Shu bois ona tilingizni e‘zozlang.



Savollarga javob bering

1. Nima uchun ota-bobolarimiz shirin zabon bo‘lishga undashgan?
2. Ona tilini e‘zozlash deganda nimani tushunasiz?



Adabiy o‘qish

FARG‘ONA VILOYATI XUSUSIDA

(„Boburnoma“ dan parcha)

Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdir. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Xo‘jand suyg‘a mashhurdir, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar.

Yetti pora qasabasi bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonubida, Janubiy tarafidagi kasabalar biri Andi-

ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi bo'lib, murakkab fe'llar hisoblanadi.

To'liqsiz fe'llar esa faqat o'tgan zamon shakllarini hosil qilishda va bog'lama vazifasini bajarishda qo'llanadi. Ularga *emoq* fe'llining *edi, ekan, emish, emas* shakllari kiradi. Masalan: xursand ekan, talaba edi, bajarayotgan ekan, aytgan emish. Bunda edi aniqlikni, ekan, emish eshitilganlikni, emas inkor ma'nosini bildiradi.

Subyektning harakati yoki holatini bildirishiga ko'ra fe'llarni quyidagicha guruhlash mumkin:

Harakatni bildiradigan fe'llar	Holatni bildiradigan fe'llar	Biologik jarayonni bildiradigan fe'llar
yugurmoq	mudramoq	gullamoq
sakramoq	turmoq	qovjiramoq
ko'tarmoq	o'ylamoq	o'smoq
bukmoq	mulohaza yuritmoq	so'lamoq

53- mashq. Berilgan fe'llarni harakat va holat ma'nosini ifodalashiga ko'ra alohida guruhlarga ajratib yozing.

Ayblamoq, achinmoq, buyurmoq, bag'ishlamoq, olib bor-moq, olib ketmoq, ranjimoq, yaratmoq, suzmoq, bog'lamoq, mudramoq, qizarmoq, uyg'onmoq, nutq so'zlamoq, muyassar bo'lmoq, o'ylamoq, hushdan ketmoq, ko'karmoq, parvarishla-moq, ruhlanmoq, zavqlanmoq.

54- mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni gapning mazmuniga mos shaklda qo'llab, gaplarni ko'chiring.

1. Kutubxonada hayot (qaynamoq). 2. O'qish zalidagi katta stol atrofida bir necha kishi gazeta va jurnal (o'qimoq). 3. Amir Temur muzeyi shahar markazida (joylashmoq). 4. Qirdan g'ir-g'ir sha-bada (esmoq). 5. Daryo suvini bahor (toshirmoq), odam qadri-ni mehnat (oshirmoq). 6. Do'st do'stni kulfatda (sinamoq). 7. Tog' yerdan o'sib (chiqmoq), odam — ota-onadan. 8. Kishiga ikki narsa hurmat (keltirmoq): biri — kamtarlik, ikkinchisi mehnatsevarlik.

55- mashq. O'ng tomondagi fe'llardan chap tomondagi fe'llarning sinonimlarini topib sinonimik qator tarzida yozing va ma'nolaridagi farq-larni tushuntiring.

Kichik Osiyoni kezib chiqdi. Uning birinchi asari „Javohir un- nahv fi lug‘ati turk“ („Turkiy tillarning yetakchi durdonalari“) hozirgacha topilmagan. 1076—77- yillarda yozilgan „Devon-u lug‘atit turk“ asarida turkiy xalqlarning o‘sha davrdagi lug‘ati jamlangan. Ayni paytda ushbu asarda O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati, ta‘lim-tarbiyasi, urf-odatlarini, rasm-rusumlarining izohi bilan 300 dan ortiq she‘riy parchalar, maqollar va hikmatli so‘zlardan namunalari ham berilgan. „Devon-u lug‘atit turk“ XI asrning eng qimmatli yodgorliklaridan biridir.

52- mashq. Matni o‘qing. I tovushining talaffuziga va urg‘usiga e‘tibor bering. Avval I tovushi qisqa aytiladigan so‘zlarni, so‘ngra cho‘ziq aytiladigan so‘zlarni ko‘chirib yozing va uning talaffuzini yodda saqlashga harakat qiling.

Insonning ma‘naviy qiyofasi, muomalasi, odob-axloqi, madaniyati uning ona tili orqali namoyon etilishini ota-bobolarimiz yaxshi bilishgan. Shu boisdan ham kishilarni shirin zabon bo‘lishga undashgan. Kishi doimo birinchi navbatda so‘z ma‘nosiga ahamiyat berishi zarur. Ayniqsa ona tiliga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, unga keraksiz so‘zlarni aralashtirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Til mavsumiy libos emaski, ob-havo o‘zgarishiga qarab almashtirilsa. Insonning vatani va ona tili bitta. U ona tilini yaxshi bilgandagina beqam-u ko‘st bo‘lishi mumkin. Shu bois ona tilingizni e‘zozlang.



Savollarga javob bering

1. Nima uchun ota-bobolarimiz shirin zabon bo‘lishga undashgan?
2. Ona tilini e‘zozlash deganda nimani tushunasiz?



Adabiy o‘qish

FARG‘ONA VILOYATI XUSUSIDA

(„Boburnoma“dan parcha)

Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindir. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Xo‘jand suyig‘a mashhur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar.

Yetti pora qasabasi bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimoli janubida, Janubiy tarafidagi kasabalar biri Andi-

ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi bo'lib, murakkab fe'llar hisoblanadi.

To'liqsiz fe'llar esa faqat o'tgan zamon shakllarini hosil qilishda va bog'lama vazifasini bajarishda qo'llanadi. Ularga *emoq* fe'lining *edi, ekan, emish, emas* shakllari kiradi. Masalan: xursand ekan, talaba edi, bajarayotgan ekan, aytgan emish. Bunda edi aniqlikni, ekan, emish eshitilganlikni, emas inkor ma'nosini bildiradi.

Subyektning harakati yoki holatini bildirishiga ko'ra fe'llarni quyidagicha guruhlash mumkin:

Harakatni bildiradigan fe'llar	Holatni bildiradigan fe'llar	Biologik jarayonni bildiradigan fe'llar
yugurmoq	mudramoq	gullamoq
sakramoq	turmoq	qovjiramoq
ko'tarmoq	o'ylamoq	o'smoq
bukmoq	mulohaza yuritmoq	so'limoq

53- mashq. Berilgan fe'llarni harakat va holat ma'nosini ifodalashiga ko'ra alohida guruhlarga ajratib yozing.

Ayblamoq, achinmoq, buyurmoq, bag'ishlamoq, olib bormoq, olib ketmoq, ranjimoq, yaratmoq, suzmoq, bog'lamoq, mudramoq, qizarmoq, uyg'onmoq, nutq so'zlammoq, muyassar bo'lmoq, o'ylamoq, hushdan ketmoq, ko'karmoq, parvarishlamoq, ruhlanmoq, zavqlanmoq.

54- mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni gapning mazmuniga mos shaklda qo'llab, gaplarni ko'chiring.

1. Kutubxonada hayot (qaynamoq). 2. O'qish zalidagi katta stol atrofida bir necha kishi gazeta va jurnal (o'qimoq). 3. Amir Temur muzeyi shahar markazida (joylashmoq). 4. Qirdan g'ir-g'ir shabada (esmoq). 5. Daryo suvini bahor (toshirmoq), odam qadrini mehnat (oshirmoq). 6. Do'st do'stni kulfatda (sinamoq). 7. Tog' yerdan o'sib (chiqmoq), odam — ota-onadan. 8. Kishiga ikki narsa hurmat (keltirmoq): biri — kamtarlik, ikkinchisi mehnatsevarlik.

55- mashq. O'ng tomondagi fe'llardan chap tomondagi fe'llarning sinonimlarini topib sinonimik qator tarzida yozing va ma'nolaridagi farqlarni tushuntiring.

istamoq	}	qaltiramoq, sevinmoq, taqqoslamoq, shodlanmoq, zo'raymoq, xohlamoq, tilamoq, qiyoslamoq, odatlanmoq, orzu qilmoq, xursand bo'lmoq
ko'nikmoq		
solishtirmoq		
kuchaymoq		
titramoq		
quvonmoq		

56- mashq. O'qing va rus tiliga tarjima qiling. Ko'makchi fe'llarning ma'nolariga e'tibor bering. O'zingiz ham berilgan fe'llar yordamida murakkab fe'llar hosil qiling va ma'nosini tushuntiring.

Namuna: ko'rmoq: ko'rib chiqdi, ko'ra boshladi, ko'rib turdi, ko'rib o'tirdi, ko'rib oldi, ko'rib bo'ldi, ko'rib berdi, ko'rib qoldi, ko'rib qo'ydi, ko'rib ketdi, ko'rib o'tdi, ko'ra boshladi, ko'ra boshlagan edi.

yozmoq —

aytmoq —

o'qimoq —

ko'rsatmoq —

57- mashq. Gaplarni o'qing va ma'nolaridagi farqlarni izohlang. Bunga qaysi so'z sabab bo'lyapti? Matndagi shaxs otlari va kasb otlarini 2 ustunga ajratib yozing.

Shuhrat duradgorlik to'garagiga qatnashar edi. Shuhrat duradgorlik to'garagiga qatnashar ekan. Shuhrat duradgorlik to'garagiga qatnashar emish.

Anvarning akasi etikdo'z ekan. Anvarning akasi etikdo'z emish.

Devoriy gazetaga rasmlarni rassom chizgan edi. Devoriy gazetaga rasmlarni rassom chizgan emish. Devoriy gazetaga rasmlarni rassom chizgan ekan.

O'zbekiston gilamchilik sohasida ham boy o'lka hisoblangan edi. O'zbekiston gilamchilik sohasida ham boy o'lka hisoblangan ekan. O'zbekiston gilamchilik sohasida ham boy o'lka hisoblangan emish.

Kashtachilik o'zbeklar orasida azaldan keng tarqalgan sevimli hunar edi. Kashtachilik o'zbeklar orasida azaldan keng tarqalgan sevimli hunar ekan. Kashtachilik o'zbeklar orasida azaldan keng tarqalgan sevimli hunar emish.

kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxonaga bor. Bu doktorxonaga to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch, daraxtlar bilan o'ralgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib, o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Farg'onaga ketgan edi. Doktorxonaga deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati olingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi. keyin so'radi:

— Devonayi Bahoviddinga hech narsa ko'tardingmi? G'av-sula'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi — har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'lga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan, qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hamma yoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: „Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...“

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi — bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

— Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni — dedi.

Bola anchagina uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatganicha duo qildi:

— Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o'sal bo'ldi. „Ko'ngilga armon bo'lmasin“ deb „chilyosin“ ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotib-

istamoq	}	qaltiramoq, sevinmoq, taqqoslamog, shodlanmoq, zo'raymoq, xohlamoq, tilamoq, qiyoslamog, odatlanmoq, orzu qilmoq, xursand bo'lmoq
ko'nikmoq		
solishtirmoq		
kuchaymoq		
titramoq		
quvonmoq		

56- mashq. O'qing va rus tiliga tarjima qiling. Ko'makchi fe'llarning ma'nolariga e'tibor bering. O'zingiz ham berilgan fe'llar yordamida murakkab fe'llar hosil qiling va ma'nosini tushuntiring.

Namuna: ko'rmoq: ko'rib chiqdi, ko'ra boshladi, ko'rib turdi, ko'rib o'tirdi, ko'rib oldi, ko'rib bo'ldi, ko'rib berdi, ko'rib qoldi, ko'rib qo'ydi, ko'rib ketdi, ko'rib o'tdi, ko'ra boshladi, ko'ra boshlagan edi.

yozmog —
aytmog —
o'qimog —
ko'rsatmog —

57- mashq. Gaplarni o'qing va ma'nolaridagi farqlarni izohlang. Bunga qaysi so'z sabab bo'lyapti? Matndagi shaxs otlari va kasb otlarini 2 ustunga ajratib yozing.

Shuhrat duradgorlik to'garagiga qatnashar edi. Shuhrat duradgorlik to'garagiga qatnashar ekan. Shuhrat duradgorlik to'garagiga qatnashar emish.

Anvarning akasi etikdo'z ekan. Anvarning akasi etikdo'z emish.

Devoriy gazetaga rasmlarni rassom chizgan edi. Devoriy gazetaga rasmlarni rassom chizgan emish. Devoriy gazetaga rasmlarni rassom chizgan ekan.

O'zbekiston gilamchilik sohasida ham boy o'lka hisoblangan edi. O'zbekiston gilamchilik sohasida ham boy o'lka hisoblangan ekan. O'zbekiston gilamchilik sohasida ham boy o'lka hisoblangan emish.

Kashtachilik o'zbeklar orasida azaldan keng tarqalgan sevimli hunar edi. Kashtachilik o'zbeklar orasida azaldan keng tarqalgan sevimli hunar ekan. Kashtachilik o'zbeklar orasida azaldan keng tarqalgan sevimli hunar emish.

kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi... Bu-larning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch, daraxtlar bilan o‘ralgan ba-land va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor. Chigit po‘choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo‘jayini Abdug‘aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib, o‘ladigan bo‘lganida bu doktorxonaga bormay Farg‘onaga ketgan edi. Dok-torxona deganda Sotiboldining ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning surati olingan 25 so‘mlik pul kelar edi.

Bemor og‘irlashdi. Sotiboldi xo‘jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug‘aniboy uning so‘zini eshitib ko‘p afsuslandi, qo‘lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildir-di. keyin so‘radi:

— Devonayi Bahoviddinga hech narsa ko‘tardingmi? G‘av-sula‘zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo‘ldi — har xil savatchalar to‘qishni o‘rgandi. U ertadan kechgacha oftobshuvoq-da gavronlar ichiga ko‘milib savat to‘qiydi. To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pash-shalardan qo‘riydi; ba‘zan, qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib ux-lab qoladi. Hamma yoq jim. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshutiladi: „Hey do‘st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...“

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotib-oldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo‘shnisi — bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to‘zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog‘ini siladi, so‘ngra... o‘tirib yig‘ladi.

— Begunoh go‘dakning saharda qilgan duosi ijobat bo‘ladi, uyg‘oting qizingizni — dedi.

Bola anchagina uyqu g‘ashligi bilan yig‘ladi, keyin otasining g‘azabidan, onasining ahvolidan qo‘rqib, kampir o‘rgatgan cha duo qildi:

— Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o‘sal bo‘ldi. „Ko‘ngilga ar-mon bo‘lmasin“ deb „chilyosin“ ham qildirishga to‘g‘ri keldi. Sotib-

oldi to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko‘tardi. „Chilyosin“dan bemor tetik chiqqanday bo‘ldi; shu kechasi hatto ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

— Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg‘otmang.

Yana ko‘zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi — sa-harga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odat-dagicha duo qildi:

— Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...



Savol va topshiriqlar

1. Yozuvchi Abdulla Qahhor haqida nimalarni bilasiz? Uning qan-day asarlarini o‘qigansiz?
2. Mustaqil o‘qish qismidan Abdulla Qahhorning tarjimai holini o‘qing va gapirib bering.

7- mavzu: PREDIKATNI FE‘LDAN BOSHQA SO‘ZLAR BILAN IFODALASH

(Выражение предиката другими словами)

Predikat fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari bilan ham ifo-dalanishi mumkin. Bunda ularga kesimlik qo‘shimchalari yoki bog‘lama so‘zlar (*bo‘lmoq, emoq* fe‘li)qo‘shilib kela-di. Masalan:

Men o‘qituvchiman. Men o‘qituvchi bo‘lmoqchiman. Shohrux tarjimon(dir.) Shohrux tarjimon bo‘ladi.

Bunday so‘zlar affikssiz yoki bog‘lamasiz kelganda, ega va kesim o‘rtasiga — (tire) qo‘yiladi. Masalan: *Onam — shifokor.*

Bunday hollarda ega va kesimning o‘rni qat‘iy bo‘ladi, ular-ning o‘rnini almashtirish gap mazmunini o‘zgartirib yub-oradi. Qiyoslang: *Kitob — yaxshi. Yaxshi kitob.*

Shohista — a‘lochi. A‘lochi Shohista.

Shuningdek, *kerak, darkor, zarur, shart, bor, yo‘q* kabi modal so‘zlar ham gapning oxirida kelib, kesim bo‘lib kela-oladi.

talarni eslab qoling. Ishonchnoma namunasi asosida o'zingiz ishonchnoma yozing

ISHONCHNOMA

Men, O'ZDJTU rus filologiyasi fakultetining I bosqich talabasi Gamletova Shohista noyabr oyi uchun stipendiyamni olishga ukam Gamletov Shohruhga ishonch bildiraman.

(Pasport ma'lumotlari:

2004.18.11. (imzo) (Gamletova Sh.)

68- mashq. Matni o'zbek tiliga o'giring. Joy nomlarining ruscha va o'zbekcha atalishini qiyoslang.

ДРЕВНЯЯ ХИВА

Хива — древнейший город Средней Азии. Она была одним из её самых богатых торговых центров. В конце XVI века Хива стала столицей ханства и превратилась в жемчужину градостроительства. Стройные башни, цветные минареты, величественные мавзолеи, неповторимая красота узоров создавали впечатление удивительного города из восточной сказки. Город состоял из двух частей: Ичан-кала — внутренний город — и Дишан-кала — внешний город. Главные сооружения находились в Ичан-кале.



Savol va topshiriqlar

1. Xiva shahri O'zbekistonning qaysi viloyatida joylashgan?
2. Nima uchun Xiva XVI asrda shaharlar durdonasi deb atalgan?
3. Siz Xivada bo'lganmisiz?

BILIB OLING!

Xorazm viloyati respublikamizning shimoli-g'arbida joylashgan. U 1938- yil 15- yanvarda tashkil topgan. Xorazm viloyati tarkibiga 9 ta qishloq tumani, 3 ta shahar va 7 ta shaharcha kiradi. Viloyat markazi Urganch shahridir. Viloyatdagi eng qadimiy shahar Xiva bo'lib, u 2,5 ming yoshda. Xorazmdagi Ichon qal'a Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Bu yerdagi saroy, madrasa, maqbara, masjidlarni ko'rish uchun butun dunyodan ko'p sayyohlar keladi.

oldi to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko‘tardi. „Chilyosin“dan bemor tetik chiqqanday bo‘ldi; shu kechasi hatto ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

— Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg‘otmang.

Yana ko‘zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi — saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

— Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...



Savol va topshiriqlar

1. Yozuvchi Abdulla Qahhor haqida nimalarni bilasiz? Uning qanday asarlarini o‘qigansiz?
2. Mustaqil o‘qish qismidan Abdulla Qahhorning tarjimai holini o‘qing va gapirib bering.

7- mavzu: **PREDIKATNI FE‘LDAN BOSHQA SO‘ZLAR BILAN IFODALASH**

(Выражение предиката другими словами)

Predikat fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunda ularga kesimlik qo‘shimchalari yoki bog‘lama so‘zlar (*bo‘lmoq, emoq* fe‘li) qo‘shilib keladi. Masalan:

Men o‘qituvchiman. Men o‘qituvchi bo‘lmoqchiman. Shohrux tarjimon(dir.) Shohrux tarjimon bo‘ladi.

Bunday so‘zlar affikssiz yoki bog‘lamasiz kelganda, ega va kesim o‘rtasiga — (tire) qo‘yiladi. Masalan: *Onam — shifokor.*

Bunday hollarda ega va kesimning o‘rni qat‘iy bo‘ladi, ularning o‘rnini almashtirish gap mazmunini o‘zgartirib yuboradi. Qiyoslang: *Kitob — yaxshi. Yaxshi kitob.*

Shohista — a‘lochi. A‘lochi Shohista.

Shuningdek, *kerak, darkor, zarur, shart, bor, yo‘q* kabi modal so‘zlar ham gapning oxirida kelib, kesim bo‘lib kela oladi.

talarni eslab qoling. Ishonchnoma namunasi asosida o‘zingiz ishonchnoma yozing

ISHONCHNOMA

Men, O‘ZDJTU rus filologiyasi fakultetining I bosqich talabasi Gamletova Shohista noyabr oyi uchun stipendiyamni olishga ukam Gamletov Shohruhga ishonch bildiraman.

(Pasport ma’lumotlari:)

2004.18.11. (imzo) (Gamletova Sh.)

68- mashq. Matnni o‘zbek tiliga o‘giring. Joy nomlarining ruscha va o‘zbekcha atalishini qiyoslang.

ДРЕВНЯЯ ХИВА

Хива — древнейший город Средней Азии. Она была одним из её самых богатых торговых центров. В конце XVI века Хива стала столицей ханства и превратилась в жемчужину градостроительства. Стройные башни, цветные минареты, величественные мавзолеи, неповторимая красота узоров создавали впечатление удивительного города из восточной сказки. Город состоял из двух частей: Ичан-кала — внутренний город — и Дишан-кала — внешний город. Главные сооружения находились в Ичан-кале.



Savol va topshiriqlar

1. Xiva shahri O‘zbekistonning qaysi viloyatida joylashgan?
2. Nima uchun Xiva XVI asrda shaharlar durdonasi deb atalgan?
3. Siz Xivada bo‘lganmisiz?

BILIB OLING!

Xorazm viloyati respublikamizning shimoli-g‘arbida joylashgan. U 1938- yil 15- yanvarda tashkil topgan. Xorazm viloyati tarkibiga 9 ta qishloq tumani, 3 ta shahar va 7 ta shaharcha kiradi. Viloyat markazi Urganch shahridir. Viloyatdagi eng qadimiy shahar Xiva bo‘lib, u 2,5 ming yoshda. Xorazmdagi Ichan qal’a Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Bu yerdagi saroy, madrasa, maqbara, masjidlarni ko‘rish uchun butun dunyodan ko‘p sayyohlar keladi.



Jaloliddin Nishopurga kelganidan so'ng bir oy davomida yaqin atrofdagi hokim-u amirlarga chopar yuborib, qo'shin to'plash harakatida bo'ldi. Bundan xabar topgan mo'g'illar uni ta'qib eta boshladilar. 1221- yil fevralida Jaloliddin noiloj G'aznaga yo'l oldi. Sulton Aloviddinning xolavachchasi, Xirot voliysi Amin Malik o'zining qang'lilaridan iborat o'n minglik qo'shini bilan Qandahor yaqinida Jaloliddinga qo'shildi. Nasaviyning ma'lumotiga ko'ra ular yo'l-yo'lakay Qandahor qamali bilan mashg'ul bo'lgan mo'g'il qo'shinini mag'lubiyatga uchratishdi.

Jaloliddin G'aznaga yetib kelgach, bu yerda xalajlar sardori Sayfiddin Ug'roq, Balx hokimi A'zam Malik, afg'onlar rahnomosi Muzaffar Malik, qarluqlar boshlig'i Hasan — har biri 30 minglik qo'shin bilan Jaloliddin bayrog'i ostida birlashdilar. Ularga G'ur amirlari ham qo'shildi. Shu yerda Jaloliddin Amin Malik qiziga uy-lanib, qarindoshlik va ittifoqchilik rishtalarini mustahkamladi.

Nihoyat, o'z orzusiga erishgan Jaloliddin, hech ikkilanmay, dushman yo'lini kesib, o'z harbiy mahoratini namoyish etish imkoniga ega bo'ldi. U qo'shinini G'aznadan olib chiqib, Parvon tomonga qarab yurdi. Yo'lda mo'g'illar Voliyon qal'asini qamal qilayotganlaridan ogoh bo'lib, ularga hujum uyushtirdi. Mo'g'illar yengilib, Panj daryosining narigi sohiliga chekindilar va ko'prikn buzib tashlashdi. Shu bois Jaloliddin orqaga qaytishga majbur bo'ldi.

Chingizxon Jaloliddinga qarshi o'zining nomdor sarkardalaridan Shiki Xutuxu boshchiligida 45 minglik qo'shin yuborgan edi. Ikkala qo'shin Parvonga yuzma-yuz bo'ldi. Ikki kun davom etgan jangda mo'g'illar yakson etildi.



Savol va topshiriqlar

1. Mustaqil o'qish qismidan matnning davomini topib o'qing.
2. Siz Jaloliddin Manguberdi haqida nimalarni bilasiz?
3. Jaloliddin Manguberdi nima uchun vatanparvar qahramon sifatida yod etiladi?
4. Matndan harakatni va holatini ifodalovchi so'zlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozing.

8- mavzu: SUBYEKT VA PREDIKAT O'RTASIDAGI MUNOSABATNI IFODALASH

(Выражение отношений субъекта и предиката)

Subyekt va predikat o'rtasidagi munosabat fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari yordamida ifodalanadi. Fe'llarning shaxs va son qo'shimchalarini olib o'zgarishi tuslanish deyiladi. Masalan: *o'qimoq* fe'lining *o'qidim*, *o'qiding*, *o'qidi*, *o'qidik*, *o'qidingiz*, *o'qiyapsiz* shakllari tuslangan shakllardir va ular bajaruvchi shaxs yoki predmet, ya'ni subyektни ko'rsatib turadi. Odatda kesim subyekt bilan shaxs va sonda moslashadi. Masalan:

Men o'qidim.

Biz o'qidik.

Sen o'qiding.

Siz o'qidingiz.

Anvar (u) o'qidi.

Talabalar (ular) o'qidilar.

Ba'zi hollarda jamlilikni bildiruvchi hamda narsa-buyum-
ni bildiruvchi subyektlar predikat bilan sonda moslash-
maydi. Masalan: *Xalq to'plandi. Gullar ochildi.*

O'zbek tilida tuslanishning 3 turi bor.

	I tuslanish		II tuslanish		III tuslanish	
	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
1-sh	<i>-m</i>	<i>-k</i>	<i>-man</i>	<i>-miz</i>	<i>-y(-ay)</i>	<i>-ylik(-aylik)</i>
2-sh	<i>-ng</i>	<i>-ngiz</i>	<i>-san</i>	<i>-siz</i>	-	<i>-ng, -ing</i>
3-sh	-	<i>-lar</i>	<i>-di</i>	<i>-dilar</i>	<i>-sin</i>	<i>-sinlar</i>

Bu shaxs-son qo'shimchalari o'tgan zamon fe'llariga qo'shiladi.

Bular hozirgi va kelasi zamon fe'llariga qo'shiladi.

Bular buyruq va istak-xohishni anglatish uchun qo'shiladi.

Yodda tuting!

O'tgan zamon fe'llari asosan I tuslanishda tuslanadi. Uzoq o'tgan zamon fe'lining *-gan* shakli va o'tgan zamon hikoya fe'lining *-b, -ib* shakli II tuslanishda tuslanadi.

69- mashq. Nuqtalar o'rniga ma'lumot uchun berilgan fe'llardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring. Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalarini ko'rsating. Subyekt va predikatlarning moslashuviga e'tibor bering.

Tong Hamma yoq nurga... . 2. Men bichish-tikish to'garagiga..., ukam esa shaxmat to'garagiga... . 3. Odamlar g'ayrat va ishonch bilan ish..., ular cho'l-u biyobonlarni bog'rog'larga....., daryolarni, to'g'onlarni..., o'z mehnatlari bilan yangilik... . 4. Bahorda dala, qillar maysalar bilan..... va tabiat chiroyli

Ma'lumot uchun fe'llar: aylantirmoq, qatnashmoq, yaratmoq, boshlamoq, yozilmoq, otmoq, o'tlanmoq, qurmoq, to'lmoq, tus olmoq, qoplanmoq.

70- mashq. Matni o'qing. O'zaro moslashmagan subyekt va predikatlarni aniqlab yozing.

MEN O'ZBEK XALQI NOMIDAN SO'ZLAYMAN

Mening xalqim or va nomusni biladi. O'z o'g'il-qizlarini nomus va hayo bilan tarbiya qiladi. Mening xalqim birlik va ahillikni, hamjihatlikni yaxshi ko'radi. Tirik ekan, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. U o'z xalqidan bo'lgan kishining ko'chada qolganini ko'rsa, uyaladi, yuzi qizaradi. Ona o'z farzandlari uchun parvona bo'ladi, ota o'z bolalarini doim qanoti ostiga olib yuradi. Mening xalqim dos'tlik, birodarlikning qadrini biladi. U o'z hamsoyasini, o'z qo'shnilarni hurmat qiladi.

(Hamid Olimjondan)

71- mashq. „Mening orzuyim“ mavzusida yozilgan ushbu inshoni o'qing. Fe'llarning tuslanishini aniqlang va shaxs-son qo'shimchalarini ko'rsating. Qiziqqan mashg'ulotingiz haqida kichik esse yozing.

Men rasm chizishga juda qiziqaman. Uy ishlariga qarashib bo'lganimdan so'ng turli rasmlar chizaman. Ko'proq tabiat ko'rinishlarini, hayvonlarning rasmlarini chizaman. Chizgan rasmlarimni o'rtoqlarim ko'rib: „Juda yaxshi“, deyishadi.

Men kitob o'qishni ham juda yaxshi ko'raman. Mening birdan-bir orzuyim shoir va yozuvchilarning portretlarini chizishdir. Inson qiyofasini tasvirlash, portret yaratish juda murakkab va og'ir ish ekanligini bilaman. Shu bois portret yaratish janrini o'rganyapman va orzuyimga yetishish uchun hozirdan harakat qilyapman.

Men...

Men esa...



Savol va topshiriqlar

1. Siz nimaga qiziqasiz?
2. Inson o'z orzusiga yetishish uchun nima qilishi kerak?
3. O'zingiz ham shu mavzuda insho yozing.

ESHITISH MASHQI

Shoir Hamid Olimjonning „O'zbekiston“ she'ridan keltirilgan parchani diqqat bilan tinglang. Predikat bilan subyektning o'rnini kuzating. Inversiyalarni izohlang.

Dalalarda boshlanadi ish
Boshlanadi ijod va turmush.
Barg chiqadi har bir daraxtda
Kundan kunga o'sadi paxta.
Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lar shoxin bukadi
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to'lar Tekstil
Hammasining bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o'lkada har narsa bordir,
Ko'rmaganlar doim xumordir.

72- mashq. A. Qodiriyning „Mehrobdan chayon“ romanidan berilgan parchani o'qing. Har bir gapdagi predikatning ifodalanishi, fe'llarning shaxs-son shakllarini aniqlang.

Shu yergacha barcha sahifalarni Mahdumning ta'rifi bilan to'ldirdik, ehtimolki, domlaning g'iybatini ham qildik va qilarmiz. Lekin shunidan xotirjammizki, yo'qni yo'ndirmadik, Mahdumning sha'niga bor gaplarnigina yozdik va yozamiz. Mahdumning hamma nuqsonini yuvib ketarlik. Bir jumladan so'ng yana o'z ishimizda bo'lamiz: nima bo'lganda ham Mahdum o'z zamonasi-ning eng oldingi domlalaridan edi.



Savol va topshiriqlar

1. Matnda ta'riflangan shaxs kim?
2. Mustaqil o'qish materillaridan romandan berilgan parchani o'qib, mazmunini so'zlab bering.
3. O'zbek romanchiligining asoschisi A. Qodiriy tarjimai holini so'zlab bering.

73- *mashq.* Matnni o‘zbek tiliga o‘giring. Rus tilidagi fe’llarning o‘zbek tilida berilishidagi farqlarni aniqlashga harakat qiling.

ПЕЙЗАЖ

Человек начал изображать природу очень давно. Но почти всегда эти изображения служили фоном для портрета или какой-нибудь сцены. И только в XVII веке появились пейзажи-картины. Сначала их стали создавать голландские художники. Они писали картины, на которых изображали свою родину. По-разному художники изображали природу. Есть пейзажи, удивительно точно передающие какие-либо уголки природы, а есть такие, которые придумал художник. Талантливые мастера опоэтизировали красоту природы всех времен года. Пейзаж помогает нам лучше узнать свою родину, по-новому смотреть на окружающие деревья, траву, поля, горы.

Tushuntirish xati o‘z burchi, xizmat vazifasini o‘tashda yo‘l qo‘yilgan ayrim noaniqliklarni, xizmat intizomining buzilishi sababini izohlash uchun yoziladigan ish qog‘ozi bo‘lib, u arizaga o‘xshash shaklda yoziladi. Unda binoan, asosan, muvofiq ko‘makchilari jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi bilan keladi va asosan rasmiy uslubda ishlatiladi.

74- *mashq.* Tushuntirish xatining namunasini o‘qing. Unda ishlatiladigan nutqiy qoliplar va ularning qo‘llanishi bilan tanishing. Shu asosda o‘zingiz tushuntirish xati namunasini yozing.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi I akademik litsey direktori J. Hasanovga
2- bosqich talabasi
Shohista G‘aniyevadan

TUSHUNTIRISH XATI

Men 2004- yilning 4- apreldan 20- aprelegacha bo‘lgan davrda onamning qattiq betoblighi tufayli 38 soat mashg‘ulotga qatnasha olmadim.

Ilova: Onamning kasalligi haqidagi shifokor ma’lumotnomasi.
2005.22.10

(imzo) Sh. G‘aniyeva



OTAM HAQIDA

Avgust oyi keldi. Imtihonlarni topshirib, Toshkent Meditsina institutiga kirdim. Birinchi sentabrdan o'qishlar boshlanib ketdi. Biroq ikki oy o'qir-o'qimas bel og'rig'i kasalim zo'rayib ketdi. Ba'zi doktorlarning maslahati bilan mashhur professor Voyno-Yasenitskiy qabuliga kirdim. Voyno-Yasenitskiy juda qarib qolgan, salobatli kishi edi. Meni tekshirib ko'rib, „Ertaga dadang bilan kel“, deb buyurdi. Ertasiga dadam bilan qabulga bordik. U meni tashqariga chiqarib, dadamga: „O'g'lingizning kasali og'ir, unda umurtqa suyak sili xastaligi bor. Agar oldi olinmasa, bukur bo'lib qolishi mumkin. Davosi faqat taxtakach (gips)da kamida olti oy yotish...“ debdi.

Professor maslahati bo'yicha o'qishdan bir yilga ruxsat olib, gips-taxtakachga yotdim. Taxtakachda yotish albatta og'ir edi. O'rindan turmay, o'tirmay, yonboshlamay faqat osmonga qarab olti oy yotish... Ammo bunga majbur edim.

Dadam uyimizning birinchi qavatida turar, men ikkinchi qavatida yotar edim. U kishi tez-tez chiqib mendan xabar olar, zerikmasin deb turli badiiy, tarixiy, ilmiy kitoblar keltirib berar, yonimda suhbatlashib o'tirar edilar. Shu suhbatlarning birida u kishi menga, daida berish uchun bo'lsa kerak, shunday bir voqeiy hikoyani so'zlab bergan edilar (chamasi u kishi bu hikoyani eski tibbiy kitoblardan menga davo izlab o'qigan bo'lsalar kerak):

Bir yosh bukur podshoh bo'lar ekan. U o'zining hukmdor podshoh bo'la turib, bukur bo'lishidan hamisha g'amgin yurar ekan. Bir kuni u: „Kimda-kim bukrimni tuzatsa, xazinamning yarmini unga hadya qilaman...“, deb e'lon tarqatibdi. Buni eshitib, uzoq bir mamlakatdan Muhammad Zikriyo ismli mashhur bir hakim kelibdi va podshohni taxtakachga yotqizib, turli nodir dori-darmonlar bilan muolaja qila boshlabdi. Ko'p vaqt o'tmay shohning qaddi rostlanibdi, asta turib o'tiradigan, tik yuradigan bo'libdi. Muhammad Zikriyo hakim shohga deydi: „Mana, podshohi olam, endi tuzaldiringiz, o'zingizni ehtiyot tutib, manavi dorilardan iste'mol qilib yursangiz, asta-asta suyaklaringiz yaxshi qotib, mustahkamlanib, baquvvat tortib ketasiz. Endi menga ruxsat...“

Podshoh tabibga rahmat aytibdi, vazirini chaqiribdi va va'daga muvofiq unga yarim xazinasini berib yuborishni buyuradi. Shunda

vazir: „Podshohi olam, tabib sizni oz kunda ortiqcha mehnatsiz tuzatdi. Unga chorak xazinangizni bersangiz ham kifoya“, — debdi. Bu maslahat shohga ma’qul tushibdi, xazinasining choragini tuyalarga ortib berib, tabibni vataniga kuzatibdi. Shunda tabib xayrlasha turib, podshoh qo’liga yana bir xil dori beribdi va: „Podshohim, manavi dorini uch kundan so’ng nahorga iste’mol qilsinlar“, — deb tayinlabdi.

Podshoh uch kunni o’tkazib, haligi dorini ichibdi. Ichishi hamono unda shunday ketma-ket aksirish paydo bo’ladiki, podshoh o’zini to’xtata olmaydi va aksirish zarbidan endi bitib kelayotgan umurtqa suyaklari qattiq-qattiq silkinib eski holiga kelibdi, podshoh yana bukur bo’lib qoladi. Shoh o’z xatosini anglabdi, biroq endi vaqt o’tgan, Muhammad Zikriyo hakim uzoqqa ketib qolgan edi...



Savollarga javob bering

1. Hikoyatning mazmunini so’zlab bering.
2. Ayting-chi, ushbu hikoyatdan qanday xulosa chiqarish mumkin?

BILIB OLING!

Samarqand viloyati 1938- yilning 15- yanvarida tashkil etilgan. Respublikaning markaziy qismida, Zarafshon daryosining havzasida joylashgan. Maydoni 16,4 ming kv. km. Aholisi 2431,3 ming kishi. Samarqand viloyatida 16 ta tuman, 11 ta shahar, 12 ta shaharcha va 125 ta qishloq bor. Samarqand jahonning eng ko’hna shaharlaridan biri bo’lib, 2700 yildan ziyod tarixga ega. Samarqand shahrining tarixi qadimiy Afrosiyobdan boshlanadi.

9- mavzu: **HARAKATNING ZAMONINI IFODALASH**

(Выражение времени действия)

O’zbek tilida ham fe’l zamonlari 3 xil: o’tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon. *O’tgan zamon* ish-harakatning nutq so’zlanib turgan paytdan avval sodir bo’lganini, hozirgi zamon esa ish-harakatning nutq jarayonida sodir bo’layotganini, kelasi zamon ish-harakatning nutq jarayonidan so’ng sodir bo’lishini bildiradi. Masalan:

keldik, kelganman, kelar edik (o’tgan z.)

kelyapmiz, kelaman, kelmoqda (hozirgi z.)

kelmoqchi, kelarmiz (kelasi z.)

Grammatika

Har bir zamon o‘z ma‘nolariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi va ma‘lum grammatik shakllar bilan ifodalanadi. Odatda fe‘lning zamon shakllari vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan birgalikda qo‘llanadi.

75- mashq. Ushbu savollarga javob bering. Payt ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar va fe‘lning zamon shakllarining o‘zaro munosabatini tushuntiring.

- Kecha..... (nima bo‘ldi?)
- O‘tgan kuni (nima bo‘lgan edi?)
- Har yili (nima bo‘lar edi?)
- Bugun (nima bo‘ladi?)
- Shu yil (nima bo‘ladi?)
- Hozir (nima bo‘lyapti?)
- Har doim (nima bo‘ladi?)
- Ertaga.....(nima bo‘ladi?)
- Kelasi yili (nima bo‘lmoqchi?)
- Indinga (nima bo‘lardi?)

76- mashq. Qavs ichidagi fe‘llarning noaniq shakllarini matn mazmuniga mos tarzda qo‘yib matnni ko‘chiring va matnni davom ettiring.

Har bir inson o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlashni (bilmoq) kerak. Men buni universitetda o‘qib yurganimda (tushunmoq). Avval menga ancha qiyin (bo‘lmoq). Yarim kechasi (yotmoq). Ba‘zan darslarga (kech qolmoq), uy vazifalarini bajarishga (ulgurmoq). Bo‘sh vaqt topolmay (qiynalmoq). Keyin vaqtni to‘g‘ri taqsimlashni (o‘rganmoq).

Soat 7 da (uyg‘onmoq), badantarbiya bilan (shug‘ullanmoq). Keyin (yuvinmoq) va (ovqatlanmoq). Ba‘zan dars tayyorlashga ham (ulgurmoq)

O‘tgan zamon fe‘l shakllarini yodda tuting!

Yaqin o‘tgan zamon fe‘li	<i>o‘qidim</i>
Uzoq o‘tgan zamon fe‘li	<i>o‘qigan edim</i> <i>o‘qigandim</i> <i>o‘qiganman</i>
O‘tgan zamon davom fe‘li	<i>o‘qir edim</i> <i>o‘qirdim</i>
O‘tgan zamon hikoya fe‘li	<i>o‘qibman,</i> <i>o‘qib edim</i>
O‘tgan zamon maqsad fe‘li	<i>o‘qimoqchi edim</i>

Har bir zamon o'z ma'nolariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi va ma'lum grammatik shakllar bilan ifodalanadi. Odatda fe'lning zamon shakllari vaqt bildiruvchi so'zlar bilan birgalikda qo'llanadi.

75- mashq. Ushbu savollarga javob bering. Payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar va fe'lning zamon shakllarining o'zaro munosabatini tushuntiring.

Kecha..... (nima bo'ldi?)
O'tgan kuni (nima bo'lgan edi?)
Har yili (nima bo'lar edi?)
Bugun (nima bo'ladi?)
Shu yil (nima bo'ladi?)
Hozir (nima bo'lyapti?)
Har doim (nima bo'ladi?)
Ertaga.....(nima bo'ladi?)
Kelasi yili (nima bo'lmoqchi?)
Indinga (nima bo'lardi?)

76- mashq. Qavs ichidagi fe'llarning noaniq shakllarini matn mazmuniga mos tarzda qo'yib matnni ko'chiring va matnni davom ettiring.

Har bir inson o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashni (bilmoq) kerak. Men buni universitetda o'qib yurganimda (tushunmoq). Avval menga ancha qiyin (bo'lmoq). Yarim kechasi (yotmoq). Ba'zan darslarga (kech qolmoq), uy vazifalarini bajarishga (ulgurmoq). Bo'sh vaqt topolmay (qiynalmoq). Keyin vaqtni to'g'ri taqsimlashni (o'rganmoq).

Soat 7 da (uyg'onmoq), badantarbiya bilan (shug'ullanmoq). Keyin (yuvinmoq) va (ovqatlanmoq). Ba'zan dars tayyorlashga ham (ulgurmoq)

O'tgan zamon fe'l shakllarini yodda tuting!

Yaqin o'tgan zamon fe'li	<i>o'qidim</i>
Uzoq o'tgan zamon fe'li	<i>o'qigan edim</i> <i>o'qigandim</i> <i>o'qiganman</i>
O'tgan zamon davom fe'li	<i>o'qir edim</i> <i>o'qirdim</i>
O'tgan zamon hikoya fe'li	<i>o'qibman,</i> <i>o'qib edim</i>
O'tgan zamon maqsad fe'li	<i>o'qimoqchi edim</i>

Qiyoslang: *o'qib yotibdi — o'qiyapti*
o'qib turibdi — o'qiyapti

O'zbek tilida hozirgi-kelasi zamon shakli ish-harakatning hozirgi zamonda boshlanib, kelasi zamonda ham birmuncha vaqt davom etib turishini anglatadi. Shu bois bu fe'l shakli boshqa tilga kontekstdan kelib chiqib, yo hozirgi, yo kelasi zamon shaklida tarjima qilinadi. Qiyoslang:

Men universitetda o'qiyapman // Я учусь в университете.

Kelajakda chet tillari bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'laman // В будущем стану хорошим специалистом по иностранным языкам.



Savol va topshiriqlar

1. Ajratilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub?
2. Mehnat to'g'risida qanday maqol va hikmatli so'zlarni bilasiz, misollar keltiring.
3. Matn mazmunini gapirib bering va o'z fikringizni yozma bayon qiling.

80- mashq. Matni o'qing. O'tgan zamon ma'nosini ifodalayotgan hozirgi-kelasi zamon fe'llarini aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

NONGA HURMAT

Sulton Ulug'bek navbatdagi safaridan Samarqandga qaytayotib ko'cha o'rtasida yotgan bir burda nonni ko'ribdi. Shoshib otdan tushadi va nonni qo'lga olib, uni peshanasiga suradi. Buni ko'rgan mulozimlaridan biri:

— Hazrat, o'zingiz otdan tushmasdan, bizga aytsangiz bo'l-masmidi?

Shunda Ulug'bek:

— Nonga eng oldin mening nazarim tushdi, binobarin, nonni yerdan men olishim kerak. Boshqa kimsaga aytsam, nonga nisbatan hurmatsizlik qilgan bo'laman, — deb javob berdi.

81- mashq. Matndan doimiy bo'lib turadigan harakatni ifodalagan fe'llarni toping. Matnni davom ettiring.

AMUDARYO

Amudaryo Pomir tog'laridan boshlanadi. Yo'lda bir necha soylar unga qo'shiladi. U yo'l-yo'lakay Buxoro viloyatini, Chorjo'y yerlarini sug'orib, Denov, Darxonota orqali Xiva, Toshovuz va Qoraqalpog'istonga yetadi, so'ng Orol dengiziga borib quyiladi... .



Savol va topshiriqlar

1. Amudaryo hozir ham Orol dengiziga quyiladimi?
2. Yana qaysi daryo Orol dengiziga quyilar edi?
3. Daryolarimiz va Orol dengizi haqida soʻzlab bering.
4. Ushbu savollarga javob bergan holda matnni oʻtgan zamonga aylantirib yozing.

82- *masiq*. Nuqtalar oʻrniga maʼlumot uchun berilgan feʼllardan hozirgi zamon shakliga mosini qoʻyib koʻchiring.

MEHNAT INSONNI ULUGʻLAYDI

Mehnat insonni , kamolotga Inson mehnat tufayli Demak, mehnatsiz hayotni..... . Kishining hurmati, obroʻsi uning mehnatga boʻlgan munosabati bilan Mehnatsevarlik kishining eng yaxshi fazilatlaridan biri Kishi oʻzining butun orzu-umidlariga faqat tinimsiz mehnat bilan , halol mehnati bilangina Mehnatni , mehnatning natijalarini , uning lazzatini Hozirgi baxtiyor goʻzal hayotimiz ham ota-bobolarimizning ulkan mehnatlari mevasi

Maʼlumot uchun: oʻsmoq, kamol topmoq, erishmoq, hisoblanmoq, qadrlamoq, yeshitmoq, ulugʻlamoq, tasavvur qilmoq, yotmoq.

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan tinglang. Feʼllarni yozib boring. Soʻngra ushbu feʼllar yordamida matnni tiklab, qayta hikoya qiling.

NILUFAR GULI

Xitoyliklar uchun nilufar musaffolik va oliyjanoblik ramzi deb hisoblangan. Balchiq va loyqa suvda oʻsgani bilan u hech qachon bulgʻanmaydi. Ogʻir qismatga tan bermagan, yomonlik oldida tiz choʻkmagan, oʻziga gard yuqtirmagan odamlarni nilufarga qiyoslashadi. Nilufar sokin hovuzlarda iyul-avgust oylarining eng issiq kunlarida gullaydi. Oʻzining barglari, toza va nafis guli, yirik gultojlari bilan bu gul unutilmas taassurot qoldiradi.

Xitoyliklar ayollarning orastaligini nilufarga qiyoslashgan. Nilufar faqat uch kun gullab turadi: ertalab ochiladi, kechqurun yopiladi. Nafaqat xitoyliklar, balki butun dunyo xalqi nilufarni goʻzallikda tanho, tengi yoʻq gul deb hisoblaydi.

83- mashq. Matnni o‘zbek tiliga o‘giring. Rus tilidagi hozirgi zamon fe‘l shakllarining o‘zbek tilida qanday ifodalanishiga e‘tibor bering.

ОДУВАНЧИК

У больших проезжих дорог, в широких зелёных лугах всё лето цветут одуванчики. Все знают эти простые цветы, похожие на маленькое солнце, с золотыми лепестками — лучами. Всё лето цветут одуванчики, а созревшие их семена собраны в лёгкий пушистый шарик. Дунешь на шарик — поплывут, полетят в воздухе лёгкие, летучие семена. Потому и называется цветок одуванчиком.

Весь день следом за солнцем поворачивают одуванчики золотые свои головки. Вечером, когда скроется солнце, одуванчики свёртывают свои лепестки. Всю ночь крепко закрыты золотые корзинки одуванчика. Только с восходом солнца они открываются, как бы радостно улыбаясь, широко раскрывают золотые свои головки. В солнечный летний день золотую кажется лесная поляна, на которой растут и цветут одуванчики.

Kelasi zamon fe‘l shakllarini yodda tuting!

Kelasi zamon gumon fe‘li *o‘qirman*
Kelasi zamon maqsad fe‘li *o‘qimoqchiman*

Birlik

I sh. *o‘qirman, o‘qimoqchiman*
II sh. *o‘qirsan, o‘qimoqchisan*
III sh. *o‘qir, o‘qimoqchi*

Ko‘plik

o‘qirmiz, o‘qimoqchimiz
o‘qirsiz, o‘qimoqchimiz
o‘qirlar, o‘qimoqchilar

84- mashq. Matnni o‘qing. Gaplardagi fe‘llarning zamon shaklini aniqlang.

MENING ORZUM

Maktabni bitirib, O‘zbekiston davlar jahon tillari universitetiga o‘qishga kirmoqchiman. Xorijiy tillarni yaxshilab o‘rganmoqchiman. Kelajakda rivojlangan mamlakatlar ish tajribalarini o‘rganib, o‘z yurtimizga tatbiq etmoqchiman va yurtimizning taraqqiyotiga o‘z hissamni qo‘shmoqchiman. Balki, kelajakda men orzu qilgan ishlar amalga oshar. Respublikamiz rivojlangan mamlakatlarga qatoriga qo‘shilar. Bunga, albatta, ishonaman, chunki biz buyuk ajdodlarning vorislarimiz.

85- mashq. Gaplarni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling. Kelasi zamon fe’llarining ma’nolari va ifodalanishini bir-biriga qiyoslang.

1. Bu yil kuz yaxshi keldi. 2. Maktabimizdagi shaxmat musobaqasida Mirg‘ani birinchilikni olar. 3. Sinfimizning futbol jamoasi bu o‘yinda ham g‘alaba qilar. 4. Ertaga yomg‘r yog‘mas. 5. Jamoamiz ertaga birinchilikni olar. 6. Ertaga mehmonlar kelmas. 7. Majlisda Ahmedov gapirar. 8. Dam olish kuni baliq oviga borarmiz. 9. Maktabni bitirib, universitetga o‘qishga kirarman.

86- mashq. Savollarga yozma javob bering. Javoblaringizdagi fe’llarning zamon shakllarining ma’nosini tushuntiring.

1. Siz o‘tgan dam olish kunida qayerda dam oldingiz? Keyingi yakshanbada qayerga bormoqchisiz? Balki Xotira maydoniga borarsiz?
2. Siz qaysi o‘zbek yozuvchilarining badiiy asarlarini o‘qigansiz? Hozir qaysi asarlarni o‘qiyapsiz? Yana qaysi kitoblarni o‘qimoqchisiz? Balki she’rlar ham yod olgandirsiz?
3. Qishki ta’til kunlarida nimalar bilan shug‘ullandingiz? „O‘zbek tili“ fanidan qaysi mavzularni mustaqil o‘qimoqchisiz? Balki ... ?
4. Balki kelajakda yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun qanday yo‘l tutmoqchisiz?

87- mashq. „Kecha, bugun va ertaga“ sarlavhasi ostida bajargan, bajarayotgan va bajarmoqchi bo‘lgan ishlaringiz haqida yozing. Fe’llarning turli zamon shakllarini qo‘llashga harakat qiling.



Adabiy o‘qish

Erkin Vohidov

RASHKIM

Seni yotlar tugul hatto, qilurman rashk o‘zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam, bo‘lurman g‘ash ko‘zimdan ham.
Ko‘zim yongay senga nargis, ko‘zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam lolaga rashkim, ayon bo‘lgay yuzimdan ham,
Degaylarki, charos-u, ol gilol olmish labingdan rang.
Labing tegsa hasad qilgum, gilol birlan uzumdan ham.
Seni jonim dedim yolg‘iz, seni qalbim dedim tanho,
Chimirding qosh, pushaymonman, qo‘pol aytgan
so‘zimdan ham.

Visol onida ko‘z ochsa, ne tong, tongdan ko‘ngilda ranj,
Judo qilgay meni oy yuz, xumor ko‘z yulduzimdan ham.
Senga o‘n to‘rtida bog‘landim, hanuz erkin bo‘lolmas dil,
O‘zim dog‘man, aql kirmas, to‘zimsiz o‘ttizimda ham.



Savollarga javob bering

1. G‘azalning mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan so‘zlab bering.
2. Siz yana qaysi g‘azallarni bilasiz?
3. Mustaqil o‘qish qismidan shoir Erkin Vohidov haqidagi ma‘lumotlarni o‘qing va so‘zlab bering.

10- mavzu: **HARAKATNING BAJARILISH-BAJARILMASLIGINI IFODALASH**

(Выражение положительного или отрицательного действия-состояния)

Har qanday fe‘l bajariladigan va bajarilmaydigan harakatni bildiradi. Bajarilmaydigan harakat-holatni ifodalovchi fe‘llar bo‘lishsiz fe‘l deb atalib, quyidagi grammatik shakllar bilan hosil qilinadi:

1. *-ma* qo‘shimchasi: *o‘qi — o‘qima, aytib ber — aytib berma.*
2. *Emas* to‘liqsiz fe‘li: *borgan emas, aytib bermoqchi emas.*
3. *Yo‘q* so‘zi: *kelgani yo‘q, eshitgani yo‘q.*
4. *Na* bog‘lovchisi: *na o‘qidi, na yozdi.*

Eslatma: *-ma* qo‘shimchasi qo‘shma fe‘l tarkibining har ikkala qismiga qo‘shilsa, qat‘iy tasdiq ma‘nosi ifodalaydi. Masalan: *olmay qo‘ymaydi* (ya‘ni: *albatta oladi*); *o‘qimagan emas* (ya‘ni: *albatta o‘qigan*); *yozmay kelmagan* (ya‘ni: *albatta yozgan*).

Emas to‘liqsiz fe‘li fe‘ldan boshqa so‘zlarga qo‘shilib kelganda ham inkor — bo‘lishsizlik ma‘nosini bildiradi. Masalan: *katta emas* (ya‘ni: *kichik*), *yaxshi emas* (ya‘ni: *yomon*) kabi.

Do'st tutinmoq, maqtanmoq, kibrlanmoq, takabburlik qilmoq, jonkuyarlik qilmoq, tirishmoq, noinsoflik qilmoq, g'azablanmoq, dilozor bo'lmoq, yordam bermoq, hurmat qilmoq.

89- mashq. Fe'llarni namunadagi kabi 3ta bo'lishsiz shaklga qo'yib, har biri ishtirokida gaplar tuzing.

*Namuna: Ko'rmoq: ko'rma, ko'rgan emas, ko'rgani yo'q.
Men ko'chada hech kimni ko'rmadim.
Ko'chada hech kimni ko'rganim yo'q.
Bu odamni avval hech ko'rgan emasman.*

Suyanmoq, ma'qullamoq, tinchlanmoq, yashnamoq, ardoqlamoq.

Bel bog'lamoq, yetkazib bermoq, tajriba orttirmoq, hozirlab turmoq, rozi bo'lmoq.

90- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarning mayl va bo'lishli-bo'lishsiz shakllarini ko'rsating.

DONISHMANDLAR O'GITLARI

Agar farzand aqlli va dono **bo'lsa**, ota-onaning mehr-muhabbatini ado qilishdan **bosh tortmaydi**. Sen ota-onaning haqiga aql va muruvvat nuqtayi nazardan **rioya qil, ko'rgil**, ota-ona seni jon-dili bilan **parvarish qilmishlar**. Agar sen ularga nisbatan xato **ish qilsang**, sen hech yaxshilikka **sazovor emassan**, chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini **bilmasa**, birovning yaxshiligiga **baho bera olmaydi**. O'z farzanding seni hurmat qilishini **istasang**, sen ham ota-onangni **hurmat qil**, chunki sen ota-onang uchun nima ish qilsang, farzanding ham shunday ish **qiladi**. Odam mevaga, ota-ona daraxtga **o'xshaydi**. Agar daraxt yaxshi bo'lsa, mevasi yaxshi va shirin bo'ladi.

(„Qobusnoma“dan)



Topshiriqlar

1. „Qobusnoma“da farzandlik burchlari haqida yana nimalar yozilgan?
2. Hurmat to'g'risida buyuk allomalarimizning hikmatli so'zlari va o'gitlaridan daftaringizga yozing va yod oling.

91- mashq. Quyidagi hikmatli so'zlarni o'qing va mazmunini aytib bering. Inkor ma'nosining ifodalanishiga e'tibor bering.

1. Nonni qilmasang uvol, aslo ko'rmaysan zavol.
2. Cho'ktirma hech vaqt ona ko'nglini,
Suyanchig'i bo'l, bukma belini.
3. To'g'ri odamning hech qachon oyog'i qaltiramaydi.
4. Aqlli kishisi bo'lmagan uy quyoshsiz osmonga o'xshaydi.
5. Bilimsiz kishida kasallik bo'lar,
Kasal emlanmasa, yashamas — o'lar.
6. Qanoat buloqdir — suvi olingan bilan qurimaydi, xazinadir — sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir — urug'i izzat va shavkat mevasini beradi, daraxtdir — shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasini yetkizadi.
7. Kimda o'z yurtiga bo'lmasa mehr,
U qalban shikasta, u qalban majruh.
8. Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.
9. Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l.

92- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning har ikki tilda ifodalanishini qiyoslang. Matndan o'zingizga xulosa chiqaring.

НЕЗАБУДКИ

Цветок этот, пожалуй, из скромных скромный, не выбирает себе лучшего места, не выпячивается, не бросается в глаза, как, к примеру, ромашка, медуница. Незабудки... Имя-то какое ласковое! Заслужил. Цветок этот о пяти лепесточках. Незабудки не выгорают, не выцветают, не тускнеют на горячем солнышке лета. Свечение от цветка мягкое, чистое, доверчивое. Поглядишь — и не забудешь. В цветке этом как бы совмещены вместе и красота, и простота, и вечность. Если б (допустим на мгновение) на земле не было никаких других цветов, кроме этого, мы всё равно знали бы, судя по незабудкам, как прекрасны цветы.

ESHITISH MASHQI

Alisher Navoiyning ushbu ruboysini diqqat bilan eshiting, so'ngra daftaringizga yozing. Fe'llarda bo'lishsizlik shaklining ifodalanishini tushuntiring.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulga tikandek oshyon bo'lmas emish.



NASIHAAT

Qo'lni ishga mohir etma,
Tilni gapga usta qil.
Ishni bir qilgan joyingda,
Gapni albat yuzta qil.
Boshlig'ing oldida topmoq,
Istasang sen e'tibor,
Qomating yuz turli bukkin,
So'zni ham ming tusda qil.
Jilmayib tur yonida, hech
Ochma tanqidga og'iz,
Taklifing bo'lsa o'ziga
Asta-yu ohista qil.
Tur desa tur, yot desa yot,
Chiqma zinhor izmidan
Hech fikr qilma o'zingcha,
Qilma bir ish mustaqil.
Bil, senga bu besh nasihat,
Eng asosiy qoida:
Qo'lni ishga mohir etma,
Tilni gapga usta qil.



Topshiriq

1. She'rdagi bo'lishsiz fe'llarni bo'lishli shaklga aylantiring va haqiqiy muomala odobi qanday bo'lishi kerakligini aytib bering.
2. Mustaqil o'qish uchun berilgan qismdan she'rning davomini topib o'qing va mazmunini so'zlab bering.

BILIB OLING!

Buxoro Movarounnahrda Samarqanddan keyingi ikkinchi katta shahar bo'lib, 2500 yoshga kirgan. Hududi 39 ming 400 kv.km. U Minorayi Kalon, Mir Arab madrasasi, Chor Bakr ansambli, Sitorayi Mohi Xosa saroyi kabi 1000 ga yaqin qadimiy obidalari bilan jahonga mashhur. Buxoroda zardo'zlik san'ati rivojlangan.

11- mavzu: HARAKATNING VOQELIKKA MUNOSABATI- NI IFODALASH

(Выражение отношения действия к реальности)

Grammatika

Harakatning vaqtga, voqelikka munosabati fe'l maylari orqali ifodalanadi. O'zbek tilida fe'lning quyidagi maylari mavjud: aniqlik mayli, buyruq-istak mayli, shart mayli. **Aniqlik mayli** harakatning ma'lum bir zamonda bajarilganini bildiradi: *o'qidim (o'.z.), o'qiyman, o'qiyapman (h.z.), o'qimoqchiman (k.z.)* kabi.

Aniqlik maylidagi fe'llar I, II tuslanishda tuslanadi.

O'zbek tilida harakat bajaruvchisining buyrug'i, xohish-istagi, maslahat-iltimosi kabi ma'nolar **buyruq-istak mayli** orqali ifodalanadi. Masalan: *o'qiy, o'qing, o'qisin, o'qiylik* kabi.

Ushbu mayldagi fe'llar III tuslanishda tuslanadi. O'zbek tilida II shaxs ko'plikdagi *-ng, -ing* qo'shimchasi birlik shaklida ham qo'llanib, hurmat ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

Buyruq-istak maylidagi fe'llarning tuslanishini yodda tuting!

Birlik

I shaxs *o'qiy, boray*
II shaxs *o'qi, bor*
III shaxs *o'qisin, borsin*

Ko'plik

o'qiylik, boraylik
o'qing, boring
o'qishsin, borishsin

93- mashq. Savollarga javob bering. Javoblaringizdagi fe'llarning maylini aniqlab, buyruq-istak maylidagi fe'llarni tahlil qiling. Qaysi javobda hurmat ma'nosi ifodalanganini qayd qiling.

1. Siz kitob o'qishni yaxshi ko'rasizmi?
2. Kitobni qachon, qay tarzda o'qiysiz?
3. Eng sevikli shoir, yozuvchingiz kim?
4. Qaysi obrazga o'xshashni orzu qilasiz? Nima uchun?

94- mashq. Matnni diqqat bilan o'qing va buyruq va shart maylidagi fe'llarni aniqlab, qo'shimchalarini ko'rsating.

Otam menga shunday deb nasihat qiladilar:

— O'g'lim, o'rtoqlaring bilan do'stona yashashni o'rgan. Ishda, o'qishda do'stlaringga yordamingni ayama. Haqiqiy do'st topsang, unga xiyonat qilma. Unga sodiq bo'l, uning sirlaridan

boshqalarni voqif etma. Do‘stingga hech qachon yolg‘on so‘zlama, uning dushmani bilan do‘stlashma. Do‘stingning boshiga mushkul ish tushsa, ham qo‘ling, ham tiling bilan yordam ber. Do‘stlikning qadriga yet. Haqiqiy do‘st topsang, unga xiyonat qilma, sodiq bo‘l. Mehr-u muhabbatingni ham qo‘ling, ham tiling bilan ko‘rsat. Uning sirini mahkam tut, uning oldida birovlarni g‘iybat qilma. Do‘sting muhtojlikda qolsa, darhol yordam ber. Unda biror ayb ko‘rinsa, chekka yerda aytsa, minnatdor bo‘l. Do‘st bilan yolg‘on so‘zlashma, uning dushmani bilan do‘stlashma. Do‘sting boshiga biror mushkul ish tushsa, uni musibatdan qutqarishga jon-u diling bilan kirish. Do‘sting ota-onasiga, oila a‘zolariga qaramli va shafqatli bo‘l. Yuzaki do‘stlarga ham qo‘lingdan kelgancha yaxshilik qil, lekin sir-u asroringdan xabardor qilma. Ular oldida tilingni tiy, har xil gaplarni aytma. Yuzaki bo‘lsa ham yaxshi muomala qilib ularni ham xursand et. O‘z tarafingga moyil qil, ulardan biri ko‘rinmay qolsa, boshqalardan uning ahvolini so‘ra.



Savollarga javob bering

1. Sizning yaqin do‘stingiz bormi?
2. Siz do‘stlashishning ana shu shartlariga rioya qilasizmi?
3. Nasihatlarni hurmat shakliga o‘girib, daftaringizga ko‘chirib yozing.

95- mashq. Maqollarni rus tiliga o‘giring yoki rus tilidagi ekvivalentini toping. Buyruq-istak maylidagi fe‘llarning har ikki tilda ifodalanishini qiyoslang.

1. Olim bo‘lsang, olam seniki.
2. Yer yaxshi ishlansa, hosil mo‘l bo‘ladi.
3. Yaxshilik qila olmasang, yomonlik ham qilma.
4. Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi.
5. Yig‘lab-yig‘lab marza olsang,
O‘ynab-o‘ynab sug‘orasan.
6. Yurt qo‘risang o‘zarsan, qo‘rimasang to‘zarsan.
10. Yaxshilik qila olmasang, yomonlik ham qilma.
11. Otang bolasi bo‘lma,
Odam bolasi bo‘l.

96- mashq. Mattni o‘zbek tiliga o‘giring. Fe‘llarni topib mayllarini aniqlang va har ikki tilda ifodalanishini ko‘rsating.

БУДЬ ДОСТОЙНЫМ ГРАЖДАНИНОМ СВОЕЙ СТРАНЫ!

Всё, что тебя окружает, создано трудом человека. И сам ты, сегодняшней студент, завтра встанешь в ряды тех, кто трудится на благо своего народа. Ты, как и каждый из нас, являешься членом большого коллектива. Поэтому тебе очень важно уметь вести себя в обществе, быть ему полезным, приносить счастье людям, бороться за него.

Тебе предстоит строить будущее. Учись быть достойным его строителем. Постоянно работай над собой, помогай другим, вырабатывай в себе необходимые нравственные качества, стремись быть скромным, волевым, решительным и мужественным человеком. Стремись знать как можно больше, овладевай своей специальностью, чтобы принести пользу своему народу. При этом не забывай помогать товарищам, потому что сила каждого из нас — в неразрывной связи с коллективом. Помни, что человек человеку — друг, товарищ и брат. Будь всегда отзывчивым, внимательным к людям, заботься о них, уважай их. Но если ты видишь, что твой товарищ поступает неправильно, смело говори ему об этом. Этим ты ему поможешь.

Будь требовательным и к самому себе: умей признавать свои ошибки, исправляй их, не обижайся на справедливую критику, старайся быть вежливым и скромным. Помни, что скромность украшает человека. Постоянно контролируй своё поведение, воспитывай в себе волю, решительность, мужество. Помни об этом и будь всегда достойным имени гражданина, патриота, человека!

Grammatika

O'zbek tilida harakatning bajarilish sharti, u haqdagi istak *-sa* qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Shart maylidagi fe'llar ham 1- tuslanishda tuslanadi. Masalan: *o'qisam, o'qisam edi, o'qiganimda edi* kabi. Shart maylida *agar, ma-bodo, basharti* so'zlari qo'llanishi ham mumkin. Shart maylidagi fe'llardan ko'pincha maqollarda foydalaniladi. Masalan: *Nima eksang, shuni o'rasan.*

O'zbek tilida shart maylidagi fe'llar o'tgan zamonga taalluqli I tuslanish qo'shimchalarini olib keladi. Shart mayldagi fe'llar sodda gaplarda ham, qo'shma gaplarda ham uchraydi. Ushbu fe'llar sodda gaplar tarkibida istak ma'nosini bildirishga, qo'shma gaplar tarkibida esa shart ma'nosini bildirishga xizmat qiladi. Bunda qo'shma gap tar-

kibida *agar, mabodo, basharti* soʻzlarini qoʻllash mumkin. Masalan: *Agar qarshi boʻlmasang, nabirang biznikida qolsa va yashab tursa. Seni katta qilsam, rohatingni koʻrsam deyman.*

Shart maylidagi feʼllarning tuslanishini eslang va yodda tuting!

Birlik

- I shaxs *oʻqisam*
- II shaxs *oʻqisang*
- III shaxs *oʻqisa*

Koʻplik

- oʻqisak*
- oʻqisangiz*
- oʻqishsa*

97- mashq. Qavs ichidagi feʼllarni shart mayliga qoʻyib, gaplarni toʻldiring.

1. Yaxshilik (qilmoq), yaxshilik qaytadi. 2. Nima (ekmoq), shuni oʻlasan. 3. Koʻp (oʻqimoq) yutarsan, oz (oʻqimoq) yitarsan. 4. Yerni (boqmoq) bogʻ boʻladi. 5. Kamtar (boʻlmoq) — osh koʻp, manman (boʻlmoq) — tosh koʻp. 6. Mehnat bilan (inoqlashmoq), tan ogʻrigʻin koʻrmassan. 7. Erta (turmoq) — soz havo, kech (turmoq) — bedavo. 8. Yaxshi (soʻzlamoq), asal tomadi, yomon (soʻzlamoq), zahar tomadi.

98- mashq. Ushbu donolar oʻgitlarini oʻqing. Shart maʼnosini bildiruvchi gaplarning ifodalanishiga eʼtibor bering. Qaysi gaplarga *agar* bogʻlovchisini qoʻyish mumkin?

Farzandlaringizni begona kishilar yonida urushib, taʼzirini bermang. Doʻstlaringiz mehmondorchilikka chaqirsalar, bolalaringizni birga olib bormang. Uyingizga mehmonlar kelsa, yosh bolalaringizni ularning yoniga oʻtkazib, dasturxonga qoʻl uzattirmang. Farzandlaringizga biror xizmat buyurar ekansiz yaxshi soʻzlab, muloyimlik bilan buyuring. Begona kishilar oldida oilangizdan shikoyat qilmang. Shunday qilsangiz, oilangiz va doʻstlaringiz oldida oʻz hurmatingizni saqlaysiz.

99- mashq. Berilgan gaplarni davom ettiring. Shart maylidagi feʼllarning qanday maʼno ifodalayotganligini izohlang.

- Kim yaxshi oʻqisa,
- Birovga yaxshilik qilsang,
- Boʻsh vaqtiniz boʻlsa,
- Havo ochiq boʻlsa,

Faxriylarni tabriklamoqchi bo'lsangiz,
....., Samarqandga borishingiz kerak.
....., hurmatga sazovor bo'lasiz.
....., o'zing jabr tortasan.
....., yomonlik ko'rasan.
....., Chimyon tog'larida dam olaman.

100- mashq. Matnni o'qing. Har bir gapdagi fe'llarning mayl shaklini aniqlang va ifodalanishini tushuntiring.

Agar siz ertalab o'rmonga sayrga otlansangiz, ayrim gullar hali o'z qalpoqchalarini ochmaganini ilg'ab olasiz. Mana shu paytda ba'zi o'simliklar o'yg'onib, tong quyoshi tomon talpinadi. Ba'zilari esa uyqusini buzmagani bo'ladi. Siz ularni bir necha kun kuzatsangiz, o'zingiz uchun ajoyib kashfiyot qilasiz. Quyosh chiqishi bilan gullar bir vaqtda ochilavermaydi. Darvoqe, odamlar buni qadim zamonlardayoq kashf etishgan. Ular gullarni kuzatib, ularning hayoti ma'lum biologik maromga bo'ysunishini anglab olganlar. Ayrim gullar o'z gulchambarini erta tongdayoq ochadi va quyosh tik ko'tarilganda yopadi, boshqalari esa kunduzi yoki kechga yaqin uyqudan turadi.

Siz gullarni sevasizmi? Eng sevgan gulingiz qaysi? Siz uning ochilishini hech kuzatganmisiz?

101- mashq. She'rning har bir misrasini o'z so'zingiz bilan tushuntiring va buyruq va shart ma'nosi ifodalangan fe'llarni ko'rsating.

Kimda iqtidor yo'qdir, Ilm ila hunar zoye,
Iqtidor berurman deb, Chekma ranj, ketar zoye.
Kimda asli tole yo'q, Naqdi ham ketar qo'ldan,
Berganing bilan bo'lmas, Oltin-u guhar zoye.
Kimki behamiyatdir, Chetdadir nazardin ham,
Chunki behamiyatga, Solganing nazar zoye.
Kimki muz yurak bo'lsa, O'ylama eritmakni,
Ming quyosh yoqib qo'ysang, Qilmagay asar, zoye.
Gar quvon yurakii er, Jazim etar bahodirlik,
Unga arg'umchoq essiz, Tilla naqsh kamar zoye.

(Erkin Vohidov)

102- mashq. Matnni tarjima qiling. Shart ma'nosining o'zbek va rus tillarida berilishini qiyoslang.

ЦВЕТЫ-СИНОПТИКИ

Некоторые растения, словно синоптики, могут предсказывать перемену погоды. Вот, например, желтовато-белая жимолость, которая цветёт с конца апреля до середины июля, рассказывает человеку: „Если подойдёшь ко мне и почувствуешь сильный запах, жди дождя вечером или ночью“. А бело-розовые цветки вьюнки раскрываются между 7 и 8 часами утра, если же они закрыты — будет дождь.

Мокрица, садовое растение с белыми цветами, говорит: „Если я ещё не проснулась в 9 часов — быть непогоде“. А дрёма предсказывает: „Если у моих розовых цветов летает много ночных бабочек, будет дождь“. Если же вы сломаете хвощ и на изломе будет капелька, то пойдёт дождь. Вот так с помощью растений можно узнать, какая будет погода в ближайшее время.

BILIB OLING!

Navoiy viloyati eng yosh viloyat bo'lib, respublikamizning markaziy qismida, Zarafshon daryosi havzasida joylashgan. Viloyatning hududi 110 ming 800 kv.km. Navoiy viloyatining tarkibiga 8 ta qishloq tumani va 6 ta shahar kiradi. Viloyatning markazi — Navoiy shahri.



Adabiy o'qish

YAXSHILIK QILSANG, YAXSHILIK QAYTADI

(Rivoyat)

Mansab, boylik bularning barchasi o'tkinchi narsalardir. Qaysi bir ko'ngli shikastga yaxshilik qilsangiz, o'sha sizni umrbod eslab yuradi. Yomonlik esa yomonlik bilan eslanadi.

Bir odam ko'chadan o'tib ketayotib, kekxa kishining yo'lda qoqilib ketganini ko'ribdi. Unga hech kim e'tibor bermayotgan ekan. Shunda haligi rahmdil odam darrov o'sha qariyaga yordam beribdi. Uning uyigacha kuzatib qo'yibdi. Bu holatni ko'rib turganlar, bu qariya umr bo'yi birovga yaxshilik qilmagan, hatto, otanaga ham deyishib, qariyaga yordam bergan kishiga tanbeh berishibdi. Shunda rahmdil kishi: „Men buni bilardim, biroq otam qo'lingdan kelsa, mening dushmanimga ham yaxshilik qil“, deganlar debdi.

Qariya esa bu insonning yaxshiligini ko'rib: „Men umr bo'yi yaxshilikni darig' tutgandim, jumladan, otangga ham yomonlikni ravo ko'rgandim. Sen esa menga yordam berding. Shuncha yil yashab yomonlik yaxshilik bilan qaytishini endi ko'rib turishim. Menga hech kim yordam bermagandi, sen esa meni uyimgacha kuzatib qo'yding. Bo'lmasa menga biror kor-hol bo'lishi aniq edi. Sog'lig'im joyida emas. Meni o'limdan saqlab qolding. Buning uchun sendan minnatdorman“, — debdi. Ana shunday qilib u umrini behuda o'tkazganidan afsuslanibdi va bor bisotini yigitga qoldiribdi.

Bu bir rivoyat bo'lsa-da, buning zamirida hayotiy haqiqat bor. Siz ana shu yaxshilik tushunchalarini izohlang. Hayotda kimdan qanday yaxshilik ko'rgansiz, kimga qanday yaxshilik qilgansiz?



Topshiriq

Rivoyatdan olgan xulosangizni yozma bayon eting.

12- mavzu: BAJARUVCHISI ANIQ VA NOANIQ HARAKATNI IFODALASH

(Выражение определённого и неопределённого субъекта действия-состояния)

Harakatning bajaruvchisi aniq yoki noaniq bo'lishi, shuningdek, harakat birgalikda bajarilishi yoki boshqalarga bajartirilishi mumkin. Bu fe'l nisbatlari orqali ifodalanadi. Fe'l nisbatlari harakatning subyekti bilan obykti orasidagi munosabatni bildiradi. O'zbek tilida 5 ta nisbat bor.

Aniq nisbat obykti va subyekti aniq bo'lgan harakatni ifodalaydi. Bunda fe'l hech qanday affiks olmaydi. Masalan: *Talabalar imtihon topshirdilar.*

Birgalik nisbati harakatning birdan ortiq subyekt tomonidan birgalikda bajarilishini bildiradi va fe'l negiziga *-sh (-ish)* affiksini qo'shish orqali hosil qilinadi: *Talabalar o'zaro suhbatlashishdi (suhbatlashmoq fe'lidan hosil qilingan).* O'zbek tilida o'zlik va majhul nisbat shakllari bajaruvchisi noaniq bo'lgan harakatni ifodalaydi.

O'zlik nisbat subyektning o'ziga qaytgan harakat-holatni bildiradi, ya'ni bunda harakatning obykti ham, subyekti ham bitta bo'ladi, asosan, *-n(-in)*, shuningdek, *-l (-il)* affikslarini fe'l o'zak-negiziga qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: *Talabalar yuvindilar.*

O‘zbekistonni, undagi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni o‘zbek xalqi o‘z mehnati, aql-idroki bilan yaratgan. Ushbu qadriyatlar tinimsiz xatti-harakat va mehnat bilan, o‘tkir aql va bilim bilan bunyod etilgan. O‘zbekistonni qadimiy obidalar uyi deb atashadi. Uning 2000 — 3000 yillik tarixga ega ko‘hna shaharlari, o‘z salobati, hashamatli bezaklari bilan barchani lol qoldirgan masjid va madrasalari jahonga mashhur. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga har yili minglab sayyohlar kelishadi. O‘zbekistonga kelgan mehmonlar ushbu shaharlarni ko‘rmay qaytmaydilar.

107- mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Fe’llarning nisbati va maylini aniqlang.

Mehmonlar yana uzoq o‘tir...di, musiqa va g‘azallar tingla...di. Navoiy bu kech forsiyda yozgan g‘azallarini o‘qidi. Uni yana o‘qib bering deb qayta-qayta qista...di. Alisherning kayfiyati yaxshi edi, u murakkab muammolar aytdi. Davrada o‘tirganlar muammolarning javobini aytishib, o‘zlari ham muammolari bilan javob qildilar. Majlis juda qiziqarli va serfayz o‘tdi.

108- mashq. Matnni o‘zbek tiliga o‘giring va so‘zlab bering. Nisbat shakllarining har ikki tilda ifodalanishini qiyoslang.

ШЕДЕВРЫ САМАРКАНДА

Особую страницу в летопись культуры народов Востока вносят архитектурные памятники Самарканда. До наших дней в Самарканде сохранились редчайшие по своей форме и изумительные по красоте памятники средневекового зодчества. Среди выдающихся многочисленных архитектурных памятников особое восхищение вызывают величественная мечеть Биби-Ханым, искусно отделанный ансамбль Шахи-Зинда и неповторимая по красоте площадь Регистан, состоящая из трех медресе: Улугбека, Шер-Дор, Тилля-Кари. Регистан не только музей архитектуры, но и центральная площадь города. Здесь проводятся смотры национального искусства, выступления прославленных народных ансамблей.



Savo‘i va topshiriqlar

1. O‘zbekistonda qanday me‘morchilik obidalari bor?
2. O‘zbekistonning qaysi shaharlarida bo‘lgansiz?
3. O‘z shahringiz, undagi me‘moriy obidalar haqida hikoya qilib bering.

Majlis bayonnomasi va bayonnomadan ko'chirma rasmiy ish qog'ozi bo'lib, unda yig'ilishda ko'rilgan masalalar va ular yuzasidan qabul qilingan qarorlar aks ettiriladi. Bayonnomalar quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Qatnashuvchilar.
2. Kun tartibi.
3. Eshitildi.
4. Qaror qilindi.

109- mashq. Quyidagi majlis bayonining ko'chirmasini o'qing. Shaxssiz gaplarni topib, kesimi qanday ifodalanishini aniqlang.

O'ZDJTU RUS FILOLOGIYASI FAKULTETINING
14- GURUHI TALABALARINING 2004- YIL 20- NOYABR
KUNI O'TKAZGAN 4- YIG'ILISHI QARORIDAN
KO'CHIRMA

Yig'ilish raisi — guruh sardori B. Aliyev.

Kotibi — G. Mavlonova.

Qatnashdilar — guruh talabalari va guruh rahbari O. Karimova.

KUN TARTIBI:

1. Davomat va intizom masalasi.

ESHITILDI:

1. Guruh sardori V. Aliyev so'zga chiqib, talabalardan Kim Oleg va Petrova Ekaterinalarning muntazam dars qoldirishi tufayli guruhning davomat ko'rsatkichi pasayib ketayotganligi va dekanatdan ogohlantirish berilganligi haqida gapirdi.

2. Guruh rahbari O. Karimova so'zga chiqib, Kim Oleg va Petrova Ekaterinaga qattiq ogohlantirish berish taklifini ilgari surdi. Muhokamaga chiqqan talabalar ham buni tasdiqladilar.

QAROR QILINDI:

1. Muntazam dars qoldiruvchi va darslarga kechikib keluvchi Kim Oleg va Petrova Yekaterinaga qattiq ogohlantirish e'lon qilinsin.

Yig'ilish raisi: B. Aliyev

Kotiba: G. Mavlonova



DONO AYOL

(Rivoyat)

Qo'qon xoni shoir va fuzalo Umarxon bilan uning umr yo'l-doshi shoira va oqila Nodirabegim juda inoq, ahil yashar ekanlar. Bir-birlarini qattiq sevishganidan gap-so'z, savol-javobni she'r bilan qilishar ekanlar. Kunlardan bir kun Umarxon kechki bazmi jamshiddan mastligi birmuncha me'yoridan oshgan holatda kelibdilar. Shoir, fuzalo va xonning tunda ichib, sarmast yurishlarini ko'rgan Nodirabegimdek dono malikaga bu ahvol ma'qul tushmabdi. Shunda shirakayf Umarxonning jahli chiqib:

— Begim, biz bir-birimizni tushunmaydigan ko'rinamiz. Men shunday qarorga keldim, saroydan xohlaganingizni olib, o'zingizga yoqqan, ma'qul bo'lgan, ko'nglingiz xush ko'rgan narsalarni oling-da, tong sahar ota-onangiznikiga jo'nang. Men sizning ra'yingizga qarshi bormasman, hech qanday qarshilik qilmasman, — debdi. Umarxon shu so'zlarini aytibdi-da, yotog'iga kirib, dong qotib uxlab qolibdi.

Nodirabegim Umarxonning aytgan so'zlaridan qaytmaydigan, bir so'zligini bilganligidan tunni tongga yetkizguncha g'am-qayg'uda iztirob chekibdi. Tong ota boshlagach, nima qilishni bilmay boshi qotibdi. Ketay desa, Umarxon yurtga xon, ulug' boshini xam qilib, ikki dunyoda orqasidan borib olib kelmaydi. Ketmasdan, saroyda qolay desa, aytilgan so'z — otilgan o'q. Qolaversa, xon amri vojib... Shunday og'ir sarosima bir holatda malika uzoq o'ylab qolibdi. Keyin o'tkir farosati-yu, zukko aql-idroki ish berib qolibdi. Nodirabegim darrov qirq kanizaklarini birma-bir uyg'otibdi. Xonaravaga tulpor otni qo'shtirib, uni nikoh kunlarida yasatilganday yasattiribdi, eng yaqin kishilari yordamida bo'za ta'sirida qattiq uyquda yotgan Umarxonni tashqariga olib chiqib, aravaga solingan joyga yotqizibdi. So'ngra Andijon qaydasan, deb ota-onalari uylari tomon ravona bo'libdi.

Yo'l yarimlab qolganda aravalarning taqir-tuquri, otlarning dupur-dupuri-yu, kishnashlaridan uyg'onib ketgan Umarxon hayron bo'libdi. Keyin tepasida kulimsirab o'ziga termulib turgan go'zal Nodirabegimga ko'zi tushibdi. Hayron bo'lib, malikadan so'rabdi:

— Malikam, bu ne shovqin, bizga yo'l bo'lsin? Qaysi muzofotdamiz o'zi?

Xonning savollariga Nodirabegim tabassum bilan:

— Andijonga yaqinlab qoldik, begim. Andak sabr qilsangiz, yetamiz, — debdi.

— Nechuk, ne sababdan Andijonga? Qo‘qon-chi?! — taajjub bilan so‘rabdi Umarxon. Shunda Nodirabegim odob bilan:

— Begim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, aytay. Sabab shulki, kechqurun siz bazmi jamshiddan xafaholroq kelgan ekan-siz. Buni men o‘jizangiz sezmasman. Oramizda biroz tushunmovchilik sodir bo‘lib, menga: „Saroydagi xohlaganingizni xohlagancha olib, o‘zingizga yoqqan, ma‘qul bo‘lgan, ko‘nglingiz xush ko‘rgan narsalarni oling-da, tong sahar bilan ota-onangiznikiga jo‘nang. Men sizning ra‘yingizga qarshi bormasman, hech qanday qarshilik qilmasman“, dedingiz. Mening esa saroyda... Sizdan boshqa hech qanday boyligim ham, davlatim ham, shon-shavkatim ham yo‘q. Shu boisdan erta tongdan ana shu men uchun har qanday boylikdan ortiqroq, dur-u gavhardan a‘loroq, hayot-mamotim, borlig‘im bo‘lmish Sizni olib, ota-onamnikiga, Andijonga ketyapman, — debdi.

Umarxon tepasida termulib turib mayin erkalik bilan ta‘zim bajo keltirayotgan malikaning donoligi va aql-idrokiga qoyil bo‘lib, tan berib:

— Mendan aql qochibdi, begim. Mening ham sizdan boshqa na davlatim va na shon-shuhratim bor. Siz men uchun hamma narsa, meni afv etgaysiz, — debdi. Xon shunday deb ot boshini Qo‘qonga burishni aytibdi.



Savol va topshiriqlar

1. Matndan aniqlik, o‘zlik va majhullik nisbatidagi fe’llarni topib, uch ustinga bo‘lib yozing.
2. Nodirabegim haqida nimalarni bilasiz? U qanday taxalluslar bilan g‘azallar yozgan?
3. Mustaqil o‘qish uchun berilgan qismdan Nodirabegim tarjimaiy holini topib o‘qing va u haqda so‘zlab bering.

13- mavzu: O‘ZGALARGA BAJARTIRILGAN HARAKATNI IFODALASH

(Выражение действия, выполненного другими лицами)

110- mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan fe’llarning ma‘nosi va ifodalanishiga e‘tibor bering.

Samarqandda muttasil qirq yil hukmronlik qilgan Ulug'bek zamonida talaygina yangi binolar **qad ko'tardi**. Ammo bobosi asosan masjid, maqbaralar **qurdirgan bo'lsa**, Ulug'bek fan saroylarini **qurdirish** bilan shuhrat topdi. U harbiy shon-shavkat ketidan quvmadi. Ulug'bekni ko'proq matematika va astronomiya **qiziqtirardi**. Bu fanlar sohasida u beqiyos yuksaklikka **ko'tarildi**, osmon sayyoralarini harakatini **sharhladi** va astronomik jadval **yaratib**, butun jahonga **dong taratdi**. O'zi kabi fanga sodiq do'stlari bilan birgalikda osmon sayyoralarini kuzatadigan asboblarni **yaratdi**. Kishilarda ilm-u ma'rifatga muhabbat uyg'otishga **intildi**. Qo'l ostidagi shaharlarda maktab va madrasalar **qurdirdi**.

Orttirma nisbat harakat boshqa bir subyektning ta'siri natijasida sodir etilganligini bildiradi. Bunda harakatning haqiqiy bajaruvchisi gapda obyekt bo'lib, yordamchi subyekt esa ega vazifasida keladi. Masalan:

O'qituvchi talabalarga topshiriqni tushuntirdi.

Orttirma nisbat fe'llarning asosga *-dir(-tir)*, *-giz (-kiz, -qiz, -g'iz)*, *-gaz (-kaz, -qaz, -g'az)*, *-ir (-iz)*, *-sat, -t* affikslarini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: *kestirmoq, turg'izmoq, kirgizmoq, tutqizmoq, ketkizmoq, ko'rgazmoq, o'tqazmoq, yurg'azmoq, ichirmoq, ko'rsatmoq, uxlatmoq* kabilar.

Eslatma: -giz, -gaz, -g'az affikslari jarangli tovushlardan, *-tir, -kiz, -qiz, -kaz, -qaz* affikslari esa jarangsiz tovushlardan keyin qo'shiladi.

111- mashq. Quyidagi o'zakdosh fe'llarning shakllari orasidagi farqni tushuntiring va yozilishiga e'tibor bering.

Yasadi, yasandi, yasaldi, yasashdi, yasatdi, yasattirdi;
Yutdi, yutishdi, yutqizishdi, yuttirdi, yutildi;
Ko'rildi, ko'rishdi, ko'rsatdi, ko'rindi, ko'rdi, ko'rgazdi;
Kiydi, kiygizdi, kiyindi, kiyildi, kiyishdi, kiyirdi;
So'radi, so'ratdi, so'rashdi, so'raldi, so'rattirdi.

112- mashq. Maqollarni o'qing. Orttirma nisbatdagi fe'llarni toping, yasalishini tushuntiring. Maqollarning ma'nosini izohlang.

1. Aql va mehnat insonni o'stirib, balog'atga yetkazadi.
2. Mehnat — tanga quvvat, nomga shuhrat keltiradi.

3. Tirishqoqlik mehnatni yengillashtiradi.
4. Yaxshi soʻz temir darvozalarni ochdirar.
5. Farovonlik istasang, baxtli boʻlganingda ham yor-doʻstlar orttir.
6. Kishi yurtida sulton boʻlguncha, oʻz yurtida choʻpon boʻl.
7. Eldan ayrilguncha, jondan ayril.

113- mashq. Matnни oʻqing. Harakat va bajaruvchisi oʻrtasidagi munosabatni tushuntiring va feʼllarning ifodalanish shakllarini izohlang.

Bir yigit keksa otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi. Bir kuni chol bechora qoʻllari titrab, osh suzib berilgan kosani tushirib sindirdi. Buni koʻrgan kelini eriga aytib, yogʻoch kosa sotib oldirdi va cholga shu kosada ovqat bera boshlashdi. Chol oʻgʻli bilan kelining bunday muomalasidan koʻngli ogʻrib, vafot etgan kampirini eslab, tunlari yigʻlab chiqardi. Uning yolgʻizgina ovunchogʻi — nabirasi boʻlib, faqat ugina cholga mehribonlik qilar, bobosining oldiga kelib oʻtirar, yoqimli qiliqlari bilan bobosini kuldirib, qaygʻu-armonlarini yengillashtirardi. Bir kuni yigit ishdan qaytsa, oʻgʻli taxta yoʻnib oʻtirganini koʻribdi va: „Oʻgʻlim, nima qilyapsan?“ — deb soʻrabdi. „Yogʻoch kosa yasayapman, — deb javob beribdi bola. — Katta boʻlganimda, sizga shu kosada ovqat beraman.“ Bu gapni eshitgan yigit yoʻl qoʻygan xatosini tushunib, otasidan yigʻlab kechirim soʻrabdi va uni uyining toʻriga oʻtkazib, izzat-ikrom bilan qaray boshlabdi.

ESHITISH MASHQI

„Onajon“ qoʻshigʻini diqqat bilan eshiting. Sheʼr mazmuni, uning muallifi va ijrochisi haqida soʻzlab bering. Soʻngra „Mening onajonim“ mavzusida uy inshosi yozing.

ONAJON

Koʻkda yulduz uchsa nogahon,
Bitdi, derlar qaysi bir taqdir.
Bunday gʻmni koʻtarmak oson,
Bu ehtimol, bizlar haqdadir.

Baʼzi tunlar koʻkka tikib koʻz,
Eslab deyman onamni shu on:
Ona ketsa, yulduz-ku yulduz
Qulab tushsa arziydi osmon.

Ma'lumotnoma biror shaxs haqida ma'lumot-axborot beruvchi hujjat bo'lib, ma'lum bir idora (mahalla, ishxona, o'quv muassasasi) tomonidan beriladi. Bu hujjat turi maxsus qolipga tushirilgan bo'ladi va quyidagi zaruriy qismlardan iborat bo'ladi

114- mashq. „Ma'lumotnoma“ namunasini o'qing va unda ishlatiladigan nutqiy qoliplarga e'tibor bering. Berilgan rasmiy ish qog'ozi namunasidan foydalanib, o'zingiz ma'lumotnoma yozing va unda qo'llanadigan fe'l shakllariga e'tibor bering.

Mahalla fuqarolar yig'ini raisining to'rtburchak muhri Tuman, shahar va mahalla nomi	Murod Ibrohimovich Nurmuhammedov Toshkent shahar Yunusobod tumani Olmazor ko'chasidagi 7- uyda yashaydi.
--	--

Ma'lumotnomaning raqami va berilgan sana	Ma'lumotnoma _____ ga taqdim etish uchun berildi.
--	---

„Firdavsiy“ nomli mahalla fuqarolar yig'ini raisi	(imzo)	A. Boboyev
Kotib	(imzo)	M. Samadov
	(muhr)	

115- mashq. Rus tilidagi rasmiy ish qog'ozini o'zbek tiliga o'giring va har ikki tilda qo'llanadigan til vositalarining grammatik shakllarini qiyoslang.

Штамп организации
№ _____
„____“ _____ г.

СПРАВКА

Настоящая справка выдана _____ Ф.И.О.
о том, что он действительно является членом спортивного клуба „Матонат“ Яккасарайского тумана г. Ташкента.
Справка выдана по месту требования.

Директор _____ Ф.И.О.
(подпись)

116- mashq. Matnни o‘qing va o‘zbek tiliga o‘giring. Fe‘llarning nisbat shakllarining rus va o‘zbek tillarida berilishini qiyoslang.

ДРЕВНИЙ САМАРКАНД

Самарканд — один из древнейших городов мира. До нашей эры он существовал под названием Мараканд, позднее его стали называть Афрасиабом. Он был столицей могущественного государства Согд, империи Амира Тимура. Именно в эпоху Тимуридов Самарканд достиг наивысшего расцвета. До сих пор всех поражает великолепие многочисленных памятников Самарканда и его окрестностей. Всемирно известны ансамбли города: величественная площадь Регистан с расположенными на ней тремя медресе — Улугбека, Шер-Дор и Тилля-Кари; некрополь Шахи-Зинда, состоящий из 11 мавзолеев; грандиозная мечеть Биби-Ханым. Самый знаменитый памятник Самарканда — мавзолей Гур-Эмир, усыпальница великого Тимура, его сыновей и внуков. Это один из лучших образцов архитектуры средневекового Востока. Архитектурные шедевры древнего Самарканда не теряют своей привлекательности для туристов всего мира.



Adabiy o‘qish

XIYONAT

(*Afsona*)

Guldursun bir zamonlar Guliston deb atalgan ekan. Bu joy yer-suvi mo‘l, gullab-yashnagan, boy shahar ekan. Shaharni qari bir podshoh so‘rar, uning Guldursun nomli go‘zal qizi bor ekan. Kunlardan bir kuni shaharning boshiga kulfat tushibdi: sahrodan kelgan bosqinchi qalmiq galalari o‘z yo‘lida uchragan hamma narsani bosib-yanchib, nihoyat shaharga yaqinlashibdi. Qalmiqlar gullab-yashnagan dala va bog‘larni yer bilan yakson etib, so‘ng shaharni qamal etibdi. Aholi shaharni mardonavor mudofaa qilibdi, xalq qarshiligini yengishga dushmanning kuchi yetmabdi. Shu tariqa oylar o‘tibdi, baxtga qarshi yanada xavfliroq dushman — ochlik bosqinchlarga yordamga kelibdi. Oziq-ovqat jamg‘armalari tugab, odamlar ko‘chalarda o‘la boshlabdi. Saflari siyraklashib qolgan shahar himoyachilari qurollarini qo‘llarida zo‘rg‘a ushlab turar ekanlar.

Shunda podshoh o‘zining amaldor va lashkarboshilarini maslahatga chaqiribdi. Bularning ichida bir odam topilib, u so‘nggi

najot chorasini sinab ko‘rishni taklif qilibdi. Bu — juda ayyorona reja ekan. Qamaldagi gulistonliklar qolgan bir necha ho‘kiz ichidan eng semizini maxfiy yo‘l bilan saroyga keltirib, uni podshoh omboridagi oxirgi bug‘doy bilan to‘ydirishibdi va shahardan tashqariga chiqarib yuborishibdi. Faqat qamaldagilar emas, balki qamal qilganlar ham ochlikdan azob chekishayotgan ekan. Qalmiqlar bir necha oy davomida nimani yeyish mumkin bo‘lsa, hammasini yeb bitirgan ekan. Ularning qarorgohida qamaldan voz kechish to‘g‘risida gap-so‘zlar boshlanibdi. Och qalmiqlar ho‘kizni tutib olib so‘yishibdi, shunda ular ho‘kizning oshqozoni sara bug‘doyga to‘la ekanligini ko‘rishib, sarosimaga tushibdi. „Agar ular molni shunchalik boqsa, g‘amlagan oziq-ovqati behisob ekan-da? — deb baqirishibdi jangchilar. — Qamal qilishdan foyda yo‘q, shaharni olib bo‘lmaydi, ochlikdan qirilib ketmasdan jo‘nab qolaylik“.

Qalmiqlarning lashkarboshilari ham shu fikrga kelishib, qaytishga hozirlik ko‘ra boshlashibdi. Biroq podshohning qizi Guldursunning xayoli boshqa narsada ekan. U uzoq oylar davomida qalmiqlarning mard, pahlavon, yosh va xushqomat lashkarboshisi — qalmiq podshohning o‘g‘lini devordan kuzatib yurar ekan. Qizning qalbida xalqning dushmanlari yo‘lboshchisiga nisbatan cheksiz ehtiros alanga olibdi. Qiz qamaldagilarning hiylasi ish berganini, yuk ortilgan tuyalarning bo‘kira boshlagani, qalmiqlarning o‘tovlari birin-ketin yo‘qolayotganini ko‘rib, bir necha soatdan keyin ularning bu yerda qolmasligiga, ular bilan birga go‘zal shahzoda ham abadiy ketishiga ko‘zi yetgach, inson nomiga nomunosib ish tutibdi: o‘zining kanizagidan qalmiq bahodiriga xat berib yuboribdi. Xatda qiz yigitga bo‘lgan muhabbatini izhor qilib, gulistonliklarning sirini ochib beribdi. „Yana bir kun kut, — deb yozibdi u, — shaharning taslim bo‘lishini o‘zing ko‘rasan“.

Qalmiqlar tuyalardan yuklarini tushirishibdi, tunda qarorgohda yana son-sanoqsiz gulxanlar yonibdi. Shahar talanib yondirilibdi, aholining bir qismi qirib tashlanibdi, qolganlarini esa qul qilib olib ketishibdi. Sotqin Guldursunni shahzoda oldiga keltirishibdi. Shahzoda unga qarab shunday debdi: „Vatani dushmaniga bo‘lgan nomunosib ehtirosi tufayli xalqiga va o‘z otasiga xiyonat qilgan ekan, menga vafo qilarmidi? Uni yovvoyi otlar dumiga bog‘lang, toki bundan keyin hech kimga xiyonat qilolmasin“ Ot dumiga bog‘langan Guldursunning tanasi parcha-parcha bo‘lib, cho‘l-u biyobonlarda qolib ketibdi. Xon qizining qoni to‘kilgan bu yer xarobaga aylanib, endi Guliston emas, Guldursun deb atala boshlandi.



Savol va topshiriqlar

1. Xiyonat va sadoqat deganda nimani tushunasiz?
2. Siz o'z vataniga xiyonat qilgan Guldursunga qanday munosabat bildirasiz?
3. Vatan va vatanparvarlik, vatanga sadoqat tushunchalari haqida o'z fikringizni bildiring.

BILIB OLING!

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoli-g'arbida joylashgan. Uning hududi 164 ming 700 kv.km. Qoraqalpog'iston tarkibida 15 ta tuman va 12 ta shahar bo'lib, markazi Nukus shahridir. Qoraqalpog'istonda Nukus davlat universiteti, Pedagogika instituti, Toshkent oliy o'quv yurtlarining bir nechta filiallari mavjud. Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim qoraqalpoq, o'zbek va rus tillarida olib boriladi.

OBJEKTNI IFODALASH

14- mavzu: TO‘LDIRUVCHI VA UNING IFODALANISHI
(Выражение дополнения)

Harakat yo‘nalgan shaxs yoki predmet — obyekt deb atalib, grammatik jihatdan u to‘ldiruvchi yoki hol bo‘lishi mumkin. To‘ldiruvchi gapning bosh bo‘laklaridan keyingi asosiy bo‘lak hisoblanadi. To‘ldiruvchi har doim kesimga bog‘lanadi. Masalan:

O‘qituvchi talabalarga topshiriq berdi.

Biz kutubxonadan kerakli kitoblarni oldik.

To‘ldiruvchi tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari qo‘shimchalari yoki ko‘makchi so‘zlarni olib keladi. Ular ba‘zan bir-biriga sinonim bo‘lib ham qo‘llanadi. Qiyoslang:

mavzuni so‘zlab berdi

mavzu haqida so‘zlab berdi

ukamga oldim

ukam uchun oldim

telefonida gaplashdi

telefon orqali gaplashdi

Tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari faqat kimni? nimani? kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? so‘roqlariga javob bo‘lgandagina to‘ldiruvchi bo‘lib keladi. Masalan:

Men kimni? ko‘rib qoldim. — Men do‘stimni ko‘rib qoldim.

Talaba nimani? yozyapti. — O‘qituvchi mavzuni yozyapti.

Lola nimani? kimga? berdi. — Lola daftarini o‘rtog‘iga berdi.

Biz kim uchun? sovg‘a oldik. — Biz buvimiz uchun sovg‘a oldik.

Ular nima haqida? so‘rashdi — Ular ob-havo haqida so‘rashdi.

Ot, olmosh va otlashgan so‘zlarning kelishik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi **turlanish** deb atлади.

Kelishik qo‘shimchalarini yodda tuting!

Bosh kelishik	-	<i>kim? nima? qayer?</i>
Qaratqich kelishigi	- ning	<i>kimning? nimaning?</i>
Tushum kelishigi	- ni	<i>kimni? nimani? qayerni?</i>
Jo‘nalish kelishigi	- ga	<i>kimga? nimaga? qayerga? qachonga?</i>

O‘rin-payt kelishigi -**da** kimda? nimada? qayerda? qachon?
Chiqish kelishigi -**dan** kimdan? nimadan? qayerdan? qa-
chondan?

117- mashq. Savollar o‘rniga obyektini ifodalovchi so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Odamning yuzi (nimadan?) issiq. 2. Fakultetimiz dekani (kimlarni?) tabrikladi. 3. Olimjon so‘rining atrofidagi xilma-xil (nimalardan?) chiroyli (nimani?) yasadi. 4. (Kim bilan?) (nima to‘g‘risida?) so‘zlashdik. 5. Men kecha ko‘chada (kimni?) ko‘rdim, u (kimga?) salom aytib yubordi. 6. O‘qituvchimiz (kimdan?) kelishiklarning (nimalarini?) so‘radi. 7. Qushlar juda foydali, chunki ular zararli (nimalarni?) yeydilar. 8. Biz (nimaga?) tayyorlanish uchun (kimnikiga?) yig‘ildik.

118- mashq. O‘qing. Matndan obyektini ifodalovchi so‘zlarni topib, ifodalanishi va grammatik vositalarini ko‘rsating. Matndagi fikrni davom ettiring.

Inson o‘zining odobi, ilmi bilan yoqimli bo‘lib, mehnati bilan sharaflanadi, hurmat ko‘radi. Inson aslida yaxshilig-u savob ishga, ezgulikka, halollikka tashna bo‘lib yashaydi, o‘zgalardan ko‘radigan mehr-oqibatga halol mehnati tufayli erishadi ...

119- mashq. Matnni yana bir bor diqqat bilan o‘qing. Ushbu fe‘llarga mos savollar va javoblar qo‘yib, obyektli birikmalar tuzing va daftaringizga yozing.

Hurmat ko‘radi. Erishadi. Sharaflanadi.

120- mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga savol bering va gapdagi vazifasini ko‘rsating. Qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanayotganini ayting

Namuna: Qarindoshingda qayg‘u bo‘lmasin. (Kimda? — to‘ldiruvchi, ot bilan ifodalangan). *Yaxshidan ot qolar, yomondan dod.* (Kimdan? — to‘ldiruvchi, sifat bilan ifodalangan.)

1. **Beshni o‘nga** qo‘shsak, o‘n besh bo‘ladi. 2. **O‘zingda** ayb ko‘p. 3. **O‘zingda** bo‘lsa, kuningga yarar. 4. **O‘zingni** er bilsang, **o‘zgani** sher bil. 5. **Bo‘linganni** bo‘ri yer. 6. **Ko‘pdan** quyon qochib qutulmas. 7. **Qish faslini** kutadi dalalar, maydonlar. 8. **Og‘zi bo‘shga** ishonib bo‘lmaydi. 9. Odam **po‘latdan** qattiq, **guldin** nozik. 10. **Orzuga** ayb yo‘q.

121- mashq. Matnni o‘zbek tiliga o‘giring. Obyektli birikmalarning o‘zbek va rus tillarida ifodalanishini qiyoslang.

Мать мужает вместе с детьми. Вырастают дети и выбирают себе дороги, но дети никогда не идут по проторенным дорогам отцов, а продолжают их или ищут каждый свою дорогу в жизни. Для материнского сердца каждый из её детей всегда остаётся ребёнком, даже если у этого ребёнка есть уже свои дети и блестит седина на висках. Каждая мать всегда найдёт для своих детей добрые слова поддержки в трудную минуту и всегда будет радоваться от всего сердца их успехам в жизни. Поэтому мать — это самый близкий и дорогой человек для каждого из нас.

Yodda tuting!

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *g, k* harflari bilan tugagan so'zlarda *-ka* shaklida, *q* harflari bilan tugagan so'zlarda esa *-qa* shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. O'rinpayt va chiqish kelishigi qo'shimchalari esa *-ta, -tan* deb talaffuz qilinsa-da, imlo qoidalariga asosan, *-da, -dan* shaklida yoziladi.

<u>Aytilishi</u>	<u>Yozilishi</u>
<i>elakka</i>	<i>elakka</i>
<i>o'rtoqqa</i>	<i>o'rtoqqa</i>
<i>ishka</i>	<i>ishga</i>
<i>o'tta</i>	<i>o'tda</i>
<i>mehnattan</i>	<i>mehnatdan</i>

122- mashq. Ona haqidagi ushbu hikmatli so'zlarni o'qing, mazmunini ona tilingizda tushuntiring. Obyektli birikmalarni toping.

Onangdan xabar ol, bo'lsang hamki yiroqda,
 Ko'zlari termulib qiynalmasin firoqda.
 Xam qilmaylik onalarning boshini,
 Dushmanlar ko'rmasin ko'zda yoshini.
 Farzandlar kamolini o'ylaydi ona,
 Hurmat bilan biz bo'laylik parvona.
 Nozik bo'lar ona qalbi guldan ham
 O'ylamasdan bermaylik unga alam.
 Onalarni ko'tarsak arzigay boshga,
 Yomon farzandning boshi tegadi toshga.
 Zinhor yoshlatmang onaning ko'zin,
 Eshitmoqqa zor bo'lasan keyin birgina so'zin.
 Sharaf tojini izlama, Onang rizoligini izla.

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan tinglang va tayanch soʻzlarni yozib boring. Soʻngra matnni tiklang va matnda ifodalangan asosiy fikrni toping.

Onasini behurmat qilgan odam qoʻshni kampirni yaxshi koʻraman, desa, ishonmayman. Oʻz xalqining tilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilmagan odam boshqa xalqlarning tilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilaman, desa ishonmayman. Bunaqa odamdan loʻttiboz chiqishi mumkin, ammo hech qachon haqiqiy inson chiqmaydi.

(Oʻtkir Hoshimov)

Bildirgi yoki *bildirishnoma* xabar berish toʻgʻrisida yoziladigan rasmiy ish qogʻozi boʻlib, eng qadimiy hujjat namunalaridan biridir. XI asrda yashagan turkiyshunos olim Mahmud Koshgʻariyning „Devon-u lugʻatit turk“ asarida mazkur hujjat „Bildirgi“ nomi bilan qayd qilib oʻtilgan. Ushbu ish qogʻozi shaxs tomonidan oʻz ish majburiyatining bajarilganligini bildirish, maʼlum qilish maqsadida yoziladi. Shuning uchun unda albatta *bildiraman*, *maʼlum qilaman* soʻzlari qoʻllanishi kerak boʻladi.

123- mashq. Nuqtalar oʻrniga maʼlumot uchun berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, „Bildirgi“ namunasini oʻqing. Ushbu rasmiy ish qogʻozining zaruriy qismlari va ularda ishlatiladigan nutqiy konstruksiyalarni bilib oling. Almashtirib qoʻllanishi mumkin boʻlgan kelishikli va koʻmakchili konstruksiyalarni aniqlang.

Kimga?
Kimdan?

BILDIRGI

Men taʼtilidan qaytib keldim va (sana) dan ... kirishganligimni maʼlum qilaman (bildiraman).

sana

imzo

Maʼlumot uchun: ishga tushganligimni, xizmat vazifamni bajarishga, oʻquv taʼtilidan qaytganligimni, xizmat safaridan qaytganligimni.



ONAGA MEHR

Iyun oylari edi. Kun issiq. Hamma o'zini soya-salqin joyga uradi. Men ham ishdan qaytar ekaman, Kaykovus suvi bo'yidagi otaxonlar choyxonasida bir choynak ko'k choy ichib ketay, deb so'lim va salqin xiyobonga yo'l oldim. Kech bo'lib qolgan bo'lsa-da, issiq hali-beri qaytadiganga o'xshamasdi. Bir choynak ko'k choyni ko'tarib, chekkadagi so'riga qarab yurdim. Muzdek havodan to'yib-to'yib simirib, choynakdagi choyni uch bor qaytarib qo'ydim. Hali bir piyola choy ichmagan ham edimki, besh-olti qadam narida bir yigit onasining qo'lidan tutib kelayotganiga ko'zim tushib qoldi. Yigit kun issiq bo'lsa-da, yangi oqish kastum kiygan edi. Nazarimda u tuzukroq joyda ishlasa kerak, o'zini sipo tutardi. Ona-bola gapini chala-chulpa eshitib, ularga tikilib qoldim.

— Yuravering, onajon! Hu, chekkadagi so'rida o'tirib, choy ichamiz! — dedi yigit.

— Yo'q, bolajoninam! Sen choyingni ichib chiqaver, men bir chekkada o'tirib, kutib turaman! — javob berdi ona to'xtab, yerga cho'qqayib o'tirarkan.

Yigit gangib qoldi. Choyxonaga kirib choy ichishni istamagan onasini har qancha intilmasin, ko'ndirishga ko'zi yetmadi, shekilli, yangi kastumini shart yechdi-da, suvsizlikdan sarg'ayib ketgan yo'lka chetidagi maysa ustiga to'shadi. Ona esa:

— Voy nima qilyapsan? Qo'y, unday qilma! — deganiga qaramay, yigit onasini yerga to'shagan kastumiga majburan o'tqazib qo'ydi.

— Men hozir choy olib kelaman. Siz mana shu yerda o'tirib, dam olib turing. Yigit tez-tez yurib choyxona ichiga kirib ketdi. Bu paytda ona kastum ustidan turdi, uni avaylab qo'lga oldi, changlarini qoqdi-da, qovjroq o't ustiga dastro'molchasini yozib o'tirdi. O'g'lining kastumini esa ulkan bir boylik kabi tizzasiga avaylab qo'ydi.

Patnisda qand-qurs, issiq non va ikki choynak choy ko'tarib chiqqan yigit onasining qilgan ishini ko'rdi-da, indamay qo'ya qoldi.

Men hayrat va hayajon bilan ularga boqib, ko'k choyni ho'plardim. Birgina ona va bolaning ulkan quyoshday mehri meni batamom sehrlab qo'ygandi. Yigit onasi uchun hozir butun dunyo boyliklarini ham to'kib tashlashga tayyor edi...



Savol va topshiriqlar

1. Sharq xalqlarida ota, ona va farzand o'rtasidagi munosabat qanday?
2. „Jannat onalar oyog'i ostidadur“ hadisining ma'nosini tushuntirib bering.
3. Siz onangizga o'z hurmatingizni qanday bildirasiz?

15- mavzu: TO'LDIRUVCHINING TURLARI VA ULARNING IFODALANISHI

(Разновидности дополнений и их выражение)

O'zbek tilida to'ldiruvchilar 2 xil bo'ladi: vositasiz va vositali to'ldiruvchilar. Vositasiz to'ldiruvchilar harakatning obyektga to'g'ridan to'g'ri, bevosita, to'liq o'tganini bildiradi va tushum kelishigidagi so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan:

choyni ichmoq, olmani termoq, kitob(ni) o'qimoq

Vositali to'ldiruvchilar harakatning obyektga biror vosita yordamida va qisman o'tganini bildiradi. Bunday to'ldiruvchilar o'rin kelishiklari qo'shimchalari va ko'makchilar bilan keladi. Masalan: *Choyni qand bilan ichmoq, olmani savatga joylamoq.*

Vositasiz to'ldiruvchilar belgili va belgisiz qo'llanishi mumkin. Obyekt konkret shaxs va predmetni ko'rsatsa, ya'ni shaxs ko'rsatkichi, aniqlovchisi bo'lganda, olmosh yoki atoqli ot bilan ifodalanganda to'ldiruvchi albatta tushum kelishigi qo'shimchasini olib keladi. Masalan: *Uyga berilgan vazifani bajardik. Hamid o'z she'rini o'qib berdi.*

Obyekt umumiylikni bildirganda, tushum kelishigi qo'shimchasisiz qo'llanishi mumkin. Masalan:

Biz o'zbek tili darsida mashqlar yozdik va sher o'qidik.

Ushbu grammatik shakllarni eslang va yodda tuting!

Vositasiz to'ldiruvchi	Kimni? Nimani?	-ni (tushum kelishigi) -in (eskirgan shakl)
Vositali to'ldiruvchi	Kimga? Nimaga? Kimda? Nimada? Kimdan? Nimadan? Kim bilan?	jo'nalish kelishigidagi so'zlar o'rin-payt kelishigidagi so'zlar chiqish kelishigidagi so'zlar ko'makchilar vositasida

	Nima bilan? Kim haqida? Nima to'g'risida? Kim uchun? Nima uchun?	
--	--	--

124- mashq. Nuqtalar o'rniga zarur kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchilarni qo'yib matnni ko'chiring.

YOSH TABIATSHUNOSLAR

Men yosh tabiatshunoslar to'garagi... qatnashaman. Yakshanba kuni o'rtoqlarim ... to'garakka bordim. To'garak rahbari bu mashg'ulot... atirgullarning navlari ... suhbat o'tkazdi. Men gullar... sevaman. Hovlimizga har xil gullar... ekkanman. Ular... qanday parvarishlash... o'qituvchimiz... so'rab turaman. Biz bu to'garak... daraxtlar va gullar... ekish, parvarishlash... o'rganamiz. O'qituvchimiz yer... mehr qo'yish to'g'risida gapirib, biz... tabiat... asrash... o'rgatadilar. Tabiat..., Vatanimiz... asrash har birimiz... burchimizdir.

125- mashq. Quydagi berilgan maqollarni mazmunan tugallang va to'ldiruvchining qanday ifodalanayotganini izohlang.

1. O'zingni er bilsang,
2. Har yerni qilma orzu,
3. Sog'lom tanda,
4. Sog'liq qadrini
5. Tabib tabib emas,
6. Yahshi odam yurt tuzar,
7. Birni kessang
8. Gapni gapir uqqanga,

126- mashq. Matnni o'qing va vositasiz to'ldiruvchilarning belgili-belgisiz qo'llanishining sababini izohlang.

FAROSAT VA FAROSATSIZLIK

Farosatlilik va farosatsizlikni har qadamda uchratish mumkin. Suhbatda ham, ko'cha-ko'yda yurganda ham, kattalar bilan muomalada ham, o'qishga, ishga munosabatda ham, kiyinish, yurish-turishda ham. Farosatlilik kishilarda hurmat, mehr, iliqlik, yaxshi kayfiyat, ishonch, e'tiqod, ixlos kabi tuyg'ular uyg'otsa, farosatsizlik, befahmlik uning aksidir. U kishiga nisbatan nafrat, g'azab, gumon, shubha paydo qiladi.

Kelishikli va ko‘makchili birikmalar o‘zaro sinonim bo‘lib qo‘llanishi mumkin. Ushbu misollarni qiyoslang:

Kelishikli birikmalar

Ukamga oldim
Telefonda so‘zlashdim
Imtihonni gaplashdik

Ko‘makchili birikmalar

Ukam uchun oldim
Telefon orqali so‘zlashdim
Imtihon haqida gaplashdik

127- mashq. O‘zaro sinonim bo‘lib kela oladigan ushbu kelishikli va ko‘makchili nutqiy tuzilmalarni eslab qoling va rus tilidagi shakldoshiga qiyoslang.

Kimni? > so‘radik
Nimani? >
Kimga? — sotib oldi

kim haqida? > gaplashdik
nima haqida? >
kim uchun? — sotib oldi

kimdan? > ma‘lumot
nimadan? > yig‘di

kim haqida? > ma‘lumot
nima haqida? > yig‘di

kimdan? — berib yubordi

kim orqali? — berib yubordi

nimada? — yozdi

nima bilan? > yozdi
vositasida >

O‘zbek tilida fikr obyekti qo‘shma gaplar vositasida ham ifodalanishi mumkin. Bunday gaplar *-ki* va *-sa* qo‘shimchalari yordamida bog‘lanadi, shuningdek, ular tarkibida *buni, shuni, shunga, o‘shanga, undan, bundan, o‘shandan* kabi olmoshlar ishtirok etishi mumkin. Masalan: *Shuni unutmangki, rostgo‘ylik, axloqiy poklik har bir odamni to‘g‘ri yo‘lga yetaklaydi. Kimki bo‘lsa dilozor, undan el-u yurt bezor.*

Ba‘zan bunday gaplar *-mi* qo‘shimchasi vositasida ham bog‘lanishi mumkin. Masalan: *Bilasizmi, ertaga yozuvchilar bilan uchrashuv bo‘lar ekan.*

O‘zbek tilida to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar sodda gaplar bilan sinonimik konstruksiyalarni hosil qilishi mumkin. Qiyoslang: *Shuni bilingki, vatanga sadoqat har bir fuqaroning burchidir. Vatanga sadoqat har bir fuqaroning burchi ekanligini biling.*

128- mashq. Gaplarni o‘qing. To‘ldiruvchi ergash gaplarning tuzilishiga e‘tibor bering.

1. Kim umumning manfaatiga xizmat qilsa, uni xalq hamisha qo'llab-quvvatlaydi. 2. Biz shunga erishmog'imiz kerakki, birorta ham talaba sababsiz darsdan qolmasin. 3. Ona biladiki, endi har nahor, Butun vatan bo'ylab to'lishar bahor. (H.O.) 4. Istaymanki, shoirning orzulari, umidlari haqiqatga aylansin. 5. Shuni yaxshi bilingki, har bir ishning yaxshi-yomon tomoni bo'ladi. 6. Shuni unutmangki, haqiqiy baxt mehnatdan topiladi.

129- mashq. Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos ergash gap qo'yib ko'chiring.

1. Shuni unutmangki kerakki,
2. Biz yaxshi bilamizki,
3. Kishilar istaydiki,
4. Azamatlar, shunga nihoyatda xursandmanki,
5. Men ishonamanki,

130- mashq. Berilgan sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirib ko'chiring va qanday ma'noni ifodalasini tushuntiring.

1. Biz hayron qoldik. Siz topshiriqni bajarmadingiz.
2. O'qituvchi xursand bo'ldi. Uning o'quvchilari topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishdi.
3. Onam so'radilar. Men tennisga boraman.
4. Biz ishonamiz. Orzumiz ushaladi.
5. O'qituvchi talab qiladi. Men o'zbek tilida erkin gapiraman.
6. Bizning guruhimiz erishadi. Bizga dam olish oromgohiga yo'llanmani berishadi.

ESHITISH MASHQI

Matnmi diqqat bilan eshiting. Tayanch so'zlarni yozib boring va matnni qayta tiklang. Sifatlovchili birikmalarning ifodalanishini tushuntiring.

SHOHJAHON ASRI

Shohjahon zamonasi nihoyatda yuqori ko'tarinkilik davri bo'lib, Hindiston tarixda bunday boyliklarni ko'rmagan edi. Ushbu boyliklar Shohjahonning ota-bobolari va ajdodlari tomonidan yig'ilib kelgan bo'lib, uning ulkanligi urushlarda qozonilgan g'alabalar bilan emas, balki yaratilgan buyuk san'at obidalari bilan belgilanadiki, ular bugungi kungacha butun insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Bu o'lmas asarlar jumlasiga Dehli'dagi „La'l qal'a“, uning ro'parasidagi „Masjidi jome“, Agradagi „Toj mahal“ maqbaralari kiradi. „La'l qal'a“ Jamna daryosi bo'yiga qurilgan bo'ib, uning ko'rinishi Agradagiga o'xshaydi. 1637- yilda Dehli

shahrida Shohjahon tomonidan qurilgan va hamisha boburiy podshohlarining oromgohi bo'lgan.

131- mashq. Berilgan gaplarni o'zbek tiliga o'giring. Har ikki tildagi qo'shma gaplarni o'zaro qiyoslab, tuzilishi va ifoda vositalarini izohlang.

1. Уместно будет напомнить, что язык создается народом.
2. Не читайте, что попало, выбирайте со строгим выбором. Воспитывайте свой вкус и мышление.
3. Он знает, что мы добьемся победы.
4. Он говорил о том, что считал наиболее важным.
5. Чего в другом не любишь, того и сам не делай.
6. О том кукушка и кукует, что своего гнезда нет.
7. Мы так и не поняли, откуда слышны такие приятные звуки.

132- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring. Har ikki tildagi obyektli birikmalarning ifodalanishini qiyoslab ko'ring.

КРАСНАЯ КНИГА

Международную Красную книгу предложил создать английский учёный Питер Скотт, много сделавший для охраны природы Земли. А потом во многих странах были созданы свои такие книги.

Но нужны ли такие книги в каждой стране? Ведь есть же международная Красная книга. Дело в том, что какие-нибудь животные или растения в одной стране могут быть обычными, а в другой — редкими. В международной Красной книге их не будет. Но в стране, где такие животные или растения редкие, они могут исчезнуть совсем. Поэтому их в этой стране надо беречь и охранять. Кроме того, национальные Красные книги дают материал для международной Красной книги.



Adabiy o'qish

АQLLI BOG'BON

(Rivoyat)

Bir bog'bonning uch o'g'li bor ekan. Lekin bolalar dangasa va ishyoqmas bo'lib o'sgan ekanlar. Otadan ularga meros qoladigan tanga-tillolar yo'q ekan. Bu ketishda esa ularning ko'p o'tmay xor-zor bo'lishi aniq edi. Ota umri tugayotganini bilib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. O'ylab-o'ylab shunday ish tutibdi. Har uchala o'g'lini yoniga chaqiradi. „O'g'lonlarim, — deydi u,

— mening ajalim yetganga o‘xshaydi. Ko‘zim ochiq ekan, vasiyatimni sizlarga aytib ketay. Mehnat-u mashaqqat bilan bir ko‘za oltin yig‘ganman. Uni mana shu bog‘ga, toklardan birining tagiga ko‘mganman. U sizlarniki. Biroq bu ishga ko‘p yil bo‘ldi. Harchand urinsam ham, ko‘za ko‘milgan joyni xotirlay olmadim. Uni o‘zlaringiz izlab topinglar va o‘zaro bo‘lishib olinglar“. Ko‘p o‘tmay chol jon beribdi. Bir ko‘za tilla daragini eshitgan uch ishyoqmas uni izlashga tushib ketadilar. Bog‘ning hamma yerini kovlab chiqadilar. Sirli ko‘za chiqmaydi. Yana erinmasdan kovlashga tushibdilar. Kutilgan natija esa hamon yo‘q. Shu taxlit bog‘ ichi bir necha marta ag‘dar-to‘ntar qilinadi. Yerlar qazilaverib, tuproqlari kulga aylanib ketadi hamki, oltinli ko‘za topilmaydi. Bu orada uzumzordagi toklarning eng chuqur ildizlarigacha ochib ko‘miladi va bog‘da o‘sha yili shunday hosil bitadiki, undan bir necha ko‘za to‘ldirgulik oltin oladilar, uch dangasa ota gaplarining asl ma‘nosini — oltin mehnatda ekanligini tushunib yetadilar.



Topshiriqlarni bajaring

1. Matnni diqqat bilan o‘qing va asosiy fikrni aniqlang.
2. Matndan harakat-holatni bildiruvchi so‘zlarni topib, yasalishi va tuzilishini aniqlang.

Mehnat haqidagi maqollarni o‘qing va ma‘nosini izohlang!

Halol mehnat yaxshi odat, berur senga saodat.
Oltin o‘tda bilinar, odam — mehnatda.
Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik.
Mehnatdan qo‘rqma, minnatdan qo‘rq.
Yoshlikdagi mehnat qarilikda davlat keltirar.
Olamda mehnat nonidan shirin narsa yo‘q.
Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan.

BILIB OLING!

Sirdaryo viloyati 1963- yil 16- fevralda tashkil etilgan. Maydoni 5,3 ming kv. km. ga yaqin, aholisi 426 ming kishi, Sirdaryoda 70 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Ma‘muriy jihatdan 8 ta tuman, 6 ta shahar, bir nechta shaharchalarga bo‘linadi. Markazi — Guliston shahri. Hududining asosiy qismi Mirzacho‘l dashtidan iborat. Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish natijasida juda katta paxta maydonlari barpo etilgan va paxtachilik, pillachilik, g‘allachilik rivojlangan.

V bo‘lim

BELGINI IFODALASH

16- mavzu: BELGINI SIFATLAB IFODALASH


(Выражение качества признака)

O‘zbek tilida belgini ifodalovchi gap bo‘lagi aniqlovchi deb ataladi. Aniqlovchi predmetning rang-tusi, mazasi, hajmi, miqdor-darajasi, kim yoki nimaga qarashlilikini ifodalaydi. Aniqlovchi, odatda, otga bog‘lanadi va hamisha o‘zi aniqlayotgan so‘zdan oldin keladi va qanday? qanaqa? qaysi? kimning? nimaning? qancha? nechanchi? so‘roqlariga javob beradi. Masalan:

Mohira bog‘dagi gullardan chiroyli gulchambar yasadi.

Bizning guruhimizda o‘n to‘rtta talaba o‘qiydi.

Aniqlovchilar ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. Aniqlovchining gapdagi o‘rniga e‘tibor bering.



133- mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan sifatlovchi-aniiqlovchilarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing. Ko‘chma ma‘nodagi so‘zlarning ma‘nolarini izohlang.

BAHOR

Erta bahorning **serzavq** kunlari. **Yam-yashil** adirlardagi giyohlardan taralgan **xushbo‘y** hidlar dimog‘ga uriladi. Oftob charaqlaydi. **Ko‘m-ko‘k** osmon shishadek tiniq. O‘riklarning **katta-kichik** novdalarida **och pushti** marjon. Ariq bo‘ylaridan yalpizlarning **xushbo‘y** hidi anqiydi. **Baland-baland** devorlar tagida qumursqalar o‘rmaydi. Zarqishloqning **katta-kichik** ko‘chalarida, **serdaraxt** bog‘larida ko‘klam namoyishi kezadi. Qishloq o‘rtasidagi **eng baland azamat** chinorning **och yashil** kurtaklari orasida **savatdek**

u ya. Unda laylak bir oyoqlab turgancha tek qotgan. Kun peshindan ogʻgan. Hali barg yozmay bezrayib turgan **ikki tup kattagina** sada tagidagi **naqshli** choyxonada **turli-tuman** odamlar koʻp.

(Said Ahmad)

Narsa-buyumlarning belgisi turlicha boʻlishi mumkin, shunga koʻra aniqlovchilar 3 xil boʻladi: sifatlovchi-aniqlovchilar, qaratqich-aniqlovchilar va izohlovchi-aniqlovchilar.

Sifatlovchi-aniqlovchilar narsa-buyumning sifati, xususiyati, rang-tusi, hajmi va miqdorini bildiradi va sifat, son, olmosh, ravish, ot, sifatdosh, undov, taqlid soʻzlar bilan, shuningdek, soʻz birikmasi orqali ifodalanadi. Masalan:

Aziz asrimizning aziz onlari,

Aziz odamlardan soʻraydi qadrin. (Gʻ. Gʻulom)

Sifatlovchi-aniqlovchilar oʻzi aniqlayotgan soʻz bilan hech qanday qoʻshimchalarsiz, bitishuv yoʻli bilan bogʻlanadi. Qiyoslang:

Oʻzbek tilida

aziz odamlar

aziz odamga

Rus tilida

дорогие люди

дорогому человеку

Sifatlovchi-aniqlovchili birikmada sifatlovchilar albatta sifatlanmishdan oldin keladi va uning gapdagi oʻrni qatʻiy boʻladi. Agar gap tartibi oʻzgarsa, bunday soʻz birikmalari gapga aylanadi. Qiyoslang:

tiniq suv

uzilgan gul

birinchi guruh

Suv — tiniq.

Gul uzilgan.

Guruh — birinchi.

Bular — soʻz birikmasi.

Bular — gap.

Sifatlovchi-aniqlovchilarning ifodalanishini yodda tuting!

Ot bilan:

Men singlimga tilla soat sovgʻa qildim.

Sifat bilan:

Bilimsiz va hunarsiz kishi hayotda oʻz oʻrmini topolmaydi.

Son bilan:

Bir yigitga qirq hunar ham oz.

Olmosh bilan:

Barcha fuqarolar oʻz burchlarini bajarishlari kerak.

Ravish bilan:	<i>Uzoq-yaqin yerlardan odamlar yig'ila boshladi.</i>
Sifatdosh bilan:	<i>Oqar suvlar ko'lmak suvlardan toza bo'ladi.</i>
Taqlid so'zlar bilan:	<i>Ko'chadan otlarning dupur-dupur tovushlari eshitildi.</i>
Modal so'z bilan:	<i>Zarur ishlarimizni bitirdik.</i>
Birikma orqali:	<i>Kelajakka intilgan inson, albatta, o'z maqsadiga erishadi.</i>

134- mashq. Nuqtalar o'rniga ma'lumot uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

O'zbekistonning yer osti konlari va metallarga boy. Respublikamiz oltin, kumush, uran, mis, qo'rg'oshin, rux singari va metallar zaxirasi bo'yicha dunyoda o'rinlardan birini egallaydi. kunda O'zbekiston hududida 30 ta koni borligi aniqlangan. konlarning zaxirasi tonnadan ortiqdir. O'zbekiston oltin ishlab chiqarishning hajmi bo'yicha dunyoda o'rin egallaydi. Gaz, ko'mir va neft mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha 10 ta davlatlar safidan o'rin olgan.

Ma'lumot uchun: bugungi, yetakchi, qimmatli, umumiy, nodir, jahondagi, oltin, bu, to'rt ming, sakkizinchi, yirik, qimmatbaho.

135- mashq. Gaplarni o'qing. Belgi bildiruvchi so'zlarni aniqlab, gapdagi o'rni va ifodalanishini izohlang.

1. Halol so'z — halol ish, halol osh, halol muomala — baxt-saodatga yo'l ochadi. 2. Odobli va vijdonli odam elning azizi, ko'rar ko'zidir. 3. Shirinso'z qalb qopqoni, husnixat ko'z rohatidir. 4. Chiroyli rad uzoq va'dadan yaxshidir. 5. Boshqalarga shodlik ato etish eng noyob halovatdir. 6. Shirin so'z — jon, achchiq so'z — ilon. 7. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l. 8. Yaxshi qand yedirar, yomon pand. 9. Otdan baland, itdan past.

136- mashq. Berilgan so'zlardan avval sifatlovchili so'z birikmalari, so'ngra gaplar tuzib, ikki ustunga joylashtiring.

Kitob, daraxt, kun, havo, imtihon, soat, osmon, ko'ylak, she'r, qalam.

137- mashq. Berilgan matndagi sifatlovchilarni aniqlang va ifodalanishini tushuntiring. Matn mazmuni va sarlavha bir-biriga mos keladimi? Munosabatingizni bildiring.

„TARIX XATOSI“

To‘qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazimiy algebra faniga asos soldi.

O‘ninchi asr. Abu Nasr Forobiy Aristotelning „Metafizika“ asariga eng mukammal sharh yozib, „ikkinchi ustoz“ unvonini oldi.

O‘n birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy yer bilan oy o‘rtasidagi masofani o‘lchadi. Ibn Sino meditsina Qomusi — „Tib qonunlari“ni yaratdi.

O‘n to‘rtinchi asr. Sohibqiron Amir Temur Yevrosiyoning yarmini tasarrufiga oldi. Ahli ilm boshini silab, o‘lmas obidalar yaratdi.

O‘n beshinchi asr. Ulug‘bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o‘lmas „Xamsa“sini yozdi.

O‘n oltinchi asr. „Boburnoma“ olamga tarqaldi.

O‘n yettinchi asr. Shohjahon dunyodagi yetti mo‘jizaning biri — „Tojmahal“ni bunyod etdi.



Topshiriq

Matn kimning qalamiga mansub va u qaysi asardan olingan?

138- mashq. Sifatdoshlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Maqol, hikmatli so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

1. Ezgulik hech eskirmaydigan libosdir. 2. Yolg‘on so‘zlab yuradigan odamdan rost va‘da umid qilma. 3. Qaytib kiradigan eshikni qattiq yopma. 4. Birovga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan kishi sahovat egasidir. 5. Dunyoda boshqalarga bergan saring, o‘zingda ko‘payadigan bitta boylik bor. Bu bilimdir. 6. Tilsiz na shaxs, na xalq o‘zining fikr-tuyg‘ularini boshqalarga yetkaza olmaydi, ayniqsa, kelajak avlodga qoldira olmaydi.

139- mashq. Maqollarni o‘qing. Otlashgan sifatdoshlarni toping va ifodalanishini tushuntiring.

1. Yer bezagan kam bo‘lmaydi.
2. Yerga tushgan — gul bo‘lar,
O‘tga tushgan — kul bo‘lar.
Yerini aldagan — och qolar.

3. Yerni degan qand yeydi, demagan pand yeydi.
4. Yerning qaymog‘i mehnat qilganniki.
5. Saqlaganning yeri bog‘,
Saqlamaganning yuragi dog‘.

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan tinglang. Gaplardagi raqamlarni yozib boring va ular asosida matnni qayta tiklang.

ZEHN VA IQTIDOR

Zehn va iqtidor bilimlarni egallashdagi eng muhim xislatlardir. Inson umrining 18 yoshidan 25 yoshgacha bo‘lgan davri uning eng ziyraklik davri, 30 yoshidan 39 yoshgacha ijodiy iqtidorning barq urgan davri hisoblanar ekan. Buyuk allomamiz Abu Ali ibn Sino o‘z tarjimai holida „Men biror kecha oxirigacha uxlamas, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug‘ullanmas edim“, deb qayd etgan. Kishi katta bolgani sari oqil, tajribali, ilmga beriluvchan bo‘lib borar ekan. Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlarning ko‘pchiligi o‘z kashfiyotlarini 30 yoshdan keyin yaratganlar.

Yodda tuting!
 0112-5112511
 www.ziyouz.com

Sonlar o‘lchovni bildiradigani uchun ko‘pincha ayrim numerativ so‘zlar bilan ham qo‘llanadi. Masalan: *bir tup olma, 2 juft poyabzal, 1 bosh uzum, 10 marta o‘qimoq, 20 nafar o‘quvchi.*

140- mashq. Matndan aniqlovchili birikmalarni ko‘chirib yozing, ularning qanday so‘z turkumlari bilan ifodalanganligini ko‘rsating.

QO‘SHNILAR

Yon qo‘shnilar ikkita bir xil olma ko‘chati olib kelishdi. Ikkala qo‘shni ham bog‘larining eng sara yeridan joy tanlashdi-da, avaylab ko‘chatlarni o‘tqazishdi.

Yosh nihollar bo‘y tortdi. Ularning novdalari qanot yozdi. Biri daraxtni juda avayladi. Tezroq o‘ssin deya, tez-tez suv berdi. Qahraton qishda sovuq urmasin deb, novdalarini yaxshilab o‘rab qo‘ydi. Hatto, chang o‘tirmasin deya, daraxtning ko‘m-ko‘k yaproqlarini yuwardi ham. Uning xayolida olma tezroq gurkirab

o'ssa-yu, tezroq odamlarning ko'ziga tashlansa... Ikkinchi qo'shni esa ko'chatiga har bahorda biroz qarov berardi. Boshqa paytda qiyo boqmasdi ham. Uning olma daraxti ona yerga chuqur ildiz otdi. Sovuq qish izg'irinigacha chiniqdi. Uch yildayoq hosilga kirdi. Birinchi olma daraxti esa qayrag'ochday o'sib ketdi. Uch yil ham o'tdi, to'rt yil ham o'tdi, u yer-bu yeridan bir-ikkita nishona qildi, xolos. Bir yili qish juda qattiq keldi. Egasi qanchalik avaylamasin, sovuq urib ketdi. Ikkinchi olma daraxti hamon o'shanday. Har bahorda gullaydi. Kuzda novdalaridagi qip-qizil olmalar hammaning havasini keltiradi.



Topshiriqlar

1. Matnni diqqat bilan o'qing.
2. Notanish so'zlarni yozib, ma'nosini aniqlang.
3. Qissadan hissa chiqarib, matnni gapirib bering.

141- mashq. Matnni o'qing. Birikmali aniqlovchilarni aniqlab, ifodalanishini tushuntiring va ona tilingizga tarjima qiling. Har birini o'zi bog'langan so'z bilan namunadagidek ko'chirib yozing. Bunday aniqlovchilarning har ikki tilda ifodalanishi va imlosini qiyoslang.

O'zbek tilida

Rus tilida

Namuna: Atrofi ko'rkam bog'lar bilan o'ralgan Samarqand —

Ulug'vor binolar qad ko'targan Samarqand —

Uzoq mamlakatlardan kelib turgan sayyohlar —

Atrofi ko'rkam bog'lar bilan o'ralgan, ulug'vor binolar qad ko'targan Samarqand nihoyatda go'zal va boy edi. Uzoq mamlakatlardan kelib turgan sayyohlar undagi qurilishlar, don-dun va sharobga, anvoyi turli mevalar, parranda, go'sht-yog'ga to'la bozorlar, ajoyib qurol-aslaha, nihoyatda nozik zargarlik buyumlari, shisha va sopol idishlar yasovchi, rang-barang shohi-adraslar to'quvchi mohir hunarmandlar haqida hayratlanib hikoya qilishardi. Och pushti rang mashhur Samarqand kimxobi ko'p mamlakatlarga olib borib sotilardi. Samarqandda ishlangan qog'oz jahonda eng yaxshi qog'oz sanalardi. Shuningdek, uning rastalaridan ajnabiy mamlakatlardan keltirilgan har xil moillarni xarid qilish mumkin edi. Nimalar topilmas edi, deysiz bu yerda! Samarqand go'zal va boy edi.

142- mashq. Do'stlik haqidagi ushbu hikmatli so'zlarning mazmunini izohlang.

Yaxshi do'st dengiz qoyasiga o'xshaydi, u har qanday zarba yetganda ham mustahkam turadi.

Sodiq do'st yetti xazinadan ham qimmat, uni avaylash kerak.
Chin do'stingning ko'ngliga sira ozor berma.

Bevafdo do'stdan tayoq yaxshi, behavra guldan yantoq.

Vafoli do'st yo'lga solar, vafosiz do'st poydan olar.

143- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring. Aniqlovchilarning rus va o'zbek tillarida ifodalanishi va gapdagi o'rniga e'tibor qiling.

НАВРУЗ

С незапамятных времён отмечают на Востоке Навруз — праздник наступления весны. Он означает начало нового трудового года и традиционно празднуется 21—22 марта в день весеннего равноденствия. Навруз — это праздник, пришедший из глубины веков, который веками формировал у людей чувство любви и бережного отношения к родной земле и природе, возрождающий и утверждающий общечеловеческие ценности, укрепление духа взаимного доверия, добрососедства, взаимопомощи. В дни празднования Навруза следует забыть былые обиды и ссоры, раздоры и конфликты. По старинной традиции нужно навести в доме порядок и чистоту, принять участие в благоустройстве родного города, кишлака, в котором мы живём. Праздник должен войти в каждый дом, озарить сердца людей светом добра и милосердия, любви и счастья.

BILIB OLING!

Andijon viloyati 1941- yilning 6- martida tashkil etilgan. Maydoni 4,2 kv. km. Aholisi 1993,1 ming kishi. Andijon viloyatida 11 ta shahar, 5 ta shaharcha 14 ta tuman va 95 ta qishloq bor. Andijon shahri viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi va respublikaning yirik sanoat shaharlaridandir.

Hozirgi kunda Andijondagi Asaka „Chevrolet“ avtomobil zavodi nafaqat respublikamiz, balki xorijiy mamlakatlarga ham avtomobillar yetkazib bermoqda.



BOBURNING SHAXSIY FAZILATLARI

Bobur ismi „*sher*“ ma'nosini anglatib, uning o'zi ham ismi jismiga monand kishi bo'lgan, kelishgan qad-qomati va benihoya kuchliligidan tashqari dovyuraklikda, epchilikda, chaqqonlikda oldiga tushadigani topilmagan, uncha-muncha qiyinchiliklarni pisand etmagan. U ko'pincha ikki qo'lga og'ir yukni ko'tarib, Agra qal'asi devorlari ustida yugurib mashq qilgan. U yana ajoyib suzuvchi va g'avvos ham bo'lgan, buyuk Gangadan tashqari jamiki yo'lida uchragan hind daryolarini suzib o'tgan. Uning shirali til, ohangdor vazn bilan bitilgan tarjimai holi — „Boburnoma“ni o'qir ekan-siz, muallif badiiy didining naqadar nazokatliliigi, aql-u zakovati teranligi, bilimi naqadar cheksizligining guvohi bo'lasiz. Bobur tabiatni va bazmi jamshidlarni jonidan yaxshi ko'rgan. Ayniqsa, tog'larni, daryolarni, bog'larni, yaylovlarni ko'rganda, uning o'z vataniga bo'lgan muhabbati va sog'inchi jo'sh urgan.



Savol va topshiriqlar

1. Siz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yana nimalarni bilasiz?
2. Bobur va boburiylar sulolasi Hindiston va Afg'onistonda barpo etgan bog'-rog'lar, madrasa va saroylar haqida bilganlaringizni so'zlab bering.
3. Bir xil so'roqqa javob bo'ladigan so'zlarni topib, ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

17- mavzu: QARASHLILIKNI IFODALASH

(*Выражение относительности*)

Qarashlilik ma'nosini ifodalash uchun nutqda aniqlovchilarning alohida turidan foydalaniladi. Bunday aniqlovchilar *qaratqich-aniqlovchilar* deb atalib, ular kimning? nimaning? so'roqlariga javob bo'ladi va qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ifodalanadi. Aniqlovchining bu turi o'zi bog'langan so'z bilan rus tilidagi kabi shaxs va sonda moslashadi. Qiyoslang:

mening maktabim

моя школа

bizning maktabimiz

наша школа

Aniqlovchining bu turi nutqda belgili va belgisiz holda qo‘llanib kelishi mumkin. Qaratqich-aniqlovchilar olmoshlar, atoqli otlar, egalik qo‘shimchasini olgan so‘zlar bilan ifodalanganda, ya’ni aniq shaxsni bildirganda, albatta, belgili qo‘llanadi. Qaratqich-aniqlovchilar doim egalik qo‘shimchasini olgan so‘zlarga bog‘lanib keladi va o‘zi tobe bo‘lgan so‘z bilan shaxs va sonda moslashadi. Shuning uchun 1- va 2- shaxsda faqat olmosh bilan ifodalanadi.

Birlik

I mening *daftarim*
II sening *daftaring*
III uning *daftari*
Anvarning *daftari*

Ko‘plik

bizning *daftarimiz*
sizning *daftaringiz*
ularning *daftari*
Anvarlarning *daftari*

Bunda I va II shaxs birlik shaklida bittadan N tovushi tushib qoladi. Bunday birikmalarda olmosh tushib qolishi ham mumkin. Masalan: *mening dafarim* — *daftarim*, *sening daftaring* — *daftaring*.

Qaratqich-aniqlovchilarning ifodalanishini yodda tuting!

<i>Ot bilan:</i>	<i>Oila jamiyatning asosidir.</i>
<i>Otlashgan sifat bilan:</i>	<i>Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, yomonning yomonligi tegar tor yerda.</i>
<i>Otlashgan son bilan:</i>	<i>Ikkovining fikri menga ma’qul bo’ldi.</i>
<i>Olmosh bilan:</i>	<i>Uning nomi bilan birga bitilgan Dunyo daftariga o‘zbek degan nom.</i>
<i>Otlashgan sifatdosh bilan:</i>	<i>Maqtanganning uyiga bor, kerilganning to’yiga.</i>

144- mashq. Ushbu ma’nodosh so‘zlar va so‘z birikmalarini mashq daftaringizga ko‘chiring va qo‘llanishiga e’tibor bering.

Bizning qishlog‘imiz — bizning qishloq — qishlog‘imiz

Bizning oilamiz — bizning oila — oilamiz

Bizning vatanimiz — bizning Vatan — Vatanimiz

Sizning mahallangiz — sizning mahalla — mahallangiz

145- mashq. Nuqtalar oʻrniga zarur soʻz va qoʻshimchalarni qoʻygan holda gaplarni koʻchiring. Har bir maqolning mazmunini oʻz soʻzlaringiz bilan tushuntirib bering.

1. Behunar... hunari yalqovlikdir. 2. guruhimizda ... talaba oʻqiydi. 3. Odob — zeb-ziyinati. 4. ... pichoq... sopi oltin. 5. qoʻli gul: qayerga tegsa, oʻsha yerni boʻston qiladi. 6. Ogʻzi boʻsh... ichida gap yotmas. 7. Baxil... bogʻi koʻkarmas. 8. ... farzand yurtingni bogʻ qiladi, ... farzand koʻksingni dogʻ qiladi. 9. Odam... yuzi oʻftobdan issiq. 10. Kerakli tosh... ogʻirligi yoʻq.

146- mashq. Matnni oʻqing. Avval qaratqich-aniqlovchili, soʻngra sifatlovchi-aniqlovchili birikmalarni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan koʻchirib yozing.

YOSHLIKNI QADRLANG

Odamzod kelajak bilan — ezgu umidlar va goʻzal orzu-havaslar bilan yashaydi, yaxshi kunlarni va osuda damlarni qoʻmsab, unga intilib yashaydi. Inson orzularining cheki yoʻq. U doimo ertangi kuniga umid bilan boqadi. Umid-orzularga erishish esa, eng avvalo, yoshlikning nechogʻliq oqilona kechishiga bogʻliq. Yoshlik gʻoyat bebaho, lekin tez oʻtib ketadigan boylik. Yoshlik inson hayotida eng goʻzal, biroq goyat masʼuliyatli davr. Tabiatda nima ekilsa, shu olinganidek, yoshlik ham inson taqdiri va kelajagini belgilashda hal qiluvchi davr. Shu bois gʻanimat yoshligingizni samarali ishlarga sarflang, uni behuda oʻtkazmang. Koʻp oʻqing, oʻrganing. Olgan bilimlaringiz bilan kelajagingizni barpo qilishingizni unutmang.

Yodda tuting!

Gapda aniqlovchining har ikki turi mavjud boʻlganda albatta avval qaratqich-aniqlovchi, soʻngra sifatlovchi-aniqlovchi keladi. Faqat sheʼriy asarlarda inversiya yuz berganda bu tartib oʻzgarishi mumkin. Qiyoslang: Mening sevimli oʻqituvchim — odatdagi tartib.

Sevimli oʻqituvchim mening — oʻzgargan tartib.

Qaratqich-aniqlovchilarning gap tartibida oʻzgarishi soʻzlarning maʼnosi va sintaktik vazifasiga taʼsir etmaydi.

147- mashq. Matnni oʻqing va soʻzlab bering. Avval qaratqich-aniqlovchili, soʻngra sifatlovchi aniqlovchili birikmalarni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan koʻchirib yozing.

PAXTACHILIK TARIXI

G'ozga issiq mamlakatlarda o'sadi. U quyosh nurini yaxshi ko'radi. Paxtaning ochilishi uchun 3000 kaloriya issiqlik kerak. G'ozani birinchi marta bundan ming yillar avval Hindistonda kashf qilishgan. Hindistonliklarning nozik va salqin matolari barchani lol qoldirgan. Xitoy Hindistonning qo'shnisi bo'lsa-da, xitoyliklar g'ozani manzarali daraxt sifatida ekishgan. Gazlamalarni esa ipakdan to'qishgan. Faqat bir necha asrlardan keyingina ular paxtadan gazlama to'qishni o'rganishgan. Paxta o'simligi Xitoydan O'rta Osiyoga tarqalgan. G'ozga Peru, Meksika xalqlariga ham ilgaridan ma'lum bo'lgan. Misrda ipak paxta deb nom olgan uzun tolali paxta yetishtiriladi. G'ozaning bunday navi bizning respublikamizda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida o'stiriladi.

148- mashq. „Paxtachilik tarixi“ matnini yana bir bora o'qing. Belgili va belgisiz qo'llangan qaratqich-aniqlovchilarning ma'nolaridagi farqni tushuntiring.

149- mashq. Alisher Navoiy aforizmlarini yana bir bora o'qing, aniqlovchilarni topib, qo'llanishi va ifodalanishini izohlang. Har bir hikmatli so'zning mazmunini o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

1. Dili to'g'rining tili to'g'ri. 2. Dushmanning katta-kichigi bo'lmas. 3. Chin do'st mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar. 4. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim. 5. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. 6. Oshning mazasi tuz bilan, odam yaxshisi so'z bilan. 7. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

150- mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Belgini ifodalovchi so'zlarning har ikki tilda ifodalanishini qiyoslang.

ХАШАР

Трудовому народу всегда присущи взаимная помощь и поддержка. Издавна зародилась на земле Узбекистана традиция проводить хашары. В кишлаке и махалле жители вместе строили дом молодой семье, убирали улицу к празднику, сажали деревья, выполняли другую работу.

Живёт эта традиция и в наши дни. В городах, посёлках, кишлаках жители махаллей выходят на субботники, чтобы привести в порядок тротуары, арыки, разбить цветники. Каждый крестьянин, рабочий, инженер, врач, учитель,

каждый студент и школьник считает большой честью для себя участвовать в хашаре.

Сейчас обычай хашара получил новую форму и большой размах. Вспомните стихийные бедствия: землетрясения в Ташкенте, Таджикистане, Армении. В это тяжёлое время все почувствовали, что такое дружба и взаимопомощь.

ESHITISH MASHQI

Sheʼrni diqqat bilan tinglang. Sifatlovchili birikmalarni yozib boring va ifodalanishini tushuntiring. Koʻchma maʼnoda kelgan soʻzlarni izohlang.

Xayolimda boʻlding uzun kun,
Seni izlab qirgʻoqqa bordim,
Och toʻlqinlar pishqirgan tunda
Topib ber, deb oyga yolvordim.

Ishon, bunda seni doimo
Esga solur chiroyli gullar,
Shoʻx yulduzlar, salqin saharlar,
Esga solur baxtiyor kunlar.

(Hamid Olimjon)



Adabiy oʻqish

Gʻafur Gʻulom

MENING OʻGʻRIGINA BOLAM

(voqeyiy hikoya)

Otamizning oʻlganiga anchagina yil oʻtib ketdi. Bu yil oʻn yettinchi yilning koʻklamida onamizdan ham ajralib, shum yetim boʻlib qoldik. Biz toʻrt yetimdan xabar olib turishga katta onam — onamning onalari Ruqiya bibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab Qora buvi deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvin-toʻda koʻrpa-yostiqlarga oʻralib, bittagina Oʻratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib,

bir-birimizni isitib uyquga ketamiz. Qatorda eng so‘nggi bo‘lib, ona chumchuqday Qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshgan kampir edilar.

Bu oqshom uch xo‘roz o‘tgandan keyin Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozdanda uyg‘onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovozda suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz ota-buvadan qolgan anchagina katta bo‘lib, gir atrofi imorat edi. Shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda bog‘ga ko‘chib ketadilar. Hozir ular tomon bo‘sh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga o‘g‘ri kelibdi. Bizni ham odam deb yo‘qlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda? Ertaga o‘rtoqlarimga toza maqtanadigan bo‘ldim-da. O‘g‘ri o‘sha amakivachchalarimning tomidan sekin yurib kelib, buvimning to‘g‘rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim hali uxlamagan ekanlar, tomga qarab:

— O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tirikchilik uchun tomga chiqqan ko‘rinasan. Axir kasbing nozik, gumon-pumoningni yozib chiqsang bo‘lmaydimi? — debdilar.

— Axir, buvijon, birorgina kecha tinchgina uxlangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo‘lini to‘saverasizmi? — debdi.

Men gap shu yerga kelganda uyg‘onib ketgan bo‘lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

— Hoy, aylanay, o‘g‘rigina bolam, boshimga shunday musibat turganida ko‘zimga uyqu keladimi? Mana olti oy bo‘ldi, bir soat mijja qoqib uxlaganim yo‘q. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

— Nimalarni xayol surasiz, buvijon? — bu gapdan keyin ustidagi to‘nini bo‘g‘otning ustiga yostiq qilib qo‘yib, o‘g‘ri ham yonboshlab oldi.

— Nimalarning xayolini surardim. Shu to‘rtta yetimning ertasini o‘ylaymanda, bolam. Zamonnini o‘zing ko‘rib turibsan, tirikchilik toshdan qattiq. Hali bularning qo‘lidan ish kelmaydi, ro‘zg‘orda bo‘lsa, ko‘z ko‘rib, quloq tutguday arzigulik buyum qolgani yo‘q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. „Yotib yeganga tog‘ ham chidamas“, deganlar. Eh-ha bu bolalar qachon ulg‘ayadi-yu, qachon o‘zining nonini topib yeydigan bo‘ladi?

— To‘g‘ri aytasiz, buvijon, — dedi o‘g‘ri. — Mening ham ikki bolam, xotimim, bitta kampir onam bor. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak deganlaridak, shularni boqishim kerak. To‘rtta non topish uchun o‘zimni o‘tga-cho‘g‘ga uraman. Bo‘lmasa ishlay desam, bilagimda quvvatim bor, aql-u hushim joyida, menga hozir qilib yurgan o‘g‘rilik kasbi yoqadi deysizmi?

— Biror boshqa kasb qilsang bo'lmaydimi, bolam? — dedi kampir.

— Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod...

— Ha, mayli, o'g'rigina bolam, shu yetimlarning ham peshanasiga yozgani bordir. Axir noilojlikdan-ku shu harom yo'lga qadam bosibsiz. O'ziga to'qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo'lmaydimi?

— E, buvim tushmagur, soddasiz, sodda — dedi o'g'ri. — Boylarning uyiga tushib bo'ladimi? Ularning eshiklari temirdan. Har bittasining qo'rasida ikkita-uchtadan itlari bor.

— Bu gaping ham to'g'ri, o'g'rigina bolam. Ammo-lekin ehtiyot bo'l. El-yurtning oldida tag'in badnom bo'lib qolmagin, — dedi bizning kampir. — Endi bu yoqqa qara, o'g'ri bolam, hademay, tong yorishib qolar. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg'alib pastga tush. O'tinimiz yo'q. Oshxonada bir-ikkita yong'oq to'nka bor, boltani olib shuni yorib ber, qumg'on qo'yaman. Kecha tog'ang berib ketgan zog'ora nondan ikkitasini olib qo'yanman, birgalashib choy ichamiz.

— Yo'g'-e, buvi, — dedi o'g'ri. — To'nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'q, andisham bor, uyalaman.

— Voy, o'lay, qutlug' uydin quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To'xta, ha darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko'p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g'ashiga tegdik shekilli, shundoq katta gurkiragan xonadondan shu to'rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o'g'rigina bolam.

— Yo'q, yo'g'-e buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo'lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo'ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O'sha yetimlarning o'ziga buyursin, to'ylarida o'ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tong yorishib qoldi.

— Xayr, o'g'rigina bolam, kelib tur.

— Xo'p, ona, xo'p...

Men o'sha o'g'ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.



Savol va topshiriqlar

1. Hikoyaning mag'zida qanday ma'no yotibdi?
2. Ushbu hikoyani rollarga bo'lib o'qing.
3. Kampir va o'g'ri obrazlarini tavsiflang.
4. Hikoyada ishlatilgan ibora va xalq maqollarining ma'nolarini izohlang.

18- mavzu: BELGINI IZOHLAB IFODALASH

(Выражение изъяснения признака)

Belgini izohlab ifodalash ham mumkin. Bu shaxsni unvoni, lavozimi, taxallusi, qarindosh-urug'chilik munosabatiga ko'ra qaytadan nomlash bo'lib, *izohlovchi-aniqlovchi* deb ataladi. Izohlovchi aniqlovchining boshqa turlaridan farq qiladi.

Masalan: *Sulton montyor simlarni ko'zdan kechirdi.*

Montyor Sulton simlarni ko'zdan kechirdi.

Izohlovchi-aniqlovchilar o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Qiyoslang:

<i>professor Umarov</i>	<i>Karima xola</i>
<i>yozuvchi Tohir Malik</i>	<i>Gulnor pari</i>

Izohlovchi-aniqlovchilar quyidagi ma'nolarni ifodalab keladi:

Unvon, amal, lavozim: ***Polkovnik Ikromov, direktor Azimova***

Mashg'ulot, kasb, mutaxassislik: ***Oshpaz Said aka, Vohid gulchi, samovarchi Ahmadali***

Yosh, jins, qarindoshlik: ***Surayyo xola, o'g'il bola, qiz bola***

Laqab: ***Shavkat polvon, Rasul naynov, sochi uzun Dilobar***

Taxallus: ***Navoiy, Julqunboy, Oybek, Muqimiy, Farg'oni***

Kitob, gazeta, jurnallarning nomlari izohlovchi bo'lib kelsa, yozuvda qo'shtirnoq ichiga olinib, bosh harf bilan yoziladi: Masalan: „*O'zbekiston ovozi*“ gazetasi, „*Fan va turmush*“ jurnali, „*Mehrobdan chayon*“ romani. Bunday izohlovchilar shaxs nomi orqali ifodalansa *nomidagi, nomli* so'zlari bilan birga qo'llanadi va qo'shtirnoq ichiga olinmaydi. Masalan: *Usta Shirin ko'chasi, Alisher Navoiy nomidagi teatr.*

O'xshatish ma'nosini bildirgan izohlovchili birikmalar chiziqcha bilan yoziladi. Masalan: *ona-Vatan, kosmonavt-uchuvchi, mexanik-haydovchi* kabi.

151- mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan izohlovchilarning ma‘nosini aniqlang.

1. Universitetimizda shoir Erkin Vohidov bilan uchrashuv o‘tkazildi. 2. Bolalar **Karim boboning** latifalarini ko‘p eshitishgan. 3. **Qiziqchi Nikulin** bolalarning sevimli artisti edi. 4. **Olim novvoy** bilan **Zohidjon oshpazni** mahallada hamma taniydi. 5. Biz „**Hasan aravakash**“ filmi miriqib tomosha qildik. 6. **Diktor Dilfuza Yusupova** bizning universitetimizda tahsil olgan. 7. **Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek** o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri.

152- mashq. Matnni o‘qing. Nutq subyektini izohlab kelgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing.

1. „Obid ketmon“ taniqli yozuvchi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub asarlardan biridir. 2. Nevropatolog N. M. Majidov xorijiy mamlakatlarda ham ishlab kelgan. 3. Kalta Sara bilan uzun Saraning xarakteri ham qarama-qarshi edi. 4. Qodirqul mingboshi singlisini ko‘rib to‘xtadi. 5. Haydovchi Azizov yo‘l harakati qoidalarini buzgani uchun ogohlantirildi. 6. Shokir aka bilan Xolida opa juda yaxshi yashashdi, to‘rt farzandning ota-onalari bo‘lishdi. 7. Soli sovuq — romandagi salbiy qahramonlardan biri.

153- mashq. Yozuvchi Abdulla Qahhor hikoyalardan berilgan parchalarni o‘qing. Izohlovchilarni aniqlab, ularning nutqdagi vazifasini tushuntiring.

1. Ahmad polvonning gunohi zo‘r. U qo‘rboshining o‘ng qanotini sindirdi: uning vaziri Is‘hoq afandini o‘ldirdi. Olqorda bo‘lgan urushda Is‘hoq afandiga o‘q tegdi. Kechasi shu Ahmad polvonning qishlog‘idan o‘tib ketayotganda, Is‘hoq afandi o‘zining shu yerda biron kishining uyida qoldirishlarini so‘radi. O‘shanday kishi Ahmad polvon edi.

2. Qadoqchi Hamroqulning tobi qochdi. Yana bitta qadoq bilan bitadigan likopcha chala qoldi. Uning isitmasi kuchli, boshi og‘rir edi, tashlagan qadami xohlagan yeriga tushmasdi. Ko‘chani narigi yuzidan uni kimdir chaqirdi. Chaqirgan kishi „Romanska“ning qorovuli Usta Kulol edi. Uning asli ismi Stokgulov, Hamroqul aytishga tili kelishmay Usta Kulol qo‘yib olgan.

Belgi ma'nosi qo'shma gaplar vositasida ham ifodalanishi mumkin. Bunday gaplarda bosh gap tarkibida *shunday, shunaqa, shuning, o'shaning* kabi so'zlar, ergash gap tarkibida esa *kimning, nimaning, qanday, qanaqa, qaysi* olmoshlari qo'llanib keladi va o'zaro quyidagicha bog'lanadi:

Kimning, qanday ... -sa, o'shaning, shunday

Shunday, shunaqa -ki, ular, uning

Bunday gaplar kengaygan sifatdoshli sodda gaplarga sinonim bo'lib kelishi mumkin. Masalan: *Dunyoda shunday yaxshi odamlar borki, ular o'zgalarning baxtini o'z baxtlaridan ortiq ko'radilar. — Dunyoda o'zgalarning baxtini o'z baxtlaridan ortiq ko'radigan yaxshi odamlar bor.*

154- mashq. Berilgan qo'shma gaplarning mazmuni va bog'lanish vositalariga e'tibor bering.

1. Kenja botir ilgari qaysi yo'l bilan kirgan bo'lsa, yana o'sha yo'l bilan chiqib ketdi. 2. Kimning qo'li ochiq bo'lsa, uning hamisha omadi kuladi. 3. Sizlar shunday zo'r g'ayrat bilan ishladingizki, bunday mehnat, albatta, g'alabaga olib kelishi muqarrar. (*Sh.R.*) 4. Kapitan qanday ishonch bilan aytgan bo'lsa, Ahmadjon shunday ishonch bilan emaklab ketdi. (*A.Q.*) 5. Shunday odamni yuborish kerakki, undan hech kim shubhalanmasin. (*H.G'.*) 6. Shunday kunlar bo'ladiki, o'z qadr-qimmatini bilan bir necha o'n yillarga tatiydi.

155- mashq. Berilgan qo'shma va sodda gaplarni o'qing. Mazmunan mos keladiganlarni topib, juftlab ko'chiring hamda ifodaviy vositalarni aniqlang.

1. Shunday odamlar borki, ular xalq baxtini o'z baxtlari deb biladilar.

2. Har bir kishi o'z intilishi bilan baxt topa oladigan zamon keldi.

3. Kimning so'zi to'g'ri bo'lsa, ishi ham to'g'ri bo'ladi.

4. Xalq baxtini o'z baxti deb biladigan odamlar ham bor.

5. Hozir shunday zamon keldiki, har bir kishi o'z intilishi bilan baxt topa oladi.

6. So'zi to'g'ri odamning ishi ham to'g'ri bo'ladi.

7. Kitobxonlik ommaviy tus olgan xalqning kelajagi porloq bo'ladi.

156- mashq. Gaplarni qiyoslang. Izohlovchilarning sodda va qo'shma gap tarkibida berilishiga e'tibor qiling.

1. Kim ko'p o'qisa, o'sha ko'p biladi. Ko'p o'qigan ko'p biladi. 2. Kimki o'z burchini unutsa, u ko'p xatoga yo'l qo'yadi. O'z burchini unutgan ko'p xatoga yo'l qo'yadi. 3. Kimki haddidan oshsa, o'sha xalq e'tiboridan qoladi. Haddidan oshgan xalq e'tiboridan qoladi. 4. Kim sport bilan shug'ullansa, doimo sog'lom bo'ladi. Sport bilan shug'ullangan doimo sog'lom bo'ladi. 5. Kim ko'p mehnat qilsa, oxirida rohatga erishadi. Ko'p mehnat qilgan oxirida rohatga erishadi.

157- mashq. Fikr mazmunini qo'shma gap tarzida davom ettiring.

1. Kishi qanchalik dono bo'lsa, 2. Inson o'ziga qanchalik ishonsa, 3. Shunday kunlar bo'ladi, 4. Kimning mehnati halol bo'lsa, 5. Shunaqa ajoyib narsaki, 6. Kattalar qaysi yo'ldan yurishsa, kichiklar ham... . 7. Shahrimizda shunday keng ko'priklar qurildiki, 8. Kim qaysi tilni puxta o'zlashtirgan bo'lsa, 9. Kim qaysi fanlarni yaxshi bilmayotgan bo'lsa,

Tavsifnoma biror shaxsni tavsiflashga qaratilgan hujjatdir. Ushbu hujjat ishga, o'qishga kirish vaqtida III shaxs tilidan aniq ma'lumotlar asosida xolis yoziladi. Unda tavsifnoma berilayotgan shaxsning yoshi, darajasi, o'qiyotgan yoki ishlayotgan joyida qanday faoliyat yuritayotgani, ish va o'qishda erishgan yutuqlari, mas'uliyatligi, insoniy sifatleri, atrofdagilarga munosabati, oilaviy holati haqida ma'lumot beriladi. Tavsifnoma boshqa muassasa yoki korxonaga berilsa, albatta rasmiy ravishda tasdiqlab yuboriladigan hujjat hisoblanadi.

158- mashq. Tavsifnoma namunasini o'qing. Hujjatning mazmuniga va ularda beriladigan ma'lumotlarga e'tibor qiling.

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti ingliz filologiyasi
fakulteti III bosqich talabasi, 1988- yilda tug'ilgan,
millati o'zbek Soatova Malikaga

TAVSIFNOMA

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti ingliz filologiyasi
fakultetining III bosqich 311- guruh talabasi Soatova Malika 2004-

yilda universitetimizga qabul qilingan. Universitetda o‘qish davomida u o‘zini har tomonlama bilimli, harakatchan, intiluvchan talaba sifatida ko‘rsatdi. O‘tgan 3 yil davomida u barcha fanlardan a‘lo baholarga o‘qidi. Har yili talabalar ilmiy anjumanlarida faol ishtirok etib keladi. Bugungi kungacha „Yosh olim“, „Izlanish va ijod“ to‘plamlarida, „Filologiya masalalari“ jurnallarida 4 ta imiy maqolasi chop etilgan. Yaqinda ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha kurs ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. 2006- yilda ingliz va o‘zbek tillarini qiyoslab o‘rganish yazaridan o‘z loyihasi bilan ishtirok etib, O‘zbekiston Fond Forumi g‘olibi bo‘ldi. 2007- yilda esa o‘qishdagi muvaffaqiyatliari uchun Toshkent shahar „Kamolot“ yoshlar kengashining maxsus sovrinini qo‘lga kiritdi va 10 kunga Janubiy Koreya Respublikasiga yuborildi.

Soatova Malika o‘z guruhida va fakultet jamoa ishlarida ham faol ishtirok etadi. Guruhdoshlari bilan xushmuomala, ochiq ko‘ngilli, odobli va intizomli talaba. O‘tgan 3 yil davomida sababsiz dars qoldirmagan, ustozlarga hamisha hurmat-e‘tiborli. O‘z bilimlarini oshirib borish ustida tinmay izlanadi, qo‘shimcha tayyorlov kurslariga, iqtidorli talabalar guruhlar bilan o‘tkaziladigan qo‘shimcha mashg‘ulotlarga muntazam qatnashadi.

Turmushga chiqmagan.

Tavsifnoma so‘ralgan joyga taqdim etish uchun berildi.

Ingliz filologiyasi fakulteti dekani

T. T. Ikromov

Sana

muhr

159- mashq. Berilgan reja va namuna asosida do‘stingiz yoki kursdoshingizga o‘zingiz tavsifnoma yozing va uni qoidaga muvofiq rasmiylashtiring.

1. Tavsifnoma kimga berilmoqda?
2. U qachondan beri shu muassasada o‘qiydi yoki ishlaydi?
3. O‘tgan muddat ichida u qangay faoliyat yuritdi (qanday o‘qidi, qanday yutuqlarga erishdi)?
4. Qanday insoniy fazilatlariga ega: do‘stlari, o‘zidan kattalarga, kichiklarga munosabati.
5. Jamoat ishlariga ishtiroki.
6. Oilaviy holati.
7. Tavsifnoma nechanchi shaxs nomidan yoziladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?

ESHITISH MASHQI

Maqollarni diqqat bilan tinglang. Aniqlovchilarni o'zi bog'langan so'z bilan yozib olishga harakat qiling. So'ngra shu asosda maqollarni tiklab, ma'nosini tushuntirib bering.

1. Halol so'z, halol ish, halol osh, halol muomala baxt-saodatga yo'l ochadi.
2. Odobli va vijdonli odam elda azizdir.
3. Shirinso'zlik qalb kaliti, husnixatlik ko'z rohatidir.
4. Yaxshi o'g'il qand yedirar, yomon o'g'il pand yedirar.



Adabiy o'qish

ABU NASR FOROBIY

(873—930)

O'rta asr Sharqining mashhur faylasufi, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy 873-yilda Sirdaryoga yaqin joydagi Forob qishlog'ida tavallud topgan. Boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida olgan, so'ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda tahsil olgan. Keyinchalik Bag'dod, Isfaxon, Hamadon, Rayda va boshqa shaharlarda bo'lib, falasafiy maktablar bilan chuqur tanishadi. Forobiy Sharqning buyuk san'atkori, musiqashunos olimi edi. U musiqa nazariyasi masalalariga bagishlab qator nazariy risolalar yaratdi, nay, nog'ora, chang, rubob qator musiqa asboblarning ta'rifini ham yozdi. Uning bu asarlari jahon musiqashunosligi tarixida yaratilgan ilk asarlar bo'lib, nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'z davrining birinchi faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi bo'lib nom qozondi. U bilim va tajribalarini orttirish maqsadida 70 ta tilni o'rgangan va ushbu tillarda „Aql haqida risola“, „Falsafadan oldin nimani bilish kerak?“, „Falsafa manbalari“, „Substansiya haqida“, „Logikaga kirish“ kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

Forobiy riyoziyot, tibbiyot, arab grammatikasi, alkimyo, falakiyot, mantiq fanlariga oid asarlar ham yaratgan. U yunon mutafakkirlari Aflotun, Arastu, Evklid, Ptolemey, Profiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotelning „Metafizika“ asariga yozilgan sharh — „Moba'diy tabiati“ butun dunyoga keng tarqaldi va Abu Nasr Forobiyga juda katta shuhrat keltirdi. Shu asari tufayli Abu Nasr Forobiy „Al-Muallim as-soniy“ — „Ikkinchi muallim“, „Sharq Arsatusi“ degan nomlarga sazovor

bo'lgan. Abu Ali ibn Sino ham Aristotel asarlarini Forobiy sharhlarini o'qib, keyin tushunganini alohida ta'kidlagan. Forobiy falsafasi, jumladan, uning pedagogik goyalari, xususan, ijtimoiy pedagogik qarashlari Sharq va Garbning buyuk mutafakkir olimlari — Ibn Sino, Beruniy, Miskaveyh ibn Rashid ibn Xoldun, Rodjer Bekon, David, Didakta, Spinoza kabilarga katta ta'sir ko'rsatgan. U hayotining so'nggi yillarida Xalab (Aleppo) va Damashq shaharlarida yashagan va o'sha yerda vafot etgan.



Savol va topshiriqlar

1. Ushbu matn orqali siz Forobiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Matndagi ma'lumotlardan foydalanib, tavsifnoma matnini tuzing.

VI bo'lim

HOLATNI IFODALASH

19- mavzu: HARAKATNING HOLATINI IFODALASH

(Выражение состояния действия)

Grammatika

Ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, holatini ifodalovchi soʻzlar *qay tarzda? qanday? qay holda?* soʻroqlariga javob beradi va gapda kesimga bogʻlanib keladi. Holatni ifodalashda ravishlar, feʼlning ravishdosh shakli, iboralar va koʻmakchili birikmalar koʻp qoʻllanadi. Masalan:

Darsdan soʻng talabalar **darhol** (*qay tarzda?*) uylariga tarqaldilar. Hovlidagi gullar quyosh taftidan **holsizlanib** (*qay holda?*) boshlarini egib turardi.

Anzirat ishi bitmagani uchun **tarvuzi qoʻltigʻidan tushib** (*qay tarzda?*) qaytib keldi.

Sayyohlar mahobatli madrasalarni **hayrat bilan** (*qay tarzda?*) tamosha qilardilar.

Holatni ifodalovchi soʻzlar va birikmalarni bilib oling va yodda tuting!

Ravishlar	Ravishdoshlar	Koʻmakchili birikmalar
<i>astoydil</i>	<i>hayratlanib</i>	<i>hayrat bilan</i>
<i>chinakamiga</i>	<i>taajjublanib</i>	<i>taajjub bilan</i>
<i>toʻsatdan</i>	<i>kula-kula</i>	<i>kulgu bilan</i>
<i>ertalab</i>	<i>ertadan kechgacha</i>	<i>kuni bilan</i>
<i>zoʻrgʻa</i>	<i>oʻynab-oʻynab</i>	<i>oʻyin bilan</i>

160- mashq. Gaplarni oʻqing. Harakatning holatini ifodalovchi soʻzlarni topib, oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzlar bilan koʻchirib yozing.

1. Quyosh yerdagi qorlarni sekin-asta eritib yubordi. 2. Daryo suvi shovullab oqmoqda. 3. Togʻ orqasidan quyosh yarqirab koʻrindi. 4. Yoʻl toshloq yonbagʻridan burilib-burilib koʻtarilib boradi. 5. Rais choʻponning zavq bilan aytayotgan qoʻshigʻidan mamnun boʻlib, beixtiyor kulib qoʻydi. 6. Raqqosa qiz tovlanib xil-xil, qushdek uchar sahnada yengil. 7. Majlis qatnashchilari qarorni bir ovozdan qabul qilishdi. 8. Jomiy asta-sekin tetiklanib, ikki doʻst samimiy suhbat qurdilar. 9. Navoiyning Hirotga kelganligi haqidagi xabar butun shaharga yashindek tarqaldi.

161- mashq. Qavs ichidagi so‘roqlarga ma‘lumot uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Daraxtda o‘tirgan mayna (qay tarzda?) sayramoqda edi. 2. Bolalar Yo‘ldosh otaga (qay tarzda?) tikilib qarab o‘tirishardi. 3. Nazokat dugonasidan (qanday?) xafa bo‘ldi. 4. Qor parchalari (qay tarzda?) yog‘ar edi. 5. Hamma yig‘ilganlar qo‘shiqni (qay tarzda?) tingladilar. 6. Qobil boboning tizzalari (qanday?) titrar edi. 7. Bolalar pastlikka (qay tarzda?) tusha boshladilar. 8. Do‘st (qanday?) gapirar, dushman esa (qanday?).

Ma‘lumot uchun: to‘lib-toshib, ko‘zlarini uzmay, astoydil, o‘ynab-o‘ynab, dag‘-dag‘, kuldirib, sekin-asta, kuydirib, berilib.

162- mashq. Nuqtalar o‘rniga ma‘lumot uchun berilgan so‘zlar va birikmalarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Nigoraxon ularning hazillariga ... javob qaytarardi. 2. Oftob yerdagi qorlarni 3. Biz bobom to‘g‘risidagi hikoyalarni ... tingladik. 4. Ishchilardan biri shoshilmasdan ... javob berdi. 5. Rais cho‘ponning ... aytayotgan qo‘shig‘ini ... tinglab borardi. 6. Sultonmurod do‘stini ... kutib oldi. 7. Tevarak-atrofnı haybatli tog‘lar ... o‘rab olgan. 8. Kechasi tiniq osmonda yulduzlar chamani ... porlaydi. 9. Maktabning katta zalida o‘quvchilar ... turishibdi.

Ma‘lumot uchun: istar-istamas, hazil bilan, tabassum bilan, qiziqish bilan, zavq-shavq bilan, saf tortishib, qanddek, halqa kabi, charaqlab, berilib.

Ravishdoshlar o‘ziga kengaytiruvchi bo‘laklar olib, yoyiq holda qo‘llanishi mumkin. Bunday birikmalar ravishdosh oborotlar deb ataladi va *-b, -ib, -may, -masdan* qo‘shimchali ravishdoshlar hamda iboralar bilan ifodalangani. Masalan:

Hamma yoqni yog‘ tushsa yalaguday qilib tozaladi.

U kasalxonada kir yuvuvchi bo‘lib ishlar edi.

Bunday birikmalar hech qanday tinish belgisi bilan ajratilmaydi.

163- mashq. Ushbu iboralarda ifodalangan holatni o‘z so‘zlaringiz va boshqa fe‘llar bilan tushuntirib bering. So‘ngra ular ishtirokida gaplar tuzib, daftaringizga yozing.

Namuna: nafasi ichiga tushib ketdi — jim bo‘lib qoldi: Aziz yolg‘oni oshkor bo‘lib qolganini bilib, nafasi ichiga tushib ketdi.

Nafasi ichiga tushib ketdi, to'nini teskari kiydi, jahli chiqdi, ko'zlari chaqchaydi, oyog'ini qo'liga olib yugurdi, gapni-gapga qovushtirmadi, qo'li-qo'liga tegmadi, og'zidan bodi kirib-shodi chiqdi, labi-labiga tegmaydi, bosh egdi, qo'lni qo'lga berdi, boshi ko'kka yetdi, tegirmonga tushsa, butun chiqadi.

164- mashq. Gaplarni o'qing. Namunadan foydalanib, holatni ifodalovchi so'zlarni unga sinonim ko'makchili birikmalar bilan almash-tiring.

Namuna: qiziqish bilan — qiziqib,

1. Biz bobomning hayoti to'g'risidagi hikoyalarni zo'r qiziqish bilan tingladik. 2. Sayohatchilar osmono'par minoralarning salobati va betakror naqshlariga hayrat bilan qarar, ularning tarixi haqidagi gaplarni maroq bilan tinglar edilar. 3. Biz hayajon bilan bitta-bitta qadam tashlab, bemorning oldiga kirdik. 4. Bolalar, odatda, har bir narsaga qiziqish bilan qaraydilar. 5. Mastura singlisiga taajjub bilan qaradi, u esa hech narsa bo'lmagandek jilmayib turardi.

165- mashq. Matnni diqqat bilan o'qing. Harakatning holatini ifodalovchi so'zlarni o'zi bog'lanib kelgan so'zlar bilan ko'chirib yozing. Ularning gapdagi vazifasini tushuntiring.

Bepoyon yam-yashil yaylov. Uzoq-uzoqlarga suqlanib qaraysan kishi. Qirlarni gilamga o'xshatib maysa-giyohlar yelda ohista tebranadi. Yaylovda na daraxt, na uy bor. Olisdagi „Yulduztog“ kishi ko'ziga juda yaqin bo'lib tuyuladi. Sovliqlar bilan dikir-dikir sakrab yurgan do'mboqqina qo'zilarni aytmaysizmi! Ularning quyoshda porlab turgan qorako'llari jim-jimador toblanib, munchoqdek ko'zlari yoqutdek chaqna b kishi diqqatini o'ziga tortadi.

166- mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Tarixiy va georafik atamalarni sof o'zbekcha aytilishi va to'g'ri yozilishiga e'tibor bering.

ШАХРИСАБЗ

Интересны исторические памятники Шахрисабза. Издалека виден наиболее значительный из них — развалины дворца Тимура Ак-сарай. Из завоёванных стран Тимур привозил мастеров, которые строили прекрасные здания в его столице Самарканде и на его родине — в Кеше. Одним из этих зданий был дворец Ак-сарай. Руины, оставшиеся от дворца, свидетельствуют, что здесь был чудесный дворец. Его стены украшали прекрасные мозаичные панно, которые напоминают мозаику Самарканда.

После похода в Индию Тимур приказал построить соборную мечеть в Самарканде. Четыре года лучшие мастера из Басры, Багдада и Афганистана работали вместе с самаркандскими мастерами. Мечеть украшала великолепная мозаика. Расписные узоры и отрывки из Корана на мозаике купола были такой величины, что их можно было прочитать за полтора километра.



Adabiy o'qish

Abdulla Qodiriy

O'TKAN KUNLAR

(Romandan parcha)

Marg'ilonga to'rt qo'nib kirar edi, bu gal oltinchi qo'nishda yetdi. Tevarakdan asr azoni eshitalgan vaqtda otdan qo'ndi. Otini qutidorning yo'lagiga yetaklar ekan, negadir yuragi o'ynab ketdi. Bu gal o'z odatidan o'n kunlar chamasi kechikkani uchun, „balki kutib o'tirgandir“, deb o'ylab, haligi yurak o'ynog'isi tag'in ham kuchaydi va yo'lakdan mehmonxona hovlisiga chiqqach, ixtiyorsiz otining bo'yniga suyalib to'xtamoqqa majbur bo'ldi.

Chindan ham u ayvonning oldida kutib o'tirgan edi. Xayolot ichida Otabekning kelib kirganini sezmay ham qoldi. Nihoyat, qora ohu ko'zlarini to'ldirib bunga qaratib olgach, o'rnidan turdida, ichkari hovlisiga burilib keta berdi. Bu burilish ma'nosiga Otabek allaqachon tushunib qolgan, bu o'zining kechikib, uni zoriqtirgani uchun... Kechikish uchun bunchalik araz qilgan bu go'zalning kundosh uchun qandog' holga tushmog'i ma'lum edi. Otabek tamom bir esankirashda qoldi. Otini axtaxonaga bog'lab, sovg'a to'ldirib kelgan ipak xurjuni ko'tarib, ichkariga kirdi. Sevikli kuyovni yo'lakda ko'rgan Oftob oyim, qilib turgan yumushini uloqtirib, Otabekning oldiga yugurdi, jonini ming tasadduq qilib ko'rishgach, kechikkani uchun nechog'liq tashvishlar tortib va qandog' tushlar ko'rganini labi-labiga tegmay so'zlay ketdi. Allaqayoqlarda yurgan To'ybeka ham yugura kelib, so'rashmoqqa uyalsa ham „chiroyli yigit“ning qo'lidagi xurjuni oldi.

Oftob oyim yugura-yugura qat-qat ko'rpachalar solib, kuyovni o'tirishga taklif qildi va qarshilashni har galgidan ham oshirib yubordi. Lekin Otabek bu qarshi olinishlarga juda ishonchsiz qarar, bu kun bo'lmasa ertaga „ota-ona orzusi“ bilan bu siylanishlarning birdan o'zgarib ketmagiga imon keltirib, qaysi yo'sinda o'tirib olganini ham payqamas edi. Oftob oyimning bir qancha yaxshi

tilaklar bilan qilgan duosiga ham ishonchsiz qo‘l ko‘tardi va mash‘um „orzu“ning bundog‘ yaxshi duolarni ost-ust qilishini o‘yladi. Fotihadan keyin Oftob oyim tovoqni xurmaga, xurmani tovoqqa urishtirib kuyovga qatiq olib chiqdi va Otabekning ichmaganiga ham qo‘ymay, „ichingiz, yo‘l g‘uborini oladir“, deb qistay boshladi. So‘ngra To‘ybekani choy qaynatishga buyurib, o‘zi kuyov bilan so‘rashdi:

- Otangiz, onangiz salomatlarmi?
- Shukur, sizga salom aytdilar.
- Hasanali otam sog‘mi, nega siz bilan kelmadi?
- Shukur sog‘! Ba‘zi ishlar bilan bo‘lib kelolmadi, — bu javobni berish hamona ko‘nglidan kechdi: „...Nega yolg‘on gapirasan, Hasanali to‘y harakatlari bilan mashg‘ul emasmi?..“



Savol va topshiriqlar

1. Yozuvchi Abdulla Qodiriy haqida nimalarni bilasiz? Uning qanday asarlarini o‘qigansiz?
2. Mustaqil o‘qish qismidan Abdulla Qodiriyning tarjimaiy holini o‘qing va gapirib bering.

BILIB OLING!

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning janubida joylashgan. Viloyat 1943- yil 21- yanvarda tashkil etilgan bo‘lib, hududi 28 ming 400 kv.km. dan iborat. Viloyat tarkibiga 14 ta tuman va 12 ta shahar kiradi. Viloyat markazi Qarshi shahridir. U qadimda Nasaf nomi bilan atalgan. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri (qadimgi Kesh shahri) ham Qashqadaryo viloyatida joylashgan. Shahrisabz 2700 yillik tarixga ega.

20- mavzu: O‘RIN MA’NOSINI IFODALASH

(Выражение значения места)

167- mashq. Matnni o‘qing. O‘rin ma‘nosini ifodalovchi so‘zlarni aniqlang va har biriga savol bering.

BOG‘DA

Navoiy Hirotga erta bahorda qaytdi. Bog‘ga tong yorishganda yetib keldi. Bog‘ ichkarisida nay sadosi yangrardi. Navoiy kuy eshitalayotgan tomonga ildam yurdi. Terakzorga yaqinlashgan sari

kuy yanada yaqqol eshitilardi. Navoiy so‘qmoqdan o‘sha tarafga burildi-yu, ko‘z o‘ngida kutilmagan manzara namayon bo‘ldi: Binoiy daraxtga suyanib, ko‘m-ko‘k maysa ustida o‘tirar va zavq bilan nay chalar edi.

O‘rin ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar ish-harakatning yo‘nalishini, sodir bo‘lish o‘rnini yoki harakatning chiqish nuqtasini ko‘rsatadi va qayerga?, qayerda?, qaysi tomonga?, qayerdan? kabi so‘roqlarga javob beradi.

Gapda o‘rin ma‘nosi geografik joy nomlari, o‘rin ravishlari, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigidagi so‘zlar va ko‘makchilar vositasida ifodalanadi. Ular ham obyektini ko‘rsatuvchi so‘zlar hisoblanadi, ammo grammatik jihatdan gapda hol bo‘lib keladi va kesimga bog‘lanadi. Masalan:

Aziz uyiga (qayerga? — harakat yo‘nalishini ko‘rsatuvchi obyekt) ketdi.

Biz qishloqda (qayerda? — harakatning sodir bo‘lish joyi) yashaymiz.

Bu kitoblarni kutubxonadan (qayerdan? — harakatning chiqish nuqtasini ifodalovchi obyekt) oldik.

O‘rin holining so‘roqlari va ifodalanishini bilib oling!

Qayer?

Toshkent

Qaysi tomonga?

Toshkent tomonga

Qayerga?

Toshkentga

Qayer orqali?

Toshkent orqali

Qayerdan?

Toshkentdan

168- mashq. Matnni o‘qing. Avval kelishik qo‘shimchalari bilan, keyin ko‘makchilar bilan ifodalangan o‘rin ma‘nosidagi so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chirib yozing.

Havo jazirama issiq. Uzoq dalalarda, yer-u ko‘kda jimlik hukm surardi. Salobatli tog‘larning osmon bo‘yi cho‘qqilarining oppoq qori quyosh tig‘ida yaltirab turardi. Kishining fikr-zikrini band qiluvchi oppoq bulutlar tog‘lar ustiga to‘planib, jimgina suzardilar. Shamol go‘yo tog‘ etagidagi vodiyni aylanib o‘tib, chet o‘lkalarga ketib qolgandek. Barcha jonzot, butun tabiat mudramoqda.

169- mashq. Qavs ichidagi so‘roqlar o‘rniga ma‘lumot uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. (Qayerdan?) kelgan har xil mutaxassislar ertasigayoq cho'lg'a ketishdi. 2. Qishloqning (qayerigacha?) hech kim ko'rinmadi. 3. Ular (qayerga?) kirganda, Yayra bilan Sevara (qayerda?) ovqat pishirishayotgan ekan. 4. Ta'til paytida biz (qayerga?) ketamiz. 5. Qushlar kuzda (qaysi tomonga?) uchib ketishadi, bahorda esa (qayerdan?) qaytib kelishadi. 6. Tezyurar poyezd (qayerdan qayergacha?) boradi. 7. Shahrimizning (qayerlarida?) yangi ko'priklar qurildi. 8. Bizning universitetimiz (qayerda?) joylashgan.

Ma'lumot uchun: oshxonada, u boshidan bu boshiga yetguncha, Toshkentdan, uyga, qishloqqa, Toshkentda, janub tomonga, janub tomondan, Toshkentdan Urganchgacha, Shayxontohur, Yunusobod, Sergeli tumanlariga.

170- mashq. Nuqtalar o'rniga zarur kelishik qo'shimchalari va ko'makhilarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yurak keng, bepoyon dalalar... talpinardi. 2. Daraxt bir yer... ko'karadi. 3. U uy... yaqinlashganda bahona topishga shoshardi. 4. Zebixon shu tarzda o'zini olisroq... bir muddat namoyish qilib turgandan ... , keskin burildi-da, ketdi. 5. Ona o'g'illarining orqasi... anchagacha qarab qoldi. 6. Dalalar... hosil mo'l. 7. Har yili paxta terimi paytida paxtazor... hasharga chiqamiz. 8. Maktabimiz... bor-yo'g'i o'n daqiqalik yo'l. 9. Shahar... kelgan mehmonlar bog'... sayr qilgani taklif etdik.

171- mashq. Matnni o'qing. O'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarni topib, ifodalanishi va gapdagi vazifasini ko'rsating.

XIVA

Xiva Markaziy Osiyodagi yagona muzey-shahar hisoblanadi. Ichkan qal'a ansambli to'liq va beshikast saqlangan yodgorlik majmualaridan iborat. Ansamblning yaxlitligi jihatidan Xiva O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Unda eng qadimiy (XIV asr) yodgorliklardan Said Aloviddin maqbarasi, eng ko'hna obidalardan Ko'hna ark, Juma masjid, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon madrasasi, 163 xonadan iborat Tosh hovli saroyi, Islom xo'ja minorasi, Kalta minor, 94 masjid va 63 madrasa bo'lganligi qayd etilgan. Xiva shahri hozir 2500 yoshda. Hukumatimiz tomonidan ushbu nodir tarixiy obidalarni saqlash, ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

O‘rin ravishlari noaniq joyni ko‘rsatadi, kelishik shaklida o‘rin ma‘nosini ifodalab kelayotgan otli birikmalar esa aniq joyni ifodalaydi. Misollarni qiyoslang:

	noaniqlikni ifodalaydi	aniqlikni ifodalaydi
	<i>pastda</i>	<i>soy bo‘yida</i>
qayerda?	<i>yuqorida</i>	<i>to‘rtinchi qavatda</i>
	<i>ichkarida</i>	<i>katta uyda</i>

172- mashq. Matnlarni o‘qing. Ot va ravish bilan ifodalangan o‘rinjoyni bildiruvchi so‘zlarni qiyoslab, ma‘nolaridagi farqlarni tushuntiring.

1. Bobo bizga qarab miyig‘ida kuldi-da, asta gap boshladi: „Uyda boqqanda qorako‘l emas, oddiy po‘stak olasiz, o‘g‘lim. Qorako‘l faqat yaylovlardagina yetishadi. Nega desangiz, uyingizda yavshan, juvsan, seta, arpag‘on o‘tlari yo‘q. Yaylov iqlimini uyda, xonadonda, hatto qishloqda ham yaratib bo‘lmaydi.

2. Karimjon bilan ikkalamizga ayvonga joy qilib berishdi. Uzoqdan soy shivirlaydi. Qo‘rg‘onning orqasida bulbul xonish qiladi. Gullar va rayhonlarning yoqimli isi dimoqqa uriladi. Yuqorida to‘lin oy suzib yuribdi. Atrofida yulduzlar g‘ujg‘on. Uyqum o‘chib, notanish yerlarning sehrlil tun manzarasini tomosha qilib yotdim.

O‘rin ma‘nosi qo‘shma gaplar vositasida ham ifodalanishi mumkin. Bunday gaplar tarkibida qayerda?, qayoqqa? so‘roq olmoshlari va u yerda, o‘sha yerda, o‘sha yoqqa kabi ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etadi. O‘rin ma‘nosidagi qo‘shma gaplar quyidagi tuzilishda bo‘ladi:

Qayerda? nima bo‘lsa?, o‘sha yerda nima bo‘ladi?

Masalan: Ko‘z qayerda bo‘lsa, mehr ham o‘sha yerda bo‘ladi.

Bunday gaplar sodda gaplarga aylantirilsa, ergash gaplar kengaygan sifatdash oborot shaklida beriladi. Masalan:

Qayerda suv serob bo‘lsa, o‘sha yerda obodonchilik bo‘ladi. — Suv serob bo‘lgan joyda obodonchilik bo‘ladi.

173- mashq. Gaplarni o‘qing, o‘rin ma‘nosini ifodalovchi vositalarni ko‘rsating.

1. She‘rim, men qayerga borsam, sen menga o‘sha yerda hamroh bo‘lursan. 2. Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi. 3. Qayerda mehnat intizomi yaxshi bo‘lsa, u yerda hamma ish o‘z vaqtida bajariladi. 4. Qayerga yuborsalar, o‘sha yerda ishla-shingizga to‘g‘ri keladi. 5. Ko‘pchilik qayerda bo‘lsa, sen ham o‘sha yerda bo‘lganing ma‘qul. 6. Qayerda tinchlik-xotirjamlik bo‘lsa, baxt o‘sha yerda bo‘ladi.

174- mashq. Matnni o'qing. O'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarni aniqlab, ifodalanishiga ko'ra ikki ustunga ajratib ko'chiring.

BOG'I MAYDON

Osmonda yulduzlar so'nib, tevarak-atrof yorishib qolgan edi. Lekin ular chapga burilib, yuz qadamcha yurmagan ham edilar, Bog'i maydon tomondan ot tuyoqlarining dupuri eshitildi-yu, qamishzor orasida to'xtashga majbur bo'lishdi. Sal o'tmay yuqorida, oqara boshlagan ufqda, katta tosh yo'ldan ot choptirib o'tayotgan o'n nafarcha suvorilar ko'rindi. Shu payt ro'parada, katta yo'lning u yuzidagi tepalikda ham bir guruh otliqlar paydo bo'ldi. Tepalikda birdan paydo bo'lgan bu otliqlar, qo'llarida yalang'och qilichlarini boshlari uzra o'ynatishib, vahimali qiyqiriq bilan yopirilib kelishardi. Tepadan qora to'fonda yopirilib tushayotgan suvorilarni ko'rganda Bog'i maydon tomondan kelayotgan otliqlar sarosimaga tushib to'xtab qolishdi, oldingi suvorilar esa otlarining boshlarini orqaga burishdi...

175- mashq. „Dam olish kunida“ matnini o'qing va topshirig'ni bajar.

Dam olish kuni edi. Yaxshi dam olgani guruhimiz bilan shahardan tashqariga chiqadigan bo'ldik. Ertalab hammamiz yotoqxona oldida uchrashgach, avtobusga o'tirib, Bo'stonliq tomon yo'l oldik. Toshkentdan 50 kilometr yo'l yurilgach, katta chorraha keladi. Ko'prikdan o'tib, chap tomonga yursangiz, Oqtoshga, o'ngga burilsangiz, G'azalkentga borasiz. Biz ...



Savol va topshiriqlar

1. Matnni davom ettirishda o'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlar va ko'makchilardan foydalaning, ularning qo'llanishiga e'tibor bering.
2. Siz dam olish kuningizni qanday o'tkazasiz?
3. O'zbekistondagi qanday oromgohlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

ESHITISH MASHQI

Zulfiyaning „Bahor keldi seni so'roqlab“ she'ridan berilgan parchani diqqat bilan eshiting va o'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarni yozib boring. So'ngra ularning har biriga so'roq bering.

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...
Qancha sevar eding, bag'rim, bu bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.

176- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring va o'zbek xalqining mehmon kutish odobi haqida so'zlab bering. Payt va o'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarni o'zaro qiyoslang.

ДАСТАРХАН

В Узбекистане по-доброму встречают в доме любого гостя. После первых слов приветствия приглашают к дастархану. Этот обычай у народов Востока существовал давным-давно. На дастархане лежат фрукты, сладости. Перед каждым гостем — пиала с чаем. Чай заваривают по-особому. Затем подаётся узбекский плов, ароматный и неповторимый. Лежат на дастархане вкусные лепёшки. Кусок лепёшки на дастархане издавна был символом мира. Дастархан останавливал войны. Был когда-то такой обычай на Востоке: когда садятся за дастархан, сражения прекращаются. Хлеб и песни — вот то главное, что делает человека бессмертным, а жизнь его — по-настоящему счастливой.

BIKIB OLING!

Jizzax viloyati respublikamizning markaziy qismida joylashgan. U 1973- yil 29- dekabrda tashkil topgan bo'lib, hududi 25 ming 500 kv.km. Jizzax viloyati tarkibiga 11 ta qishloq tumani va 7 ta shahar kiradi. Uning markazi Jizzax shahri. Jizzaxdagi Zomin tumani respublikamizning eng go'zal hududlaridan biri bo'lib, u yerda yaxshi dam olish maskanlari bor.



Adabiy o'qish

MEHMONNAVOZLIK — OLIY FAZILAT

Yor-u birodar, qarindosh-urug' va do'stlarnikiga tez-tez borib turishni eng yaxshi insoniy fazilatlardan biri, deb biladi xalqimiz. O'z uyiga kelgan har bir mehmonni yaxshi mezbonlar ochiq ko'ngil bilan kutib olishlari ham bir fazilatdir.

Hamma xalqlarda bo'lgani kabi, o'zbeklarda ham mehmonni lazzatli taomlar bilan ziyofat qilish odati bor. O'zbekistonda ana shunday taom palovdir. Aziz mehmonga serlazzat osh yedirib yubormagan xonadon bo'lmasa kerak O'zbekistonda.

Har bir shaharda palov pishirishning ko'pdan ko'p usullari mavjud bo'lgan. Farg'onacha palov, Samarqand palovi, Buxorocha palov kabilar shular jumlasidandir.

Yurtimizdagi har bir viloyatning mehmon kutish bo'yicha o'ziga xos odatlari bor. Toshkentda, masalan, dasturxonga albatta palov tortishdan tashqari qazi-qartali norin va xushbo'y famil choy damlab berish odat tusiga kirgan. Farg'ona vodiysining hamma shaharlarida va Samarqandda mehmonga dastavval issiq ko'k choy beriladi. Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona va Namanganda mehmonga choy berilgach, kashnich, rayhon solingan va qatiqlangan mastava, so'ngra devzira guruchdan lolarang qovurma palov tortiladi. Bu shaharlarda mehmon dasturxoniga patir va jizzali nonlar, anvoyi ho'l mevalar bilan birga oqlikning ramzi sifatida sut, qatiq, qaymoq qo'yiladi.

Kelgan mehmonga darhol qatiq taklif etish yoki nonushtaga albatta qatiq berish, ayniqsa Namanganda ham odat tusiga kirgan. Qatiq uzoq joydan kelib, havo o'zgartirgan kishini lohas bo'lishdan ham saqlaydi.

Samarqandda mehmonni shirin-sharbat ho'l mevalar, mashhur Samarqand nonlari hamda qaymoq bilan siylash, so'ngra murch sepilgan chuchvara va to'g'rama palov bilan ziyofat qilish odati bo'lsa, Buxoroda mayiz palov va yaxlit qilib pishirilgan barra kabob tortiladi. Surxondaryoliklarnikiga mehmonga borsangiz, xushbo'y ko'k choy bilan birga archa o'tinida pishirilgan kabob keltirib, hurmatingizni joyiga qo'yadilar. Xorazmliklar mehmonni tilyorar qovunlar va maxsus tayyorlangan barak bilan siylashadi. Qoraqalpoqda baliq kabobi bilan kulchatoy yeysiz.



Savol va topshiriqlar

1. Qayerda qanday mehmon kutiladi?
2. Siz O'zbekistonning qaysi shaharlarida bo'lgansiz? U yerdagi mehmon kutish odatlari haqida so'zlab bering.
3. O'zbek xalqining mehmondo'stlik odatlari boshqa xalqlarnikidan nimasi bilan farq qiladi?

21- mavzu: PAYT MA'NOSINI IFODALASH

(Выражение значения времени)

177- *mashq.* Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, qanday ma'no ifodalanayotganini va qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlang.



1. Qizimiz **bu yil** oliy o'quv yurtiga o'qishga kirdi. 2. **Hozir** hamma erkin, har kim o'qishi, ishlashi mumkin. 3. **Kecha** buvimlarni ko'rgani bordim. 4. Sen kelmasingdan **oldin** barcha shu yerda edi. 5. **Kechga yaqin** havo o'zgardi. 6. To'tiqiz **bu yil** bahorda o'n to'rt yoshni qarshiladi. 7. O'yin-kulgu **yarim kechagacha** davom etdi. 8. **Har bahorda** shu bo'lar takror, har bahor ham shunday o'tadi. 9. U **ertadan kechgacha** bosh ko'tarmay ishladi. 10. **Har yili yozda** dala hovlimizda dam olamiz.

Payt ma'nosi payt ravishlari, vaqt bildiruvchi so'zlar o'rin-payt, jo'nalish, chiqish kelishigidagi so'zlar, ko'makchilar vositasida ifodalanadi va qachon?, qachongacha?, qachonga qadar?, qachondan?, qachondan boshlab? (beri, buyon) kabi so'roqlarga javob bo'lib, hamisha kesimga bog'lanadi. Masalan:

Bu yil dalalarda hosil mo'l. Kechqurun soat 5 da uchrashamiz.

Payt ma'nosini bildiruvchi so'zlar odatda gapning boshida keladi.

Payt ravishlari va payt ma'nosini bildiruvchi otlarning ma'nolaridagi farqlarni bilib oling!

Ravishlar	Otlar va sonlar
Ertalab	Tongda, soat 6 da
Kechqurun	Tunda, soat 18 da
Bu yil	2005- yil
	
noaniq payt	aniq vaqt

178- *mashq.* Matnni o'qing. Payt ma'nosini ifodalovchi so'zlarni topib, ifodalanishini izohlang, ma'nosidagi farqlarni ko'rsating.

BO'STONLIQ

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida ajoyib xushmanzara joy bor. Har tomondan tog'lar bilan o'ralgan bu go'zal hudud Chimyon deb ataladi. Havosi toza, tiniq va shifobaxsh, suvlari zilol. Men Chimyon tog'larini juda yaxshi ko'raman. Ayniqsa qish kunlari bu tog'lar oppoq qor bilan o'ralgan bo'ladi. Dam olishga kelganlar chana, chang'i uchishadi. Shanba, yakshanba kunlari Chimyon odamlar bilan gavjum bo'ladi. Bu kunlari oshxona, qahvaxonalar, katta va kichik arqon yo'llari ishlaydi. Qishda chana, chang'i uchib orom olgani kabi, yozda ham tog'ning salqin havosidan to'yib-to'yib nafas olasan. Shahardagi o'nlab korxonalar, muassasalar o'zlarining dam olish hududlarini Chimyon atrofida barpo etganlar. Ularning ba'zilari erta bahordan kech kuzgacha, qishda ham korxonalar xodimlari uchun shanba va yakshanba kunlari sayllar tashkil etishadi. Chimyonda juda ko'p bolalar oromgohlari, sanatoriy va shifoxonalar bor.

179- mashq. Nuqtalar o'rniga ma'lumot uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib, matnni ko'chiring. Siz tabiat hodisalarini kuzatganmisiz? Shular haqida gapiring.

... havo bulut bo'lib, kun bo'yi yomg'ir yog'di. ... o'qishdan qaytib kelayotganimizdagina tindi. Yomg'ir tingach, ufq qip-qizil bo'lib ketdi. Dadamlar: „Ufq qizarsa, ... havo yaxshi bo'ladi“, der edilar. Mana ... havo ochiq. Ertalabki sof havoda rohat qilib kerishdim. Tog' ortidan ... yarmisi chiqqan quyoshga ... tik qaray olmadim.

Ma'lumot uchun: endi, bugun, ertaga, kecha, peshinda, tik, muzdek.

Son so'z turkumi aniq vaqtni bildirishga xizmat qiladi. Ammo sonlar oldidan chama, taxminan so'zlari qo'llanganda va songa *-tacha, -larcha, -lab, -larda* qo'shimchalari qo'shilganda, shuningdek, ikki son juftlab qo'llanganda taxminiy vaqt bildiriladi.

Aniq vaqt

Soat 12⁰⁰ da uchrashamiz.

200 odam yig'ildi.

Bolaning yoshi 14 da.

Noaniq vaqt

Soat taxminan 12 larda uchrashamiz.

200 tacha odam yig'ildi.

Bola 14—15 yoshlarda.

180- mashq. Gaplarni o‘qing. Sonlarning ma‘nolarini izohlang, har bir gapni aniq va noaniq vaqtini ifodalovchi shaklda yozib chiqing.

1. Nodirabegim XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon shahrida yashagan. 2. Ma‘dalixon hukmronlik qilgan yillarda (1822—1842) davlatni boshqarish ishlari asosan Nodiraning qo‘lida bo‘ladi. 3. Dilshod Barno bir asr umr ko‘rgan shoiradir (1800—1905). 4. Dilshod 1800- yilda O‘ratepa(qadimgi Istravshan)da tug‘ilib, keyinchalik Qo‘qonda yashab ijod qilgan. 5. XIX asrning mashhur shoiralardan biri Anbar otin (1870—1915) Dilshod Barnoning iste‘dodli shogirdi edi. 6. Bobur avlodidan bo‘lgan shoira va olimasi Zebunniso (1639—1706) Hindistonning Dehli shahrida tug‘ilgan.

181- mashq. Dialogni o‘qing. O‘zbek tilida vaqtini bildirishga e‘tibor bering. Ularni rus tiliga tarjima qiling va farqini tushuntirib bering.

- Kechirasiz, soatingiz bormi?
- Ha.
- Menga soat necha bo‘lganini aytib bera olmaysizmi?
- Soat 11 dan 30 daqiqa o‘tdi, yani 11 yarim bo‘lda.
- Mening soatim to‘xtab qolibdi. 15 daqiqasi kam 11 ni ko‘rsatyapti, ya‘ni endi 11 bo‘libdi.
- Yo‘q mening soatim to‘g‘ri. Ishonsangiz bo‘ladi.
- Rahmat.

Payt ma‘nosi qo‘shma gaplar vositasida ham ifodalinishi mumkin. Bunday gaplar fe‘lning *-gach* (*-kach*, *-qach*), *-guncha* (*-kuncha*, *-quncha*), *-gacha* shakllari hamda *-gandan so‘ng* (*keyin*) qo‘shimchasi va ko‘makchilar yordamida bog‘lanadi. Payt ma‘nosini ifodalovchi qo‘shma gaplar tarkibida *qachon*, *qay vaqt* so‘roq olmoshlari hamda *o‘shanda*, *o‘sha paytda*, *o‘sha vaqtda* kabi ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etadi. Qo‘shimchalar asosan birinchi gap tarkibida bo‘ladi.

182- mashq. Gaplarni o‘qing. Payt ma‘nosini ifodalovchi ergash gaplar tarkibidagi vositalarga e‘tibor bering.

1. Gulga to‘lib bahor kelganda, yuragimda havas uyg‘ondi. (*H.O.*) 2. Ko‘kda yulduz uchsa nogahon, ketdi deyman qaysi bir taqdir. 3. Tong otgach, Yo‘lchi tog‘asinikiga ravona bo‘ldi. (*O.*) 4. Men kelgunimcha, oshxona, uylarni tozalab qo‘y. 5. Bog‘, qo‘rg‘onlar orqada qolgach, Oqsoy bo‘yiga chiqiladi. (*S.A.*) 6. Kema sohildan uzoqlashgach, kutilmaganda qattiq shamol boshlandi.

7. Tog'ni oqshom qorong'isi chulg'ab ola boshlagan paytda, gulxan yoqishni boshladik. 8. O'qishimiz tamom bo'ldi deguncha, biz chumchuq qidirib shu yerga kelardik.

181- mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Payt ma'nosidagi so'zlarning o'zbek va rus tillarida ifodalanishini qiyoslang.

ВРЕМЯ ДОРОЖЕ ДЕНЕГ

Потерянный гривенник можно заработать снова, а вот упущенная минута исчезнет навсегда. И нет на свете ни силы, ни средства, способных вернуть самое крошечное мгновение.

Минута? Чего стоит эта шестидесятая доля часа? Двадцать вздохов? Семьдесят два удара сердца?

Сколько тебе надо времени, чтобы прочесть две страницы? Две — две с половиной минуты. Значит, за пять минут ты можешь прочесть две страницы. А трудно ли сберечь пять, всего пять минут в день? Совсем не трудно. Но если это время выразить в страницах, которые можно прочесть за год, то выйдет семьсот тридцать страниц! Иными словами — три книги.

Подумай, пожалуйста, насколько же можно стать образованнее, прочитав сто пятьдесят — двести „лишних“ книжек в жизни. И только за счёт такой пустяковой экономии времени — пять минут в день.

184- mashq. Siz o'z ishlaringizni reja asosida bajarasizmi? Bir kunlik, bir haftalik, bir oylik ish rejangizni tuzib chiqing. Har bir ish rejasida ishlatgan payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar va grammatik vositalarni ajrating. Ularning qo'llanishiga e'tibor bering.

Ushbu maqollarni yodda tuting va ularga amal qiling!

Avval o'yla, keyin so'yla.

So'zni ko'ngilda pishitmaguncha tilingga chiqarma,
Va har neki ko'ngilda bor tilingga chiqarma.

Aytganing kumush, aytmaganing oltin.

ESHITISH MASHQI

Shoir Hamid Olimjonning „O‘rik gullaganda“ qo‘shig‘ini tinglang. Qo‘shiqda payt ma‘nosining qaysi so‘zlar yordamida ifodalanayotganini tushuntiring.

Novdalarni bezab g‘unchalar,
Tong-la aytdi hayot otini.
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.



Adabiy o‘qish

CHIMYON

Chimyon tog‘ tizmalari respublikamizning eng so‘lim joylaridan biri. U yerda dam olish uchun deyarli yil bo‘yi sharoit qulay. Tog‘ yonbag‘irlarida hali qor ketmagan, tog‘ etaklari esa xilma-xil ko‘katlar bilan qoplangan. Bahor paytida u yer ayniqsa go‘zal bo‘ladi. O‘t-o‘lanlar orasida oq va sariq boychechaklar, alvon lolaqizg‘aldoqlar ochilib yotadi. Chimyon yozda ham ajoyib istirohat oromgohidir. Yozning jazirama issiq kunlarida bu yerda havo iliq, kechalari esa hatto juda salqin bo‘ladi. Tez-tez yomg‘ir yog‘ib turadi. Kuz paytida tabiat alvon va oltin bo‘yoqlarga burkanadi. Kechasi osmon gumbazida yulduzlar charaqlab turadi. Chimyon qishda ayniqsa juda gavjum bo‘ladi. Bu yerga dam olish kunlari qorli tog‘ yon bag‘irlarida chang‘i va chanalarda uchish uchun, qor havosidan to‘yib nafas olish va hordiq chiqarish uchun minglab shaharliklar keladilar.

Biz Chimyonda



Topshiriq

1. Matnni davom ettiring.
2. To‘rt guruhga bo‘linib, Chimyonning to‘rt fasldagi holatini gapirib bering.
3. Uyda har biringiz „Chimyonda“ mavzusida kichik insho yozib keling.

22- mavzu: SABAB MA'NOSINI IFODALASH

(Выражение значения причины)

185- mashq. Gaplarni o'qing. Sabab ma'nosini ifodalovchi vositalarni ko'rsating.

1. Yo'l tor bo'lgani uchun, aylanib o'tishga to'g'ri keldi. 2. Odil uyalganidan qizarib ketdi. 3. Shoir kavushi loy bo'lmasligi uchun chetdan ehtiyotlik bilan yurib ketdi. 4. Men shifokorman, odamlarni o'limdan saqlash uchun yashayman. 5. Bozor kuni bo'lganidan ko'chalarda qatnov zo'r. 6. Kichik ariqqa hali suv kelmagani uchun Gulnor chelak ko'tarib katta ariqqa jo'nadi. 7. Ali Qushchiday shogirdlari bor ekan, Ulug'bekning asarlari izsiz yo'qolmaydi. 8. Nizomjon kamgap bo'lgani uchun sinfdoshlari uni indamas deb chaqirishardi.

Grammatika

Nutqda ish-harakatning yuzaga kelish sababini bildiruvchi so'zlar nima uchun?, nima sababdan?, n e g a? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi va *sababli, tufayli* bog'lovchilari, sabab ravishlari, otlar va sifatdoshlarga chiqish kelishigi qo'shimchasini qo'shish orqali ifodalanadi. Masalan:

Salima darsni yaxshi tayyorlagani uchun maqtovga sazovor bo'ldi. Ona xursandligidan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi.

186- mashq. Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. U muhim topshiriqni bajar... sevinchini ichiga sig'dira olmas edi. 2. Suvsiz... bu yerlarga o'tmishda ekin ekilmas edi. 3. Amir Temur o'z nevarasi Muhammad Tarag'ayni g'oyat ziyrak va o'tkir zehni bo'l... .. Ulug'bek deb ataydi. 4. Otam ilg'or ishchi bo'lgan... .. mukofotlandi. 5. Havo sovuq bo'l... .., jiyanimni uyda olib qoldim. 6. Kamola uyal... nima deyishini bilmay qoldi. 7. Azizaning kel... xursand bo'ldim. 8. Farhod dars tayyorlama... .. ketib qolgan ekan.

187- mashq. Ushbu so'zlar va birikmalarni qatnashtirib, gaplar tuzing.

O'ylovchanligidan, uxlagani sababli, beburdligi tufayli, vaqtida bergani uchun, uyqusizlik tufayli, halol mehnati uchun, qo'rq-qanidan.

Sabab ma'nosi qo'shma gaplar orqali ham ifodalanadi. Bunday gaplar *chunki, negaki, shekilli, shuning uchun, -gani uchun, -gani tufayli, -ganidan* kabi yordamchi vositalar orqali birikadi.

Masalan: *Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir.*

U kech qolgani tufayli, yig'ilishga kirmadi.

188- mashq. Sabab ma'nosini ifodalovchi qo'shma gaplarni o'qing va gaplarning bog'lanish vositalarini ko'rsating.

1. Qorong'i tez tushdi, shuning uchun biz yo'ldan adashdik.
2. Ikromjon sovqotganidan bir piyolagina achchiq ko'k choyga zor bo'lgan edi.
3. Meni taklif etishmadi, shuning uchun majlisga bormadim.
4. Orif aka ko'targan mavzu dolzarbroq edi, shuning uchun ko'pchilik qiziqib qoldi.

189- mashq. Berilgan sodda gaplardan sabab munosabatidagi qo'shma gaplar tuzing.

1. Vatanimiz kun sayin o'zgarib borayotir. Mening ko'nglim shod.
2. Adiba juda xursand bo'ldi. Uchrashuv u kutganidan yaxshi o'tdi.
3. Nuri gapga e'tibor qilmadi. Yormat endi qiziga qarab so'zlay boshladi.
4. Daryo toshdi. Ekinning yarmi nobud bo'ldi.
5. Klimov qiziqroq gap aytdi. Jo'raboy butun gavdasini larzaga keltirib kuldi.
6. Vatanni asrang. Siz shu Vatan farzandisiz.

190- mashq. Nuqtalar o'rniga zarur bog'lovchi vositalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Fizika tabiat haqidagi asosiy fanlardan biridir, ... boshqa tabiiy fanlar taraqqiyoti fizik hodisalarga bog'liq.
2. Olimjon xatni o'qiy olmadi, ... yig'ilishga odamlar to'plana boshlashdi.
3. Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, ... qo'lim yumush qidiradi.
4. Kun issiq ..., quruvchilar maysazorga yonboshladilar.
5. Saida bugun a'lo baho oldi, ... barcha topshiriqlarni to'g'ri bajardi.

191- mashq. Berilgan savollarga qo'shma gap tarzida javob bering.

1. Nima uchun kitobni sevish kerak?
2. Nima uchun yog'och suvda cho'kmaydi?
3. Nima uchun kattalarni hurmat qilish kerak?
4. Nima uchun qushlar pastlab uchsa, yomg'ir yog'adi?
5. Nega yo'lning o'ng tomonidan yurish kerak?

ЧИРОКЧИ

На левом берегу Кашкадарьи есть городище Кишмиштепе. В древности здесь был маленький город. О нём сохранилась такая легенда. На площадь Кишмиштепе пришёл однажды незнакомый путник. Он просил приютить его и накормить. Никто не захотел этого сделать. Он стучался во все дома, и везде его встречали отказом. И только бедная старушка позвала его к себе в дом. Путник переночевал у неё, а на следующий день стал собираться в дорогу. Он дал доброй старушке совет: вечером уйти из города в загородную мечеть. Будет темно, поэтому нужно взять с собой светильник — чирак. Путник очень просил старушку сделать это, и она так и поступила. Вернувшись утром домой, она увидела, что всё родное её селение разрушено землетрясением. Позже город отстроили на новом месте, и в память об этом случае стали называть его Чирокчи.



Adabiy o'qish

Abdulla Qahhor

NURLI CHO'QQILAR

To'qqizinchi sinf a'lochilaridan Zuhraxon degan qiz yo'qolib qoldi. O'sha kasofat shanba kuni maktabdan qaytishda Zuhra kitob-daftarlarini opasi Fotimaga berib, Lola tergani qirga chiqqan ekan, qaytib kelmabdi. Uning ota-onasi avvaliga qarg'ab, keyin yig'lab, butun lolazorni, butun qishloqni taka-taka qildi. Maktab ma'muriyati bulardan ham ko'proq jon kuydirdi — jamoa kengashiga aytib, butun qishloqni oyoqqa turg'izdi, rayonga ma'lum qildi, chunki sinfdagi a'lochi qiz to'rtta bo'lsa, Zuhra uning yigirma besh protsentini tashkil qilardi.

Chol-kampir boshqa xunuk xayollarga bormaslik uchun bir-birini ovutdi: Zuhra ta'bi nozik, dimog'dor qiz bo'lib, maktabdoshlariga qo'shilmas edi. Shahardan lola tergani chiqqan qizlardan birontasi ta'biga yoqib, o'sha bilan o'ynab ketgan bo'lsa, ajab emas. Ko'ngliga yo'l berish mumkin bo'lgan va birdan bir xayriyatli gumon shu bo'lib qoldi. Haqiqatan, shanba va yakshanba kunlari shaharlik yoshlar bitta danak topsa, shu lolazorga kelib, chaqib

yer edi. Bularning ichida chiroyligi bor, sho‘xi bor, boyvachchatabiati bor, beboshi bor... Buning ustiga Zuhra nihoyatda ko‘zga yaqin, bir qaragan kishi ko‘zi xira tortib, yana qaragisi kelar, xususan, xon atlas ko‘ylak kiyib, sochini „laylak uya“ qilganida, maqtovgga so‘z topilmay qolar edi.

Zuhra o‘ziga munosib, ya’ni yaxshi o‘qiydigan suxsurdakkina biron yigit bilan ketgan degan umidda chol bilan kampir biroz taskin topgan bo‘ldi-yu, lekin Fotima baloga qoldi: „Zuhra lola tergani boraman desa, bitta o‘zini yuboraverdingmi? Birga borsang bo‘lmasmidi, muncha ham anqov, noshud-notovon bo‘lmasang“.

Kampir bunaqa gaplarni alam ustidagina emas, umuman, kuyib aytar, chunki sho‘x va shaddod Zuhraga qaraganda Fotima bo‘sh Tobroq, sho‘xlik husnning pardozi bo‘lsa kerak, ikkovi bir olmaning ikki pallasi bo‘lsa ham, Zuhraning oldida uning istarasi so‘niqroq ko‘rinar edi. ... Fotima bunaqa ta’na-dashnomlarni ko‘p eshitdi. Nihoyat jon-jonidan o‘tib ketdi-yu, yig‘lab dedi:

— Ayajon, hamma aybni menga to‘nkayvermang, axir Zuhraga o‘zingizning so‘zingiz ham o‘tmas edi-ku. Ozib-yozib bir ish buyurganingizda „Men sizga malay emasman!“ degani esingizdan chiqdimi? Shunda ham indamadingiz. Men esimni taniganimdan beri sizga qarashaman, ro‘zg‘or ishini butkul qo‘limga olsam, sizni yetti qavat ko‘rpachaga o‘tqazib qo‘ysam deymen. Nahot otananing izzatini, xizmatini qilgan kishi malay bo‘lsa? Yaxshi o‘qisin deb Zuhrani juda erkatib yuborgan edingiz! Qizimning qo‘li qavaradi deb, o‘smasini ham siqib berar edingiz.

Kampir Fotimaning so‘zlariga qarshi lom-mim deya olmay qoldi: haqiqatdan, o‘zi vaqtida o‘qiyolmay qolgani uchun, zehni o‘tkir Zuhraning ilmga tezroq to‘lishini ko‘zlab, uning maktabdagi qilday yutug‘i oldida, uydagi filday gunohini payqamagan edi. Shundan keyin Fotima zixnovdan qutuldi, lekin kampirning g‘amiga g‘am qo‘shildi. Zuhradan xat kelgunga qadar bir oycha muddat o‘tdi. Zuhra bosh-keti yo‘q to‘mtoq xatida shunday debdi:

„Turmush o‘rtog‘im bilan ko‘nglimizni amrini bajarib, baxtiyor oilalar safidan mustahkam o‘rin egalladik va kelajakning nurli cho‘qqilari tomon bormoqdamiz. Sizlar yuksak ideallarga asoslangan muhabbat nima ekanini bilmaysizlar, shuning uchun mendan xafa bo‘lmanglar, xursand bo‘ladigan kunlaring yaqinlashib kelmoqda“.

Fotima xatning boshiga — „Aziz dadajonim, mehribon onajonim“, oxiriga — „sizlarga sihat-salomatlik tilayman“ degan so‘zlarni qo‘shib o‘qidi. Xatda na adres bor, na imzo. Konvertga shahar o‘n birinchi aloqa bo‘limining muhri bosilgan edi.

Xatning „baxtli turmush, nurli cho‘qqi“ degan joylari kampirga tasalli berdi. Lekin chol Fotimaning qo‘lidan xatni yulqib olib, qo‘yniga tiqdi-yu, to‘nini yelkasiga tashlab, shaharga jo‘nadi va shu ketganicha bir hafta deganda keldi. Zuhrani qidirib, o‘n birinchi aloqa bo‘limiga qarashli hamma xonadonga birma-bir bosh tiqibdi; maktab, idora, korxonadan so‘roqlabdi, nihoyat shahar militsiya boshqarmasiga uchrabdi. Militsiya to‘rt kundan keyin „Shaharga bunaqa ayol yozilgan emas“ deb javob beribdi.

Kuzga yaqin rayonda katta majlis bo‘lgani, majlisda Zuhra va uning maktabi og‘izga tushgani, xunuk-xunuk gaplar aytilgani to‘g‘risida mish-mish tarqaldi. Bu mish-mishlar kampirni yiqitdi. Kampir uzoq yotib qoldi.

Qish o‘tdi. Bahor keldi. Zuhraning na tirigidan darak bor edi, na o‘ligidan.

Oylar o‘tdi. Fotima yaqinda o‘qishini bitirib, fermaga vetvrach bo‘lib kelgan Samijon degan yigitga unashtirildi. Samijon ko‘p mulohazali yigit ekan. To‘y cholga ham tatisin degan maqsadda, Zuhrani xo‘p qidirdi. Olti hafta qidirib, axir daragini topdi. ... Zuhra markaziy hammom qoshidagi sartaroshxonada kassir bo‘lib ishlar ekan. Samijon eshikda qolib, sartaroshxonaga Fotima kirdi va ko‘k yog‘och panjara ichida o‘tirgan Zuhrani ko‘rib, yuragi shig‘etib ketdi: ozib, cho‘p bo‘lib ketibdi, bukchayibdi, shunday sochdan chilvirdakkina ikkita kokil qolibdi...

Zuhra Fotimaga ko‘zi tushib, beixtiyor panjaradan chiqib keldi.

— Nega, nega kelding... Men bu yerda vaqtincha ishlab turibman.

— Yaxshimisan? Ering yaxshimi, — dedi Fotima.

— Ketib qolgan, allaqachonlar ketib qolgan...

— Kuyov bilan arazlashib qolgan bo‘lsang, yakka o‘zing shahri azimda nima qilasan, qishloqqa keta qolaylik? — dedi Fotima

— Shahardan qishloqqa ... Bir qadam orqaga qaytish bo‘lmasmikan?

Fotimaning achchig‘i keldi.

— Orqaga qaytish bo‘lsa nima, nurli cho‘qqidan tushib qolasanmi?



Savol va topshiriqlar

1. Hikoyaning davomini topib o‘qing va o‘z xulosangizni bayon eting.
2. Matndan maqsad konstruksiyali gaplarni toping va tahlil qiling.

Namangan viloyati 1967- yilning 18- dekabrda qayta tashkil etilgan. U Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. Maydoni 7,9 ming kv. km., aholisi 1741,2 ming kishi. Viloyatida 11 ta tuman, 8 ta shahar, 12 ta shaharcha, 99 ta qishloq bor.

Viloyatining ma'muriy markazi — Namangan shahridir. Namangan Farg'ona vodiysining qadimiy shaharlaridan. Shahar aholisi dehqonchilik, bog'dor-chilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Namangan gullar shahri deb ta'riflanadi.

23- mavzu: MAQSAD MA'NOSINI IFODALASH

(Выражение значения цели)

193- mashq. Gaplarni o'qing. Maqsad ma'nosining qanday vositalar bilan ifodalanganini aniqlang.

1. Biz ilmning qal'asini olmoqqa keldik, baxtimizning sozini chalmoqqa keldik. (*Shayxzoda*) 2. Xolidaxon opamni ko'rish uchun keldi. 3. U Farg'onadan Toshkentga o'qish uchun kelganligini aytdi. 4. Tun bo'yi uxlamaganligi uchun ko'zlari qizargan edi. 5. Shodligidan qul Tarlon, to'xtamadi yig'idan (*H.O.*) 6. Yerlar suvsizlikdan qaqrab yotar edi. 7. Ko'rgali husningni zor-u, muhtalo bo'ldim senga. 8. Rustambek teatrga chipta olgani ketdi. 9. U bafurja gaplashish maqsadida joylashib o'tirdi.

Ish-harakatning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradigan gaplar **N i m a m a q s a d d a ? n i m a u c h u n ?** so'roqlariga javob beradi va quyidagicha ifodalanadi:

- Ravishdoshning **-gani, -gali** qo'shimchali shakli bilan:
Eshik oldi gul hovuz, gul tergani kelganmiz.
- Harakat nomidan keyin maqsadida, maqsadi bilan, uchun so'zlarini keltirish bilan:
Mashinalar qatnovini yengillashtirish uchun (maqsadida) shaharga bir nechta ko'priklar qurildi.
- Jo'nalish kelishigidagi harakat nomi bilan yoki harakat nomidan keyin *uchun* ko'makchisini keltirish bilan:
Qishki ta'tilda Chimyonga dam olishga(uchun) bordik.

4. Fe'ldan so'ng *deb* so'zini keltirish bilan:
Rustam kitob olaman deb kelgan ekan.
5. Kelasi zamon maqsad fe'li bilan:
Hovlining bir tomoniga atirgul ekmoqchiman.

194- mashq. Nuqtalar o'rniga maqsad ma'nosini ifodalovchi so'zlar va qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yozning issiq bir kunida, qo'zi bordi suv ich... . 2. Inshoni bugun yoz... edim. 3. Kuz kelgach, dehqon daladagi hosilni tezroq yig'ish... shoshiladi. 4. O'qituvchi bir-ikki soat dars berish ... qancha tayyorlanishi kerak. 5. Chol daryo yoqasiga baliq ovla ... ketibdi. 6. Uni yaxshilab davolatish ... shahardan yaxshi shifokorlarni chaqirishdi. 7. Xayrulla o'qish ... Toshkentga ketdi.

195- mashq. Gaplarni o'qing. Avval sabab ma'nosini ifodalovchi gaplarni, so'ngra maqsad ma'nosini ifodalovchi gaplarni ko'chirib yozing.

1. Bolalar sayohatga jo'nash uchun tayyorgarlik ko'ra boshladilar.
2. Uyalganimdan dovdirab qoldim.
3. O'rmonjon Qurbon otaning bu ishni bemaslahat boshlaganiga xafa bo'ldi.
4. O'zbek bog'laridan do'stlarga elt deb, qo'linga guldasta uzatar bahor.
5. Har kuni shu vaqtda qo'y-qo'zilar daryo bo'yiga suv ichishga yig'iladi.
6. Ota-bobolarimiz o'z orzu-umidlariga etishish uchun juda ko'p harakat qilganlar.
7. Hamma o'z vaqtida kelmagani uchun yig'ilish boshqa kunga qoldirildi.
8. Men mustaqil yurt farzandiman, shuning uchun shodman bir umr.
9. Bu kitobni o'qiyman deb olib kelgan edim.
10. Akbarov xayrlashish uchun qo'l uzatdi.

196- mashq. Nuqtalar o'rniga maqsad ma'nosidagi gaplarni qo'shib ko'chiring, zarur tinish belgilarini qo'ying.

1. ... kutubxonaga yangi kitoblar olindi.
2. ... dehqonlar fidokorona mehnat qildilar.
3. ... ko'chalar kengaytirilmoqda.
4. ... yangi kanallar qazilmoqda.
5. ... uning derazalarini ochib qo'ydik.
6. ... daraxt tepasiga in o'rnatdik.
7. ... , qo'lidan kelgan barcha ishni qiladi.
8. ... , daryo bo'yiga bordik.
9. Ota-ona farzandlarini qiynalmasin deb,

197- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring.

КОННЫЕ СПОРТИВНЫЕ ИГРЫ

Конный спорт пришёл к нам из глубокой древности. С незапамятных времён лихие всадники участвовали в скачках, состязались в быстроте, ловкости, смелости. Вполне зако-

номерно было появление конных игр и соревнований, которые выявляли лучших наездников. Особо популярным видом конных состязаний является „джигитовка“. Это слово произошло от тюркского „джигит“ — отважный наездник — и означает умение во время скачки выполнять сложные упражнения. Это — соревнование в ловкости. Нужно на полном скаку подобрать с земли платок, монету или кольцо. Особенно славятся джигитовкой народы Средней Азии, Кавказа и казаки Дона.

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan tinglang, tayanch soʻzlarni yozib boring. Soʻngra matnni qayta tinglang. Aytinch, hayotni bunday rejalashtirishdan maqsad nima?

Inson hayoti boshdan oyoq rejalashtirilgan holda oʻtadi. Inson tugʻilgach, unga, albatta, ism qoʻyadilar, yurishga, soʻzlashga oʻrgatadilar, soʻngra unga taʼlim beradilar, biror kasb-hunar oʻrgatadilar va uni mustaqil hayotga yoʻllaydilar. Mustaqil yashash davrida ham har bir inson muayyan maqsad asosida oʻzi tuzgan katta va kichik rejalar bilan ish koʻradi. Bu davrda kimlardir buyuk ishlarni amalga oshirib, ulugʻ siymolarga aylanadi, kimlardir oʻrtamiyona, yaʼni „el qatori“ yashaydi, kimlardir hayotda yashagani ham sezilmay oʻtib ketadi.

Bularning barchasi insonga berilgan iqtidor va uning harakati tufayli yuz beradi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, erkaklarda 15 yoshdan 25 yoshgacha, ayollarda esa 15 yoshdan 20 yoshgacha eng sogʻlom davri, 18 yoshdan 25 yoshgacha boʻlgan vaqt barcha insonlarda zehn va xotira eng kuchaygan davr, 30 yoshdan 40 yoshgacha ijodiy iqtidorning rivojlangan davri, 40 yoshdan 50 yoshgacha kasb mahoratining eng rivojlangan davri hisoblanar ekan. Hayotimizning qanday kechishi shu davrlardagi harakatlarning natijasidir.

198- mashq. Guruhingiz bilan Xotira maydoniga boring va taassurotlaringiz asosida „*Hech kim, hech narsa unutilmaydi*“ mavzusida mustaqil ijodiy ish yozing.

Tavsiyanoma biror shaxsni tavsiflash va oʻqishga yoki biror lavozimga ishga tavsiya qilish maqsadida yoziladigan rasmiy hujjatdir. Ushbu hujjat tavsifnoma kabi aniq maʼlumotlar asosida, biroq I shaxs nomidan yoziladi. Unda tavsifnoma

berilayotgan shaxsning tavsiya qilinayotgan lavozimga loyiqligi qayd etiladi, shu bois o'ta mas'ullik va xolislik bilan yozilishi lozim. Tavsiyanoma ko'rsatilgan joyga rasmiy ravishda tasdiqlab yuboriladigan hujjat hisoblanadi.

199- mashq. Tavsiyanoma namunasini o'qing. Hujjatning mazmuniy qismlariga va ularda beriladigan ma'lumotlarga e'tibor qiling.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz filologiyasi fakulteti III bosqich talabasi, 1988- yilda tug'ilgan, millati o'zbek Soatova Malikaga

TAVSIYANOMA

Men O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz filologiyasi fakultetining III bosqich 311- guruh talabasi Soatova Malikani 2004- yildan beri taniyman. Universitetda o'qish davomida u o'zini har tomonlama bilimli, harakatchan, intiluvchan talaba sifatida ko'rsatdi. Barcha fanlardan a'lo baholarga o'qidi. Har yili talabalar ilmiy anjumanlarida faol ishtirok etib keladi. Bugungi kungacha „Yosh olim“, „Izlanish va ijod“ to'plamlarida, „Filologiya masalalari“ jurnallarida 4 ta ilmiy maqolasi chop etilgan. Yaqinda ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha kurs ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. 2006- yilda ingliz va o'zbek tillarini qiyoslab o'rganish bo'yicha o'z loyihasi bilan ishtirok etib, O'zbekiston Fond Forumi g'olibi bo'ldi. 2007- yilda esa o'qishdagi muvaffaqiyatlari uchun Toshkent shahar „Kamolot“ yoshlar kengashining maxsus sovrinini qo'lga kiritdi va 10 kunga Janubiy Koreya Respublikasiga yuborildi.

Soatova Malika o'z guruhida va fakultet jamoa ishlarida ham faol ishtirok etadi. Guruhdoshlari bilan xushmuomala, ochiq ko'ngilli, odobli va intizomli talaba. O'tgan 3 yil davomida sababsiz dars qoldirmagan, ustozlarga hamisha hurmat-e'tiborli. O'z bilimlarini oshirib borish ustida tinmay izlanadi, qo'shimcha tayyorlov kurslariga, iqtidorli talabalar guruhlarini bilan o'tkaziladigan qo'shimcha mashg'ulotlarga muntazam qatnashadi.

Turmushga chiqmagan.

Soatova Malikani Alisher Navoiy nomidagi stipendiyaga tavsiya etish mumkin.

O'zDJTU „O'zbek tili“ kafedrasini mudiri X.S.Muhiddinova

Sana

muhr

200- mashq. Berilgan reja va savollar asosida do‘stingiz yoki kursdoshingizga o‘zingiz tavsiyanoma yozing va uni qoidaga muvofiq rasmiylashtiring. Tavsiyanomaning tavsifnomadan farqli tomonlari nimada?

1. Tavsiyanoma kimdan kimga berilishi mumkin?
2. Tavsiyanoma berilayotgan shaxs qachondan beri shu muassasada o‘qiydi yoki ishlaydi?
3. O‘tgan muddat ichida u qangay faoliyat yuritgan (qanday o‘qigan, qanday yutuqlarga erishgan)?
4. Qanday insoniy fazilatlariga ega: do‘stlari, o‘zidan kattalarga, kichiklarga munosabati.
5. Jamoat ishlariga ishtiroki.
6. Oilaviy holati.
7. Tavsiyanoma nechanchi shaxs nomidan yoziladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?



Adabiy o‘qish

Abdulla Qahhor

O‘G‘RI

(O‘tmishdan)

*Otning o‘limi — itning bayrami
(Maqol)*

Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi. O!... Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish-uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi.

Odamlar dod ovozigaga o‘rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko‘zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi. Xotinlar o‘g‘rini qarg‘aydi, it huradi, tovuqlar qaqag‘laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho‘kiz sig‘ishiga aql ishonmasligi to‘g‘risida kishilarga gap ma‘qullaydi.

Qobil boboning qo‘shnisi — burunsiz ellikboshi kirdi. U og‘ilga kirib teshikni, ho‘kiz bog‘langan ustunni diqqat bilan ko‘zdan

kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko‘rdi, so‘ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

— Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi! — Uning og‘ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag‘ishlagan edi, bu so‘zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig‘lab yubordi.

— Xudo xayr bersin. . . Ola ho‘kiz edi. . .

Odamlar o‘g‘ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho‘kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to‘g‘risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G‘ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig‘idan to‘xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o‘g‘ri teshgan yerni yana bir ko‘rdi. Qobil bobo qo‘l qovushtirib uning ketidan yurar va yig‘lar edi.

— Yig‘lama, yig‘lama deyman! Ho‘kizing oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa topiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Hikoyaning davomini mustaqil o‘qish qismidan topib o‘qing va so‘zlab bering.
2. Hikoyada qanday g‘oya ilgari surilgan?
3. Poraxo‘rlik va ta‘magirlikka qanday munosabat bildirasiz?
4. Hikoya epigrafining ma‘nosini tushuntirib bering.

24- mavzu: NATIJA MA’NOSINI IFODALASH

(Выражение значения результата)

201- mashq. Gaplarni o‘qing. Natija ma‘nosining ifodalanishiga e‘tibor bering.

1. Havo shu qadar issiq ediki, hatto maysalarning uchi ham sarg‘ayib ketdi. 2. Qorbobo bolalarni o‘ziga shunchalik qaratib olgan ediki, natijada Bobur ham yig‘idan to‘xtab qoldi. 3. Bahodir shu qadar hovliqib kirib keldiki, hatto ostonada qoqilib ketdi. 4. Kechqurunga borib shunaqa qattiq shamol turdiki, oqibatda butun hovli barglarga to‘ldi. 5. Soydagi suv shu qadar ko‘payib ketdiki, hatto qirg‘oqlarni suv olish xavfi tug‘ildi. 6. Odamlar shunchalik astoydil ishladilarki, natijada qurilish muddatidan oldin bitkazildi.

O'zbek tilida natija ma'nosi qo'shma gaplar vositasida ifodalanadi. Bunday gaplar **-ki** qo'shimchasi yordamida bog'lanib, ikkinchi gap birinchi gapdagi ish-harakatning natijasini ko'rsatadi va quyidagi tuzilishda bo'ladi:

... *shunchalik* ..., *natijada* ...
 ... *shu qadar* ... **-ki**, *oqibatda*
 ... *shu darajada* ..., *hatto* ...

202- mashq. Quyidagi sodda gaplardan natija ma'nosidagi gaplar hosil qiling.

1. Bu yil shaftoli ko'p hosil qilgan edi. Shoxlariga tirgovuchlar qo'ydik.
2. Suvning oqimi juda kuchli edi. Unga qarshi suzish mumkin bo'lmay qoldi.
3. To'fon to'lqinlarni kuchaytirib yubordi. Kemani boshqarish qiyin bo'lib qoldi.
4. Malika barcha fanlardan a'lo o'qidi. Fakultetning faxriga aylandi.

203- mashq. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'ying va fikrni davom ettiring. Tuzgan gapingizda birinchi gapdagi ish-harakatning natijasini ifodalang.

Havo ... isib ketdiki, ...
 Mehmonlar ... ko'p keldiki, ...
 Shamol ... kuchaydiki, ...
 Umida ... chiroyli o'ynadiki, ...
 U xayolga ... berilib ketgan ediki, ...
 Ko'chada odam ... gavjum ediki, ...
 Paxtalar ... qiyg'os ochilgan ediki, ...

204- mashq. Har bir savollarga bir necha variantda javob bering.

Qattiq shamol turdi, natijada

- a) _____ b) _____
 d) _____ e) _____

Andrey darslarga o'z vaqtida kelmadi, natijada

- a) _____ b) _____
 d) _____ e) _____

Biz berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajardik, natijada

- a) _____ b) _____
d) _____ e) _____

Yorilgan truba vaqtida ta'mirlanmadi, oqibatda

- a) _____ b) _____
d) _____ e) _____

Damlangan osh vaqtida suzib tortilmadi, natijada

- a) _____ b) _____
d) _____ e) _____

205- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring. Sabab va natija ma'nolarini ifodalovchi vositalarni qiyoslang.

МЫ ПОМНИМ

Этот праздник является одним из самых почитаемых в народе. Безмерны наша благодарность и признательность тем, кто ценой жизни остановил врага в грозные 40-е. Поэтому День памяти и почестей — праздник со слезами на глазах. В этот день фронтовики вспоминают о войне — самой страшной в истории человечества, унёсшей миллионы жизней.

Узбекистан внёс достойный вклад в победу над фашизмом. Во второй мировой войне участвовали 1,5 миллиона воинов из Узбекистана. В нашу страну во время войны были эвакуированы многие заводы из других республик, на которых выпускались самолёты, тяжёлая военная техника и боеприпасы. Тысячи взрослых и детей были эвакуированы в Ташкент в начале войны.

Они нашли приют в узбекских семьях и впоследствии Узбекистан стал для них второй Родиной.

206-mashq. Matnni o'qing. Berilgan savollar asosida natija ma'nosini ifodalovchi gaplar tuzib yozing.

SHIROQ

Qadim zamonlarda Eron shohi Doro Movarounnahrda hujum qilibdi. Bu yerda massaget, sak va sug'd qabilalari yashar edilar. Barcha qabilalar boshliqlari bir yerga yig'ilib, dushmanni qanday yengish to'g'risida maslahat qilishibdi. Shunda ularning oldiga sak qabilasidan oddiy cho'pon Shiroq kelib, hiyla bilan dushmanni qirib tashlamoqchiligini aytibdi.

Shiroq burni, quloqlarini kesib tashlab, Doroning oldiga boribdi va uni o‘z qabiladoshlari shu holga solganlarini aytibdi. U qabiladoshlaridan o‘ch olish uchun Doro qo‘shinlarini ular berkingan joyga boshlab borishga va‘da qilibdi. Shu tarzda cho‘pon yigit Doroning barcha qo‘shinini sahroning o‘rtasiga olib boribdi va ularga shunday debdi: „Qaysi tomonga borsangiz ham yetti kunlik yo‘l. Men sizlarni ataylab bu yerga olib keldim va jonajon qabilamni, ona tuprog‘imni dushmandan saqlab qoldim. Men bir o‘zim qudratli qo‘shinni yengdim“.

Doro Shiroqning boshini qilich bilan uzib tashlabdi, ammo o‘zi ham butun qo‘shini bilan tashnalik, ochlik va issiqdan halok bo‘libdi.



Savollar

1. Shiroq nima uchun o‘z burni va quloqlarini kesib tashladi? Natijada nima bo‘ldi?
2. Nima uchun Shiroq Doro qo‘shiniga yo‘lboshchilik qilib ularni sahroga olib chiqib ketdi? Natijada nima bo‘ldi?
3. Shiroq nima uchun o‘lishini bila turib shu ishni qildi? Natijada nima bo‘ldi?
4. Shiroqni haqiqiy vatanparvar inson deb atash mumkinmi?



Adabiy o‘qish

ABDULLA AVLONIY

1913- yili Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yoxud axloq“ asari bosilib chiqdi. Ushbu asar Abdulla Avloniy tarbiyada ko‘proq bolalarning fikrini rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor bilan qaraydi. Fikrlash iqtidorini egallash oliyjanob g‘oyalar tomon intilish demakdir. Shunday ekan, aqlli odamning axloqsiz bo‘lishi qiyin. Avloniy bu tushunchalarni yaqin, birlikda ko‘radi va ularni ikkiga — yaxshi va yomonga ajratadi.

Muallifning fikricha, aql bilan ish tutish — sa‘y-harakat, shijoat, ilm egallash, pokizalik — nazokat, sabr-toqat, intizom, vijdonli bo‘lish, Vatanni sevish, haqtalablik, hamma narsaga ibrat ko‘zi bilan qarash, hayo, iffat, til odobi, idrok, munislik va xayrixohlik, sadoqat, adolat, muhabbat, afv kabilarni yaxshi xulq sirasiga kiritadi va mukammal inson uchun zarur bo‘lgan fazilatlar deb hisoblaydi. Adib bularning har biriga alohida-alohida to‘xtalib o‘tadi.

O‘z mulohazalarini dalillash uchun Aristotel, Platon, Gippokrat, Sa‘diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini keltiradi. Har bir axloqiy kategoriyaga o‘z munosabatini bildirgach, o‘sha, fikrni ifodalovchi bayt yoki biror maqol-hikmat ilova qiladi.



Savol va topshiriqlar

1. „Turkiy guliston yoxud axloq“ asari haqida nimalarni bilasiz?
2. Mustaqil o‘qish qismidan Abdulla Avloniy haqidagi ma‘lumotlarni o‘qing va u haqida so‘zlab bering.

25- mavzu: SHART MA’NOSINI IFODALASH

(Выражение значения условия)

207- mashq. Ko‘chiring. Ergash va bosh gaplarni aniqlang. Shart ergash gapning bosh gap bilan qaysi vositalar bilan birikkanini tushuntiring.

1. Mehnat qilsang, rohat ko‘rasan. 2. Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. 3. Agar siz romanni o‘qigan bo‘lsangiz, mazmunini aytib bering. 4. Bahor kelsa, kunlar isib ketadi. 5. Agar astoydil ishlamoqchi bo‘lsangiz, sizga men yordam beraman. 6. To‘rt faslning yozi yo‘q, sen bo‘lmasang yonimda. 7. Arpa ekkan arpa oladi, bug‘doy ekkan bug‘doy oladi. 8. Onalarda g‘am qolmas, Mustahkam bo‘lsa tinchlik. 9. Siz menga boshini ko‘rsatib bersangiz, davomini o‘zim bajaraman.

O‘zbek tilida shart ma‘nosi asosan qo‘shma gaplar vositasida ifodalanadi. Bunday gaplar *Nima bo‘lsa, nima bo‘ladi?* konstruksiyasida tuziladi, ya‘ni birinchi gap ikkinchi gapdagi voqeaning qanday shart bilan yuzaga kelishini bildiradi. Masalan:

Havo ochilib tursa, ertaga saylga chiqamiz. O‘rtada kelishmovchilik bo‘lmaganda, bu masala o‘z vaqtida hal bo‘lar edi.

Shart ma‘nosini ifodalovchi gaplar fe‘lning shart mayli shakli *-sa* yoki *-ganda*, *-ganda edi* vositalari orqali bog‘lanadi, shuningdek, ma‘noni kuchaytirish uchun gapning boshida *agar*, *agarda*, *mabodo* so‘zlarini qo‘llash mumkin. Masalan:

Agar hayot karvon bo‘lsa, sarbon muallim. (Shuhrat)
Shart ma‘nosi sodda gaplarda *shart*, *kerak*, *zarur*, *darkor*, *lozim* so‘zlari orqali ham bildiriladi. Masalan:

Hamma yo‘l-transport qoidaloriga rioya qilishi shart.

208- mashq. Quyidagi juft keltirilgan sodda gaplardan shart ma'nosidagi qo'shma gaplar hosil qiling.

1. O'qituvchi keldi. Dars boshlandi.
2. Buyruq berildi. Ishni boshlaymiz.
3. Siz chaqiring. Men boraman.
4. Qodir ko'rsatdi. Boshqalar yo'lga tushadi.
5. Qo'shning tinch, sen tinch.
6. Olim bo'lsang, olam seniki.

209- mashq. Matnni o'qing. Shart ma'nosini ifodalovchi gaplardagi grammatik vositalarni ko'rsating.

JAMOAT TRANSPORTIDA NIMALARGA RIOYA QILISH KERAKLIGINI BILASIZMI?

Yo'lovchilar transportga orqa eshikdan chiqishlari lozim. Bu holatda avval nogironlarni, bolali ayollarni, keksa yoshdagilarni, yosh bolalarni chiqarmoq va so'ngra o'zimiz chiqmog'imiz shart. Salonda odam gavjum bo'lsa, ularni turtib joy izlamang.

Jamoat transportining oldingi o'rinlari yosh bolali ayollarga, nogironlarga mo'ljallanganligini esda tutish kerak. Siz doimo sezgir va kuzatuvchan bo'lishingiz kerak.

Agar transportga o'zingizdan katta, nogiron yoki yosh bolalilar chiqsa, darrov joy berishingiz lozim.

Transportga chiqayotgan yoki tushayotgan kishining yuki og'ir bo'lsa, yordam berish zarur.

Yana muhim odoblardan biri transportni doimo ozoda saqlashimiz, o'rindiqlarni yirtmasdan, keraksiz so'zlarni yozmasdan foydalanishimiz dardor.



Savol va topshiriqlar

1. Matnni diqqat bilan o'qing va harakat nomlarini aniqlang.
2. Suhbatdoshlaringizga transportda o'zini qanday tutish kerakligi haqida maslahat bering.
3. Transportda mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan harakatlarni alohida-alohida yozib chiqing.
4. Kishi o'z-o'zini tarbiyalab borishi uchun nimalar qilishi kerak?
5. Kishiga uning transportda o'zini tutishiga qarab baho berish mumkinmi? Fikringizni yozma ifodalang.

210- mashq. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

Agar daraxt barglari uchidan to'kilsa,

Agar yoz issiq kelsa,

Qovun po'chog'i yerga tushsa,

Agar tabiatga zarar yetkazilsa,

211- mashq. Gaplarni o'qing va o'zbek tiliga o'giring. Rus va o'zbek tillarida shart ma'nosining ifoda vositalarini bir-biriga qiyoslang.

1. Если ты приедешь рано, то мы вместе поедем за город.
2. Если ты пришёл бы во время, мы бы не опоздали.
3. Если бы все трудились как следует, не было бы всего этого.
4. Если кто-то узнает об этом, нам придётся всё рассказать.
5. Если кому-то это не нужно, можете уйти сразу.
6. Если вы хотите быть здоровыми, нужно соблюдать режим.
7. Если каждый начнёт поступать по-своему, мы не достигнем намеченной цели.

212- mashq. Mirmuhsinning „Ziyod va Adiba“ dostonidan keltirilgan parchani o'qing. Shart ma'nosini ifodalovchi satrlarning ma'nosini izohlang. She'rdagi *agar* so'zi qanday ma'no ifodalayapti?

Sen agar ketar bo'lsang,

Qalbidan ketar orom.

Sen agar ketar bo'lsang,

Yuzim bo'lar za'faron.

Men agar ketar bo'lsam,

Onam bo'ladi murda.

Men agar ketar bo'lsam,

Dil bo'lar burda-burda.

Sen agar ketar bo'lsang,

Uyimizdan fayz ketar.

Men agar ketar bo'lsam,

Kasalmand onam netar?!

Sen agar ketar bo'lsang,

Qular baxtim yulduzi.

Sen agar ketar bo'lsang,

So'nib qolar quyoshim.

Men agar ketar bo'lsam,

Tinmas onam ko'z yoshi.

213- mashq. Matni o‘zbek tiliga o‘giring. O‘rin, payt va shart ma’nosini ifodalovchi gaplarning har ikki tilda berilishini bir-biriga qiyoslang.

ЧТО ТАКОЕ ДРУЖБА?

Когда учишься в школе, кажется, что взрослая жизнь будет в каком-то другом мире. От настоящего не останется ничего. А на самом деле всё иначе. Друзья молодости оказываются самыми верными. Круг знакомых увеличился, но настоящие друзья — старые.

Молодость — это время сближения. Об этом нужно помнить, и друзей надо беречь, потому что настоящая дружба очень помогает и в горе, и в радости. В радости ведь тоже нужна помощь. Неразделённая радость — не радость. А когда наступит пора несчастий, пора утрат, тоже нельзя быть одному. Горе человеку, если он один. Поэтому берегите молодость до глубокой старости.

ESHITISH MASHQI

Hamid Olimjonning ushbu to‘rtligini diqqat bilan eshiting. Har bir gapni shart ma’nosini ifodalovchi vositalar bilan to‘ldirgan holda daftaringizga yozing.

Rozimasman bir yosh tomsa ko‘zimdan,
Rozimasman sal rang ketsa yuzimdan.
Yo‘l oshsam-u, sal yashashdan adashsam,
Rozimasman unda tamom o‘zimdan.



Adabiy o‘qish

SHAHRIM TARIXI

Jizzax viloyatiga qarashli Ravot qishlog‘ida Uchqiz nomli kichik bir qishloq mavjud. Bu nom bilan atalishining sabablarini u yerlik aholi quyidagicha izohlaydi. Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonlarda shu qishloqda uchta qiz yashagan ekan. Ular bir kuni tog‘ga qo‘ylarini boqqani ketishibdi. Bir payt to‘satdan ko‘p otliq yov bostirib kela boshlabdi. Shu payt bu uch qiz qattiq qo‘rqqanidan xudodan yov qo‘liga tushguncha toshga aylanib qolishlarini so‘rashibdi va shu payt bir-birlariga yaqin bo‘lgan uchta tosh paydo bo‘lib qolgan ekan.

Hukumat buyrug‘i bilan 1960- yillarda Mirzacho‘lning o‘zlashtirish ishlari boshlandi va 1964- yil 30- aprelda Sirdaryo viloyatiga qarashli „Ilich“ nomli tuman vujudga keldi. Mustaqilligimizdan so‘ng, ya‘ni 1991- yilda bu nom o‘rniga Sharof Rashidov nomi berildi. 2004- yilda esa Vazirlar Mahkamasining buyrug‘iga binoan tumanimizning nomi „Sardoba“ deb yuritila boshladi. Tumanimizning bu yangicha nomi bilan atalishining o‘ziga xos sabablari bor, ya‘ni bu ilmiy etimologiya bilan bog‘liqdir. Tumanimizga qarashli Gumbaz qishlog‘ida qadimdan Buyuk ipak yo‘lining bir kichik tarmog‘i o‘tgan. Bizning hududimiz cho‘l zonasida to‘g‘ri kelganligi uchun, yoz kunlarida kun juda issiq bo‘lib, qishda izg‘irin sovuq bo‘lgan. Yozda bu yerlardan o‘tuvchi karvonlar suvsizlikdan va jazirama issiqdan qiynalishgan. Shu tariqa bu yerda savdogarlar uchun qo‘nib dam olib, charchog‘ini chiqaradigan va chanqog‘ini bosadigan bir bino quriladi. Bu bino gumbaz shaklida qurilgan bo‘lib, ichida doimo suv bo‘lib turadigan quduq, ya‘ni sardoba qaziladi. Sardoba — suv to‘ldirilgan usti yopiq quduq ma‘nosini bildiradi.

Shunday qilib, XVIII asrdan boshlab bu sardoba uzoq o‘tmishda karvonlar chanqog‘ini bosuvchi va to‘xtab dam oluvchi maskanga aylangan. Uch asrdan buyon qarovsiz yotgan bu joy mustaqilligimizdan so‘ng Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qayta ta‘mirlandi va u yana o‘zining avvalgi go‘zalligini tikladi. Bugungi kunda ko‘plab shaharlardan mehmonlar, qolaversa chet el sayyohlarini ham o‘ziga maftun etuvchi muqaddas bir ziyoratgoh maskaniga aylandi. Shu tariqa bu bino joylashgan qishloqqa Gumbaz, tumanimizga esa Sardoba nomi berildi.



Topshiriq

Siz o‘zingiz tug‘ilgan joy tarixi haqida nimalarni bilasiz? Shu haqda yozib keling va so‘zlab bering.

26- mavzu: TO‘SIQSIZLIK MA‘NOSINI IFODALASH

(Выражение значения уступительности)

214- mashq. Gaplardagi to‘siqsizlik ma‘nosini ifodalovchi grammatik vositalarni ko‘rsating.

1. Quyosh porlab tursa ham, kun ancha sovuq edi. 2. Uyimiz quyosh tomonga qaragan bo‘lsa ham, hovlini qalin daraxtlarning

soyasi qoplagan edi. 3. Brigadamiz uncha katta bo'lsa ham, barcha ishning uddasidan chiqamiz. 4. Qo'rg'onimiz kichik bo'lsa ham, ichida bir necha tup daraxtlar bor edi. 5. U aslida oppoq qiz bo'lsa ham, sahro shamollari qo'llari, bo'yinlari va yuzlarini biroz qo'raytirgan edi. 6. Oltin yerda qolsa ham, ilm yerda qolmaydi. 7. Men qancha kutsam ham, savolim javobsiz qoladi. 8. Dunyo go'zal ko'rinar menga, o'zi qancha eski bo'lsa ham.

To'siqsizlik ma'nosi qo'shma gaplar orqali ifodalanib, bunda birinchi va ikkinchi gapdagi mazmun bir-biriga zid bo'lsa ham, shu zidlikka, to'siqqa qaramay, voqea-hodisaning baribir sodir bo'lishi ifodalanadi. Masalan:

Havo bulut bo'lsa ham, yomg'ir yog'madi.

To'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi gaplar *-sa ham, -sa, -da, -ganda ham, -ga qaramay* kabi qo'shimchalar orqali bog'lanadi. Bunda ma'noni kuchaytirish maqsadida garchi, garchand so'zlari ishlatiladi. Masalan:

Garchi havo yomon bo'lsa ham, hamma shanbalikka chiqdi.

215- mashq. To'liqsiz ergash gaplarning joylashish tartibi va qanday yordamchilar bilan bosh gapga birikkanligini aniqlang.

1. Sen berahm bo'lsang ham, ammo men dushmanlik qilmasman aslo. 2. Bugun havo ochiq bo'lishiga qaramay, u g'amgin va xayolchan edi. 3. Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali tamom so'nmagan edi. 4. Ahvol qiyin bo'lsa ham, Saidaga beriladigan jazo orqaga surildi. 5. Baland poshnali sariq etikchasi toshlar ustida sirpalib, oyoqlari qayrilib ketsa ham, chopaverdi. 6. U necha bor turmoqchi, yo'lida davom qilmoqchi bo'lib harakat qilsa ham, kuchli og'riq imkon bermadi.

216- mashq. Ikkinchi ustundan birinchi ustundagi gaplarning davomini topib yozing.

Kunduzlari issiq bo'lsa-da,	bolalar uyga kirishni istashmasdi.
Quyosh botgan bo'lsa ham,	kechalari ancha salqin bo'ladi.
Tomosha tugagan bo'lsa ham,	ko'chib o'tishni xayoliga keltirmasdi.
Qor yog'ib turgan bo'lsa-da,	zalda hali odamlar to'la edi.
U yangi uy olgan bo'lsa ham,	hali hamma yoq yorug' edi.

217- mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Работа кипела, несмотря на то, что наступила ночь.
2. Хотя было холодно, я не замёрз.
3. Как ни убеждали его, он ни с кем не согласился.
4. Несмотря на то, что наступила темнота, мы продолжали идти вперёд.
5. Если бы все были согласны, то план бы осуществился.
6. Всем они казались друзьями, хотя на самом деле они не любили друг друга.
7. Хотя мавзолей был закрыт на реставрацию, туристы всё равно приезжали.

218- mashq. Matnni o'qing. To'siqsizlik ma'nosi ifodalangan gaplarni topib, ifodalanishini tushuntiring.

1. Bepoyon, bag'ri keng, saxiy paxtazor oq dengizdek chayqaladi. Jamoliga boqib to'yaysan kishi. Har chanoqda bir yulduz porlaydi... Bu yil dalalarda hosil mo'l. Qancha xirmonlar qad ko'targan bo'lsa-da, hali ham hosil kamaymagandek.

2. Madrasa hovlisi qator hujralardan iborat. Hujralar bo'mbo'shdek ko'rinsa ham, har bir hujrada to'rt kishidan o'tirishar edi. Hujra tor va zax. Eshikchanning lang ochiqligiga va hali kunduzi bo'lishiga qaramay, bu yerda nim qorong'ilik hukm surardi.

Taklifnoma biror tantanali tadbirga taklif etish uchun yoziladigan axborot. Taklifnoma to'y taklifnomasi, yodnoma va taklif xat turlariga bo'linishi mumkin.

219- mashq. Taklifnoma matnini o'qing va tuzilishini, nutqiy qoliplarini yaxshilab bilib oling.

TAKLIFNOMA

Muhtaram(a) _____

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sizni ulug' o'zbek adibi ABDULLA QODIRIY tug'ilganining 104 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjumanga taklif etadi.

Ilmiy anjuman shu yil 12- yanvar ertalab soat 10.00 da O'zR Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti majlislar zalida boshlanadi.

Manzil: *Akademik Ibrohim Mo'minov ko'chasi, 9- uy.*

220- mashq. Berilgan namuna asosida o‘zingiz ham taklifnomalar yozing.

221- mashq. Berilgan matnni o‘zbek tiliga o‘giring va so‘zlab bering.

КТО ИЗОБРЁЛ ТЕННИС?

Теннис имеет древнюю историю. Прообразом его, по всей видимости, была существовавшая у греков и римлян игра в мяч, которая позже стала французской игрой.

Слово „теннис“, очевидно, произошло от французского слова „тенназ“, что означало „играйте“. В течение XIII, XIV и XV веков этой игрой увлекались во всей Франции, и она даже называлась королевской, поскольку все короли и их приближённые постоянно играли в неё, у них был даже специальный штат людей, ухаживавших за кортами. А в 1529 году король Генрих VIII построил теннисный корт, которым пользуются и поныне. Сегодня теннис — самый модный и популярный вид спорта во всех странах мира.



Savol va topshiriqlar

1. Sizga sportning qaysi turi yoqadi?
2. O‘zbekistonlik tennischilardan kimlarni bilasiz?
3. Toshkent tennis kortida bo‘lganmisiz? U haqda gapirib bering.



Adabiy o‘qish

MUOMALA ODOBI

Muomala inson qalbining ko‘zgesi. Kishining yaxshi tarbiya ko‘rgan-ko‘rmaganligi uning boshqalarga qilgan muomalasida ko‘rinadi. Xalqimiz tilida sayqallangan „O‘zingga ravo ko‘rmaganni, birovga ham ravo ko‘rma“, „Avval pichoqni o‘zingga ur, og‘rimasa birovga“ kabi maqollarda odamlar bilan muomalada xushxulq, xushmuomala bo‘lishga da’vat etiladi. Xo‘sh, xushmuomalalik deganda nima tushuniladi? Avvalo shirinso‘zlik tushuniladi. „Shirin so‘z shakardan shirin“, „Shirin oshing bo‘lmasa ham, shirin so‘zing bo‘lsin“ deydi dono xalqimiz.

Shirinso‘zlik birovga murojaat qilganda, gapni: „Marhamat qilib, ...“, „Agar malol kelmasa ...“ kabi iboralar bilan boshlashni taqozo qiladi. Bu bilan murojaat qilinayotgan kishiga hurmat

ko'rsatiladi. Katta-kichikni sizlab gapirish, qariyalarga „Otaxon...“, do'st-birodarlarga yoshiga qarab „Aka, opa, Ahrorjon..., Lo-barxon“, deb murojaat qilish ham shirinso'zlik, ham ularning hurmatini o'rniga qo'yish bo'ladi.

Xushchehralik — biror kishi sizga iltimos bilan murojaat qilganda kayfiyatingiz yomonligini, vaqtingiz ziqligini sezdirmay, darhol chehrangizni ochib, uni iltifot bilan tinglash, kerakli javobni samimiy izhor eta bilishdir.

Biron sababga ko'ra yoshlikdan odob o'rganmagan, xushmuomalalik, shirinso'zlikka odatlanmagan kishi ham, agar ko'nglida odamiylik xislati bo'lsa, bu kamchilikni tuzatishi mumkin. Chunki o'z xulq-atvorining takomillasha borishiga intilmagan shaxs Inson degan nomga noloyiqdir. Sen ham bir og'izdan, siz ham bir og'izdan chiqadi. So'zning inson hayotidagi o'rni, ahamiyati beqiyosligini buyuk bobomiz Alisher Navoiyning quyidagi fikrlaridan bilish mumkin: *Insonni so'z ayladi judo hayvondin, bilki guhari sharifrog' yo'q ondin.*



Savol va topshiriqlar

1. Shirinso'z, shirinsuxan insonlarni qanday ajratish mumkin?
2. Qo'rslik qanday oqibatlariga olib keladi?
3. Sizga insonlarning tashqi go'zalligi yoqadimi yoki xushfe'lligi yoqadimi?
4. Siz o'zingizdagi qaysi salbiy jihatlarni tuzatishga harakat qilasisiz?
5. Yaxshi, tarbiyali inson qanday bo'lishi shart? Yozib chiqing.

27- mavzu: DARAJA-MIQDOR MA'NOSINI IFODALASH

(Выражение значения меры и степени)

222- *masq.* Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan daraja-miqdor ma'nosini ifodalovchi so'zlarga e'tibor qiling.

1. O'rta asrlarda Xo'jand **anchagina** yirik shahar bo'lgan. Shahardan Eron, Osiyo, Uzoq Sharq, Hindistonga boradigan yo'llar o'tgan. Toy-toy ipak ortgan karvonlar bu yerda **qisqa vaqt** dam olishgan. 2. Ota-bobolarimiz suv va nur to'g'risida **juda ko'p** o'ylaganlar. Ular o'z orzu-umidlariga yetishish uchun **ancha** harakat qilganlar. 3. Mehmonlarga har xil shirinliklar, pista-bodom, quruq mevalar **juda mo'l-ko'l** tortildi. 4. Sultonmurodga **bir-ikki** soat dars bermoq uchun, u juda ko'p mutolaa qilar edi. 5. U qo'rqqanidan **bir qadam** orqaga tislandi. 6. Xonga **uch marta** bukilib, ta'zim qilinar edi.

Harakatning miqdori va darajasini bildiruvchi soʻzlar va gaplar *qancha?*, *necha?*, *qay darajada?* soʻroqlariga javob boʻladi va miqdor, daraja maʼnosini bildiruvchi ravishlar va sonlar bilan ifodalanadi. Masalan:

Koʻp soʻzlama, oz soʻzla. Paxtani uch marta chopiq qildik.

Daraja-miqdor maʼnosi qoʻshma gaplar vositasida ham ifodalanishi mumkin. Bunday gaplar quyidagi konstruktsiyada tuziladi:

... *qancha* ..., ... *shuncha*

... *qanchalik* ..., ... *shunchalik*

223- mashq. Avval daraja-miqdor maʼnosini, soʻng natija maʼnosini ifodalovchi gaplarni koʻchiring.

1. Archa bayrami shu qadar yaxshi boʻldiki, Jamshid uyu qaytgisi kelmadi. 2. Sariyogʻ, qazi shunday ustalik bilan toʻgʻralgan ediki, biror joyida pichoq tirnab ketgan gʻadiri koʻrinmasdi. 3. Muqaddam har qancha tashvish chekmasin, Alimardon parvo ham qilmadi. 4. Mehribon ustozning shogirdan ranjimogʻi qancha qiyin boʻlsa, achchigʻidan qaytmogʻi ham shuncha qiyin. 5. Qoʻn-gʻiroq chalingach, auditoriya boʻshab qoldi. 6. Shu kun uch oʻrtiq chunon ishladiki, Asqarning oyisi oʻgʻlini taniy olmay yoqasini ushladi.

224- mashq. Matnni oʻqing. Daraja-miqdor maʼnosini ifodalovchi vasitalarni koʻrsating

Hindiston tarixchisi Sayyid Hoshimiyning yozishicha, Shohjahon davrida davlatning budjeti shunchalik balandga koʻtarildiki, undan oldin ham, bundan keyin ham bunchalik yuksak boʻlmagan. Hatto koʻp mamlakatlarga hukmronlik qilgan inglizlar davrida ham davlat xazinasiga bunchalik koʻp boyluk tushmagan. Yer soliqlaridan 270 million rupiy tushar va bu mol-u dunyo hech qanday zulmsiz qoʻlga kiritilardi. Xalq Shohjahon zamonida juda yaxshi hayot kechirgan, shohning mehri va adolatidan bahramand boʻlgan. Ingliz sayyohlaridan biri bu haqda shunday deb yozgan edi: „Shohjahon qoʻl ostidagilarga nisbatan otasi bolasiga qaragandek mehribonlik bilan qarar edi.“

225- mashq. Matnni oʻqing va nuqtalar oʻrnini oʻz soʻzlaringiz bilan toʻldiring. Tuzgan gaplaringizda daraja-miqdor maʼnosini ifodalovchi gaplardan foydalaning.

PALOV

Palov o‘zbek xalqining milliy taomi bo‘lib, uni nafaqat o‘zbeklar, balki barcha millat vakillari juda xush ko‘radilar. O‘zbeklarning uyiga kelgan mehmon, bir luqma oshsiz jo‘natilmaydi. Palov turli viloyatlarda turlicha tayyorlanadi, ammo barcha yerda palov bir xil masalliq bilan va bir xil tartibda tayyorlanadi. Palov tayyorlash uchun Palovga qancha miqdorda guruch solsangiz, shunga mos miqdorda ... solinishi kerak. Palovga sabzi qanchalik tekis va mayin to‘g‘ralsa, ...

226- mashq. „Tilxat“ namunasini o‘qing. Unda ishlatilgan nutqiy qoliplar va miqdor bildiruvchi so‘zlarning yozilishiga e‘tibor qiling.

TILXAT

Men, Navoiy nomidagi jamoa xo‘jaligi brigada boshlig‘i Karim Salimovich Rahimov, jamoa xo‘jaligi kassiri Dilbar Salimovadan brigada a‘zolarining iyun oyiga tegishli 164500 (bir yuz oltmish to‘rt ming besh yuz) so‘m miqdoridagi ish haqini tarqatish uchun oldim.

2012.05.07.

(imzo)

K. S. Rahimov

227- mashq. Yuqoridagi namunadan foydalanib, o‘zingiz tilxat yozing.

228- mashq. Matnni o‘qing va o‘zbek tiliga o‘giring. Sovg‘a qanday maqsadda beriladi? Shu haqda o‘z fikringizni ayting.

ПОДАРОК

Мы дарим, нам дарят ... Всякий подарок приятен прежде всего потому, что он делается от души. И дело совсем не в том, сколько он стоит. Ценность подарка меньше всего поддаётся оценке в рублях. А тем более если речь идёт о подарках, которые дарите вы, школьники, ещё не зарабатывающие сами.

Подарок — знак внимания и любви. Это букетик цветов, сувенир, милый пустячок. Вы ещё учитесь, и в классе принято поздравлять друг друга чаще всего с днём рождения. Пусть в этот день для именинника будет выпущена специальная газета, прозвучит любимая песня, будет подарена нужная книга, цветы ...

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan tinglang. Daraja-miqdorni ifodalovchi soʻzlarning qoʻllanishiga eʼtibor bering. Matndagi maqsad va sabab maʼnosini ifodalovchi birikmalarni eslab qoling. Matnni mustaqil ravishda qayta tiklab yozing.

TOJMAHAL

Tojmahal taʼbir qilib boʻlmaydigan darajada goʻzal meʼmoriy yodgorlik boʻlib, Shohjahon uni atayin dunyo moʻjizasi boʻlib qolsin deb qurdirgan. Bino aslida uning suyuqli xotini Arjumand bonu — Mumtoz Mahalni dafn qilish uchun moʻljallangan. Tojmahal Shohjahon oʻzidan keyin qoldirgan tarixiy yodgorliklar, umuman, Hindistondagi obidalarining eng hashamatlisidir. Tojmahal betakrorligi bilan dunyodagi yetti moʻjizaning biri hisoblanadi.



Adabiy oʻqish

CHOʻLDAGI GUL

Avtobus yoʻl oʻrtasida toʻxtab, suv olishi kerak. Bu yerlarda hech kim yashamaydi. Yoʻlovchi mashinalar suv olishlari uchun maxsus quduq qilingan. Quduqdan ikki metrcha narida bir tup atirgul ochilib tiribdi. Uning yonidagi taxtachada shunday yozuv bor:

„Yoʻlovchi, quduqdan suv olib ichganingda shu gul tagiga bir piyola suv quy!“.

Bu yoʻldan oʻtayotgan avtobuslar, yuk mashinalari, yengil mashinalar va yoʻlovchilar shu quduq yonida toʻxtaydilar.

Haydovchilar oʻz mashinalariga suv quyadilar, yoʻlovchilar suv ichadilar, dam oladilar, u yoq-bu yoqni tomosha qiladilar va albatta, gulni koʻradilar. Shunda taxtachadagi yozuvni ham oʻqishadi. Birin-ketin suv olib borib gul tagiga quya boshlashadi. Qarabsizki, gul tagidagi chuqurcha suvga toʻladi.

Avtobus, mashinalar yana yoʻlga chiqadi. Hech kim yashamaydigan choʻl oʻrtasida birgina gul qoladi. Yana avtobus koʻrinadi. Kechga borib yana...

Choʻlning oftobi gulni qurita olmaydi, chunki bu yerdan kuniga uch marta odam oʻtadi, uch marta shu gulga suv berib turadilar. Shuning uchun bu gul soʻlimas ekan.



Savol va topshiriqlar

1. „Suv hayot manbai“ degan fikrni izohlab bering.
2. Sizningcha, hech kim yashamaydigan cho'l o'rtasida birgina gulning o'sib turishi nimaning ramzi?
3. Hozirgi kunda suvga munosabat qangay?

28- mavzu: O'XSHATISH-QIYOSLASH MA'NOSINI IFODALASH

(Выражение значения сравнительности и сходства)

O'xshatish-qiyoslash ma'nosini ifodalovchi gaplar q a n d a y ? n i m a d e k ? so'roqlariga javob bo'lib, *xuddi*, *go'yo* so'zlari va *-dek*, *-day* qo'shimchalari hamda *-ga qaraganda*, *-dan ko'ra* grammatik vositalari yordamida ifodalanadi. Bunday gaplar quyidagi tuzilishda bo'ladi:

... shunday ... shu qadar ... -ki, go'yo ... day (dek). ... shunchalik ...

Masalan: *Yomg'irdan so'ng odam shu qadar yengil tortdiki, go'yo yomg'ir barcha g'uborlarni yuvib ketgandek bo'ldi.*

Shuningdek, sodda gaplarda o'xshatmoq, qiyoslamoq fe'llari ishtirokida ham o'xshatish-qiyoslash ma'nosini ifodalash mumkin. Masalan: *Men bu yigitni sening ukangga o'xshatdim. Biz sintaktik-sinonimikada sodda va qo'shma gaplarni qiyoslab o'rganamiz.*

Grammatika

229- *mashq.* Gaplarni o'qing. Qiyoslash-o'xshatish ma'nolarini ifodalovchi grammatik vositalarni ko'rsating.

1. Oppoq nozik yuzi quyoshda shunday tiniq ko'rinardiki, go'yo u nurdan yaratilganday. 2. Adirlarga qip-qizil gilam yoygandek, lolalar chaman bo'lib ochilib yotibdi. 3. Ko'klamgi ko'chatlar hozir shunday quriganki, go'yo quyosh shu'lasidan yonib ketganday. 4. Azimjon Adhamjonga qaraganda ancha baquvvat bo'lib o'sdi. 5. Hamma narsa ataylab qilingandek, barcha ish silliqqina o'tdi. 6. Kuy shu qadar yoqimli yangradiki, go'yo butun olam uning sehdida erib ketgandek bo'ldi.

230- *mashq.* Madaniyatli inson haqida o'z tasavvuringizni bayon etgan holda uy inshosi yozing.

E'lon yaqin orada o'tkaziladigan biron-bir tadbir (majlis, suhbat, uchrashuv, shuningdek, ishga, o'qishga qabul qilish va h.k.) haqida xabardor qilish maqsadida yoziladigan yozma axborot.

231- mashq. E'lon namunalarini o'qing va unda ishlatiladigan nutqiy qoliplarga e'tibor bering. Namunalardan foydalanib, o'zingiz e'lon matnini yozing.

E'LON

Shu yil 12- iyul kuni soat 15.00 da O'zR FA Til va adabiyot institutining majlislar zalida institut kasaba uyushmasi qo'mitasining hisobot-saylov yig'ilishi bo'ladi.

Kun tartibi

Kasaba uyushmasi qo'mitasining hisoboti.

Taftish komissiyasining hisoboti.

Kasaba uyushmasi qo'mitasining yangi tarkibini saylash.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi.

DIQQAT! DIQQAT! DIQQAT!

Hazil-mutoyiba, kulgi, sho'x qo'shiq va raqs muxlislarini yangi yil kechasiga taklif etamiz. Uchrashuv joyi — majlislar zali, vaqti — 28- dekabr soat 17.00 da. Samimiy tabassumsiz zalga kirish mumkin emas.

O'zMU talabalari

E'LON!

Olimpiada qatnashchilari diqqatiga!

O'zbek tilidan 2- bosqich sinovlariga tayyorlash uchun maslahat soatlari haftaning dushanba va payshanba kunlari 5- parada 9- bino 6- xonada olib boriladi.

232- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring.

У нас иногда путают два понятия: образование и культурность. Конечно, в наше время человек, не имеющий

никакого образования, не может стать и поистине культурным. Систематическое образование лучше всего получить в том или ином учебном заведении. Но, помимо образования, нужно ещё и самообразование, то есть постоянное накопление знаний, общекультурных навыков, развитие определённой способности восприятия, умения разбираться во всех тех областях духовной и материальной жизни, с которыми, может быть, и не связана непосредственно работа человека.

BILIB OLING!

Surxondaryo viloyati respublikaning eng janubiy viloyati. U Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan bo'lib, 1941- yil 1- martda tashkil etilgan. Tarkibida 10 ta tuman, 8 ta shahar, 3 ta shaharcha bor. Markazi — Termiz shahri. Maydoni 20,8 ming kv. km., aholisi 830 ming kishi. Surxondaryo insoniyat beshiklaridan biri hisoblanadi. Uning hududida tarixiy-madaniy ahamiyatga ega yuzlab arxeologik qazilmalar topilgan. Termiz shahrida buyuk alloma Hakim at-Termiziy yashab o'tgan.



Adabiy o'qish

SHARAFLI BURCH

Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog' sayridan qaytib kelayotgan ekan. Yo'l qabriston oralab o'tar ekan. Qabristonga yuz qadam chamasi qolganda, mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yo'lida davom etibdi. Mulozimlari ham otlaridan tushib, uning orqasidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlarga minib, yo'rtib ketishibdi. Biroz yurishgandan so'ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so'rabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi:

— Bu yerda xalqimizning jigargo'shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib,

changitib o‘tish insonlik sha‘niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring? Buni bilmaslik — tiriklikdagi o‘liklikdir. Ota-bobolar haqini, xotirasini e‘zozlamoq har bir kishining sharaflı burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo‘ygan boladek to Hirotnıng qorasi ko‘ringuncha tillarini tishlab, aqlni peshlab borıbdılar.

(„El desa Navoiyni“ asaridan)



Savol va topshiriqlar:

1. Siz xotira va qadrlash kunida kimlarni borib ko‘rasiz?
2. Ota-bobolarning xotirasini e‘zozlash nima uchun har bir kishining burchi hisoblanadi?

29- mavzu: **FIKRG A MUNOSABAT BILDIRISH**

(Выражение отношения к мысли)

233- *mashq*. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar va birikmalarning ma'nolari qo'llanishiga e'tibor bering.

OLAM SIRLARIGA BIR NAZAR

Olamda sirli g'aroyib holatlar va voqealar ko'p uchraydi. Jumladan, vulqonlarning otilishi, Navro'zda kun va tunning tenglashishi, tundrada oynning o'n besh kuni yorug', o'n besh kuni qorong'i bo'lishi, Sankt-Peterburg shahrida bir oy davomida oydin tunlar kuzatilishi, uzoq Shimolda bir oy davomida uzluksiz faqat tun bo'lishi yoki sirli tushlar, ularning hayotda aks etishi... Bularning sababi nimada?

Ehtimol, bu sirlarning biror yechimi bordir. Olimlarimiz o'z kashfiyotlarida bunday hodisalarning sababini kelajakda **balki** tushuntirib berarlar. Ammo dunyo yaralibdiki, bunday jumboqlarni hali hech kim tagiga yeta olgan emas.

Balki, bu tabiatning o'zgaruvchanligidan, murakkabligidandir. **Ehtimol**, bularni oliy bir qudrat boshqarib turar. Shuning uchun ham, **balki**, ayrim paytlarda tabiat insonni jazolar? **Xullas**, biz yashayotgan olam sirlarga to'la. Bu sirlarning kaliti esa, **mening fikrimcha**, bilimdadir. Insoniyat ilm orqali mislsiz yutuqlarga erishdi, daryolarni o'ziga bo'sundirdi, cho'llarni o'zlashtirdi, ertaklardagi uchar gilamlar — samolyotlarni, yerosti yo'llarini ixtiro qildi, **xullas**, sirlar kalitini qo'lga kiritdi. **Demak**, ilm olish, bilimlarni puxta egallash bizni porloq kelajak sari yetaklaydi.

Gaplar tugallangan fikrlarni ifodalash vositsidir. Ayni paytda ayrim so'slar va birikmalar yordamida so'zlovchining ifodalanayotgan fikrga turlicha munosabatini, yani shu fikrga qo'shilishi, uni inkor etishi, o'z shubhasini, shodligi yoki achinishi va hokazolarni bildirib kelishi ham mumkin. Fikrga munosabat bildirishda *albatta, haqiqatan ham, demak, ehtimol, shekilli, balki, baxtimizga, baxtga qarshi, mening fikrimcha* kabi so'zlar va birikmalardan foydalaniladi. Bunday so'zlar va birikmalar gapning boshida, o'rtasida, oxirida

Men quyidagi fazilatlariga ega bo'lishni o'z burchim deb bilaman:

- 1) yolg'on gapirmaslik;
- 2) odamlarga hurmat bilan qarash;
- 3) kamtar bo'lish;
- 4) bergan va'damning ustidan chiqish;
- 5) qo'pol va manman bo'lmaslik.

Siz-chi?

236- mashq. Qavs ichida berilgan so'zlarni qo'llab, savollarga javob bering. Javobda tartib va izchillikni bildiruvchi so'zlarni ishlatting.

1. Hosil mo'l bo'lishi uchun nima zarur?

(quyosh, suv, parvarish)

2. Bilimlarimiz mustahkam bo'lish uchun nimalar zarur?

(qunt, mehnatsevarlik, intizom)

3. Mohir san'atkor bo'lish uchun qanday xislatlar bo'lishi shart?

(qobiliyat, tirishqoqlik o'ziga talabchanlik, ijodiy izlanish)

4. Yaxshi inson qanday fazilatlariga ega bo'lishi lozim?

(halollik, kamtarlik, mehnatsevarlik, shirinso'zlik)

237- mashq. Matnni o'zbek tiliga o'giring va topshiriqlarni bajaring.

О СЧАСТЬЕ

По моему, человек должен сам приближать своё счастье. Иначе говоря, надо как можно раньше и как можно смелее вступать в жизнь и помнить: своими руками делается будущее. На мой взгляд, счастье начинается с уверенности, что ты нужен людям, Родине и готов им служить. Действительно, ты начинаешь чувствовать себя сильнее и готов отдатья целиком делу, которое тебе доверили. Здесь и лежит грань счастья. Большое человеческое счастье, как мне кажется, — это...



Topshiriq

Badiiy adabiyot yoki matbuot materiallaridan foydalangan holda matnni davom ettiring. Bunda kirish so'zlardan foydalaning.

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan tinglang. So'ngra zarur o'rinlarga fikrga munosabat bildiruvchi so'zlar va birikmalar qo'yib, matnni qayta tiklang.

Birinchi musiqa asboblari bo‘lgan nay va do‘mbiralar ovda hayvon va parrandalarni tuzoqqa tushirish maqsadiga xizmat qilgan. Ko‘pchilik xalqlarda cholg‘u asboblaridan hozir ham shu maqsadlarda foydalaniladi. Afrika qabilalari uchun do‘mbira o‘rmonlarga tarqab ketgan aholi uchun simsiz aloqa vositasi hisoblansa, hushtaksimov ovoz chiqaradigan fleyta Karpat tog‘larida hakas va oltoy ovchilari uchun tovush mayog‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, musiqa hamisha xalqlarning bir-birini tushinishiga xizmat qilgan.

Hisobot muayyan shaxsning lavozim mas’uliyati bo‘yicha bajarilgan ishi bayonidan iborat bo‘lib, unda belgilangan muddatga rejalastirilgan ishlar hamda ularning bajarilishi yuzasidan to‘liq ma’lumot berilishi ko‘zda tutiladi. Hisobot bir yoki bir necha shaxs tomonidan yozilishi mumkin, biroq, odatda, majhul nisbat shaklida III shaxs nomidan yoziladi hamda bajaruvchilar imzosi bilan tasdiqlanadi.

238-mashq. Berilgan matnni o‘qing va eshitish mashqidagi matn bilan o‘zaro qiyoslang. Sizningcha, ushbu matnlarni bir-biriga qanday bog‘lash va xulosalash mumkin?

DUTOR

O‘zbek oilalarning ko‘pchiligida dutor bo‘ladi. Dutor milliy xalq cholg‘u asboblaridan biri bo‘lib, uni yoshlar ham, kattalar ham, ayollar ham, erkaklar ham chalishadi. O‘zbek xalqida dutor chalib qo‘shiq aytish qadimdan odat. „Dutor tut, yong‘oq kabi daraxtlardan yasaladi. Bu yog‘ochlar qancha quruq bo‘lsa, dutorning ovozi shunchalik tiniq, jarangdor chiqadi. Shuning uchun dutor ustalari bu yog‘ochlarni bir necha yillab quritadilar“ — deb ta’kidlashadi ustalar. Dutordan taraladigan mayin, munqli kuy insonlarga o‘tgan voqealar, turmushdagi shodlik va alam, muhabbat va xijron haqida so‘zlayotgandek bo‘ladi, shuning uchun o‘zbek xalqi dutorni o‘z sirdoshidek ko‘radi.

239-mashq. Taklifnoma matnini o‘qing va uning avvalgisidan farqini ayting. Dasturli taklifnomada tadbir dasturi qanday tuzilishiga e’tibor qiling.

Taklifnoma va dastur

Farzandlari sogʻlom yurt qudratli boʻladi,
Qudratli yurtning farzandlari sogʻlom boʻladi.

Muhtaram (a) _____

Sizni 2012-yil 28-sentabr soat 14.00 da Chilonzor tumani 16- mavzesida boʻlib oʻtadigan „Oila — sogʻlom avlod beshigi“ nomli davra suhbatiga taklif etamiz.

Tadbir dasturi

1. Kirish soʻzi. „Sogʻlom muhit — sogʻlom avlod“.
Toshkent shahar Chilonzor tumani hokimi oʻrinbosari, xotin qizlar qoʻmitasi raisi, p.f.n. M.A.Sodiqova.
2. Mehr sarchashmasi — oila.
Respublika „Oila“ ilmiy-amaliy markazi katta ilmiy xodimi, f.-m.f.n. M. Iminova.
3. Huquqiy bilim oiladan boshlanadi.
Respublika „Oila“ ilmiy-amaliy markazi ilmiy xodimi U. Haydarova.
4. Badiiy qism.
173-maktab badiiy havaskorlik toʻgaragining chiqishlari.
Badiiy rahbar: F. Samandarov.

Manzilimiz: Chilonzor tumani 16-mavzesi, 164-maktab binosi, „Buyuk ipak yoʻli“ bankining oldida.



Topshiriq

1. Fakultetingizda oʻtkazilgan tadbirlar haqida soʻzlab bering.
2. Ushbu tadbirlardan birining dasturini tuzing, soʻngra shu asosda taklifnoma va dastur tuzing.



Adabiy oʻqish

DORBOZ BILAN SUHBAT

Salkam bir oydan beri Chorsu maydonida dorbozlar, masxarabozlar, polvonlar va akrobatlardan iborat guruh shahar

ahli va mehmonlariga o‘z san’atlarini namoyish etishmoqda. Biz guruh rahbari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Anvarjon Mo‘ydinovdan Sirdaryo viloyati Guliston shahri madaniyat va istirohat bog‘i qoshidagi mazkur dorbozlik guruhi haqida so‘zlab berishni iltimos qildik.

Jurnalist: So‘nggi paytlarda milliy san‘atimizga mansub dor o‘yinlari kamayib ketish hollari ko‘p uchramoqda. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Anvarjon Mo‘ydinov: Dorbozlik, asosan, Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan. Shu paytgacha respublikamizda 27 ta guruh faoliyat ko‘rsatib kelmoqda edi. Ayni chog‘da esa 3—4 ta dorbozlar guruhi qoldi, xolos. Dorbozlikning kamayib ketishining asosiy sabablaridan biri bozor iqtisodi qonun-qoidalariga bardosh berolmaslik oqibatidir, deb o‘ylayman.

Jurnalist: Nima uchun aynan ushbu qiyin, o‘ta mashaqqatli sohani tanlagansiz?

Anvarjon Mo‘ydinov: Inson qalbida yoshlik chog‘ida biron-bir narsaga ishtiyoq, qiziqish uyg‘onadi. 15 yoshimdan beri xalq orasida yuribman. Yoshim 50 ga yetgan bo‘lsa ham shu hissiyotlar hali so‘nganicha yo‘q.

Jurnalist: Ustozlaringiz haqida so‘zlab bersangiz.

Anvarjon Mo‘ydinov: Dorbozlik san‘atini mukammal o‘rganishimda Usmonjon hamda Kimsanjon Nazaraliyevlar menga ustozlik qilishgan. Shu yil avgust oyida ularning xotirasiga bag‘ishlab, Guliston shahrida dor o‘yinlarini o‘tkazishni rejalashtirganman.

Jurnalist: Dor o‘ynash, tosh ko‘tarish, akrobatika, yog‘och oyoqda yurishlar jismoniy mashqlar majmuidan iborat. Hozirgi kunda deyarli barcha sport turlari bo‘yicha bellashuvlar o‘tkazilmoqda. Dorbozlar o‘rtasida ham musobaqa o‘tkazsa bo‘ladimi?

Anvarjon Mo‘ydinov: Albatta. Ko‘riklar, musobaqalar tashkil etilsa, juda yaxshi bo‘lar edi. Zora, tarqalib ketgan guruhlar qayta tiklanib, milliy san‘atimiz ravnaqiga o‘z ulushlarini qo‘shishsa.



Savol va topshiriqlar

1. Matnni rolli ijro eting.
2. Siz intervyu olganmisiz? O‘zingizni jurnalist sifatida tasavvur qiling va mustaqil holda intervyu oling. Intervyuda qanday kirish so‘zlar ko‘p qo‘llanishiga e‘tibor qiling.

30- mavzu: O'ZGALAR FIKRINI IFODALASH

(Выражение чужих мыслей)

Ba'zan nutqda o'zgalarning fikrlarini ifodalash ham mumkin. Nutqda o'zgalar fikri 2 xil: aynan va o'zlashtirilgan gap tarzida ifodalanadi.

O'zgalarning aynan, hech qanday o'zgarishsiz aytilgan gaplari *ko'chirma gaplar* deyiladi. Ko'chirma gaplar qo'shtirnoq ichiga olinib yoziladi. Bunday gaplar muallif gapi va ko'chirma gap qismlaridan iborat bo'ladi. Bunda muallif gapi ko'chirma gapdan oldin, keyin yoki ko'chirma gapning o'rtasida kelishi mumkin. Muallif gapi ko'chirma gapdan keyin kelganda, kesim hamisha egadan oldin keladi.

Masalan:

„*Ertaga seminar mashg'uloti bo'ladi*“, — dedi o'qituvchimiz.

O'qituvchimiz dedi: „*Ertaga seminar mashg'uloti bo'ladi*“.

O'qituvchimiz: „*Ertaga seminar mashg'uloti bo'ladi*“, — dedi va faqat demoq fe'lining turli shakllari bilan ifodalanadi. Masalan: „*Paxta topshirish rejasini ortig'i bilan bajaramiz*“, — dedi jamoa xo'jaligi raisi.

Direktorimiz: „*Maktab mulkini ko'z qorachig'iday saqlang!*“ — deb ta'kidlaydilar.

Ko'chirma gaplar tarkibidagi muallif gapida faqat *demoq* fe'li qollaniladi: *dedi, deydi, deb aytdi, deb so'radi, deb yqtirdi, deb javob berdi* kabi. Ko'chirma gaplar dialogik nutqda ishlatilganda qo'shtirnoqlarsiz, xat boshidan faqat tire qo'yilgan holda yozilishi ham mumkin.

Ko'chirma gaplarning tuzilishi va ularda qo'llaniladigan tinish belgilarini bilib oling!

„K“, — M.

M: „K“.

„K, — M, — K“

M: „K“, — M.

„K?“, — M.

M: „K?“

„K, — M. — K!“

M: „K?“ — M.

„K!“, — M

M: „K!“

„K, — M, — K?“

M: „K!“ — M

240- mashq. Gaplarni o'qing. Ko'chirma gaplarni ajratib, qanday tuzilishda ekanligini chizma orqali ko'rsating.

1. „Men maymunjon terгани shu yerga kelgan edim“, — dedi Qo'ziboy. (H. N.) 2. „Qani, ukajonlar, ashulani to'xtatmanglar!“

— dedi Marhamat. (*H. N.*) 3. „Arlarning g‘ashiga tega ko‘rmanglar, bir yopishsa qo‘ymaydi!“ — deb ogohlantirdi Olimov. (*H. N.*) 4. „Men har yili yozda Burchmullaga kelaman“, — dedi Zebo. 5. „Bugun biz, — dedi guruh sardori, — universitet bo‘yicha navbatchimiz“.

241- mashq. Tushirilgan tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Shodmon aka kulib dedi Chirchiq, Bekobod shaharlariga borsangiz og‘zingiz ochilib qoladi. 2. Eng og‘ir kunlarda ham yaylovdan kechmaganman, endi tashlab ketarmidim deb javob berdi Yo‘ldosh bobo. 3. Poda shov-shuvi ichida Polvon otaning Qo‘rqma, chirog‘im, Polvonning qo‘lidan mol bolasi qochib qutulgan emas degan ovozi eshitildi. 4. Onam buvimga qarab dedi Qo‘ying, o‘qisin, mulla bo‘lsin bolam.

242- mashq. Quyidagi maqollarni muallif gapi va zarur tinish belgilarini qo‘yib o‘qing.

1. Tabassum yaxshilikning belgisidir 2. ... Sen o‘zingni emas, o‘zga seni maqtasin. 3. Har orzuning avval boshi mehnatdir 4. ... Qimirlagan qir oshar. 5. Mehnat bilan o‘tgan umr ... el ko‘nglini chog‘ etadi. 6. ... Hali yoshsan, kattalardan eshit, o‘rgan 7. Mehnatsevar bo‘lsak, ... ezmalik bizdan nari bo‘ladi. 8. Olim bo‘lish oson, ... odam bo‘lish qiyin. 9. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang, balosi yuqar

243- mashq. Ma‘lumot uchun berilgan muallif gaplaridan mosini qo‘yib gaplarni davom ettiring.

1. Zvenomiz a‘zolari sport musobaqalarida birinchi o‘rinni oldilar 2. Bizga choy keltirib bersangiz 3. Qirg‘ovul bilan bedana ... hech qachon tushgan joyida turmaydi. 4. To‘g‘ri, bizning zveno bu yil planni ortig‘i bilan bajarishni mo‘ljallagan 5. — Sherali ... otlaring poygaga tayyormi? — Tayyor, egarlasam bo‘ladi

Ma‘lumot uchun: dedi Lola, deb iltimos qildi Mehri opa, dedi Qo‘chqor kulib, deb tasdiqladi Mardon, dedi Mehri opa, deb dadil javob berdi Sherali.

244- mashq. Matnni o‘qing, ko‘chirma gaplarni ko‘rsating va yozilishini izohlang.

MA'NAVIYAT SABOQLARI

„Assalomu alaykum!“ ning ma'nosi nima ekanligini bilasizmi?

„Assalomu alaykum!“ aslida arabcha ibora bo'lib, „Sizga tinchlik va salomatlik tilayman“ degan ma'noni bildiradi.

„Assalomu alaykum!“ — yurti, millatidan qat'i nazar dunyodagi barcha musulmonlarning salomlashuv iborasi hisoblanadi. Siz qaysi musulmon mamlakatiga bormang, u millat tilini bilmasangiz ham, „Assalomu alaykum“ desangiz, sizga ochiq yuz bilan „Va alaykum assalom!“ deb javob berishadi. Bu ularning „Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman!“ deganidir. Demak, „Assalomu alaykum!“ o'zaro muomala-munosabatning boshi hamdir. Uni nechog'lik samimiy va muloyim aytsangiz, munosabatga ham shunchalik iliqlik, samimiyat, ochiq ko'ngillik baxsh etadi.

„Assalomu alaykum!“ ning yana bir sirli kuchi bor. U kishilar o'rtasida muhabbat paydo qilib, o'rtadagi gina va kuduratlarni ketkazadi. Bu so'z bir-biri bilan arazlashib qolgan insonlarni yarashtirish vositasi hamdir. Salom-alik vositasida o'zidan kattalarga hurmat, kichiklarga mehr bildirish qadim-qadimdan kishilarimiz uchun axloqiy mezon bo'lib kelgan.

Bizning odatlarimizga ko'ra yoshi kichiklar yoshi ulug'larga, mashina mingan odam piyoda ketayotganga, piyoda ketayotgan kishi o'tirganga, ozchilik ko'pchilikka salom beradi. Siz kattalarga hurmat bilan „Assalomu alaykum!“ desangiz, ular sizga mehr bilan „Va alaykum assalom!“ deb javob berishadi va yana „Barakallo! Katta yigit bo'ling!“ deb qo'yishadi. Chunki odatimiz shunaqa. Xalqimiz nihoyatda oqko'ngil. Biz hamisha hammaga yaxshi niyat bildiramiz.

245- mashq. Dialog shaklida berilgan ko'chirma gaplarning yozilishiga e'tibor bering.

— O'ylayapsanmi? — so'radi Abdulla.

— Ha, — dedi sekingina Gulchehra. — Kim bo'lishimizni o'ylayapman.

Abdulla kuldi.

— Kim bo'lar ekanmiz?

— Sen olim bo'lasan.

— Olim? — hayron bo'ldi Abdulla.

— Ha, sen olim bo'lasan. Katta papka tutib ko'zoynak taqib yurasan. Anovi „Boltiq deputati“ kinosi bor-ku, ko'rganmisan? Ana o'shandagi professordaka bo'lasan.

— Qo‘ysang-chi! — ichida sevinsa ham, zarda qildi Abdulla.
 — Yo‘q, rost, ko‘rib turibman.
 — O‘zing-chi? O‘zing kim bo‘lasan?
 — Menmi? — Gulchehra o‘ylanib qoldi. — Men... men arxitektor bo‘laman.
 — O‘h-ho‘ — dedi Abdulla, — juda baland ketding-ku!
 — Nimasi baland? Sen olim bo‘lganingda, men arxitektor bo‘la olmaymanmi?

Har holda shunga o‘qiyman. Chiroyli uylar quraman, shahar quraman. Balki Mingbuloq arxitektori bo‘larman...

— Qishloqning ham arxitektori bo‘lar ekanmi?
 — Nega bo‘lmas ekan? Hozir bo‘lmasa, keyin bo‘lar. O‘shanda baland-baland, chiroyli uylar quraman. Keyin-chi... Keyin...

246- mashq. Matnni tarjima qiling. Ko‘chirma gaplarning rus va o‘zbek tillarida yozilishini o‘zaro qiyoslang.

„СЕ“ И „УЧ“

Рассказывают, что почтенный визирь и поэт Алишер Навои как-то на Самаркандском базаре увидел двух возбуждённо торговавшихся людей. Размахивая друг перед другом кулаками, они орали друг на друга. Один говорил „се“, второй — „уч“. Из толпы их подзадоривали: „Не уступай“, и все хохотали.

— Они сейчас же подерутся, нечестивые, — сказал Навои и подошёл к спорщикам.

— О вы, наивные неучи, — обратился он к ним на двух языках, — вы же говорите одно и то же. — Таджикское „се“ и узбекское „уч“ означают „три“, — сказал им Навои.



Adabiy o‘qish

NOAHILLIK OQIBATI

(Sharq ertagi)

Bir ovchi o‘rmonga to‘r qo‘yib, qarg‘a, chug‘urchuq, kaptar va boshqa har xil qushlarni ilintirib oldi. To‘rga tushgan quslar hadeb bir-birlariga:

— Sochilgan donga aldanib qo‘lga tushdik. Endi qanday qilib qutulish yo‘lini o‘ylaylik, — der edilar. Qushlar o‘zaro tillashib:

— Kelinglar, hammamiz baravar qanot qoqib uchib ko‘raylik. Ehtimol, to‘rni ko‘tarib ketarmiz, — deyishdi.

Darhaqiqat, qushlar baravariga qanot qoqib, to‘rni ko‘tarib uchib ketdilar. Ovchi qarasa, qushlar to‘rni ko‘tarib uchib ketishyapti. U hayratda qolib, orqalaridan quvib ketibdi. Ovchi chopib ketayotib: „To‘rga tushgan qushlar har xil-ku! Ular, albatta, janjallashib qoladilar. Janjallashdilar mi — tez ucha olmaydilar, to‘r ularni pastga tortadi“ — deb o‘ylabdi. Xuddi shunday bo‘libdi ham.

Qarg‘alar qag‘illashib:

— Hech kim bizdek harakat qilmayotir! Agar biz ham sizlar singari mug‘ambirlik qilsak, to‘r allaqachon hammamizni yerga olib tushgan bo‘lar edi, — deyishdi.

Qarg‘alarning so‘zini eshitgan kaptarlarning jahli chiqdi.

— Bas endi, qarg‘alar! Maqtanchoqlikni qo‘yinglar! Biz sizlardan ortiq harakat qilmayapmiz! — debdilar.

Janjalga boshqa qushlar ham aralashibdilar. Do‘stlik buzilgach, ish yaxshi yurishmabdi. Qushlar janjallashganlari uchun arang qanot qoqardilar. Shunday qilib ular pastlay boshlabdilar va oxir-oqibatda to‘rga o‘ralib yerga qaytib tushibdilar.



Savol va topshiriqlar

1. Ayting-chi, qushlar o‘rtasidagi janjalning oqibati nimaga olib keldi?
2. Insonlar hayotida ham ahillik va do‘stlikning qudratini nimalarda ko‘rish mumkin?
3. „Bir kun janjal bo‘lgan uydan qirq kun baraka ketadi“ deyilgan maqolning ma‘nosini misollar bilan tushuntirib bering.

31- mavzu: **FIKRNI O‘ZLASHTIRIB IFODALASH**

(Выражение косвенных мыслей)

Nutq jarayonida o‘zgalarning gaplarini o‘z so‘zi bilan ifodalash ham mumkin. Shakli o‘zgartirilib, ammo mazmuni saqlangan holda berilgan o‘zgalarning gapi *o‘zlashtirma gap* deyiladi. Bunday gaparlarda ko‘chirma gaplar kengaygan vositasiz to‘ldiruvchi shaklida beriladi va quyidagicha ifodalanadi:

Ega ... ligini aytdi. Ega ... ishini ta’kidladi.

Misollarni qiyoslang:

„Men yig‘ilishga kela olmayman,“ — dedi Manzura.

Manzura yig‘ilishga kela olmasligini aytdi.

O‘qituvchimiz: „Shanbalikda hamma qatnashishi shart!“
— deb ta’kidladi.

O‘qituvchimiz shanbalikda hamma qatnashishi shartligini
ta’kidladi.

O‘zlashtirma gaplarda ko‘chirma gaplardan farqli ravishda *demoq* fe‘li qo‘llanmaydi. Shuningdek, his-hayajonni ifodalovchi undov so‘zlar tushirib qoldiriladi, undalmalar esa to‘ldiruvchi shaklida qo‘llanadi. Misollarni qiyoslang:

„Umida, kitobingni berib tur,“ — deb so‘radi Jahongir.

Jahongir Umidadan kitobini berib turishini so‘radi.

247- mashq. Gaplarni o‘qing. O‘zlashtirma gaplarni aniqlab, ifodalanish shaklining chizmasini chizib ko‘rsating.

1. Bahrom aka ertaga havo ochiq bo‘lishini aytdi. 2. Mehrixon Salimadan dars tayyorlash uchun uyiga kelishini iltimos qildi. 3. Umurzoq ota iyun, iyul oylari dehqonlar hayotida eng mas‘uliyatli davr ekanligini aytdi. (*H.N.*) 4. Sinf rahbarimiz maqtanchoq bo‘lmaslikni, boshqalarni hurmat qilishni uqtirdi. 5. Sobirjon bizdan ta’ilda qayerga borishimizni so‘radi. 6. Sodiqjon shaharning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilmoqchiligini aytdi.

248- mashq. Berilgan o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirib ko‘chiring, tinish belgilarining qo‘yilishiga e‘tibor bering.

1. Notiq yig‘ilganlarga murojaat qilib, ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlarni bajarishga qattiq ishonganini bildirdi. 2. Ra’no o‘rta maktabni bitirganidan keyin pedagogika institutiga kirishini aytdi. 3. Nosirga o‘zbek tili va o‘zbek adabiyoti to‘garaklariga yozilganligimni aytdim. 4. O‘qituvchi bolalardan uy topshirig‘ini bajargan-bajarmaganliklarini so‘radi. 5. O‘quvchilar berilgan topshiriqlarni hamma bajarib kelganligini aytishdi.

249- mashq. Alisher Navoiyning „Sher bilan Durroj“ masalini o‘qing. Matndagi ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirib ko‘chiring.

SHER BILAN DURROJ

Kunlardan bir kun Durroj „Men tuzoqqa tushdim!“ — deb sherni aldabdi. Sher uning aldaganini ko‘rib: „Boshqa bunday ish

qilma, yolgʻonchidan barcha nafratlanadi,“ — deb nasihat qilibdi. Biroq Durroj quloq solmas, yolgʻonchilikni, aldashni qoʻymas edi. Bir kuni u tuzoqqa ilindi va: „Meni tutib oldilar!“ — deb qattiq qichqirdi. Sher: „Bu gal ham Durroj meni aldayapti,“ — deb uni qutqarishga bormadi.

250- mashq. Doʻstlaringizning suhbatlarini diqqat bilan eshiting va yozib oling. Koʻchirma gaplarning ogʻzaki ifodalaniishi va yozma nutqda berilishi oʻrtasidagi farqni izohlang. Suhbatdagi tovush oʻzgarishli soʻzlarni aniqlab, yozuv tamoyilini koʻrsating.

ESHITISH MASHQI

Alisher Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostonidan berilgan parchani diqqat bilan tinglang. Koʻchirma gaplarning qanday ifodalanganini izohlang. Soʻngra koʻchirma gaplarni oʻzlashtirma gapga aylantirib, matnni oʻz soʻzlaringiz bilan yozing.

Dedi: Qaydin sen ey majnuni gumroh?

Dedi: Majnun qayda Vatandin ogoh.

Dedi: Nedur senga olamda pesha?

Dedi: Ishq ichra majnunligʻ hamesha.

Dedi: Qay chogʻdin oʻlding ishq aro mast?

Dedi: Ruh payvand jonga payvast.



Adabiy oʻqish

Abdulla Qodiriy

MEHROBDAN CHAYON

(Romandan parcha)

Raʼno ham oʻrnidan turib, supaning zinasiga yaqinlashdi va tabassum aralash „Hormang!“ dedi.

— Sogʻ boʻling!

Anvar supaga chiqib, Mansurni yerga qoʻydi. Kafshini yecha-yecha Raʼno tomonga engashib, oʻziga tolpinib turgan Masʼudning yuzidan oʻpdi va uni Raʼnodan oldi. Masʼud Anvarning qoʻliga oʻtgach, sapchib guvrandi va qiyqirib tovlandi. Raʼno ikki qoʻlini uzatib „kel menga, kel“, — dedi. Anvar bolani oʻpib sevadi. Raʼno Masʼudga qarab: „Sen qarab tur, bijiy bola!“ dedi, Anvar bolani koʻtargancha oʻtirdi.

— Tinchlikmi?

— Betinchlik, — dedi kulib, Ra'no.

Ayni muddao ekan bo'lmasa... Ha, aytgandek, — dedi Anvar o'tirgan supaga ishorat qilib, — bugun joy katta solingan?

— Mehmon kelar emish.

— Ra'no, — dedi. Ra'no zinadan tusha boshlagan holda to'xtadi. — Chinini so'zla, mehmon kelishi aniqmi?

— Mehmon kelishi aniq, keldi ham, — dedi Ra'no jiddiy.

Anvar ajablendi:

— Mehmon keldi?

— Keldi.

Anvar tevarakka qarandi:

— Qani mehmon?

Ra'no qo'li bilan Anvarning o'ziga ishora qildi:

— Ana mehmon.

Anvar kuldi:

— Men mehmonmi?

Ra'no jiddiy ravish bilan:

— Albatta, siz bizga mehmonsiz.

Anvar yana kuldi. Biroq, uning bu so'nggi kulishida kuchlanish bor edi:

— Men sizga mehmonmi?

Ra'no kulimsib yer ostidan Anvarga qaradi va qo'lidagi xarxashalana boshlagan bolani ovutish uchun tebrandi.

— Bilmasam...

Ra'noning yuzidan boyagi jiddiyat yo'qolgandek edi.

Anvar ham ma'nolik hazilini tashlab, chin hazilga o'tdi:

— Mehmonning qorni och, Ra'no, — dedi.

— Albatta qadrlik mehmon uchun tansiqroq taom pish-pirgandirsiz, deb o'ylayman. Bugungi taomingizni ismini lutfan marhamat qilsangiz edi.

— Mehmonning vazifasi, — dedi Ra'no javoban, — izzat bilan o'tirish va oldiga qo'yilgan narsani maqtab-maqtab yeyishdir...



Savol va topshiriqlar

1. O'zgalar fikrining ko'chirma gap va dialogik nutq shaklida berilishini o'zaro qiyoslang, farqli jihatlarini tushuntiring.
2. Siz bu romanni o'qiganmisiz? Romanni o'qib chiqing va mazmunini so'zlab bering.

(Выражение связанной речи)

251- mashq. Birinchi qismdagi terma gaplar va ikkinchi qismda berilgan matnни o‘zaro qiyoslang. Fikr ifodalashdagi izchillikka va bog‘lanishga e‘tibor bering.

1. Non mahsulotlari alohida do‘konlarda sotiladi. Non rizq-ro‘zimiz hisoblanadi. Bug‘doy donidan avval un tayyorlanadi, so‘ngra undan non pishiriladi. Issiq nonlar dasturxonimiz ko‘rkidir. Nonni uvol qilmang.

2. O‘n olti ming yil ilgari yer yuzida non paydo bo‘lgan. Avval kishilar donni xom holida iste‘mol qilganlar. Keyin uni ikki tosh orasida ezish va suv bilan aralashtirishni o‘rganganlar. Olov paydo bo‘lishi bilan esa don bo‘tqasidan non yopadigan bo‘lganlar. Oradan ko‘p ming yillar o‘tib qadimgi Misrda birinchi marta oshirilgan xamirdan foydalanish rasm bo‘lgan. Non yopish san‘ati keyinroq misrliklardan yunonlar va rimliklarga o‘tdi.

Gap nutqning eng kichik birligidir. Insonlar gap vositasida o‘zaro fikr almashadilar. Nutq jarayonida gaplar alohida-alohida terma gap shaklida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda bayon etiladi. Bir-biri bilan mantiqan uzviy bog‘langan gaplar **bog‘lanishli nutq** yoki **matn** deb ataladi. Misollarni qiyoslayng:

Terma gaplar

Kitob — bilim tilsimlarining kaliti.

Kitob insonga qanot bag‘ishlaydi.

Bog‘lanishli gaplar

Oqshom. Quyosh endigina botgan payt.

Ufqda hali uning nurlari qizarib turibdi, havodan esa issiq tafti hali ketmagan.

252- mashq. Berilgan tayanch so‘z va so‘z birikmalaridan bog‘lanishli matn hosil qiling.

Universitet, jahon tillari, xorijiy tillar, o‘rganmoq, o‘qimoq, mamlakatimiz, iqtisod, rivojlangan davlatlar, rivojlantirish, tajriba o‘rganish, xalq, uchun, qatoriga qo‘shilmoq, farovonligi, maqsadida, yaxshi, mustahkam, bilim olmoq, harakat qilmoq.

253- mashq. Berilgan terma gaplarni izchillik bilan joylashtirib, bog‘lanishli matnga aylantiring.

1. Bahorda hamma narsa yangilanadi, dalalarda yangi hayot boshlanadi. 2. Sharqda Navro‘z — yangi yil bayrami hisoblanadi. 3. Navro‘z bayrami tantanalari poytaxtimizdagi Alisher Navoiy nomli Milliy bog‘da o‘tkaziladi. 4. Navro‘z yangi kun demakdir. 5. Tantanalarda turli folklor ansambllari, xalqimiz sevgan san‘atkorlar ham ishtirok etadilar. 6. Navro‘zda maxsus taomlar — sumalak, halim, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara kabi ko‘katlardan tayyorlangan taomlar pishiriladi. 7. Barcha shaharlar va qishloqlarda xalq sayillari o‘tkaziladi. 8. Navro‘zni mehr-oqibat, mehrjon bayrami deb ham ataydilar. 9. Navro‘z butun respublikamizda keng nishonlanadi. 10. Mustaqillik tufayli milliy bayramimiz — Navro‘z va yana bir qator qadimiy urf-odatlarimiz tiklandi. 11. Chunki ushbu muborak kunda yoshi ulug‘larni, bemorlar, nogironlarni ziyorat qilish qadimdan odat tusiga kirgan.

254- mashq. Quyidagi gaplarning qismlarini bir-biriga mosini topib ko‘chiring.

1. Martabangiz baland, zo‘r qilur. 2. Notob edim, sog‘aydim. 3. Yaxshi bo‘lsang agar. 4. Yerdan yotgan noni ko‘taring. 5. Lekin o‘zlaricha, don-u pul yig‘ar. 6. Yaxshining fe‘li keng kelar. 7. Shuning chun ko‘p so‘zlari shu o‘lkaga xos. 8. Qilibsan yaxshilik hech etma minnat. 9. Qoladi noming. 10. Go‘yo da‘vo ko‘rinding. 11. Yomon yomonlig‘in qilar. 12. Bu she‘rim yoziladi O‘zbekistonda. 13. Ketar hamma ehson-inoyat. 14. Xalqqa tarki dunyo qil deb o‘rgatar. 15. Libosing yaxshilikdir, yechmagil hech. 16. Va intil yaxshi nomga erta-yu kech.

255- mashq. Berilgan matndagi gaplar to‘g‘ri joylashganmi? Gaplarni izchillik bilan qayta joylashtirib, bog‘lanishli matn hosil qiling.

MIRZO ULUG‘BEK

1. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek 1394- yilning 22- martida Sultoniya shahrida tug‘ilgan. 2. Ko‘p mamlakat va shaharlarni ko‘rgan. Temur vafotidan keyin hokimiyat Ulug‘bekning otasi Shoxruh qo‘liga o‘tdi. Shoxruh Xurosonda hukmronlik qiladi. 3. Ulug‘bek „Bibixonim masjidi“, „Go‘ri Amir“ maqbarasi, „Shohizinda“ binolarining qurilishini tamomladi. 4. Movarounnahri o‘g‘li Ulug‘bekka topshiradi. U vaqtda Mirzo Ulug‘bek 15 yoshda edi. 5. Ulug‘bek yoshlik yillarida bobosi Amir Temur bilan ko‘p

yurtlarda yurishlarga qatnashgan. 6. U ko‘p yerlarda bog‘lar yaratdi. 7. Bu madrasa tarixda Ulug‘bek madrasasi deb ataladi. 8. Ulug‘bek keyinchalik Samarqandda rasadxona qurdirdi. 9. 1417—1420 yillarda ajoyib madrasa qurdirdi.



Adabiy o‘qish

VAQTING KETDI — BAXTING KETDI

Bir donishmanddan: „Siz umringizda hech xato qilganmisiz?“ deb so‘radilar. „Qilganman, — debdi donishmand. Uch marta xazinamni yo‘qotganman. Avval ne mashaqqat bilan to‘plagan boyligimni yo‘qotdim. Lekin bunda men aybdor emasdim, halol mehnat qilib, yana boylik orttirdim. So‘ng do‘stimni yo‘qotdim. U haqiqiy do‘st emas ekan, boshimga tashvish tushganda tashlab ketdi, do‘stligimizga xiyonat qildi. Modomiki, senga xiyonat qilgan ekan, u haqiqiy do‘st bo‘la olmaydi, deb o‘zimni yupatdim. Keyin boshqa chinakam do‘st topdim. Ammo bu orada shunday bir xazinamni yo‘qotdimki, buning uchun o‘zimni hech kechira olmayman. Men uni o‘z qo‘lim bilan yo‘qotib qo‘ydim. Bu bekor o‘tgan kunlarim, bekor kechgan oylarim, bekor o‘tgan yillarim. Mana shu xazinani endi hech qachon topolmayman. Agar, yangidan tug‘ilganimda edi, o‘sha o‘tgan damlarimni ham foydali ishlarga — o‘qishga, mehnatga sarflagan bo‘lardim...“

Qissadan hissa shuki,



Topshiriqlar

1. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda „*Vaqt oltindan ham qimmat, dur-u gavhardan ham a‘lo*“ mavzusida matn tuzing.
2. Matnni xulosalang. Siz xatoga yo‘l qo‘yganmisiz?

33- mavzu: NUTQ VA MATN TURLARI

(Разновидности речи и текста)

Nutq yozma va og'zaki shaklga ega. Yozma nutq ham, og'zaki nutq ham bir shaxs nutqi va bir necha shaxs nutqidan iborat bo'lishi mumkin. Bir shaxs nutqi *monolog* deb atalib, faqat so'zlovchi yoki matn tuzuvchi tilidan yoziladi yoki bayon qilinadi. Bir necha shaxs nutqi esa *dialog* deb atalib so'zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni, ularning o'zaro savol-javoblarini bayon qiladi.

Monolog grekcha *monos* — bir va *logos* — ta'limot, so'z so'zlaridan olingan bo'lib, badiiy asarlarda ishtirok etuvchi shaxslarning o'z-o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan nutqdir. Monolog o'z xususiyatiga ko'ra 2 xildir. Agar u personajning to'g'ridan to'g'ri boshqalarga qaratilgan nutqi tarzida berilsa, ochiq shakldagi monolog yoki *tashqi monolog* hisoblanadi. Monolog personajning ichki nutqi, ya'ni o'z-o'zi bilan so'zlashuvi tarzida ham berilishi mumkin. Bunday monolog yopiq shakldagi monolog yoki *ichki monolog* hisoblanadi.

256- mashq. Ushbu dialoglarni o'qing. So'roq ma'nosini ifodalovchi va javob ma'nosini bildiruvchi gaplarning yozilish shakllariga e'tibor qiling. Suhbat jarayonida ishlatiladigan muomala odobiga oid so'zlarni va his-hayajonni ifodalovchi vositalarni ajratib ko'rsating.

1. Ey... Menga desa agar tosh yog'maydimi! Baribir, paxtani teramiz.

— Kim o'ylabdi, seni qaytib keladi deb... Tavba.

2. Saida yana uning so'zini og'zidan oldi:

— To'g'ri! Juda to'g'ri!

3. Qalandarov so'z qayoqqa qarab ketayotganini fahmlamasdan:

— Albatta, — dedi.

4. — Qo'lingiz bo'shasa, bir aylantirib kelsam, degan edim.

— Rahmat!.. Biron soatdan keyin bo'sharman.

5. — Menga gapingiz bor, shekilli.

— Ha, keyin aytaman Saidaxon! (A.Q)

6. — Ha, Mirsaid, — dedi.

— E, Zokirjon, sizmisiz? Xo'sh, qalay, qutulib chiqdingizmi?

— Ha-e, qoniqarli deb topildi.

— E, tabriklaymiz bo'lmasa.

— Rahmat, rahmat.

7. Zokir Shavkatga yuzlandi:

— Lekin imtihonlarga yaxshi tayyorlanasiz-da. Ayniqsa tarixdan.

Xo'pmi?

— Xo'p.

8. — Hormanglar! - dedi rais ishchilarga qarab.

— Bor bo'ling!

— Qalay, charchamayapsizlarmi?

— Hosil mo'l bo'lsa, hech kim charchamaydi.

— Xirmonga baraka. Topganingiz halol mehnatingizga yarasha bo'lsin.

— Rahmat.

9. — Assalomu alaykum, qarindosh.

— Vaalaykum assalom, — dedi Umrzoq ota.

— Bugun hasharchilar kelishmadimi?

— Yo'q. O'zimiz eplaymiz deb javob berib yubordik.

— Ofarin. Kuchingizga kuch, g'ayratingizga g'ayrat qo'sh-laversin.

257- mashq. Abdulla Qahhor hikoyalariidan keltirilgan parchalarni o'qing. Ichki va tashqi nutqlarni solishtiring.

1. Kampir uning tovushini eshitmadi. U o'zicha gapirib borar edi: „Burungi zamon bo'lsa, mana shu mahluqqa tegmasdan ilojing yo'q edi, desam Adolat ishonmaydi, o'lay agar ishonmaydi!“ (*„Qizlar“ hikoyasidan*)

2. San'atkor izvoshchini hayron qoldirib, o'zidan o'zi g'o'l-dirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, san'at-korning tomog'idan hech narsa o'tmadi — ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nasha qilar edi: „ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa, nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilg'ulari kelipti... Amali traktorist...Obbo!..“ (*„San'atkor“ hikoyasidan*)

258- mashq. Matnni monologik va dialogik nutq qismlariga bo'lib o'qing. Har bir qismning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.

NUQTANING QUDRATI

Alisher Navoiy o'z g'azallarini zamonasining eng bilimdon xattotlariga ko'chirtirardi. O'zini mashhur xattot deb hisoblovchi

bir kishi: „Rozi bo‘lsalar, men ham Navoiy janoblarining xizmatlarini jonim bilan bajarardim“, — dedi.

Alisher bu gapni eshitib, haligi kishiga o‘z she‘rlarini ko‘chirishga berdi. Oradan ko‘p o‘tmay katta bir mushoirada „Molik ulshuaroning o‘zlari nuqsonga yo‘l qo‘ygach, boshqalardan nima kutish mumkin“, degan gap tarqaldi.

Gap nimadaligini fahmlagan shoir boyagina ko‘chirtirilgan g‘azallarini o‘qib ko‘rsa, hamma yoq g‘ij-g‘ij xato. Maqtanchoq xattot tushmagur „ko‘z“ so‘zidagi „z“ harfida bir nuqtani tushirib qoldirganidan bu so‘z „ko‘r“ bo‘lib qolgan va she‘r ma‘nosi butunlay buzilgan edi.

Navoiy ahli fozillarga qarab:

— Ko‘zimni ko‘r qilganlar ko‘r bo‘lsin, — dedi-da, „mashhur“ xattotga javob berib yubordi.

(„Allomalar ibrati“ dan)

259- mashq. „Imtihonda“, „Tanaffusda“, „Dam olish oramgohida“ mavzularida guruhlariga bo‘lingan holda o‘zaro suhbatlashing va tuzgan matningizni dialogik matn shaklida daftaringizga yozing.

260- mashq. Ushbu drammatik asardan berilgan parchani rollarga bo‘lib o‘qing. Monologik nutq va dialogik nutq qismlarini aniqlab farqini tushuntiring.

Mavlon. Shovqin solma, jiyanim. Sestralarning shovqinidan qulog‘im qolgani yo‘q, endi sen bormi... o‘tir! Saltanat qayoqdagi gaplarni gapirdi... Rostini ayt, qancha ko‘sak qoldi? Mening brigadam qalay?

Hafiza. Voy, tog‘a... Ko‘sak qolgani yo‘q... Brigadangiz birinchi bo‘lib bajardi.

Mavlon. Rostmi? Saltanat rost aytgan ekan-da... Mening brigadam birinchi o‘rinda degin? Mening yo‘qligimni bilintirmabsizlarda. Barakkala!.. Kasalxonada ikki hafta yotgan bo‘lsam, ikki hafta dunyo ko‘zimga qorong‘i bo‘ldi: brigadam ko‘sakni yig‘ib-terib ola olmasa, ko‘sak nobud bo‘lsa!..

Hafiza. Biz qo‘yarmidik!..

Mavlon. Barakalla! Doktor qilmagan davoni sizlar qildilaring. Mana, endi tuzalдим. Qani, gapir, kolxoz bo‘yicha necha sentner, mening brigadam bo‘yicha necha sentner?

Hafiza. Kolxoz bo‘yicha 27, sizning brigadangiz bo‘yicha 35 sentnerdan. Hozir Dehqonboyni chaqirib chiqay. Dehqonboy aka, tog‘am keldilar!..

(Abdulla Qahhordan)

261- mashq. O'zingiz sevgan asardan monolog ijro etib bering.

Matn o'zaro mantiqan bog'liq gaplardan tashkil topadi. Ular bo'ladi. Matn katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Bitta abzasdan tashkil topgan matn *kichik matn* deyiladi. Katta matnlar bir necha abzasga bo'linishi mumkin. Matndagi har bir yangi fikr yangi satrdan boshlanadi, shuning uchun *satrboshi* deb ataladi. Matndagi asosiy fikr ko'pincha uning xulosa qismida beriladi. Katta matnlarni *kirish, asosiy qism va xulosa* qismlariga bo'lish mumkin. Matnni tashkil qiluvchi har bir qism o'zining asosiy g'oyalari ko'ra ma'lum bir yetakchi fikrga ega bo'ladi. Nutqda katta matnlarni ixchamlashtirish va kichik matnlarni kengaytirish ham mumkin. Matnni ixchamlashtirish uchun undagi qo'shimcha ma'lumotlar olib tashlanadi.

262- mashq. Matnni o'qing va abzaslarga ajratib yozing. Har bir abzasda ifodalangan asosiy fikrni ko'rsating.

VATIKAN

Vatikan o'z ministrliklari, pochta, politsiyasi, portlari, tanga zarbxonasi, radiostansiyasiga ega bo'lgan jahonda eng kichik davlatdir. U jahonda eng katta muqaddas Pyotr sobori atrofidagi 44 gektar maydonni egallaydi. Vatikan muzeylarida rasmlar, haykallar va boshqa san'at asarlarining eng boy namunalari yig'ilgan. Noyob davlat hududida jami salkam 700 kishi istiqomat qiladi. Biroq Vatikan jahonning ko'pgina mamlakatlaridagi katoliklarga tayanib, e'tiborga ega bo'lib kelmoqda. Katoliklar cherkovining tinimsiz sulhparvarlik faoliyati, uning keskinlikni yumshatish, qurolsizlanish va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid tashabbuslari natijasida ana shu obro'-e'tibor mustahkamlanadi.

263- mashq. Berilgan to'liq va ixchamlangan matnlarni o'qing va o'zaro qiyoslang. Ixchamlangan matnda qaysi ma'lumotlar olib tashlanganligiga e'tibor qiling.

CHINGIZ AYTMATOV

To'liq matn:

Chingiz Aytmatov 1928- yili Qirg'iz qishloqlaridan birida tug'ildi. U otasidan erta yetim qolib, bolalar uyida tarbiyalandi. Bolaligidan rus tili ikkinchi ona tili bo'lib qoldi. Ulug' Vatan

urushining suronli yillarida u kolxozda mehnat qildi. O'zining dastlabki hikoyasini qishloq xo'jaligi institutida tahsil olayotgan yillari yaratdi. Oliygo'zni tugatgach, zootexnik bo'lib ishladi va hikoyalar yoza boshladi. Ijodda u hayotining mazmuni va maqsadini ko'rar edi. So'ngra Moskvada, A. M. Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida o'qishni davom ettirdi.

Ixchamlangan matn:

Chingiz Aytmatov 1928- yili tug'ildi. Qishloq xo'jaligi institutida o'qib yurgan kezlari birinchi hikoyasini yozdi. U hayotini ijodsiz tasavvur qila olmasdi. Ijodda hayotining mazmuni va maqsadini ko'rar edi. Keyinchalik u A. M. Gorkiy nomidagi Adabiyot institutiga kiradi.

264- mashq. Ushbu matnlarni o'qing. Matnning asosiy mavzusi qaysi gapda ifodalangan? Har bir matnga mos sarlavha toping.

1. Hech kim dunyoga ustun bo'lolmaydi. Hech kimga o'zgarlar hisobiga baxtiyorlik nasib etmagan. Har kimga insoniy ulug'likning o'zi buyurgani ma'qul. Toki, o'zimizdagi barcha yaxshilikni atrofimizdagilarga baxshida qilishga vaqt topaylik. Bag'ri keng insonlar doim omon bo'lishsin. Hayot esa ular bilan mazmunlidir.

2. Odatda, inson qalbini nozik billurga o'xshatishadi. Bu qi-yoslashning naqadar to'g'riligiga har qadamda iqror bo'lish mumkin. Gohida odam bir og'iz shirin so'zining gadosi. Shirin muomala, samimiy harakat bilan olam gulistonga aylanadi. Aksincha, bir zumlik qovoq uyish bilan ko'ngil qolishi mumkin. Bugungi behalovat hayotimizda har gal ham bir-birimizga dilkash bo'la olmayapmiz. Tashvish, oilaviy ikir-chikir, xizmatdagi ortiqcha gap-so'zlar dilimizni xufton qiladi.

265- mashq. Matnni kengaytiring va unga mos sarlavha qo'ying.

Yozishdan oldin yashash kerak, degan bir adib. Zero shunday. U shoirmi, nosirlik, san'atkorlik ijod maydonida ot surar ekan, albatta, ma'lum bir yo'lni bosib o'tishi, hayotiy tajriba sohibi bo'lishi farz. Buloq ko'zidan otilib chiqayotgan suv ham ne mashaqqatli yo'llarni bosib, ne-ne toshlarni yorib chiqqanligi uchun totli va aziz!

Men insoniyatning bir a'zosiman. Unga mutlaq daxldorman. Insonning jamiyatdagi o'rnini uning faqat harakatdagi faoliyatigina belgilaydi. Maqsad ulug' bo'lsa — qayiq kemaga ayladi.

Matn ma'lum bir shaxs tomonidan ayrim voqea-hodisa, ko'rinish, narsa-buyumni izchil tasvirlash yoki tavsiflash maqsadida tuzilgan gaplardan, shuningdek, biron-bir voqea-hodisa, narsa-buyum yoki shaxs haqida oddiy axborot bayonidan yoki ularga nisbatan o'z munosabatini ham bildiradigan ijodiy-tasviriylikdan iborat bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra matnlar mazmunan **bayoniy matn** va **tasviriy matnlarga** bo'linadi. Bayoniy matnda voqea yoki buyum haqidagi axborot izchil bayon qilinadi. Tasviriy matnda esa muallif voqea, buyum yoki qiyofani ijodiy yondashib, o'z munosabatini bildirgan holda badiiy vositalar yordamida tasvirlaydi.

Shuningdek, mulohaza yuritishni talab qiluvchi alohida matn turi ham mavjud bo'lib, bunday matnlar **muhokama matnlar** deb ataladi. Bunday matnlarda asosiy fikr turli dalillar bilan isbot qilinishi va oxirida xulosa qismi berilishi kerak bo'ladi.

266- mashq. Quyida berilgan matnlarni qiyoslang. Bayoniy va tasviriy matnga xos lisoniy xususiyatlarni ko'rsating.

YOMG'IR

(*Bayoniy matn*)

Yomg'ir — suyuq tomchi holiday atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5—0,6 mm bo'ladi. Yomg'ir bulutdagi mayda suv zarralarining qo'shilib, yiriklashuvidan hosil bo'ladi. Yomg'ir ikki xildir: jala yomg'ir, shivalama yomg'ir. Jala yomg'ir to'p-to'p bulutlardan yog'adi, ko'p vaqt o'tmay to'xaydi, tomchilari yirik bo'ladi. Shivalama yomg'ir esa qat-qat bulutlardan surunkasiga uzoq muddat shivalab yog'adi, uning tomchilari mayda.

Shivalama yomg'irning yog'ish miqdori — intensivligi soatiga 0,25 mm gacha, jala yomg'irniki esa 100 mm gacha bo'lishi mumkin.

YOMG'IR

(*Tasviriy matn*)

Bir necha kundan beri goh yig'ilib, goh yozilib ketgan bulutlar erinibgina yomg'ir boshladi. Erinchoq bulutlardan tomayotgan ba'zi tomchilar yergacha yetib kelmay daraxt barglari, uy tomlari, peshtoqlarida qolib ketmoqda.

Shunday bo'lsa-da, hovli va ko'cha yuzlariga bir tekis suv sepilgan.

Yomg'ir endi o'saman deb turgan maysalarga, ochilaman deb turgan gullarga turtki bo'ladi. Ular uchun yomg'ir jazirama kundagi obi-hayotdir. Uning shildirab yog'ishi bir ohangga o'xshaydi. Odam ko'nglini yorug' qilib yuboradi.

267- mashq. Ushbu matnlarni o'qing va turlarga ajrating. Har bir matnga xos xususiyatlarni tushuntirib bering. Matnlardagi abzaslarda ifodalanayotgan asosiy fikrni ayting va ularni ixchamlashtiring.

1. Bozor o'z mohiyati jihatidan tovar almashish doirasidir. Agar bozorning kelib chiqishi qadimgi ibtidoiy iqtisodiyotga borib taqalsa, uning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni tashkil etadi. Klassik kapitalizm erkin va ishlab chiqaruvchilar uchun notanish bozorni shakllantirdi. U ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuviga va shuningdek, korxonalarining mustaqilligi bilan ham belgilanadi. Ijtimoiy mehnat taqsimotining bo'linganligi ichki bozorning darajasini belgilaydi.

2. Gavjum sharq bozori ... Unda alohida bir fayz, ayricha bir xislat bor. Xalqimizda „Otang bozor, onang bozor“ deb bejiz aytishmagan. Turfa xil noz-ne'matlari-yu antiqa mollari bilan ko'zni qamashtiruvchi qator-qator rastalari, „Kelib qoling-u“, „olib qoling“lar, ajabtovur, kishi dilini allaqanday tushunarsiz bir quvonch, besabab bir shodlikka to'ldiruvchi, g'am-qayg'uni, kundalik tashvishlarni unutishga majbur qiluvchi rang-barang, g'ala-g'ovur, ko'tarinkilik bularning hammasi gavjum sharq bozori“...

268- mashq. Bir mavzu asosida bayoniy va tasviriy matn yozing. Har bir matnda ishlatilgan til vositalarini izohlang.

269- mashq. Abdulla Qahhorning „To'yda aza“ hikoyasidan olingan quyidagi parchani o'qing va matndagi tasviriy ifoda vositalarini aniqlang. Iboralar, ko'chma ma'noli so'zlarni topib izohlang.

TO'YDA AZA

Dotsent Muxtorxon Mansurov nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol, shu qadar dilkashki, uni ko'rgan kishi har faslning o'z husn-latofati bor degan gapni yil fasllari to'g'risidagina emas, umr fasllari to'g'risida ham aytsa bo'lar ekan deb qolardi. Uning bitta-ikkita qora tuk chap berib qolgan oppoq cho'qqi soqoli... Yopirimay, soqol ham odamga shuncha yarashadimi-ya!..

Ammo lekin, Muxtorxon domla nafsambiriga odamning joni edi. Uning xushfe'lligi, to'poriligi... Mahallada katta-kichik hamma bilan salomlashar, yosh bilan yosh, qari bilan qari bo'lib gaplashar, xursand kishi bilan chaqchaqlashib, xafa bilan dardlashar edi. Bu odam mahalla hayotiga har bir kishining diliga kirib, shu qadar singib ketgan ediki, otpuskaga yo komandirovkaga ketsa butun mahalla huvillab qolganday bo'lar edi.

Shu orada domla qayoqqadir ketib bir haftadan keyin paydo bo'ldi. Uning avtobusdan tushib kelayotganini ko'rgan choyxonadagi odamlar hang-mang bo'lib qolishdi; chol o'lgur soqolini, shunday chiroyli soqolini tag-tugi bilan qirdiribdi-tashlabdi! Achinmagan, xafa bo'lmagan odam qolmadi.



Topshiriq

Ushbu hikoyaning davomini topib o'qing va hikoyaga o'z munosabatingizni bildiring.

270- mashq. O'zingiz yoqtiradigan va yoqtirmaydigan kishilardan birortasining qiyofasini tasvirlab, tasviriy matn yozing.



Adabiy o'qish

Abdulla Qahhor

SAN'ATKOR

(Hikoya)

Konsert odatdagicha „navbatdagi nomerimizda... Kelganlaringga rahmat o'rtog'lar“ bilan tamom bo'ldi. Nomi chiqqan ashulachi - san'atkordan boshqa hamma xursand bo'lib tarqaldi. San'atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalda edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi. Traktorist tanqid qilganiga san'atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan, „chorzarb“ qayoqda, taktorist qayoqda-yu, ashulachi qayoqda!

San'atkor uyiga ketgani izvoshga o'tirganida yana tutaqib ketdi: hech bo'lmasa aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlaringni to'g'ri ayt emish! Nimasini bilmayman, nimasi to'g'ri emas? Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas; formalizm, naturalizmlardan o'tdim — hech kim otvod bergani yo'q. Otvod berish qayoqda hech kim meni og'ziga ham olmadi. Endi bir traktorist tanqid qilari emish!..

San'atkor izvoschchini hayron qoldirib, o'zidan o'zi g'o'ldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, san'atkorning tomog'idan hech narsa o'tmadi — ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nasha qilar edi: „ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa, nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilg'ulari kelipti...Amali traktorist...Obbo!..“

— O'qishga bordingizmi? — dedi xizmatchiga qovog'ini solib.

— Bordim... — Xizmatchi ikki haftadan beri savod maktabida o'qir edi.

— Xizmatchisi savod maktabida o'qiydigan bir kishini taktorist savodsiz desa alam qilmaydimi? — dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib, — labingdan bo'lsa olsam, e, shakarlab deganim, „bo'lsa“ emas, „bo'sa“ emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar „bo'sa, bo'masa“ deydi. Artist kulturniy odam — gapni adabiy qilib aytadi — „bo'lsa, bo'lmasa“ deydi. Pojarni „gugurtni yerga tashlamang“ dedi, rejissorimiz esa „gugurtning yerga tashlamang“ dedi. Qanday chiroyli! Pojarnimi, pojarningmi? Shoshilma, nima uchun pojarni? Pojarni albatta! Rejissorimiz juda kulturniy odam. Odam degani mana shunday bo'lsa, urishsa ham xafa bo'lmaydi kishi — ikki gapning birida „ta'bir joiz ko'rilsa“ deb turadi. Bu traktorist menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta „ta'bir joiz ko'rilsa“ demadi.

Xizmatchi daftar-qalam keltirib, san'atkorning oidiga qo'ydi.

— „J“ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko'rsatgan edi, esimda qolmapti.

San'atkorning jahli chiqdi:

— Endi „J“ga keldingizmi? Barjom deganda yoziladi. Kechagi barjom og'zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulturniy bo'lsangiz-chi!.. Burningiz terladi, arting, ta'bir joiz ko'rilsa!

San'atkor o'rnidan turib yotoqqa kirib ketdi.

— Yotasizmi? — dedi xizmatchi narigi uydan.

— Nima edi?

— „J“ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?

— Kichigini yozib qattiqroq o'qing!

San'atkor yechinib ko'rpaga kirdi. Xizmatchi chirog'ini o'chirib chiqdi. San'atkor ko'zini yumdi, ko'ziga g'ira-shira qorong'i zaldagi

son-sanoqsiz kallalar ko'rindi. Bular ichida eng kattasi traktoristning kallasi, u iljayar edi.

— Afting qursin! — dedi san'atkor va narigi yonboshiga ag'darildi.

Hayal o'tmay uyquga ketib xurrak otdi. Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: „Pluq-qum-prr... pluq-qum-prr...“.



Topshiriq

Hikoya matnidan monologik va dialogik, ichki va tashqi nutqni ajrating. Har birining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.

34- mavzu: **FIKRNI SO'ZLASHUV VA BADIY USLUBDA IFODALASH**

(Выражение мысли в разговорном и художественном стилях речи)

Nutq uslublari tilshunoslikning uslubiyat bo'limida o'rganiladi. Ushbu fan til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llarini o'rgatadi. Insonlar turli joylarda: uyda, ko'chada, ishxonada vaziyatga ko'ra til vositalaridan turlicha foydalangan holda o'zaro muloqot yuritadilar. Shunga ko'ra nutq uslublari, avvalo, so'zlashuv va kitobiy uslubga bo'linadi. **So'zlashuv uslubi** insonlarning ko'cha-ko'yda, uyda, bozor-o'chardagi o'zaro muloqotidan iborat bo'lib, ko'proq dialogik shaklda bo'ladi.

Badiiy uslub badiiy asar tili sifatida namoyon bo'ladi, shuning uchun ta'sirchanlik va obrazlilik uning asosiy xususiyati hisoblanadi. Yozuvchi va shoirlar so'z yordamida real borliq manzaralarini o'quvchi ko'zi o'ngida qaytadan yaratadi, ya'ni uning obrazini jonlantiradi. Ana shu ko'rsatish, jonlantirish tilning tasviriy-ifodaviy vositalarga boy bo'lishini talab qiladi. Badiiy nutq ko'chma ma'noli so'zlar, iboralar, omonimlar, sinonimlar, antonimlar va boshqa badiiy ifoda vositalarining ko'p qo'llanishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Ushbu uslubda yaratiladigan asarlar nazm va nasr turlariga, ya'ni she'riy va proza asarlariga bo'linadi va ularning har biri o'zining til xususiyatlariga ega.

271- mashq. Ushbu fe'llarning talaffuzida ro'y beradigan fonetik tovush o'zgarishlarini izohlang.

ketdi — ketti	olib keldi — opkeldi
aytdi — aytti	olib qochdi — opqochdi
sotdi — sotti	sotib oldi — sotvoldi

272- mashq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing. So'zlarning talaffuziga e'tibor bering. So'zlashuv uslubiga xos xususiyatlarni ko'rsating.

Qobil bobo ro'para bo'lganda, amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

— Ha, sigir yo'qoldimi?

— Yo'q... sigir emas... ho'kiz... ola ho'kiz edi.

— Hokizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Hmm... Ola ho'kiz? Tavba...

— Bor-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin kuldi.

— Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?

— Ola ho'kiz...

— Yaxshi ho'kizmidi? Yo yomon ho'kizmidi?

— Qo'sh mahali...

— Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa ketaveradimi?

— Bisotimda hech narsa yo'q...

— O'zi qaytib kelmasmikan?... Birov olib ketsa, qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi-a? Yig'lanmasin.

(A. Qahhor)

273- mashq. Ma'lumot uchun berilgan sinonimlardan foydalanib, gaplarni uslubiy jihatdan tahrir qilib ko'chiring.

1. Agar kishining umumiy jismoniy tuzilishi bequvvat, a'zolarni bequvvat bo'lsa, u turli kasalliklarga moyil bo'ladi. 2. Shifokor dastavval kasalning qanday kasallikka duchor bo'lganini aniqlashi kerak. 3. Turli kasalliklarni, jumladan, ruhiy kasalliklarni davolashda uyqudan foydalanish yaxshi natija beradi. 4. Radio eshittirishni eshitdik. 5. Biz „Tilshunoslikka kirish“ bo'yicha bo'lgan ma'ruzada tilshunoslikning ahamiyatini bilib oldik, tilshunoslikka oid asarlar bilan tanishdik. 6. O'qituvchi topshirgan topshiriqni bajardik.

Ma'lumot uchun so'zlar: *zaif, nimjon; avval, avvalo, avvalambor; turili, har xil; ruhiy, psixik; eshitmoq, tinglamoq; leksiya; lingvistika, til haqidagi fan; taalluqli; vazifa.*

274- mashq. Berilgan matnni o'qing. Jonli so'zlashuvga xos xususiyatlar va ularning nutq madaniyatiga ta'siri haqida o'z fikringizni bildiring.

XUSHMUOMALALIK

Har bir kishi atrofdagi odamlarga hurmat bilan, mehribonlik bilan qarashi, ularning ham o'zlariniki singari nozik qalblari borligini bilishi kerak. „Qars ikki qo'ldan chiqadi“, — deydilar. Janjal ham ikki tomonning qo'pol muomalasidan chiqadi. Bir qo'lingiz baland bo'lsa, chapak chala olmaganingiz singari, bir tomon og'ir bo'lsa, janjalning uchi o'chadi.

Bir misol. Trolleybusda odam tiqilib ketdi: igna tashlasangiz, yerga tushmaydi. Bunday hollarda yo'lovchilarning bir-birlariga urinishlari, turtinishlari tabiiy. Bir yo'lovchi orqadan qisilib o'tib ketayotib, boshqa bir yo'lovchiga bexosdan tegib ketdi. U bunisiga bir o'qrayib, qaradi-yu, jon-jahdi bilan uni itarib tashlab, „ho'kiz“ deb to'ng'illadi. Orqalab ketayotgan yo'lovchida ayb yo'q edi. Buni qo'pol muomala qilgan kishi ham bilardi. Bilaturib, gunohsiz odamni xafa qildi. Haqoratlangan yo'lovchi dag'al kishiga teng bo'lgisi kelmadi, yo tabiatida xushmuomalalik bormidi, har qalay, unga bir jilmayib qaradi-da, „Kechirasiz, trolleybuschilik ekan“ — deb qo'ya qoldi. Kutilmagan xushmuomalalikdan qo'rs kishi mulzam bo'lib qoldi. Mana sizga odamshavandalikning bir ko'rinishi.



Savol va topshiriqlar

1. Siz bunday holga duch kelsangiz, o'zingizni qanday tutgan bo'lar edingiz?
2. Hutq madaniyati bilan umuminsoniy madaniyatning o'zaro ta'siri qanday?

275- mashq. Quyidagi ustundagi antonimik iboralarni topib, ularni juftlab ko'chiring.

- | | |
|--------------------------|------------------------------|
| 1. Yomon qopib gapirar | tuyaning dumi yerga tekkanda |
| 2. Aqlli o'zini ayblar | oq ko'ngil |
| 3. Xash-pash deguncha | yaxshi ro'zg'or—jannat |
| 4. Ko'kka ko'tarmoq | aqlsiz do'stini |
| 5. Ko'ngli qora | yaxshi topib gapirar |
| 6. Yomon ro'zg'or—do'zax | yerga urmoq |
| 7. Qari kelsa—oshga | mehnatdan do'st ortar |
| 8. G'iybatdan — dushman | yosh kelsa—ishga |

276- mashq. Matnni o'qing. Badiiy uslubga xos til vositalarini ko'rsating.

Baland cho‘qqilarni, adirlarni, daraxtlarni bosib qolgan qor bu yerda shunday yumshoq va iliq ko‘rinadiki, go‘yo tog‘ga mayin oq kigiz yopilgan. Ikki cheti muzlasa ham, sharqirab oqayotgan daryolar qaynagan qozondek bug‘lanadi... Yaqindagina vazmin shovullab, salobat to‘kib turgan azim chinorlar endi oq to‘n yopin-gan mo‘ysafidlarday sokin mudraydi. Faqat yuksak qoyalar bag‘ridagi ko‘m-ko‘k archalar, momiq kigiz sathida yanada yashilroq ko‘rinib bahri dilini ochadi kishining. (*I. Rahim*)

277- *mashq*. Tabiat tasviri berilgan ushbu matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan otlarning sinonimlarini toping.

BAXMALSOY BAHORI

Bu yil bahor misli ko‘rilmagan darajada **go‘zal** keldi. **Olam** birdaniga yasandi-yu, chamandek yashnab, **nurga** ko‘mildi. Boy-chechaklar ketidan yer bag‘riga qip-qizil gilam to‘shaldi. Keng dala, cho‘l-tog‘ yon bag‘rilaridan tortib to **zangori osmonga** tutashib ketgan ufqqa qadar hamma yoq lolalardan libos kiydi. Lolalar shuncha ko‘p ochilgan ediki, uning aks nuri bilan osmon qam qip-qizil **cho‘g‘day** ko‘rinardi... Cho‘qqilarning etaklarida va soylarning **tubida** qolgan qorlar quyosh nurida kumushdek tovlanib ko‘zlarni qamashtirardi.

ESHITISH MASHQI

She‘rdagi sinonim so‘zlarni aniqlang, so‘ngra ularni ma‘no yaqinligi asosida guruhlarga ajratib, daftaringizga ko‘chiring.

UCH SO‘Z — BIR MA‘NO

Go‘zal bir mehribon mahbub-u ma‘shuq-u nigorim bor,
G‘am ermas, kohish-u anduh-u qayg‘u g‘amguzorim bor.
Falakdan, osmondan, ko‘kdan oshgay faxr etib boshim,
Sadoqatli, qadrdon oshno-yu do‘st-u yorim bor.
Bilimlik hamnishin-u munis-u ulfatlarim birla.
Buyuk, ozoda, oliy kishvar-u shahr-u diyorum bor.
Jahonda, dunyoda, olamda men yolg‘iz emas, do‘stlar,
Jigarband-u qarindosh-u yaqin, xesh-u taborim bor.

(*Habibiy*)

278- *mashq*. Matnni o‘qing. Ko‘chma ma‘noda qo‘llangan so‘zlarni va iboralarni aniqlab, ma‘nolarini izohlang.

Tabiat oq yopinchig'ini tashlar-tashlamas, kurtaklar ko'z uqalay boshladi. Bahor mayin yellari, chaqchaq urgan gullari bilan kirib keldi. U qishi bilan qandaydir dimiqib, yuragi siqilib yotgan-u, mana endi, o'z mayliga qo'yilganidan xursanddek, keng dalalarda yayraydi, bog'-rog'larda quv naydi, goh qizlarning durralarini tortqilab o'ynaydi, goh yuzlarini muloyim siypaydi.

Bugun juma. Hamma hunarmand va hojatmandlarni tirikchilik g'ami bozorga quvgan kun. Jamilaxon ham qizi bilan olti kun bosib o'tirib tikkan tagdo'zi do'ppilarini sotgani ketdi. To'tiqiz onasini bozorga jo'natib, uyni yig'ishtirdi, hovli sahnini yog' tushsa yalaguday qilib supurdi, keyin yuz-qo'lini yuvib ayvonga chiqdi.

279- mashq. Matnni ifodali o'qing. Ma'noni kuchaytirish uchun foydalanilgan lisoniy vositalarni ko'rsating.

Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg'on yomon,
Ul shirin yolg'onga va lek aldanib qolg'on yomon.
Umrimiz aldoq jahonda aldanib o'tgan va lek,
So'nggi qiynalg'on yomondir, so'nggi qiynalg'on yomon.
Aytgali achchiq azobing bo'lsa dildosh yaxshidir,
So'z demay o'tli alamni joningga solg'on yomon.

Jonga solg'on ham na sozdir, elga so'ylab men kabi,
Shoiri devonayi ishq nomini olg'on yomon.
Gar qilich kelsa boshingga, qo'rqma, Erkin, rostni ayt,
Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg'on yomon.

280- mashq. Yozuvchi Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ romanidan berilgan parchalarni diqqat bilan o'qing. Ularda tasvirlangan obrazlar qiyofalari va xarakterlarini o'zaro qiyoslang. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

O'TKAN KUNLAR

(*Romandan parchalar*)

1. Endi biz tashqari hovlini qo'yib, mehmonxonaning yonidan ichkariga kiramiz. Ichkari hovlining yo'lagi ham narigisidek usti va bag'ri yopiq — qorang'u, yo'lakning nihoyatiga borib o'ngga yurilsa axtaxonaga, chapga yurilsa birinchi marotaba kirganimizdek ulug' bir hovliga chiqarmiz. Hovlining to'rt tarafi turli ehtiyoj binolari bilan va to'rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan o'ralgan bo'lib, shu ikki uyning orasiga o'tirgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu hovlining birinchi marotaba ko'zga chalinadigan

ortliqliklaridandir. Shu chorxari ayvonning o'rtasida bir yerida, ustiga atlas ko'rpalar yopilgan tanchaning to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan suvsar po'stin kiyib bir kishi o'tiradi. Bu kishi — Mirzakarim qutidor. Tanchaning ikki biqinida ikki xotin — bulardan bittasi, ichidan atlas ko'ylak, ustidan odimi xon atlas guppi kiygan, boshiga oq dakanani xom tashlagan, o'ttiz besh yoshlar chamali go'zal, xushbichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'rilik ma'nolari tomib turgan bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim. Ikkinchisi, yetmishlardan o'tgan bir kampir, Oftob oyimning onasi — Oysha buvi. O'choq boshida qo'polgina, qirq besh yoshlar chamali yana bir xotin choy qaynatib yuradi. Bu xotin esa oilaning cho'risi — To'ybeka.

2. Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib, ayvonning chap tarafidagi darcha orqali uyga kiramiz, ham uyning to'riga solingan atlas ko'rpa, par yostiqlik quchog'ida, sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi, uyg'oq yotgan bir qizni ko'ramiz. Uning qora zulfi par yostiqlikning turli tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jingila kiprik ostidagi tim qora ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi biroz qizillikka aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqlikdan olib o'tirdi. Turib o'tirgach, boshini bir silkitdi-da, ijirg'anib qo'ydi. Silkitish orqasida uning yuzini to'zg'igan soch tolalari o'rab olib jonsiz bir suratga kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibi edi.

3. O'zbek oyim ellik besh yoshlar chamali, chala-dumbul tabiatli bir xotin bo'lsa ham, ammo o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi yolg'iz erigagina emas, Toshkent xotinlariga ham yoyilgan edi. O'zga xotinlar uning soyasiga salom berib, to'ylarida, azalarida, qisqasi tiq etgan yig'inlarida uylarining to'rini O'zbek oyimga atagan edilar. Bir bugina emas, qiz chiqaradigan, o'g'il uylantiradigan, sunnat to'yi qiladigan xotinlar o'z to'ylarini O'zbek oyim kengashidan tashqari jo'nata olmas edilar. O'zbek oyim aralashgan to'ylar xotinlarning ko'ngillaridagi orzu-havaslarini ham erlari tomonidan kamchiliksiz bajarilar, chunki „O'zbek oyim shundog' buyurdilar“ degan so'z erlar uchun ham farz kabi eshitilib, O'zbek oyimning aytganicha hozirlik ko'rila boshlanar

edi. Bu tomondan qaraganda O'zbek oyimning o'tkirligi erlar tomonidan ham tasdiq etilganligini iqrор qilishga to'g'ri keladi.

4. Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotini bilangina emas, umuman, uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa-bo'lmasa uzoq so'zlashib o'tirmaydi. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib, uy ichidan birortasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlay beradilar; maqsad aytilib bitgandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydilar. Hoji bir necha vaqt so'zlaguvchisi o'z og'ziga tikiltirib o'tirganidan so'ng, agar ma'qul tushsa „xo'p“ deydilar, gapiga tushunmagan bo'lsa „xo'sh“ deydi, noma'qul bo'lsa „durust emas“ deydi va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa, bir iljayib qo'yishi bilan kifoyalaniб, bundan boshqa so'z aytmaydilar va aytsa ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydilar. Uy ichi uning bu fe'liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko'pincha bir og'iz javob olish bilan kifoyalanađilar.

5. Xushro'y uzun bo'yli, qotmaroq va zarcha tanli edi. Zaynab qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanli edi. Xushro'yning harakati yengil va lafzi tez edi. Zaynab loppos va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradigan edi. Xushro'yning ko'zi o'ynab, har sekundda o'n yoqqa alanglar edi. Singlisi bo'lsa birov bilan betma-bet kelib so'zlashganida ham ko'zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi. Xushro'yga bolalik chog'idanoq uy ichi va qo'ni-qo'shni „shad-dod“ deb ism berganlar, chunki u kimdan bo'lsa-bo'lsin aytganini qoldirmay qo'ymas, agar birorta ish uning tilagiga teskari kelsa shovqin-suronni xuddi boshiga kiyib olar edi. Shuning uchun Xushro'yning ra'yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapga og'iz ochilmas, u bor joyda qadam ham sanab bosilur edi.



Savol va topshiriqlar

1. Berilgan parchalarni diqqat bilan o'qing. Har bir matndan ushbu obrazlar xarakteriga mos keladigan ta'riflarni ajratib, daftaringizga yozing.
2. Ushbu gap orqali Zaynabning fe'l-atvoriga baho bering.
Zaynab egachisining aksicha o'z yaqinlaridan „pismiқ“ deb ism olgan, onasi bo'lsa achchig'i chiqqanda „ming'aymas o'lgur“ deb uni qarg'ar edi.
3. Berilgan gap orqali Xushro'yning fe'l-atvoriga baho bering.
Xushro'y uch oy ichida tomir yoyib qolgan bir oilani ildizi bilan yulib tashlab tinchiydir.

4. Berilgan sifatlashlardan foydalanib Zaynabning surat va siymosini ifodalang. Uni Kumush bilan solishtiring.
Chala dumbul tabiatli, „jonsiz haykal“, „eriga o‘tkir, shaddod, qotma, oq tanli, loppos, harakati yengil, lafzi tez, qisqa bo‘y, go‘shtdor, o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradigan“.
5. Zaynab — Kumushning qotili. Himoyachi sifatida uni oqlashga harakat qiling.
6. Berilgan iboralarning sinonim va antonimlarini aniqlang.
Eriga o‘tkir, soyasiga salom bermoq, ost-ust qilmoq, ikki qo‘lini burniga tiqib, qarab qolmoq.
7. Berilgan gap orqali Oftob oyimning fe‘l-atvoriga baho bering:
Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to‘g‘rilik ma‘nolari tomib turg‘on bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim.
8. O‘zbek oyim va Oftob oyimning fe‘l-atvorini taqqoslang.
9. Romandagi sizga eng yoqqan obraz qaysi? Fikringizni asoslab jabob bering.
10. Kishi hamma vaqt go‘zallikka, yaxshilikka intiladi, shuning uchun badiiy asarlardagi bosh qahramon ko‘pincha go‘zal botir, barkamol inson sifatida tasavvur etiladi. Hamma vaqt ham tashqi va ichki go‘zallik o‘zaro mos keladimi? Fikringizni misollar keltirib asoslang.



Adabiy o‘qish

Cho‘lpon

GO‘ZAL

Qorang‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
 Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘rayman,
 U yulduz uyalib, boshini egib,
 Aytadir: „Men uni tushda ko‘ramen,“
 Tushda ko‘rganimda, shunchalar go‘zal,
 Bizdan-da go‘zal, oydan-da go‘zal“.
 Ko‘zimni olaman oy chiqqan yoqqa,
 Boshlayman oydan-da seni so‘roqqa,
 Ul-da aytadirkim: „Qizil yanoqqa,
 Tushimda uhradim ko‘milgan oqqa
 Oqqa ko‘milganda shunchalar go‘zal
 Mendan-da go‘zal, kundan-da go‘zal“.
 U ketgach kun chiqar yorug‘lik sochib,
 Undan-da so‘rayman seni to‘g‘ringda,

Ul ham uyatidan bekinib qochib,
 Aytadir: „Bir koʻrdim, tushdamas oʻngda,
 Oʻngimda koʻrganda shunchalar goʻzal,
 Oydan-da goʻzal, mendan-da goʻzal“.
 Men yoʻqsil na boʻlib uni suyibman!
 Uning uchun yonibman, yonib kuyubman.
 Boshimni zoʻr ishga berib qoʻyibman.
 Men suyub, men suyub, kimni suyubman!
 Men suygan suyuklik shunchalar goʻzal,
 Oydan-da goʻzaldir, kundan-da goʻzal.



Savol va topshiriqlar

1. Siz Choʻlponning yana qanday sheʼrlarini bilasiz?
2. Matnda kelishik qoʻshimchalari va *-da* yuklamasining qoʻllanishidagi uslubiy xususiyatlarni tushuntiring.
3. Matndagi feʼllarni tahlil qiling, shaxs-son qoʻshimchalarining qoʻllanishini izohlang.
4. Mustaqil oʻqish qismidan Choʻlponning tarjimai holini oʻqib, soʻzlab bering.

35- mavzu: **FIKRNİ PUBLITSISTİK USLUBDA IFODALASH**

(Выражение мысли в публицистическом стиле речи)

Grammatika

Publitsistik uslub matbuot tili boʻlib, tashviqot-targʻibot ishlari olib borishda foydalaniladigan nutq uslubidir. Gazeta va jurnallardagi koʻpgina maqolalar, ommaviy-siyosiy mavzudagi maʼruzalar ham publitsistik uslubda yoziladi. Publitsistik nutq uslubida taʼsirchan soʻz va birikmalardan, maqol va aforizmlardan ham foydalaniladi.

281- mashq. Berilgan soʻzlarni qoʻllanishiga koʻra nutq uslublarining turlariga boʻlib yozib chiqing.

Energiya, xushbichim, toʻnini teskari kiymoq, man qilinadi, aziz hamyurtlar, kilovatt-soat, tok oʻtkazgich, ogʻzi qulogʻiga yet-gancha, bashara, hormang, iltimos, uchburchak, katta-yu kichik, tenglama, tong nashidasi, morfologiya, burchga sadoqat, fuqorolik burchi, ichki tartib-intizom, ofarin, rioya qilish, tushuntirish xati.

282- mashq. Matnni o‘qing va qaysi uslubga xosligini aniqlang. Har bir gapdagi ma‘noni kuchaytiruvchi vositalarni tahlil qiling.

SHOHIMARDON

Shohimardonga go‘zal Vodil qishlog‘i orqali boriladi. Vodilda, ulkan chinor tagidagi choyxonada, mazza qilib dam olsa bo‘ladi. Konchilar qishlog‘i hisoblangan Qadamjoydan o‘tgandan keyin yo‘l Shohimardonsoyning torgina toshloq darasiga kirib ketadi, shundan so‘ng yo‘l yana keng vodiya chiqadi. Vodiy yonbag‘ri ko‘m-ko‘k daraxtlar, terakzorlar va tamakizorlar bilan qoplangan. Yo‘ldan sal narida, toshloq tepalik ustida, yotib olgan filga o‘xshaydigan bir qoya bor. Bu yerda sayyohlar har doim suratga tushishadi. Qarshingizda bir-biriga ulanib ketgan qator tog‘ tizmalari yuksalib turadi. Uzoqda, moviy osmon tagida, Oloy tizmasining mangu qorlar bilan qoplangan yuksak cho‘qqilari suzib ketayotganday ko‘rinadi.

283- mashq. Matndan publitsistik uslubga xos xususiyatlarni aniqlang va qo‘llanishini izohlang.

Toshkentga kelib Yangi Do‘rmonni ko‘rolmay qaytgan kishi armonda ketadi. Hech bo‘lmasa nariroqqa borib, tuman markazidagi dala shiyponidan Do‘rmonga bir qaralsa, ko‘ngildagi har qanday g‘ubor bir zumda tarqaydi-ketadi!

Do‘rmonni bog‘ desangiz, ming-ming tonna paxtasi bor, pillasi bor; oq oltinga kon desangiz, shirin-shakar mevasi bor, qo‘y-u qo‘zi, sigir-buzoq, parranda-yu yilqisi bor.

Olachipor Qurama va Chimyon tog‘lari, och o‘sma rang past-baland adirlari, qirlari Do‘rmonning tengi yo‘q husniga husn qo‘shgani, uni yasatgani, bezatgani atayin yaratilganday tuyuladi.

(Abdulla Qahhordan)

284- mashq. Berilgan so‘z va birikmalardan publitsistik uslubga xoslarini ajratib yozing.

Nonning nomi ulug, nomidan ham o‘zi ulug‘. Bolaga ins-jins ziyon yetkazmasin deb, ona o‘z go‘dagi yostig‘i ostiga non qo‘ygan. Ota o‘g‘lini o‘zga yurtga safarga otlantirib, oq fotiha berarkan, „balo-qazolardan asraydi“ degan ma‘noda farzandining qo‘liga non tutqazgan. Yangi kelinchaklarga „rizq-nasibasi butun bo‘lsin“ deb, yurt xizmatiga otlangan yigitlarga „sog‘-omon qaytsin, nasibasi uzilmasin“ deb juft non tishlatishgan.

Dasturxonimizga birinchi bo‘lib non qo‘yiladi, yangi uyga avvalo non olib kiriladi, yangi oilaga non — patir ushatish bilan poydevor qo‘yiladi. Hatto o‘zga mamlakatlardan kelgan mehmonlarni ham non, tuz bilan qarshi olinadi.

285- mashq. Birinchi ustunda berilgan Abdulla Qahhor hikoyalari nomlarini ikkinchi ustunda ularga epigraf sifatida qo‘llangan maqol va aforizmlar bilan juftlab ko‘chiring. Ushbu epigraflarning tanlanish sababini tushuntiring.

- | | |
|------------------|--|
| 1. „O‘g‘ri“ | Uylar to‘la non, och nahorim bolam,
Ariqlar to‘la suv, tashnayi zorim bolam. |
| 2. „Bemor“ | Ey bus-butun holati vayron o‘lon vatan,
Har go‘shasi zamonada zindon o‘lon vatan. |
| 3. „Tomoshabog‘“ | Osmon yiroq, yer qattiq. |
| 4. „Anor“ | Otning o‘limi, itning bayrami. |
| 5. „Bashorat“ | Ola qarq‘a qag‘ etadi, o‘z vaqtini chog‘ etadi. |

286- mashq. Matnni o‘qing va uslubiy xatolarni to‘g‘rilab ko‘chiring.

SOHIBKORLIK NIMA O‘ZI?

Sohibkorlik nima o‘zi? Sohibkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida faoliyat turi bo‘lib, u bir qator shart-sharoitlarni taqozo qiladi. Sohibkorlikning eng dastlabki sharti va belgisi: faoliyat yo‘nalishi va uslubini tanlashdagi erkinlikdir. Sohibkorlik qilish uchun mustaqil qaror qilish imkoniyatiga ega bo‘lish kerak. Sohibkorlik bozor, bankrotsiz, barbod bo‘lishsiz bo‘lmaydi. Shuningdek, sohibkorlik faoliyatining belgisi hamma vaqt tijorat muvaffaqiyati, foyda olishga inlitish hamdir. Busiz sohibkorlik mazmunsizdir. Bu xususiyatlarning hammasi tashabbuskorlikda, noan‘anaviy qarorlarni axtarish, keng qamrovlilik va tavakkalchilik, ishchanlikda o‘z aksini topadi.

287- mashq. Berilgan she‘riy parchalarda ta‘sirchanlikni oshiruvchi asosiy vosita qaysi? Yana qaysi uslubda bu vosita ko‘p qo‘llanadi? Sababini izohlang.

Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi,
Bir o‘lkaki, sal ko‘rmasa quyosh sog‘inar.
Bir o‘lkaki, g‘ayratidan asabi chaqnar,
Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor.
Uning ismi hur O‘zbekiston!

Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi.
Arilari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.
Bunda qorning taglarida qish,
Ko'klam uchun o'qiydi olqish.
Bu shundayin ajib diyordir!

288- mashq. Ushbu matn qaysi uslubda yozilgan? Lisoniy vositalarni ko'rsating.

KATTAQISHLOQ

Kattaqishloqda bo'lganmisiz? Uning go'zal manzaralari, qaynoq hayoti, yangi ajoyib kishilari bilan tanishganmisiz? U ko'm-ko'k vodiyni markazidan ancha uzoqda, tog'lar, qirlarning ikki yog'idagi sadaqayrag'ochlar va soy bo'ylaridagi serkokil majnuntollar bu qishloqning ko'rki-jamoli. Bu yerning uylari ham o'zgacha, ular baland tosh poydevorlari bilan odatdagi qishloq uylaridan ajralib turadi. Atrofda bog'lar. Bilaman, siz bu sayilgoh joylarning dilxush manzarasini, bog'larini, rang-barang gullarini ko'rishga, shu qishloqning baxtli kishilari bilan ariq bo'yidagi maysazorda o'tirib hamsuhbat bo'lishga, xiyobonda bulbullarning xush ovozi tinglashga shoshilyapsiz. Sabr qiling, hurmatli kitobxon, oldin qishloq bilan tanishaylik.

(Ibrohim Rahim)



Adabiy o'qish

O'ZBEKISTON JAHONGA YUZ TUTMOQDA

O'zbekistonning mustaqil respublika bo'lganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Shu o'tgan qisqa tarixiy davrda respublikani suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekistonni 165 ta davlat tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 35 ta mamlakat o'z elchixonalarini ochgan.

O'zbekiston 1991- yil 2- martda Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'ziligiga qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston bir qator yetakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning ham to'la huquqli a'zolidir. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarni yanada yaxshilashga intilish O'zbekiston tashqi

siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston rahbariyati Osiyo, Yevropa va Tinch okean mamlakatlarining ko'pchiligida rasmiy xizmat safarida bo'lib, o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim tuzdilar. Janubiy Koreyaning DAEWOO nomi bilan mashhur bo'lgan korporatsiyasi tomonidan Asakada qurilgan avtomobil zavodi ana shu hamkorlikning samarasidir.

Respublikamiz milliy mustaqillikka erishgach, o'z iqtisodiyotini to'g'ri izga solish, mamlakatni qishloq xo'jaligi mamlakatidan sanoati rivojlangan davlatga aylantirish yuzasidan o'ziga xos dastur asosida ish olib bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, albatta, ayrim qiyinchiliklarga olib keladi. Ammo xalqimiz mehnatkash, taraqqiyotga intiluvchan xalq va bu qiyinchiliklarni yengishga qodir.

Biz yashayotgan zaminda tarixda ulug' allomalar, sarkardalar yashab o'tganlar. Biz Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'beklar avlodimiz va kelajakda o'zimiz orzu qilgan rivojlangan davlatni barpo qilamiz. Shu bois farzandlarimizni kelajakka ishonch bilan qaraydigan, mustaqil fikrlay oladigan, ilm va fan cho'qqilarini egallashga intiladigan qilib tarbiyalash bizning hozirgi kundagi eng asosiy vazifalarimizdan biridir.



Savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonning tarixi, buguni va ertasi haqidagi o'z tasavvuringizni bayon eting.
2. Siz Vatanimizning taraqqiyotiga o'z hissangizni qanday qilib qo'shmoqchisiz?
3. Ushbu matn Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillari haqida. Hozirgi kunga kelib biz qanday yutuqlarga erishdik? Matnni so'nggi ma'lumotlar bilan to'ldirgan va o'z munosabatingizni bildirgan holda so'zlab bering.

36- *mavzu*: **FIKRNILMIY USLUBDA IFODALASH**

(Выражение мысли в научном стиле речи)

289- *mas'ala*. Berilgan matnni o'qing. Ushbu matn qaysi uslubga xos?

BOBURIY SHAHZODALAR

Boburiylar saltanatining mashhur namoyandalaridan biri bo'lgan Shohjahon eng omadli shohlardan biri bo'lgan. Biroq hayotining oxiriga borib kasalga chalinadi va omadi ketadi. Natijada

har biri alohida viloyatlarda hukmronlik qilayotgan 4 o'g'li: Doro Shukuh, Avrangzeb, Murod va Shujjolar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Avrangzeb katta o'g'il — Doro Shukuhni taxtdan tushirib, Lohurgacha quvib boradi, so'ng Dehliga — ukasi Shujjoga qarshi o'tlanadi. Bu kurashda Shujjo tarafida bo'lgan Banoras va Ilohobod hokimlari unga o'rgatilgan fil taqdim etishadi. Bu fil jangga kirganda, og'irligi 120 kilogramm (240 ratl, bir ratl 449,28 grammga teng) zanjirni havoda o'ynatib, goh chapga, goh o'ngga uradigan va yoniga hech kimni keltirmasligi bilan yengilmas deb shuhrat qozongan edi. Biroq Avrangzeb bu filga olov bilan hujum qilishni buyuradi, natijada fil olovdan qo'rqib jang maydonidan qochib ketadi, uning ustidagi odamlar esa urib tushiriladi. Shujjo qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi.

Ilmiy uslub fanning turli sohalariga aloqador so'z va terminlarni qo'llashi, bayonning ko'proq mantiqiy dalillarga suyanishi va daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (qoidalar, ta'riflarga) boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Ilmiy uslubda tabiat va jamiyat hodisalari aniq qoidalar, formulalar asosida ifodalanadi. Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi, unda to'liqsiz gaplar, ko'chma ma'noli so'zlar, so'z-gaplar, dialogik nutq turlari qo'llanilmaydi. Aksincha, sabab-maqсад, natija-qiyoslash, miqdor-daraja, o'rin-payt ma'nolarini, obyektни, belgi-holatni ifodalovchi sodda va qo'shma gaplardan keng foydalaniladi.

Ilmiy uslubning sof ilmiy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-ommabop yo'nalishlari bor. Sof ilmiy uslubda ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy tadqiqot ishlari — dissertatsiyalar; ilmiy-uslubiy yo'nalishda fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar; ilmiy-ommabop uslubda keng xalq ommasiga mo'ljallangan risolalar, izohli, imlo va tarjima lug'atlari yoziladi.

290- mashq. Berilgan so'zlarni uslubiy xususiyatiga ko'ra guruhlariga ajratib, jadval kataklariga yozib chiqing.

Maroqli, tabiat, jamiyat, gullamoq, to'nini ters kiyib, mingta, harakat, harakatchan, orzu-havasli, ehtirom, ta'sir, to'p-to'satdan, ta'zir, ko'rsatmoq, tonna, yaratmoq, yuqori navli, jilmaydi, serhashamat, molekula, elektron, xullas, 1- kvartal,

tajriba-sinov, haqiqat, oddiy, eruvchanlik, mahmadona, man qilinadi, soʻraladi, koʻrsatilgan muddatda, voy, oh-oh, qoʻllab-quvvatlamogʻ, kirim-chiqim, foyda-zarar, mushtariy, matonatli, latif, bildirgi.

Soʻzlashuv uslubi	Badiiy uslub	Publitsistik uslub	Ilmiy uslub	Rasmiy uslub

291- mashq. Soʻzlarning sinonimik qatorini yanada kengaytiring va qaysi uslubga xosligini koʻrsatgan holda daftaringizga yozib chiqing.

Kishi — odam, fakt — dalil, kishilik — insoniyat, turmush — hayot, affiks — qoʻshimcha, unum — hosil, satirik — hajviy, bilim — ilm, oʻqituvchi — muallim, bildirish — eʻlon, yigʻilish — majlis, qarindosh — urugʻ, el — xalq, sotsial — ijtimoiy, tomon — taraf, kuchsiz — zaif, negiz — asos, aniq — konkret, qalʼa — qoʻrgʻon, yogʻdu — nur, yozuv — xat, payt — vaqt, quyosh — oftob, koʻk — osmon, bahor — koʻklam, tovush — ovoz, analiz — tahlil.

292- mashq. Berilgan gaplar qaysi uslubga xosligini aniqlang. har birining oʻziga xos xususiyatlarini tushuntiring.

1. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy 1441- yilda tugʻilgan.
 2. Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligiga katta eʻtibor berilmoqda.
 3. Suv qahr bilan uning biqiniga urilib shovullar, boshidan oshib oʻtgunday boʻlar, lekin togʻday gavdasini qimirlata olmas edi.
 4. Bir bor ekan, bir yoʻq ekan, qadim zamonda, Mashriq tomonda, bir chol bilan kampir yashar ekanlar.
 5. Menga bir oy muddatga oʻz hisobimdan taʼtil berishingizni soʻrayman.
 6. Non rizq-u roʻzimiz, uning ushogʻini ham uvol qilmang.
 7. Qovun navlari xilma-xil boʻlib, ularga nom berishda mazasi, rangi, toʻrlarining tuzilishi, pishish muddati kabi belgilardan kelib chiqiladi.
 8. Men bir mashina „Obinovvot“ navli qovunni Jizzax viloyatidan olib kelib, Toshkent shahridagi „Farhod“ bozoriga tushirganimni maʼlum qilaman.
 9. Oh, oh, oh! Hidini qarang, hidini! Hidining oʻzi ham mast qiladi-ya odamni!
 10. Navroʻz — kun bilan tun teng keladigan kun.

293- mashq. Berilgan gaplar ilmiy uslubning qanday turlarida qoʻllanishini izohlang.

1. Kitob kichik yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Unga qiziqarli hikoyalar, topishmoqlar, bolalarning nutqini o'stirish uchun tez aytishlar ham kiritildi. 2. Har qanday so'z ma'lum bir lug'aviy ma'noni bildiradi. Bu uning shaxs, narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni atash ma'nosi bo'lib, so'zlar shunga ko'ra turkumlarga guruhlanadi. Ularning har biri gapda o'ziga xos vazifalarni bajaradi. 3. Ish kirish, 4 bobdan iborat asosiy bo'lim. Umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Shuningdek, ishga tajriba-sinov materiallari ham ilova qilinadi. 4. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, masalaning bu jihatlari hali o'rganilmagan.

294- mashq. Ushbu matn qaysi uslubga xos? Fikringizni misollar bilan izohlang.

Tilshunos olimlarning 1970- yili Ispaniyada bo'lib o'tgan yig'ilishida ma'lum bo'lishicha, Yer yuzi aholisi 2976 xil tilda gaplashar ekan.

Yer sharidagi aholining uchdan ikki qismi 13 xil tildan foydalanadi. Bu tillarning har birida kamida 50 million kishi gaplashadi. Bu 13 xil til dunyoga keng tarqalgan tillardir. Tillar keng va tor doirada qo'llanishiga ko'ra xalqaro, millatlararo, milliy til, xalq tili turlariga bo'linadi.

Har bir mamlakatning o'z davlat tili mavjud. Bizning ko'p millatli respublikamizda 130 dan ortiq tilda gaplashiladi, umumiy o'rta ta'lim 7 ta tilda olib boriladi. Respublikamizning davlat tili o'zbek tilidir. Ayni paytda o'zbek tili millatlararo aloqa vositasi hamdir.

295- mashq. Berilgan matndagi gaplarni ilmiy maqola va publitsistik maqolaga xosligiga ko'ra ikki guruhga ajratib ko'chiring.

Til muayyan fikrni ifodalash vositasidir. Til — dil kaliti, deydilar. Yer yuzida qancha millat, qancha xalq, elat bor ekan, shuncha til bor. Nutq tovushlari, so'z va iboralar til vositalari hisoblanadi. Ular yordamida biz so'z birikmalari va gaplar tuzib, muayyan fikr ifodalanadi. Buning uchun tilga xos qo'shimchalar, grammatik shakllar va yordamchi so'zlarni hamga ularni to'g'ri qo'shish, qo'llash qoidalarini bilish zarur. Bular savodxonlik ko'rsatkichi hamdir. Tilsiz xalq, xalqsiz til bo'lmaydi. Bular egizak tushunchalardir. Ularni bir-biridan ayirib bo'lmaydi. Agar ayirib qo'yilsa, ikkisi ham o'zligini yo'qotadi. Tilidan ayrilgan xalq boshqa xalqqa qo'shilib, singib, bora-bora yoq bo'lib ketadi. Shuning uchun har bir inson o'z ona tilini e'zozlashi, asrab-avaylashi darkor.

ESHITISH MASHQI

Matnni diqqat bilan tinglang, soʻngra qayta yozing. Matnning qaysi uslubga xosligini aniqlab, lisoniy vositalarini tahlil qiling.

Mashhur alloma, ensiklopedist olim Abu Nasr Forobiy musi-qashunos olim ham edi. Uning „Musiqqa haqida katta kitob“ asari nafaqat Sharqda, balki butun dunyo boʻyicha ham bu sohada yaratilgan birinchi asar edi. U bu asarida tovush tabiatini ilmiy jihatdan taʼriflagan, kuy garmoniyasi va ritmikasinig matematik tamoyillarini ochib bergan. Forobiy oʻsha davrda Sharqda mavjud boʻlgan rubob, tanbur, nay, ud, doʻmbira kabi asboblarni chalish qoidalarini tuzgan. U musiqa alifbosi hisoblanuvchi notalarni birinchi boʻlib ixtiro qilgan, oʻzi yangi musiqa asboblari ham kashf etgan, musiqalar yozgan va oʻzi ijro qilgan bastakor ham edi.

296- mashq. Berilgan matnni ona tilingizga tarjima qiling. Atamalarning har ikki tilda berilishini qiyoslang.

Язык — это летопись многолетних усилий человека познать мир, объяснить мир и себя в этом мире. Этим объясняется неразрывная связь языка и культуры, язык развивается внутри культуры и эксплицирует её. Язык одновременно является условием существования культуры, её важной составляющей частью и продуктом культуры.

Язык и культура — разные семиотические системы, хотя имеют много общего. Как считает В. Н. Телия, „1) культура, как и язык, — это формы сознания, отображающие мировоззрение человека; 2) культура и язык существуют в диалоге между собой; 3) субъект культуры и языка — это всегда индивид или социум, личность или общество; 4) нормативность — общая для культуры и языка черта; 5) историзм — одно из сущностных свойств культуры и языка; 6) культуре и языку присуща антиномия динамика — статика“.



Adabiy oʻqish

PARKENT

Parkent tumani hududi dengiz sathidan 900—2200 metr balandlikda joylashgan. Bu yerda koʻkalamzor dov-daraxtlar, sharsharalar, zilol suvlar, chashma-buloqlar juda koʻp. Parkentning rang-barang tabiati, boy hayvonot dunyosi, musaffo havosi bu

yerlarni dam olish maskanlariga aylantirgan. Ushbu tumanda kattalar va bolalar uchun qator dam olish oromgohlari, shifoxonalar mavjud.

„So‘qoq“ dam olish oromgohi o‘zining jozibali manzaralari bilan mehnatkashlarni bag‘riga chorlab turadi. Mazkur oromgoh bir mavsumda mehnat ta‘tilini mazmunli o‘tkazish uchun kelgan 10 mingga yaqin mehnatkashlarni qabul qiladi. „So‘qoq“ dam olish uyi qurilishi 1936- yil 1- sentabrdan boshlangan bo‘lib, 1945- yilning may oyidan dam oluvchilarni qabul qilgan. 1960- yildan esa yil bo‘yi ishlaydigan oromgohga aylantirildi. Dam oluvchilar uchun bu yerda hamma sharoit muhayyo. O‘tgan yillar mobaynida dam olish uyi ancha rivojlandi, moddiy ta‘minoti yaxshilandi, yanada ko‘kalamzorlashtirildi. Yangi binolar qurilib, xizmat ko‘rsatish darajasi ancha ortdi.

„Kumushkon“ dam olish oromgohi ham tumanning so‘lim maskanlaridan biridir. U dengiz sathidan 1400 metr balandlikda joylashgan. 1960- yildan boshlab dam olish uyiga aylantirilgan. Shundan buyon dam olish uyida bir yo‘la 750 nafar kishi hordiq chiqarardi. 1989- yil apreldan boshlab u respublika sayohatchilar bazasiga aylantirildi. Hozirgi kunda „Kumushkon“ dam olish oromgohi dam oluvchilarning eng sevimli maskanlaridan biriga aylangan.



Topshiriq

1. Matnni davom ettiring.
2. To‘rt guruhda bo‘linib, Chimyonning to‘rt fasldagi holatini gapirib bering.
3. Uyda har biringiz „Chimyonda“ mavzusida kichik insho yozing.

37- mavzu: FIKRNI RASMIY USLUBDA IFODALASH

(Выражение мысли в официальном стиле речи)

297- mashq. Quyidagi berilgan matnlarni o‘zaro qiyoslab o‘qing. Har biri qaysi uslubga xosligini aniqlang, uslubiy vositalarini ko‘rsating.

1. Hayot yorug‘ ranglarga, ezgu tuyg‘ularga boyligi uchun go‘zal va muqaddasdir. Ammo, donishmandlarimiz aytishganidek, nur bor joyda soya bor ekan, ba‘zan hayotda uchrab turadigan yoqimsiz unsurlardan ko‘nglingiz xira tortadi, hatto umringiz lavhalarida uning nomi bilan muhrlangan jarliklar paydo bo‘ladiki, bu

jarliklar tubida inson o'zini butunlay yo'qotib qo'yishi hech gap emas.

2. Men 1990- yili Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 15- maktabning 8- sinfini bitirdim. Radiotexnikaga juda qiziqaman. Shu bois mazkur kollejning radiotexnika bo'limiga kirish uchun tanlov imtihonlarida qatnashishga ruxsat berishingizni so'rayman.

3. Kun peshindan og'di. Kotiba qiz asta eshikni ochdi:
— Sizni boshliq yo'qlayaptilar.

Uning yuragi bezovta. U Nazirani boshliq yoqtirmasligini, bo'lim mudirining u haqida aytadigan so'nggi so'zi nechog'liq ahamiyatga ega ekanligini ham bilar edi. Boshliqqa nima desin, „Nazira yaxshi xodim, chaqqon, o'z ishining ustasi, picha shartakiligi bor demasa, bunday xodimni topish qiyin, desinmi? Yoki bo'lmasa Naziraning uy sharoitini ro'kach qilsinmi?“

4. Ishonchim komilki, mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik munosabatlari bundan-buyon ham rivojlanib mustahkamlanaveradi. Fursatdan foydalanib, Siz janobi oliylariga sihat-salamatlik, baxt-saodat, O'zbekiston xalqiga esa doimiy taraqqiyot va ravnaq tilab qolishga ijozat etgaysiz.

Rasmiy uslub rasmiy ish qog'ozlari — hujjatlarni yuritish yo'llarini o'rgatuvchi nutq uslubidir. Hujjatshunoslik davlatchilik bilan bog'liq bo'lib, uning ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Har bir davlatning hujjatlari uning davlat tilida yoziladi. Hujjatlarni to'g'ri va bexato yozish insonning savodxonligi va yozma nutq madaniyati ko'rsatkichidir.

Grammatika

Barcha muassasa va korxonalaridagi buyruqlar, tashkiliy-ma'muriy hujjatlardan tortib hukumat tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, farmon va farmoyishlar, xalqaro diplomatik hujjatlar ham rasmiy uslubda yoziladi. Har bir hujjat o'z yozilish shakli va zaruriy qismlariga ega. Oliy ta'lim tizimini tugatgan talabalar barcha ma'muriy va o'z mutaxassisligi sohasidagi ichki ish qog'ozlarini to'g'ri yozish va rasmiylashtirishni bilishlari kerak.

Rasmiy uslubning o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari mavjud bolib. bular: so'zlarning o'z ma'nosida qo'llanishi, hissiy bo'yoqdor so'zlarning qo'llanmasligi (diplomatik yozishmalar bundan mustasno), ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqa atama so'zlarning ishlatilishi,

har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalanilishi kabilardir. Rasmiy uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuzilishi kerak. Hujjatlarning asosiy ko'pchiligida darak gaplardan; *qaror, buyruq, ko'rsatma* kabi hujjatlarda esa buyruq gaplardan, fe'llarning aniqlik, buyruq-istak mayllari, majhul nisbat shakllaridan foydalanish kuzatiladi. Shuningdek, mazkur uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi.

Hujjatlarning turlari va ichki bo'linishlarini bilib oling!

Mazmuniga ko'ra

1. Ma'muriy-farmoyish hujjatlari
2. Ma'lumot-axborot hujjatlari
3. Huquqiy hujjatlar .
4. Iqtisodiy-tijorat hujjatlari
5. Diplomatik yozishmalar

Tuzilishiga ko'ra

1. Namunali hujjatlar
2. Qolipli hujjatlar
3. Erkin hujjatlar

298- mashq. Berilgan fe'llarni zarur grammatik shakllarda ishtirok ettirib, rasmiy uslubga xos gaplar tuzing.

Ratifikatsiya qilish, qo'llab-quvvatlamoq, ruxsat berish, eshitmoq, qaror qilmoq, tilxat bermoq, ma'lumot bermoq, bildirmoq, tavsiya qilmoq, mas'uliyat bilan bajarmoq, faol ishtirok etmoq, taklif etmoq, hurmatli, tilamoq, muzokara yuritmoq, tashrif buyurmoq, manfaatini ko'zlamoq, teng huquqlilik asosida, da'vo qilmoq, moddasiga ko'ra, qonunga binoan, qarorga muvofiq, ilova qilmoq.

299-mashq. Berilgan matndan rasmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlang.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi va tegishli hududlar hokimlari boshchiligida tumanlar (shaharlar)da Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarni so'zsiz va to'liq bajarilishi yuklatilsin, Dasturni amalga oshirish bo'yicha tegishli komissiyalar tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblansin.

300- mashq. Qavs ichida berilgan so'z va birikmalardan mosini qo'yib, berilgan ish qog'ozlari namunalarini yozing.

1. Men (Ikromov Akbar, 112- guruh talabasi A. Ikromov), 1994- yilda Toshkent shahrida (ishchi, ziyoli, o'qituvchi) oilasida (dunyoga keldim, tug'ildim, tavallud topdim).

2. Men (Sizdan, sizdan) sog'lig'im yomonlashgani (tufayli, uchun, magsadida) davolanish (uchun, magsadida) 10 kun muddatga (o'z hisobimdan, korxonada hisobidan, oylik maoshim saqlangan holda, oylik maoshim saqlanmagan holda, navbatdagi, navbatdan tashqari) ta'til berishingizni (iltimos qilaman, so'rayman, talab qilaman).

3. Men (xizmat safari, mehnat ta'tili, dam oish) dan qaytib keldim va (sana) dan (o'z ishimni, xizmat vazifamni) bajarishga kirishganligimni (e'lon qilaman, ma'lum qilaman, bildiraman).

301- mashq. Berilgan konstruksiyalardan foydalanib, diplomatik hujjat namunasini yozing.

Mavzu: Mustaqillik bayrami munosabati bilan qutlov.

Nutqiy qoliplar: ... munosabati bilan Sizni samimiy qutlayman;
... samimiy tabrigimni qabul qilgaysiz;
... Sizni to'la qo'llab-quvvatlayman;
Sizga ... ishonch bildiraman;
Fursatdan foydalanib, ...;
Ishonchim komilki,

Qaysi davlatdan:

Qaysi davlatga:

302- mashq. Berilgan matnlar qaysi uslubga xosligini aniqlang va har biriga xos asosiy axborotni ifodalaydigan gaplarni ajrating.

1. Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdir. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog' voqe bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Xo'jand suyig'a mashhurdir, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar.

2. Maktabni bitirib, O'zbekiston davlar jahon tillari universitetiga o'qishga kirmoqchiman. Xorijiy tillarni yaxshilab o'rganmoqchiman. Kelajakda rivojlangan mamlakatlar ish tajribalarini o'rganib, o'z yurtimizga tatbiq etmoqchiman va yurtimizning taraqqiyotiga o'z hissamni qo'shmoqchiman. Balki, kelajakda men orzu qilgan ishlar amalga oshar. Respublikamiz rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilar. Bunga, albatta, ishonaman, chunki biz buyuk ajdodlarning vorislarimiz.

3. Ona Yerni astoydil seving, unga mehr bilan qarang. Ona Yer uchun mehnatingni ayamasang, u ham yaxshiligingga yaxshilik bilan javob qaytaradi.

4. Tasavvur qiling: ysh bola o'rindiqda o'tirgan ikki qariyaning oldiga kelib, ularga: „Nariroq suril“, desa! Demak, „sen“ bilan „siz“da gap ko'p. Sizlashish kamtarlik, insoniylik belgisidir.

5. G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish,
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish.

303- mashq. Ushbu matnni diqqat bilan o'qing, rasmiy uslubda yozilgan xos birikmalarni aniqlang va lisoniy xususiyatlarini tahlil qiling. Matndagi uslubiy xatolarni ko'rsating.

Notiq qizishib ketdi.

— Ikkinchi masala, ya'ni ichki imkoniyatlardan foydalanish masalasini olaylik. O'zingizga ma'lum, bizda yuqori sifatli mis choynak bor. Shu choynakning qopqog'i bugungi kunda yo'q. Bu haqda biz bir-birimizga signal berdikmi? Yo'q? Agar biz o'zi bo'larchilikka uzil-kesil barham berib, qopqoq masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'ysak, agar biz u choynakni o'z vaqtida tegishli qopqoq bilan ta'min qilsak samovarimiz safdan chiqqan kunlarda hal qiluvchi rol o'ynar edi. Afsuski, biz bu masalaga murosasozlik ko'zi bilan qaradik. Bugungi kunda chaynagimiz qopqoqqa ega emas, mutlaqo ega emas.

Xotin sekin uh tortdi. Notiq buni payqab, so'zini yumshatishga tirishdi:

— Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganligimizga hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas, deb hisoblash mumkin. Shu bilan qisqacha so'zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga to'la ishonch bildirishga ijozat bering!

(Abdulla Qahhor, „Nutq“ hikoyasidan)

304- mashq. Berilgan rasmiy ish hujjatini o'zbek tiliga tarjima qiling. Zaruruy qismlar va ularning joylashish o'rniga diqqat qiling.

Москва, 15 мая 1992 года

Министр иностранных дел
и торговли Австралии

Ваше Превосходительство!

Я имею честь подтвердить Вашему Превосходительству от имени Правительства Австралии понимание, достигнутое между двумя Правительствами о том, что дипломатические отношения устанавливаются между Австралией и Рес-

публикой Узбекистан с 26 декабря 1991 года, и обмен дипломатическими представительствами в ранге послов состоится в ближайшее время.

Будучи уверенным в том, что устанавливаемые настоящим отношения между двумя государствами внесут вклад в дальнейшее укрепление дружбы и сотрудничества между двумя нашими странами, я пользуюсь случаем, чтобы возобновить Вашему Превосходительству уверения в высочайшем уважении.

Подпись Его Превосходительства
Посла Австралии

305- mashq. Berilgan test topshiriqlarini yeching.

1. Muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat nomi?

- A) bildirgi
- B) ishochnoma
- C) ma'lumotnoma
- D) ariza
- E) tavsiyanoma

2. Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan rasmiy hujjat turi?

- A) tavsiyanoma
- B) ma'lumotnoma
- C) tarjimai hol
- D) tushuntirish xati

3. So'ralayotgan joyga axborot beruvchi hujjat nomini ko'rsating.

- A) ariza
- B) bildirgi
- C) ma'lumotnoma
- D) tavsiyanoma
- E) tavsifnoma

4. Fikrni yakunlashda ishlatiladigan so'z va birikmalar qaysi qatorda berilgan?

- A) demak, kelib chiqadiki, xulosa qilib aytganda
- B) avvalo, natijada, oqibatda, shundan keyin
- C) afsuski, attang, baxtga qarshi, esizgina
- D) menimcha, aytishlariga qaraganda, ehtimol
- E) dastlab, birinchidan, nihoyat, oxir-oqibatda

5. Qaysi qatordagi gap berilgan matndagi asosiy fikrni ifodalaydi?

Har kim o‘zi tug‘ilib o‘sgan yerini jonidan ortiq sevadi. Biz Vatanimizni qanchalik sevsak, arablar ham Arabistonning qumliklarini, issiq cho‘llarini boshqa yerlardan ziyod ko‘radilar. Suning uchun o‘z Vatanlarini tashlab, iqlimi mo‘tadil yerlarga ketmaydilar.

- A) O‘zga yurtda sulton bo‘lguncha, o‘z yurtida cho‘pon bo‘l.
- B) Vatan ostonadan boshlanadi.
- C) Ona yurtida omon bo‘lsa, rang-u ro‘ying somon bo‘lmas.
- D) Vatanimizning tinchligini asrash har birimizning muqaddas burchimizdir.
- E) Sendan ortiq boyligim yo‘q shavkatim-shonim, aziz O‘zbekistonim!

MUSTAQIL O'QISH UCHUN QO'SHIMCHA MATERIALLAR

AMIR TEMUR

(1336—405)

1336- yil 9- aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida yashovchi Chig'atoy ulusining beklaridan bo'lgan Amir Tarag'ay oilasida o'g'il tug'ildi.

Yosh Temur bolalikdan sog'lom, baquvvat, dovyurak bo'lib o'sgan. Otda yurishni yaxshi ko'rgan. Maxsus murabbiylar nazorati ostida yoshlikdan chavandozlik, ovchilik, kamondan o'q uzish, qilichbozlik singari harbiy mashq va o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Temur tabiatdan og'ir, bosiq, teran fikrli, idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. U o'z atrofiga sadoqatli odamlarni to'play olish, ularni boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lgan.

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan, ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. G'ayrioddiy harbiy san'ati va mardligi Temurga muntazam muvaffaqiyat keltirdi va u 1369—70- yillarda mo'g'illarni Movarounnahrda quvib chiqishga muvaffaq bo'ldi.

Temur mamlakatni siyosiy, iqtisodiy, harbiy jihatdan mustahkamlashga harakat qildi. Amir Temur mo'g'il imperiyasining asosini yemirib, rus knazliklari va Sharqiy Yevropa xalqlari mo'g'illar asoratidan xalos bo'lishga yo'l ochib berdi. Yirik rus olimi A.Y.Yakubovskiy: „Temurning To'xtamish ustidan qozongan bu g'alabasi nafaqat O'rta Osiyo va Sharqiy Yevropa, balki Rusiya uchun ham katta ahamiyatga molik bo'ldi“, — deb yozgan.

Amir Temur hayoti va faoliyatini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davrida (1366—1385) Movarounnahrni mo'g'illar istilosidan ozod qilgan, o'lkada yagona markazlashgan davlat tuzgan, o'zaro urushlarga barham bergan. Ikkinchi davrida (1386—1405) boshqa mamlakatlarga yurish qilib, tarixga „uch yillik“, „besh yillik“, „yetti yillik urushlar“ nomi bilan kirgan urushlarni amalga oshirgan.

Yevropada Temur davlatiga qiziqish, u bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalar o'rnatishga intilish kuchaydi. Samarqandga

xorijdan ko‘plab elchilar kela boshladilar. Shulardan biri Ispaniya qiroli Genrix III ning elchisi Rui Gonsales de Klavixodir. U Samarqandda 1404- yilda bo‘lib, Temur bilan bir necha marta uchrashgan, suhbatlashgan, u haqidagi hikoyalarni tinglagan. Samarqand bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlarning mo‘l-ko‘lligini, arzonligini, mamlakat poytaxti va Kesh (Shahrisabz) shaharlarida olib borilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining ko‘lami va sur‘atini ko‘rib hayajonga tushgan.

Amir Temur qaysi yurtni istilo qilsa, o‘sha yurtning eng yaxshi hunarmandlarini va olimlarini Samarqandga olib kelib, ularning bilim va tajribasidan yurtni obodonlashtirishda foydalangan. Mo‘g‘illar bosqini natijasida vayron bo‘lgan Samarqand shahri Temur hukumronligi davrida eski Afrosiyobdan janubroqda butunlay yangidan qad ko‘tarib, atrofi devor bilan o‘raldi. Shaharda Ko‘ksaroy, Jome masjidini, Bibixonim madrasasini, Shohi Zindadagi bir qator maqbaralarni, Samarqand atrofidagi Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Nav, Bog‘i Behisht deb nomlangan bog‘lar va saroylarni bunyod etdi. Ko‘hak va Zarafshon daryolari orqali o‘tgan yo‘llar va ko‘priklar, Amudaryo va Sirdaryo ustida ko‘priklar, Toshkent atrofida kanallar, shaharlararo karvon yo‘llarida rabotlar, karvonsaroylar qurdirdi. Bundan tashqari, Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda Ahmad Yassaviy qabri ustida maqbara qurdirgan.

Amir Temur o‘z davrining hukumdori bo‘lgan murakkab tarixiy siymodir. U beklar, uluslar o‘rtasida o‘zaro urushlar avjiga chiqqan, xalq tinchlikni, ijtimoiy adolatni orzu qilgan zamonda o‘sib voyaga yetgan.

Amir Temur ikki til egasi bo‘lgan — turkiy va fors tillarida yaxshi so‘zlashgan. Dunyoda buyuk lashkarboshi va davlat arbobi sifatida tanilgan, bu inson kitob o‘qitib tinglashni, olimlar bilan suhbatlashishni, shaxmat o‘ynashni yaxshi ko‘rgan. U o‘z qo‘shinlari bilan olib borgan janglar tajribasi hozir jahonning barcha harbiy akademiyalarida o‘rganiladi.

BUYUK SOHIBQIRON O'GITLARI

Biz kim — mulki Turon, Amiri Turkistonimiz.
Biz kim — millatlarning eng qadimi va eng ulug'i,
Turkning bosh bo'g'inimiz.

Saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvarat-u maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki, kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvarat-u maslahat va tadbirkorlik bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo'lmagaysan. Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabr-u toqat bilan bo'lgay, yana bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko'rib ko'rmalikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng (shuni ta'kidlash lozimki) qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'lig'-u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur.

Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur.

Ishbilarmon, mardlik va shijoat sahibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'y.

Qilmoqchi bo'lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so'z berar ekanlar, yaqiniga ham yo'lamasinlar. Xotiradan chiqmasinkim, Tangri taola jasur kishilarni ardoqlaydi.

Kengash ikki turli bo'lur: biri — til uchidan aytilgani, ikkinchisi yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini (shunchaki) eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog'iga quyardim va dilimga joylardim.

... Qaysi kishi aqlga sig'gan bir ishni kuyinib gapirsa, suyib eshitar edim. Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, unga ham quloq solardim. Har kimdan so'z olib kengash so'rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim.

Biron ishni qilmoqchi bo'lsam, kengashib olib, keyin Qur'on hukmi bilan ish qilur edim.

Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdir mang'a,

Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun ang'a.

Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim.

Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ash-yoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim.

Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubha-yu qo'rquv bo'lsa, unut bo'lardi.

Ulam bilan suhbatda bo'l va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpin. Bularning hikmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslarini bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qil.

Azm-u jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo'lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim.

Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb.

Hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Ham qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va xush axloqlari, ma'qul sifatlaridan namuna olib, unga amal qildim. Davlatlarning tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlat-u saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim. Naslni buzuvchi, ocharchilik va vabo kasali keltiruvchi zulm va buzuqchilikdan saqlanishni o'zimga lozim bildim.

Raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim.

Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko'rdim.

Yaxshilarga — yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko'rsatdim.

Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'ayni, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlat-u ne'mat martabasiga erishganimda unutmadi, haqlarini ado etdim.

Qaysi bir sipohim tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o'z sohibidan yuz o'girib, mening oldimga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zimga eng yomon dushman deb bildim.

Men o'z saltanatimni dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni tuzuk asosida bajardim.

Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim.

Do'st-dushmandan kimki menga iltimos qilib kelgudek bo'lsa, do'stlarga shunday muomala qildimki, do'stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi.

Menda biron kimsaning haqi bo'lsa, haqini hech vaqt unutmadi. Biron kimsa bilan tanishgan bo'lsam, uni hech vaqt nazarimdan qoldirmadim.

Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim.

Har kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqeyini va har narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak.

ALISHER NAVOIY

(1441—1501)

Alisher Navoiy 1441- yil 9- fevralda Xurosonning markazi bo'lgan Hirotda temuriylar xonadonining yaqinlaridan biri bo'lgan G'iyosiddin oilasida olamga keldi. Alisher Navoiyning favqulodda iste'dodli, uch-to'rt yoshlarida namayon bo'lgan. U Xurosonning

bo'lg'usi podishohi Husayn Bayqoro bilan birga o'qiydi. Alisher maktabda yaxshi o'qishdan tashqari, she'riyatga qiziqib qoladi. 10—12 yoshlaridayoq ilk she'rlari bilan ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etadi.

Alisher Navoiy ikki tilda: turkiy (qadimiy o'zbek) va fors tillarida g'azallar yozadigan shoir edi. Lekin turkiy tilda buyuk adabiyot yaratish hayotdagi asosiy maqsadi bo'lgan. Shoirning faqat she'riy asarlarining o'zi 120 ming baytdan ortadi. Ijodining chuqur mazmuni va badiiy qudrati bilan esa, uni jahondagi buyuk shoirlar qatoriga qo'shish mumkin.

51230 misradan tashkil topgan „Xamsa“ Alisher Navoiyning shoh asaridir. U „Hayrat ul-abror“ (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Sab'ayi sayyor“ (Yetti sayyora), „Saddi Iskandariy“ (Iskandar devori) dostonlaridan iborat.

Navoiy muttasil ijod qilish bilan birga, yoshlikda birga o'qigan do'sti Husayn Bayqoro saroyida davlat ishlarini ham olib bordi. Muhrdor, so'ngra bosh vazir bo'lganida mamlakatni obodonlashtirish, xalq hayotini farovon etish, oddiy mehnatkashlardan olinadigan soliqlarni kamaytirishga alohida ahamiyat berdi, ariqlar qazdirdi, masjid va madrasalar, shifoxonalar, kutubxonalar qurirdi. Xalqning turmushini yaxshilash, beklar va amaldorlarning o'zboshimchaligiga chek qo'yish uchun harakat qildi. Navoiy xalq orasida katta obro' qozondi.

Navoiy davlat ishlari bilan juda band bo'lgan vaqtlarida ham hech qachon qalamini qo'lidan qo'ymagan. U o'zini eng avvalo shoir deb bilar, biron kun she'r yozmasdan tura olmas, kuniga yuz, ikki yuz she'r ijod etardi. Navoiy o'zining o'lmas asarlarida o'zbek tilining go'zalligini, boyligini va qudratini olamga namoyish etdi. Navoiy adabiy merosining katta bir qismini umri davomida yaratgan g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, muxammas, musaddas, muammo, chiston (she'riy topishmoq) kabi she'r turlari tashkil etdi. Shu xildagi asarlari jamlangan „Xazoyin ul-maoniy“ („Ma'nolar xazinasini“) devoni 45 ming misradan iborat.

Fors tilidagi she'rlarni shoir vaqtincha, o'tkinchi ma'nolarni anglatuvchi „Foniy“ taxallusi bilan ijod etgan. Shuning uchun ham uning fors tilidagi she'rlar to'plami „Devoni Foniy“ deb ataladi. Navoiy nasriy va ilmiy asarlar ham yaratgan. Uning „Lison ut-tayr“ („Qush tili“) dostonida bolalar uchun ko'pgina qiziqarli hikoyalar ham bor.

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, o'zbek adabiyotini jahon yuksakligiga ko'targan va avlodlarga boy adabiy meros qoldirgan shoir 1501- yil 3- yanvarda Hirotida vafot etdi.

ALISHER NAVOIY HIKMATLARI

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitdi ranj ila,
Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.

Agar qilmadi el himoyat sanga,
O'zingdin kerakdir shikoyat sanga.

Kimniki aylay der esang mahraming,
Ko'p sinamay aylamagil hamdaming.

Omi tabibkim, erur shogirdi jallod,
Ul tig' bila va bu zahr bila halok qilg'uchi bedod.

Sabr bila bog'liq ish ochilur,
Ishda oshiqqan ko'p toyilur.

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adli buzuq mulkni obod etar.

Qil yaxshilig-u demakni doxil qilma,
Minnat bila yaxshilikni botil qilma.

Ham so'zila elga o'limdan najot,
Ham so'z ila topib o'lik tan hayot.

Kecha kelgumdur, debon...

Kecha kelgumdur, debon, ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtim-u, chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'a-vu, ul sho'xi badxo'¹ kelmadi.

¹Badxo' — badfe'l, xunuk qiliq kishi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zgorimdek¹ ham o'lg'anda qarong'u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukum, anga ko'rganda kulgu kelmadi.

Ko'zlarindin necha su kelgay, deb o'lturmang meni
Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha su kelmadi.

Tolibi sodiq² topilmas, yo'qsakim qo'ydi qadam
Yo'lgakim, avvalqadam ma'shuqi o'tru³ kelmadi.

Ey Navoiy, boda⁴ birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

„*Badoye' ul-vasat*“, 608-gazal.

(Ko'rgali husnungni zor-u...)

Ko'rgali husnungni zor-u muftalo bo'ldum sanga,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.
Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo'ldum sanga.
Men qachon dedim: vafu qilg'il manga — zulm aylading,
Sen qachon deding: fido bo'lgil manga — bo'ldum sanga.
Qay pari paykarga dersen: telba bo'ldung — bu sifat,
Ey pari paykar, ne qilsang qil manga, bo'ldum sanga.
Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim avvora bo'l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.
Jomi Jam⁵ birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh⁶ aylab gado buldum sanga.
G'ussa changidindin navoye topmadim ushshoq⁷ aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

„*G'aroyib us-sig'ar*“, 16- gazal.

¹*Ro'zgor* — turmush, kun kechirish, hayot. ²*Tolibi sodiq* — sadoqatli talabgor, yor izlab, ishq yo'lga kirganlar ko'zda tutilgan. ³*O'tru* — qarshi, ro'para; *o'tru kelmadi* — qarshi olishga kelmadi, peshvoz chiqmadi. ⁴*Boda* — ichkilikning bir turi, may. ⁵*Jomi Jam* — eramizdan avval o'tgan afsonaviy Eron podshohi — Jamshid yasattirgan jom. U ikkita tilsimli jom yasattirgan. Jomi ishratfizoydagi may ichgan bilan tugamas, to'nkargan bilan to'kilmas ekan. Jomi getinamoydan may ichgan kishiga esa dunyoda yuz berayotgan hodisalar ko'rinar ekan. Shuning uchun bu jomni jomi jahonbin (jahonni ko'radigan jom), jomi jahonnamo (jahonni ko'rsatadigan jom) ham deganlar. ⁶*Joh* — mansab, amal, martaba. ⁷*Ushshoq* — oshiqlar.

RUBOIYLAR

G'urbatda¹ g'arib² shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u³ mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

„G'aroyib us-sig'ar“, 55- ruboiy.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri⁴ aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

„G'aroyib us-sig'ar“, 47- ruboiy.

Farhod o'n yoshigacha dunyodagi jamiki ilmlarni o'rganib
chiqdi:

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini⁵ kasb etmagan ilm.

Bo'lub o'n yoshda umrining mururi⁶
Yigirma yoshcha qadd-u jism-u zo'ri.

Ulum⁷ avroqi⁸ chun bir-bir yopildi,
Dilovarliq, silohi⁹ mayli qildi.

...Hamul ilmi balandovoza birla,
Bu yanglig zo'ri beandoza¹⁰ birla.

O'zin abjad¹¹ o'qur eldin tutub kam,
Dema donishki¹², zo'ri dast¹³ ila xam,

¹G'urbat — g'ariblik, musofirlik. ²G'arib — bechora, musofir. ³Shafiq — shafqatli, marhamatli. ⁴Umr — hayot, bu yerda biror kishi umri ma'nosida emas. ⁵Tahqiq — biror narsaning haqiqatini izlash, tekshirib ko'rish, haqiqat qilish. ⁶Murur — o'tish, yurish. ⁷Ulum — ilmlar. ⁸Avroq — varaqlar. ⁹Siloh — qurol-yaroq. ¹⁰Beandoza — cheksiz, chegarasiz. ¹¹Abjad — qadimgi arab alifbosida birdan o'ngacha bo'lgan birlik, o'ndan yuzgacha bo'lgan o'nlik va yuzdan minggacha bo'lgan yuzlik raqamlar tartibini bildiradigan (bunda har bir harf muayyan raqamni anglatib keladi) harflar majmuini bildiradigan sakkiz yasama so'zning birinchisi hamda ana shu hisob tizimining umumiy nomi. „Abjad o'qur el“ deganda esa endi maktabga borganlar ko'zda tutilgan, chunki boshlang'ich maktabning birinchi yilida harf tanish uchun dastlab abjad o'rgatilgan. ¹²Donish — bilish, bilim. ¹³Dast — qo'l.

Bo‘lub shahlar eshigining gadoyi,
Va lekin ul gadolar xokipoyi.

Anga tent podsholig‘ yo gadolig‘,
Gadoliqqa teng etmay podsholig‘.

Demankim, ko‘ngli pok-u, xam ko‘zi pok,
Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok.

Farhod yigit yoshiga yetdi. Lekin ayni o‘ynab-kuladigan, kunlarini sho‘x-shang o‘tkazadigan paytida u, aksincha, g‘amgin, tushkun bo‘lib qoldi. Uning uchun xursandchilik ayyomi ham g‘am, alam va dard bilan ko‘milgan edi. Dilochar bazmlarda odamlarni shod etadigan kuy-qo‘shiqlar ham buni badtar ezar edi. Biroq oshiqlik va yo ishq haqida qo‘shiq yangrasa, ikki ko‘zidan yoshlar daryo bo‘lib oqar edi.

Bundan xoqon qattiq tashvishga tushdi. O‘g‘lining ko‘nglini shod qilish uchun turli-tuman tomoshalar, bazmlar uyushtirdi, foyda bo‘lmadi. Oxiri Farhod uchun yilning to‘rt fasliga moslab to‘rt oliy qasr bunyod etish fikriga keldi. Zora, ana shu qaslarda uyushtirilajak bazmi jamshidlarda o‘g‘li ko‘nglidagi g‘amginlik ketsa!

Xoqon bu fikrini, xilvatga chorlab, Mulkoroga aytdi. Mulkoro Farhodga atobek, ya‘ni tarbiyachi — ustod edi, Farhod ham uni otadek bilar edi. Mulkoro ana shu to‘rt qasrni qurib bitkazish ishiga ma‘mur qilib tayinlandi.

Mamlakatning man-man degan muhandislari yig‘ilib, Chin yurtining to‘rt eng bahavo joyini ana shu qaslarni bino etish uchun tanladilar. Xitoy mamlakatida biri biridan mashhur Boniy va Moniy degan ikki ustod bor edi. Boniy me‘morligi, Moniy naqqoshligi bilan el orasida bag‘oyat shuhrat topgandi. Boniy imoratni shunday qurar ediki, u bunyod etgan qasr falak qasridek yiqilish nimeligini bilmasdi. Moniy shunday naqsh solar ediki, go‘yo charx ham naqshni shundan o‘rgangandek. Qoran degan yana bir toshyo‘nar usta ham bor ediki, uning metini qattiq toshlarni ham osongina kesib tashlayverar edi. To‘rt qasr imoratini bunyod etishda bularga o‘xshagan yana qancha o‘z sohasida ustodi fanlar ish ko‘rsatdi. Har bir ish boshida yuz ishbilarmon mehnat qildi, ularning har biri qoshida yana ming ishchi ham ter to‘kdi. To‘rt jannat misoli qasr bunyod etilganining ovozi olamni tutdi.

Shundan keyin qasrlar qurilishini ko‘rish istagi bilan Farhod ham otiga minib, qurilishlar boshiga keldi. Ustalarning ishini tomosha qilib, hayratga tushdi, chunki ustalarning teshalari qattiq

toshlarni ham go‘yo pichoq sariyog‘ni kesayotgandek kesar edi, ayrimlarning qo‘lida tosh xuddi bir mumdek narsa edi. Naqqoshlar-u musavvirlar san‘ati shahzodani tamom lol etdi. Shahzodaga ko‘zlari tushgan ustalar darhol xarsang toshdan bir taxt yasab, uni o‘tirishga taklif etdilar. Taxtga o‘tirib, shahzoda toshyo‘nar Qoran bilan savol-javob boshladi:

Saodat birla tutqach anda taskin¹,
Dedi: — „Ey kordoni² san‘atoyin!

Degil bu san‘atingdin bizga fasle
Ki, andin zohir o‘lsun far‘u³ asle.

Oting ayt-u, oni hamkim bu pesha
Ki, yo‘ng‘ay mumdek xoroni⁴ tешa.

Nedindur ko‘rmaduk bu nav‘e hargiz
Ki, bo‘lmish fahm idrokida ojiz?

Yig‘ochekim qatiroq bo‘lsa zarra
Pichoq yetgach, bo‘lur andoqqi arra.

Ne su(v) birla beribsen teshanga zeb
Ki, topmas xora yo‘nmoq birla oseb⁵?

Hamul xorangki⁶, aylar xora tanqir,
Aning kayfiyatini ham ayla taqrir⁷

Yer o‘pdi kordoni naqshpardoz,
So‘zin qildi duo birla sarog‘oz⁸

Ki: — „To bo‘lg‘ay havodis⁹ Ko‘hi Qofi¹⁰,
Chiqilg‘ay ildirim¹¹ xoro shigofi¹².

Havodis toshidin osuda boshing,
Ushotsun dard-u g‘am boshini toshing.

Qatiq xasming¹³ nasibi xora bo‘lsun,
Mashaqqat tog‘ida ovora bo‘lsun.

¹Taskin — o‘tirish (harakatsizlanish) ma‘nosida. ²Kordon — ishbilarmon, ish ustasi, ish bilimdoni. ³Far‘ — daraxtning shoxi. ⁴Xoro — qattaq tosh (granit). ⁵Oseb — ziyon, zarar. ⁶Xora — xoro. ⁷Taqrir — anglatish, aytish. ⁸Sarog‘oz — boshlanma, boshlash. ⁹Havodis — hodisalar. ¹⁰Ko‘hi Qof — Qof tog‘i, butun yer yuzini o‘rab olgan deb xayol qilinadigan afsonaviy tog‘. ¹¹Ildirim — yashin, chaqmoq. ¹²Shigof — yoriq, darz ketish, sinish. ¹³Xasm — dushman, raqib, muxolif.

Chu soʻrdung avval otim shuhratini —
V-u¹ soʻngra sanʼatim kayfiyatini.

Otim Qoran, ishim xud oshkoro,
Qoʻlumda teshav-u ollimda xoro.

Bukim soʻrdungki, metin birla tesha,
Nechuk sinmay yoʻnar xoro hamesha?

Aning su(v) bermagida holate bor
Ki, andin aylamasbiz elga ixbor².

Su bersa oʻyla afzorigʻa³ ustod,
Yuz il⁴ xoro demaykim, yoʻnsa poʻlod —

Sinardin teshavar osuda boʻlgʻay,
Tugangay baski ishdin suda boʻlgʻay⁵.

Xito ahli bu sanʼat aylabon soz,
Boʻlub olam elidin ishta mumtoz.

Bu el ham ulcha men bilganni bilmay,
Dalilim buki, men qilgʻanni qilmay⁶.

Chu dono surdi mundoq nuktayi⁵ pok,
Boʻlub shahzoda bilmakka havasnok.

Dedi: — „Ollimda boʻl shugʻlunggʻa⁶ mashgʻul
Ki, bu sanʼat erur koʻnglumda maqbul.

Gahi yoʻngʻil, gahi naqsh ayla xora,
Men aylay oʻlturub bir-bir nazora.

¹V-u — „va“ hamda „u“ soʻzlari sheʼriy matnda, vazn taqozosiga koʻra, baʼzan shunday qoʻshib ishlatilgan. ²Ixbor — xabar berish, bildirish. ³Afzor — ish quroli, asbob-uskuka. ⁴Il—yil. ⁵Suda boʻlmoq — yeyilib ketmoq, ezilmoq, maydalanmoq. ⁵Nukta — nozik maʼnoli, chiroyli soʻz. ⁶Shugʻl — kirishish, shugʻullanish, ish.

Xoqon to'rt qasrni Farhod uchun maxsus qurdirayotgan edi. Lekin Farhodni bu jannatmakon koshonalarning o'zi uchun barpo etilayotgani emas mohir ustalarning ishi qiziqtiradi. Hech ikkilanmay, shahzoda bo'la turib, ana shu kordonlar mahoratini o'zlashtirishga kirishib ketadi. Qoran uning uchun yasalgan tesha bilan metinga suv beradi. Farhod ustozidan tosh yo'nishni tezda o'rganib olib, shunday ish ko'rsatadiki, hatto Qoran kabi yuz ustoz ham unga shogird tushsa arziydi. Ba'zan eldan yashirincha bir damda shunchalar ko'p tosh yo'nar ediki, buni boshqalar bir oyda zo'rg'a eplar edi. To'rt qasr qurib bitkazilguncha o'tgan to'rt yil mobaynida Farhod bu ishlarga mashg'ul bo'ldi. Moneidan naqqoshlik hunarini juda oz fursatda o'rganib olib, ustoz bilan yonma-yon naqsh ham soldi. Xullas, Farhod: „Ham o'ldi xorabur, ham bo'ldi naqqosh“.

Bahor, yoz, kuz va qish fasliga moslab qurilgan bu qasrlar bitgach, xoqon o'z mulozimlari bilan ularni ko'rishga keldi. Uning o'ng yonida Farhod ham xursand borardi. Xoqon ustalarga istaganlaridan ham ortiq in'omlar berdirdi. Mulkoroga xoqon endi bir yillik bazm tadorigini ko'rishni buyurdi. Har bir qasrda uch oydan bazm qurib, har kuni yuz ot-u ming qo'y so'yib, xursandchiliklar qilish mo'ljallandi. Bazmlar hamal oyining birinchi kundan — Navro'zdan boshlandi. Avval bahoriy qasrning hamma yog'i g'uncha-yu gul rangidagi xonalarida gulrang qadahlar ichildi, so'ng yashil rang bo'yoqlar bilan bezatilgan yozgi qasrda yashil to'n kiygan siymbarlar qo'lidan yashil chinni piyolalar no'sh etildi. Undan keyin esa kuz tasviriga mos bezatilgan kahrabogun qasrda bazm qurildi. Bu qasrda esa:

Uy oltun, farshi oltun, tomi oltun,
May oltun, zarfi oltun, jomi oltun.

JALOLIDDIN MANGUBERDI

„Chingizxon shunday bir mash'um kuch ediki, dunyodagi manaman degan qancha zotlar uning qarshisida tiz cho'kib, qulluq qilib yashashga tayyor edi. Muhammad Xorazmshoh atrofidagi ko'plab beklar ham yov qo'lga taslim bo'lishni afzal ko'rganlarida, Jaloliddin bu fikrga qarshi chiqib, o'zining beqiyos jasorati va qat'iyatini namoyon etdi. Shu paytgacha mag'lubiyatga uchramagan mo'g'il lashkariga qarshi o'n bir yil muttasil jang qildi. Va g'animplarga shunday qaqshatqich zarba berdiki, hatto Chingizxonday makkor va beshafqat, dunyoning yarmini zab etgan fotih ham unga tan berishga majbur bo'ldi“.

O‘T VA SUV ORASIDA

Jaloliddin Nishopurga kelganidan so‘ng bir oy davomida yaqin atrofdagi hokim-u amirlarga chopar yuborib, qo‘shin to‘plash harakatida bo‘ldi. Bundan xabar topgan mo‘g‘illar uni ta‘qib eta boshladilar. 1221- yil fevralida Jaloliddin noiloj g‘aznaga yo‘l oldi. Sulton Aloviddinning xolavachchasi, Hirot voliysi Amin Malik o‘zining qang‘lilaridan iborat o‘n minglik qo‘shini bilan Qandahor yaqinida Jaloliddinga qo‘shildi. Nasaviyning ma‘lumotiga ko‘ra ular yo‘l-yo‘lakay Qandahor qamali bilan mashg‘ul bo‘lgan mo‘g‘il qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratishdi.

Jaloliddin G‘aznaga yetib kelgach, bu yerda xalajlar sardori Sayfiddin Ug‘roq, Balx hokimi A‘zam Malik, afg‘onlar rahnamosi Muzaffar Malik, qarluqlar boshlig‘i Hasan har biri 30 minglik qo‘shin bilan Jaloliddin bayrog‘i ostida birlashdilar. Ularga G‘ur amirlari ham qo‘shildi. Shu yerda Jaloliddin Amin Malik qiziga uylanib, qarindoshlik va ittifoqchilik rishtalarini mustahkamladi.

Nihoyat, o‘z orzusiga erishgan Jaloliddin, hech ikkilanmay, dushman yo‘lini kesib, o‘z harbiy dahosini namoyish etish imkoniga ega bo‘ldi. U qo‘shinini G‘aznadan olib chiqib, Parvon tomonga qarab yurdi. Yo‘lda mo‘g‘illar Voliyon qal‘asini qamal qilayotganlaridan ogoh bo‘lib, ularga hujum uyushtirdi. Mo‘g‘illar yengilib, Panj daryosining narigi sohiliga chekindilar va ko‘prikni buzib tashlashdi. Shu bois Jaloliddin orqaga qaytishga majbur bo‘ldi.

Chingizxon Jaloliddinga qarshi o‘zining nomdor sarkardalaridan Shiki Xutuxu boshchiligida 45 minglik qo‘shin yuborgan edi. Ikkala qo‘shin Parvonga yuzma-yuz bo‘ldi. Ikki kun davom etgan jangda mo‘g‘illar yakson etildi.

Parvon jangining Juvayniy keltirgan tavsifidagi mo‘g‘illar va Jaloliddinning harbiy usullari haqidagi ma‘lumotlar diqqatga sazovor. Manbada keltirilishicha, jangning birinchi kuni nihoyasida tunda Shiki Xutuxu o‘z askarlariga kigizdan odam haykalini yasashni buyuradi. Erta tongda jang boshlangan mahalda Jaloliddinning jangchilari mo‘g‘il qo‘shinining saflari ortganini ko‘rib, dushman madad olibdi, degan xayolga boradilar. Ammo Jaloliddin ularga dalda berib turadi. Sulton suvoriylari otlaridan tushib dushmanni o‘q-yoydan nishonga oladi. Mo‘g‘illar chekina boshlagan paytda „butun qo‘shin sulton farmoniga binoan nog‘oralarini chalib, otga mindi va birdaniga hujumga o‘tdi, mo‘g‘il qo‘shini qocha boshladi. Shu asnoda ular qo‘qqisdan orqaga qaytib, sulton qo‘shiniga tashlandilar va qariyb 500 kishini yer tishlatdilar. Sulton changalzor

sherlari va quturgan dengizning nahanglari yanglig' shu ondayoq yetib keldi, mo'g'illar mag'lub bo'ldilar“.

Mo'g'illarning birinchi hiylasi xususida o'sha davrda Mo'g'illistonga sayohat qilib, aholining hayot tarzi va urf-odatlari, harbiy san'ati bilan yaqindan tanishgan italiyalik sayyoh Plano Karpini, jumladan, shunday hikoya qiladi: „Ba'zan ular odam tasvirini yasab, ularni otlarga o'rnatishadi. Buni ular urushayotganlarning sonini ko'paytirib ko'rsatish uchun qilishadi“. Mo'g'illar bu jangda ishlatgan ikkinchi hiyla — yolg'ondakam qochish va banogoh ortga qaytib, dushman ustiga yopirilish usuli ko'chmanchilar orasida keng tarqalgan va ne-ne azim janglarning taqdirini hal etgan.

Jaloliddin bularga qarshi butun qo'shinni otlardan tushirib, dushmanni o'qqa tutish va so'ngra yalpi hujumga o'tishdan iborat taktikani qo'lladiki, jangning natijasi uning to'g'ri yo'l tutganligidan dalolat berdi. Jaloliddinning bu g'alabasidan so'ng bir qancha shaharlar aholisi mo'g'illarga qarshi isyon ko'tarib, mo'g'illarning noiblarini o'ldirishdi.

Jaloliddinning nechog'liq xatarli kuch ekaniga ko'zi yetgan Chingizxon butun qo'shinini to'plab G'azna tomon yurdi. Biroq bu gal ham Jaloliddinga Chingizxon bilan teng olishuvda xatoni to'g'rilashga urinish nasib etmadi. Ehtimolki, o'nlab xalqlarning kelajagini belgilab bergan bu yo'qotishning sababi g'oyat arzimasi bo'lsa-da, ammo ibratli edi.

Jaloliddin Chingizxon boshchiligida mo'g'il lashkari yaqinlashayotganidan xabar topgach, Sind (Hind) daryosidan kechib o'tish, kuch to'plab, kurashni davom ettirish maqsadida G'aznani tashlab chiqib ketdi. Lekin Sind bo'yida kemalar hozirlanayotgan bir paytda Chingizxon qo'shini orqadan yetib keldi. 1221- yil 24-noyabr kuni tarixdagi eng halokatli janglardan biri boshlandi.

Nasaviy ma'lumotiga qaraganda, bu jangda Jaloliddin hatto dushman qo'shinining markaziga yorib kirishga muvaffaq bo'lgan. Xorazm qo'shini mo'g'illarni qurshovga olayotgan bir paytda „bahodir“ deb ataluvchi saralangan jangchilardan iborat pistirmadagi tuman (10 ming kishilik bo'linma) jang taqdirini hal etadi. Jang vaqtida Jaloliddinning 7- 8 yoshlardagi o'g'li asirga tushadi. Uni Chingizxonning ko'z o'ngida qatl qiladilar. Jaloliddin g'anim qo'liga asir tushmasin uchun onasi, xotinlari va boshqa haram ahlini daryoga cho'ktirib yuborgan.

Jaloliddin Sind daryosidan kechib o'tganidan so'ng qolgan-qutgan jangchilarini to'plab, Shimoliy Hindiston hududidagi bir qancha davlatlarning hukmdorlari bilan munosabat o'rnatishga

harakat qildi. Ular bilan bo‘lgan qator janglarda qo‘li baland kelgan bo‘lishiga qaramay, bu yerda ittifoqchilar topish mushkul ekanligini anglab, u yerdan Eronga, 1224- yili esa Ozarbayjonga kelib, uni egalladi. Shu vaqtdan e‘tiboran Jaloliddinning Ozarbayjonga va unga qo‘shni mamlakatlar (Eron, Iroq, Gurjiston, Rum va hokazo) hududlaridagi faoliyati boshlandi.

Tarixiy manbalarda aytilishicha, Jaloliddinning vaziri Sharafmulkning aybi bilan dastlab xalifa al-Mustansir va Alouddin Kayqubod nomidan kelgan elchilar besamar qaytdilar. Sharafmulk, hatto, Kayqubodning elchilarini tahqirlashgacha borib yetdi. Natijada, Kayqubod Jaloliddinga qarshi 6 nafar hukmdordan iborat kuchli ittifoq tuzdi. 1230- yili Yassichamanda ittifoqchilar bilan bo‘lib o‘tgan jangda Jaloliddin qattiq mag‘lubiyatga uchraydi. Bu paytga kelib, mo‘g‘illarning g‘arbga yangi yurishi boshlangan edi. Jaloliddin Malik Ashrafning asir olingan ukasini o‘z elchisi sifatida Malik Ashrafning huzuriga yuborib, undan yordam so‘raydi. Sharafmuluk u bilan birga maxfiy odam yuborib, bu tadbirni ham barbod qiladi. Vazirning buzg‘unchiligi uzoqqa cho‘zilmadi: uning Jaloliddindan hokimiyatni tortib olishda madad so‘rab atrof hukmdorlarga yozgan maktublari qo‘lga tushgach, u hibsga olinib qatl etildi.

Jaloliddinning kuchsizlanganidan xabar topgan ismoiliylar bu haqda mo‘g‘illarga xabar berdilar. 1231- yil avgust oyida mo‘g‘illar uning qarorgohiga qo‘qqisdan hujum qilishdi. Jaloliddin amiri O‘rxonga dushmani chalg‘itishni buyurib, yolg‘iz o‘zi tog‘ tomon ot qo‘ydi. Orqadan yetib kelgan ikki mo‘g‘ilni o‘ldirib, yo‘lida davom etdi. Diyorbakr qishloqlaridan birida uni kurd qaroqchilari qo‘lga tushirdilar. Shulardan biri Jaloliddinning sulton ekanligiga ishonmay, uni nayza sanchib o‘ldirdi.

1236- yilda bir kishi o‘zini „Men sulton Jaloliddinman“ deb e‘lon qilib, mo‘g‘illarga qarshi bosh ko‘tardi. Mo‘g‘il amirlari Jaloliddinni taniydigan bir guruh kishilarni olib kelib, uning yolg‘on gapirayotganidan xabar topdilar va uni qatl qildilar. 1254- yilda, ya‘ni Jaloliddin vafotidan 23 yil keyin bir guruh savdogarlar Amudaryo bo‘yiga yetib kelishdi. Ulardan biri o‘zini sulton Jaloliddin deb tanishtirdi. Mo‘g‘illar uni ham o‘ldirishdi.

Jaloliddin Manguberding mo‘g‘illar bosqinini to‘xtatishga qodir katta kuch ekanligini uning do‘stlarigina emas, dushmanlari ham yaxshi angladilar. Darhaqiqat, oradan ko‘p o‘tmay, mo‘g‘illar qirib tashlandi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483—1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483- yil 14- fevralda Andijon shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi Umarshayx Amir Temurning nabirasi bo'lib, Farg'ona viloyatining hukmroni edi. Yosh Zahiriddin Bobur saroy muhitida, xususiy murabbiylar va mudarrislar qo'lida tarbiyalandi.

1495- yili Umarshayx vafot etadi va 12 yoshlik Zahiriddin Bobur taxtga o'tiradi. Bu davrda O'rta Osiyoning har tomonidan ichki urushlar avj olgan edi. Bobur butun kuchini Movarounnahrni markazlashgan davlat ostida birlashtirishga qaratdi. Biroq Shayboniyxonning temuriylardan hokimiyatni tortib olish uchun boshlagan ashaddiy hujumi bu maqsadni amalga oshiruvga yo'l qo'ymadi.

Zahiriddin Bobur 1514- yilda Shayboniylar tomonidan qat'iy zarbaga uchradi va ham Samarqand, ham Farg'onadan butunlay voz kechishga majbur bo'ldi: 1514- yilda bir siqim lashkarlari bilan Afg'onistonga qochdi. U 1519—1526- yillarda Hindistonni qo'lga kiritdi va u yerda tarixda „Buyuk mo'g'illar imperiyasi“ deb nom chiqargan davlatga asos soldi.

Zahiriddin Bobur katta davlat arbobi va sarkarda bo'lishi bilan birga, iqtidorli olim va shoir ham edi. Boburning „Boburnoma“ nomli memuar asari Sharq tarixi, geografiyasi bo'yicha g'oyat muhim ma'lumotlarga ega nodir ilmiy-adabiy yodgorlikdir. Bu asar dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1530- yil 26- dekabrda Hindistonning Agra shahrida vafot etgan. Keyinchalik esa, Zahiriddin Boburning o'z vasiyatiga ko'ra, uning jasadi Kobulga olib kelib dafn etilgan.

G'AZAL

Kim ko'ribdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig',
Kimki andin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'.

Bu zamanni naf' qilsam ayb qilma, ey rafiq,
Ko'rmadim hargiz netayin bu zamondin yaxshilig'.

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko'ngluma,
Kelmadi jonimg'a hech oromi jondin yaxshilig'.

Ey ko'ngil, chun yaxshidin ko'rding yomonliq asru ko'p,
Edim ko'z tutmak ne ya'ni har yomondin yaxshilig'.

Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.

Yaxshiliq ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko'rubdur, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshilig'.

RUBOIYLAR

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Hijron qafasida jon qushi ram¹ qiladur,
G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav' bitay firoq-u g'urbat sharhin,
Kim ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi,
Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a² ketsa kishi.

Har kimki vafu qilsa, vafu topqusidur,
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur,
Yaxshi kishi ko'rmagay yamonlig' hargiz
Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidur,

„Boburnoma“dan

Rub'i maskunda³ Samarqandcha latif shahr kamroqdur.
Beshinchi iqlimdindur... Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin

¹Ram — cho'chimoq, hurkmoq. ²Sori — sari, tomon. ³Rub'i maskun — quruqlikning to'rtidan biri, yer yuzi ma'nosida.

burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur.

... Sharqi Farg'ona va Koshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz.

Temurbekning va Ulug'bek mirzoning imoroti va bog'oti¹ Samarqand mahallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshyonliq², Ko'ksaroyg'a mavsum³ va mashhur va bisyor⁴ oliy imorattur...

Ulug'bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa va honaqohdur. Honaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazzdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar... Yana bir oliy imorati Pushtai Qo'hak domanasida⁵ rasaddur⁶. Uch oshiyonlikdur. Ulug'bek Mirzo bu rasad bila „Zichi Ko'ragoniy“ni⁷ bitibturkim, olamda holo bu zich musta'maldur⁸ ...

Yana Kesh viloyatidur, Samarqandning janubidadur, to'qquz yig'och yo'ldur. Samarqand bila Kesh orasida bir tog' tushubtur. Itmak doboni⁹ derlar. Sangtaroshlik¹⁰ qilur toshlarni tamom bu tog'din elturlar. Bahorlar sahrosi va va shahri va bomi¹¹ va tomi xo'b sabz bo'lur uchun, Shahrisabz ham derlar. Temurbekning zodu budi¹² Keshdin uchun shahr va poytaxt qilurg'a ko'p sa'y va ehtimomlar¹³ qildi. Oliy imoratlar Keshta bino qildi...

NODIRA

(1792—1842)

Nodirabegim XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon shahrida yashagan va ijod etgan atoqli shoiradir. Uning o'z nomi Komila bo'lib, asli andijonlikdir. Komila chiroy va aqlda yagona qiz bo'lgan. Go'zal qizning ta'rifini eshitgan Qo'qon xoni Umarxon unga uylanadi va shoiraning adabiy-badiiy kamoloti Qo'qondagi adabiy doiralar ta'sirida rivoj topadi.

¹ *Bog'ot* — bog'lar. ² *Oshyon* — qavat. ³ *Mavsum* — ismlangan, nomlangan. ⁴ *Bisyor* — juda. ⁵ *Domana* — etak. ⁶ *Rasad* — observatoriya. ⁷ *Ko'ragoniy* — so'zma-so'z ma'nosi kuyov degani. Ulug'bekka xotinlaridan biri mo'g'illardan bo'lgani uchun berilgan nom. Chingizxondan keyin urf bo'lgan. Amir Temur ham Bibixonimga uylangani uchun „ko'ragoniy“ edi. ⁸ *Musta'mal* — amal qilmoq. ⁹ *Dobon* — dovon. ¹⁰ *Sangtaroshlik* — tosh yo'nishlik. ¹¹ *Bom* — tog' ma'nosida. ¹² *Zodu budi* — asli. ¹³ *Ehtimom* — ahamiyat berish.

Umarxon vafot etgach, taxt uning 14 yoshlik o'g'li Muhammad Alixonga qoladi. Ma'dalixon hukmronlik qilgan yillarida (1822—1842) davlatni boshqarish ishlari, asosan, Nodiraning qo'lida bo'ladi. Iste'dodli shoira tadbirli davlat arbobi, ilm, adabiyot va san'at ahlining g'amxo'ri bo'lganligi uchun xalq o'rtasida va tarixiy asarlarda uni Mohlar oyim deb ham ulug'laganlar.

1842- yilda Buxoro amiri Nasrullo Qo'qon shahrini bosib olgach, Qo'qon xoni Muhammad Alixonni va uning bolalarini dorga osib o'ldiradi. Shu paytda Nodira dorga osilayotgan nabirasini himoya qilib, bu go'dakda nima gunoh, nega uni o'ldirasan, zolim, deb Nasrulloga xitob qiladi va uning zulmiga la'nat o'qiydi. Shunda Nasrulloning hukmi bilan jallodlar Nodirani ham o'g'li va nabiralari bilan bir qatorda dorga tortadilar.

Nodirabegimning latif va mazmundor lirik she'rlari xalq o'rtasida keng yoyilgan va ko'pchiligi musiqaga solingan.

G'AZALLAR

Ey sabo, rozi dilimni bexabar yoring'a ayt,
Dardlig' ko'nglumni ahvolini dildoring'a ayt,

Hajr dardidin yurakda qoldi dog' ustida dog',
Sharh etib bu mojaroni lolaruxsoring'a ayt,

Faqat ichra tushti savdoiy Zulayho boshima.
Qimmatini Yusuf baho topti xaridoring'a ayt.

Lutf etib so'rsa meni holimni ul nomehribon,
O'ldi hijroningda deb, yori vafodoring'a ayt.

Sendin ayru talx kom etti debon zahri firoq,
Yoshurun dardimni ul la'li shakarborimg'a ayt.

Yuz salom aytdim, na bo'lg'ay bir yo'li ul ham desa,
Bu salomimni o'shal oshuftayi zoring'a ayt.

Nodira sensiz tiriklikdin na rohat ko'rdi deb.
Ul humoyun toleyi farxunda avtorimg'a ayt.

Agar gulshanga kirsan sarvi gulro'yim xirom aylab,
Yugurgay sarvu gul yuz marhabo birla salom aylab.

Xiromon keldi ul yoru qomati ta'zimig'a behud,
Yiqildim soyadek yerga turarg'a iltizom aylab.

Sihi qadlar panohi, gul jabinlar podshohisan,
Hamanda sarvni ozod etar qadding g‘ulom aylab.

Xusho oqilki, aylab yaxshilig‘ bunyodini mahkam,
O‘tar bu dayri fonidin o‘zini poknom aylab.

Masih azmi safar aylab quyoshg‘a bo‘ldi hamsoya,
Bo‘lur himmat bila aflok ustida maqom aylab.

G‘azoli umrkim, vahshatdudur payvasta ram birla,
Bo‘lurmu yuz ming afsun birla bu vahshiyni rom aylab.

Ko‘ngul sayd etgani omoda qilmish isha sayyodi,
Pariro‘lar kamandi halqayi zulfini dom aylab.

Qalam tahrir etarda nayshakardin bo‘lsa ajab ermas,
Labing vasfini aylar Nodira shirin kalom aylab.

ABDULLA QODIRIY

(1894—1938)

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894- yil 10- aprelda Toshkent shahrida tug‘ildi.

Bo‘lg‘usi adibning ilk ijodi 1913—1914- yillarda boshlangan bo‘lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratadi. Uning „Ahvolimiz“, „Millatimga“, „To‘y“ (1914—1915) kabi she‘rlari „Oyna“ jarridasida bosilib chiqqan edi. O‘z millatini ma‘rifatga chaqiradi, ma‘rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. Uning „Baxtsiz kuyov“ (1915) nomli fojeasi, „Juvonboz“ (1915), „Uloqda“ (1916) kabi hikoyalari ham o‘z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko‘rish istagi sezilib turardi.

1924- yil Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib, „Mushtum“ jurnalida shtatsiz muxbir bo‘lib ishlay boshladi. Uning „Toshpo‘lat tajang nima deydi?“ va „Kalvak mahzumning xotira daftaridan“ turkumidagi satirik hikoyalari shu jurnalda ilk bor bosila boshladi.

Abdulla Qodiriy 1917—1918- yillardan boshlab „O‘tkan kunlar“ romani uchun material yig‘ishga kirishdi. 1922- yilda birinchi o‘zbek romanining dastlabki boblari „Inqilob“ jurnalida chop etila boshladi. 1925—1926- yillarda „O‘tkan kunlar“ uch bo‘limli kitob holida nashr etildi.

1928- yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani „Mehrobdan chayon“ nashrdan chiqdi.

1934- yilga kelib Abdulla Qodiriy qishloq xo‘jaligi mavzusiga bag‘ishlangan „Obid ketmon“ qissasini yaratdi.

1937- yilning 31- dekabrda u qamoqqa olindi. Abdulla Qodiriy 1938- yil 4- oktabrda Toshkentda otildi. Uning asarlari 1956- yildan boshlab yangidan nashr etila boshladi. 1990- yilda Respublika Prezidenti Farmoni bilan Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta‘sis etildi.

Hozirgi kunda esa bir qator ko‘chalar, bog‘lar, maktablar, kutubxona, mahalla va oliygohlar uning tabarruk nomi bilan yuritiladi. Uning nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat oliygohida eng bilimdon talabalarga Abdulla Qodiriy nomidagi stipendiya beriladi.

O‘TKAN KUNLAR

(Romandan parcha)

Bir oylab kechikkandan so‘ng Otabek qaytib keldi. Bu kelishining vijdon azobi va tilamagan bir taklifni eshitish uchungina emas, balki qabul qilish uchun bo‘lganligini payqadi. U bu gapni onasining ilgari achimsiq so‘zlarini va arazlarini tugatganidan va o‘rniga chuchuk so‘zlar, silliq muomalalar bitib „eson-sog‘ keldingmi, bolam“ laridanoq sezgan edi. Bunday bo‘limgur taklifni eshitmas uchun o‘zini chetga olib, otasi, ayniqsa onasiga yo‘liqishdan qochib yurishga majbur bo‘ldi. Ikki oradagi bu qochish-quvish ishi uzoqqa cho‘zilmay, bir kech mehmonxonada ota-o‘g‘il so‘zlashib o‘tirganning ustiga O‘zbekoyim kelib kirdi va o‘tirmasdanoq hojiga imlab qo‘ydi. Bu imlo‘qni Otabek payqamagan bo‘lsa ham, lekin anavi gapni aniq shu majlisda ochilishiga ko‘zi yetib, chiqib ketishning ilojini qitilmadi. O‘zbekoyim kelib kirganidan so‘ng, Yusufbek hoji bir necha vaqt o‘ylab qoldi. O‘zbekoyim depsinib-depsinib eriga qarab olar edi. Anchagina so‘zsiz o‘tirganidan so‘ng hoji muloyimona so‘z ochdi.

— O‘g‘lim, hali sen eshitingmi, yo‘qmi, haytovur biz sening ustingdan bir ish qilib qo‘ydik...

Otabek ma‘lumki, ularning „qilib qo‘ygan yoki qilmoqchi bo‘lgan ishlarini“ albatta bilar edi. Shunday ham bo‘lsa bilmaganga soldi:

— Aqlli kishilarning o'g'illari ustidan qilgan ishlari albatta, noma'qul bo'lmas, — dedi.

Hoji, o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishini bilmay qoldi. Istehzo aralash xotinigga qarab oldi. Yana oraga jimjitlik kirdi. Bu so'zsizlik ma'nosini O'zbekoyim tushuna olmagan edi. Biroz qarab o'tirgach, yuragi qaynab ketgandek bo'ldi:

— Biz sening uchun Olim ponsadboshining qiziga unashib qo'ydik... endi sening bilan to'y maslahatini qilmoqchi edik...

Otabek onasiga bir og'iz so'z demay, ma'noli qilib otasiga qarab qoldi. Hoji uyatliksimon „shundog“ deb qo'ydi.

— Sizlarni ranjitib bo'lsa ham bir martaba uylangan edim-ku.

— Endi...

— Sen uylansang biz ranjirmidik? — dedi kulib hoji...

— Ranjimasalaringiz...

Hoji tuzuklanib o'tirib oldi:

— Biz ranjishdan emas, hojatdan o'g'lim.

— Nima hojat?

— Hasanalining so'ziga qaraganda, qayinotang qizini Toshkentga yubormas ekan. O'g'il o'stirib katta qilgan onangning bo'lsa, oldida kelin qo'yg'usi keladir...

Otabek onasiga qaradi:

— Bu kungacha kelinsiz yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo'lar-ku! — dedi.

O'zbekoyim marg'ilonlik tomondan sehlrgan o'g'liga qarshi qizishib ketdi. Bir yildan beri ichiga yig'ib kelgan ginasini to'kib berdi:

— Men seni bu umid bilan boqib katta qilmagan edim... Sen bizning naslimizni ko'tarish o'rniga, yerga urib bulg'ading. Biz seni Marg'ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o'ylamagan edik, adabsiz... o'zingga qolsa, shu marg'ilonlikni xotinga hisoblab keta berar ekansan-da, uyatsiz!...

Otabek ham qizishdi:

— Xotin bo'lmasa nima, axir?!

— Qoshli, ko'zli bir andi!

— Andi deganingiz nima, o'zi?

Yusufbek hoji o'g'lini bosish o'rniga, javob ber, degandek qilib iljaygan holda xotinigga qaradi. O'zbekoyim „andi“ ma'nosini bildirib, andilarning sehrini rad qilish uchun biroz tutilib qiy-naldi:

— Andi... andi... o'zi xitoymi, nima balo... o'zi qalmoqdan tarqagan bo'ladir... Tushunmagan bo'lsang, lo'lilarning bir toifasi...

Bu javobdan Yusufbek hoji o'zini xoxolab kulishdan to'xtata olmaganidek, Otabek ham kulib yubordi. Xotining tirmoq ostidan kir izlab va da'vosining isboti uchun g'o'ldirashidan ortiqcha kulib kayflangan Yusufbek hoji ko'ziga chiqqan yoshlarni artar ekan, jiddiyat bilan o'g'liga dedi:

— O'g'lim, sen onangning gapiga achchig'lanma. Ul har narsa desa, faqat Marg'ilondan uylanganingga qarshiligidan aytadir. Ammo mendan so'rasang, Marg'ilondagi na qudamiz va na kelinimizni hech bir vaj bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo'lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli, o'g'lim deyman. Sening tinib-tinchishing, o'sib-unishing uchun quvonmagan ota-ona soqqa hisoblanmaydi. Sen bunga yaxshi ishon. Ammo bizning hozirgi ba'zi bir ra'yilarimiz senga yotishib kelmas ekan, bunga haqqing ham bor, lekin ikkinchi tarafdin bizni ham haqsiz tashlab qo'yma, o'g'lim. Bizning sendan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo'q. Dunyoda ko'rib o'taturgan barcha orzuyimiz, havasimiz faqat sengagina qarab qolgan. Biz Xudoyi taologa minglab shukur aytamizki, sen boshqalarning farzandidek esli-hushli bo'lding. Ayniqsa, onangning sening tufayli kechiraturgan umidlari tobora ortib boradi. Bu kun onang sening oldingga tiz cho'kib va onang ko'ngli uchun men ham oraga tushib sendan so'raymiz: sen o'z xohishing yo'lida uylangan ekansan, rafiqang senga muborak bo'lsin. Eslik da'vosida yurgan ota-onang tilagi, albatta, shundan boshqa bo'lmas. Shu bilan birga, sening sababi vujuding bo'lgan bir kishi o'z hayoti ichida bolasi orqali bir orzu-havas keschirmakchi... . Uning bu orzusiga haq berasanmi, yo'qmi, yana ixtiyor o'zingda...

Hojining bu so'zi O'zbekoyimga nechog'liq yoqqan bo'lsa, Otabekni shu qadar yerga qaratgan edi. Hoji, o'zidan oshirib so'zlagan bu so'zlarini shu gap bilan tamomladi:

— Bilgan topib so'zlar, bilmagan qopib deganlaridek, onangning aytmoqchi bo'lgan so'zi faqat shu edi. Boyagi gaplari bo'lsa, o'z haqqini himoya qilish yo'lida, uning po'pisalarigina bo'lib, mendan ham ko'ra onangning fe'lini o'zing yaxshi bilasan...

Otabek hamon sukutda. O'zbekoyim bo'lsa boshi bilan „shundog“ ishorasini berar edi. Yusufbek hoji yuqorida o'tgan gaplarni quruq va asossiz so'zlamagan, balki shu turmushning rukin va asosini bir daraja aytib o'tgan. Otabek esa buni shu muhitning bir o'g'li bo'lib eshitgan edi. To'g'risi ham u dadasi tomonidan so'zlangan haligi qonunga qarshi chiqish uchun lozim bo'lgan kuchni molik emas, bas kuchsizlikning natijasi esa sukut edi.

ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI CHO'LPON

(1897—1938)

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov — Cho'lpon 1897- yilda Andijonning Qatorterak mahallasida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan.

Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra esa Andijon va Toshkentdagi obro'li madrasalarda tahsil olib turk, arab, fors tillarini mukammal o'zlashtiradi.

Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Dehlaviy, Nizomiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdulla To'qay kabi buyuk so'z san'atkorlari ijodini mehr bilan o'rgandi. Cho'lponning ijodi 1913—1914-yillardan boshlangan bo'lib, u avval „Qalandar“, „Mirzaqalandar“, „Andijonlik“ va nihoyat Cho'lpon (tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qila boshladi.

Cho'lpon 1922—1926- yillarda o'zining „Tong sirlari“, „Uyg'onish“ va „Buloqlar“ kabi uchta she'riy to'plamini nashr ettirdi. Shoir yaratgan ikki yuzdan ortiq she'riy asarlar o'z xalqi, yurtining baxti, kelajagi, mustaqilligi yo'lidagi kurashning abadiy solnomalaridandir.

Cho'lpon yetuk lirik shoirgina emas, yirik noshir sifatida o'nlab publitsistik maqolalar, ocherk va hikoyalar, „Qor qo'ynida lola“, „Yov“ qissalari va „Kecha va kunduz“ (1936) kabi ajoyib romanini nashr ettirgan iste'dodli adib hamdir.

U dramaturg sifatida ham salmoqli ijod qilgan. Uning „Xalil farang“, „Cho'rining isyoni“ kabi kichik pyesalari, „O'rtoq Qarshiboyev“, „Mushtumzo'r“ kabi yetuk dramalari hamda ko'p vaqt sahnadan tushmagan. „Yorqinoy“ pyesalari mashhur bo'lgan.

Cho'lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriy kabi qatag'on siyosati qurboni bo'lgan. U 1937- yilning 14- iyulida qamoqqa olinib, 1938- yilning 4- oktabrida otib tashlangan. Hozirgi kunda nashriyot, ko'cha, mahalla, kutubxona va maktablarga Cho'lpon nomi qo'yilgan.

QOR QO'YNIDA LOLA

Sharofatxon Samandar akaning bitta-yu bitta qizi edi. Bu qiz shu tegranning ko'rklilikda, chevarlikda, sho'xlik va o'ynoqlilikda bitta-yu bittasi edi. Mahalla-ko'yning o'spirunlaridan ikkita-uchtasi bir yerga yig'ilsalar, topg'on-tutg'onlari shul Sharofatxon masalasi bo'lur. „Bu qiz qaysi xudo yarlaqog'onniki bo'lur ekan? Kimning uyini obod qilur ekan?“ deb bosh og'ritarlar edi.

Sharofatxonning eshonga berilishi xabari chiqqandan so'ng, butun mahalla-ko'y yana bir necha kun shuning dovrug'ini qilishdilar.

Ko'chada qator-qator aravalar chopishib, bir-birlaridan o'zishadirlar.

O'n-o'n besh aravada bo'lg'on xotinlarning tartibsiz „yor-yor“ lari dunyoni buzib, ko'kni ko'tarib borar edi.

Sandiq, ko'rpa, gilam tugun va boshqa narsalar yuklagan va yuklar ustiga yana bitta-ikkita kampir o'tqizgan aravakashlar ilgariqilaridek bir-birlari bilan basma-baslashib chopishar edilar.

Shu guldir-shaldir, shovqun-suron, qiy-chuv bilan keta-yotqon ko'ch eng so'ng eshonning eshigiga yaqinlashdi. Ko'chaning o'rtasig'a gurullatib yog'ilg'on bir to'p erkaklar tovushlarining boricha „yor-yor“ni cho'zg'on; ularning berigi biqinida boshiga paranji yoping'on, chopon tashlag'on, ro'mol tutg'on xotinlar, kelinlar, qizchalar... o'z oldilariga katta to'p bo'lib, ular ham „yor-yor“ni qo'yib yuborg'on edilar.

Taxta-taxta ko'puruk taxting bo'lsin, yor-yor,

Payg'ambarning qizidek baxting bo'lsin, yor-yor!

Uzun-uzun arg'amchi halinchakka yor-yor,

Chakan ko'nglak yarashar kelinchakka yor-yor.

O'tning tegrasiga to'plang'on er-xotin barchasi birdan: „Kelin keldi, kelin keldi!“ deb yuborishdilar. Bir necha yigit quchoq-quchoq g'o'zapoya olib chiqib, o'tning o'rtasig'a tashladilar, o't yana kuchaydi, yana alanga berdi.

Har kim pitirlab qimirlab qoldi. Bolalar qiz kelayotg'on tomong'a qarab chopishib ketdilar.

Shovqin, to'polon orasida aravalar yetdilar. Xalq orasida:

Ana kelin, ana qiz tushgan arava! — degan gaplar boshlandi.

Aravakash kelinli aravani „namoyishkorona“ suratda o'tning o'rtasidan otni qamchilag'oncha olib o'tib, eshikka yaqin bir yerda to'xtadi.

— Kuyov pochcha, kuyov pochcha! Taqsim qanilar? Qoch, qoch, — degan tovushlar ko'tarildi.

Bir vaqt oppoq soqolli, qari, bo'shshg'on bir chol (kuyov to'ra) ustiga zarbof to'n kiyib, katta o'rama belbog' bog'lag'oni holda birmuncha oqsoqol mudirlari o'rtasida sekingina sudralib, aravaga yaqinlashdi.

Yana xalq o'rtasida:

Ko'taring-a kuyov pochcha, ko'taring-a!

O'zingizni tetik tuting, taqsir!

Ha, taqsir, ko'taring!

Chol titroq qo'llarini aravaga uzatib, qizni ko'tardi-da va bir-ikki odim bosg'ondan so'ng yerga qo'ydi.

Yana xalq chuvirlashib ketdi:

Barakalla, taqsir, barakalla!

Bo'sh kelmadilar, taqsirim!

Hali bellari baquvvat ekan taqsirimning!

Bu shovqin, qiy-chuv, to'polon yarim kechaga borib to'xtadi. Haligi tomosha o'rni bo'lg'on ko'chada kishilar arib, qop-qorong'i, jimjit bir gulistonga aylandi.

HAMID OLIMJON

(1909—1944)

Hamid Olimjon o'zbek adabiyotining yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan hassos shoirdir. U juda qisqa yashadi, ijodiy faoliyati salkam 20 yil davom etdi, ammo shu o'tgan qisqa davr ichida mardlik va jasoratga, sadoqat va qahramonlikka undaydigan, baxt va iqbol sari etaklaydigan ko'plab she'rlar, dostonlar yozib, baxt va shodlik kuychisi sifatida xalqimizning sevimli shoiriga aylandi. Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ilgan. Avval Jizzaxdagi Narimonov nomli o'rta maktabni, so'ng Samarqand bilim yurtini tugatib, 1928-yilda Samarqanddagi pedagogika akademiyasining ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakultetiga o'qishga kirdi. 1931-yilda uni tamomlab, Toshkentga keladi va gazetada mas'ul kotib bo'lib ishlay boshlaydi. Shu davrda uning „Ko'klam“ nomli ilk she'riy asarlar to'plami, uning ketidan „Poyga“, „O'lim yovga“, „Baxt kechasi“ kabi to'plamlari ham nashr qilindi. 1937—1938- yillarda Hamid Olimjon O'zbekiston o'quv-pedagogika nashriyotining adabiyot bo'limi boshlig'i, ayni paytda Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi hukumat komissiyasining ilmiy kotibi va rais o'rinbosari vazifalarida ishladi. 1939-yildan boshlab, O'zbekiston yozuvchilar soyuzining raisi qilib tayinlandi.

O'zbek xalqining atoqli farzandi, iste'dodli shoir va dramaturg, o'tkir publitsist va notiq, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Hamid Olimjon 1944-yil 3-iyulda baxtsiz tasodif tufayli ijodiy kuchlarining ayni gullab, barq urib turgan davrida bevaqt olamdan o'tdi. Uning „O'lka“ (1939), „Baxt“ (1940) kabi she'riy to'plamlari, „Oygul bilan Baxtiyor“ (1937), „Zaynab va Omon“ (1938), „Semurg“ (1939) kabi ajoyib dostonlari, „Muganna“ pyesasi xalqimizning oltin merosidir.

O'RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi.
Novdalarni bezab g'unchalar
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.
Mana senga olam-olam gul
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo'l
To o'lguncha shu o'lkada qol.
Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.
Mayli deyman va qilmayman g'ash
Xayolimni gulga o'rayman.
Har bahorga chiqqanda yakkash
Baxtim bormi, deya so'rayman.
Baxting bor, deb esadi ellar
Baxting bor, deb qushlar chiyillar.
Mana senga olam-olam gul
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo'l
To o'lguncha shu o'lkada qol.
Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK

(1905—1968)

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905- yil 10- yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida dunyoga kelgan. Oybekning tarbiyasi bilan onasi Shahodat Nazar qizi va bobosi shug'ullanganlar. Shoir dastlab eski maktabda, so'ngra „Namuna“ maktabida, ta'lim va tarbiya texnikumida o'qiydi. U 1925—1930- yillarda ToshDUning ijtimoiy fanlar fakultetining iqtisod bo'limida o'qidi (1927—29- yillarda Sankt-Peterburgdagi Xalq xo'jaligi institutida o'qib kelgan). Oybek 1935- yilgacha o'zi tugatgan dorilfununda

siyosiy iqtisoddan dars berdi. 1935- yilda dars berishni tashlab, til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlay boshladi. Butun umri o'zbek adabiyoti va uning cho'qqisi — Alisher Navoiy ijodini sevib o'rgangan Oybek dastlab Navoiy haqida ilmiy maqolalar, keyin „Navoiy“ lirik dostonini (1936—1937) va nihoyat 1942-yilda „Navoiy“ romanini yozdi. Oybek O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida (1945—49), respublika Fanlar akademiyasida (1951-yilgacha) faoliyat yuritdi. O'zbekiston xalq yozuvchisi, Fanlar akademiyasining akademigi bo'lgan shoir 1968- yil 1- iyulda vafot etdi.

1974—1985- yillarda Oybekning 20 jildli „*Mukammal asarlar to'plami*“ nashr etildi. Oybekning Gyotening „*Faust*“, Dantening „*Ilohiy komediya*“, Bayronning „*Kain*“ asarlaridan parchalar tarjima qildi. Lekin tarjimonlik ishlarining eng asosiy qismi deb Pushkinning „*Yevgeniy Onegin*“ asari tarjimasi hisoblangan.

Asarlari: „*Tuyg'ular*“ (1926, birinchi to'plam), „*Ko'ngil naylari*“ (1929), „*Mash'al*“ (1932), „*Baxtigul va Sog'indiq*“ (1933, she'riy to'plam), „*Quyosh qoraymas*“ (1943—1958, harbiy mavzudagi roman), „*Qizlar*“ (1947, doston), „*O'ch*“ (1932, doston), „*Hamza*“ (1948, doston) „*Bobo*“ (doston, avtobiografik xarakterda), „*Temirchi Jo'ra*“ (1933), „*Qutlig' qon*“ (1940), „*Bolalik*“ (1963, avtobiografik asar), „*Nur qidirib*“ (1958), „*Navoiy va Guli*“ (1968, doston), „*Alisherninig bolalagi*“ (bu qissa 1974- yilda e'lon qilingan).

BOLALIK

(*Asardan parcha*)

Shunday qilib, bazo'r uyquga ketdim. Bir vaqt cho'chib uyg'ondim-da, sapchib o'rnimdan turdim. Oy xira, osmon yorishganroq, unda-bunda bulutlar yuribdi. Oyim boshini ko'tardi. „Hali vaqtlik, o'g'lim, yotatur“, dedi. Indamadim, kiyina boshladim. Oyim turib, chiroq yoqdi. Kampir ham uyg'ongan edi, g'ivirlab turib o'tirdi. „Yolg'iz o'g'limga salom ayt, yo'lda hazir bo'l, otni ehtiyot qil“, deb tayinladi, duo qildi. Apir-shapir yuvindim-da, xurjunni orqalab, qo'limda qamchin, otxonaga kirdim. Otni egarlab, xurjunni egar ustiga tashladim, keyin otni yetaklab, ko'chaga chiqdim. Oyim: „Vaqtli shekilli, o'g'lim, ehtiyot bo'l, omon bo'l!“ deb tashvish bilan xayrlashdi, duo qilib qoldi. „Yopiray!“ deb bir sakradim, bazo'r egarga chiqib oldim. „Chuh!“ deb asta qamchi urgan edim, ot jonivor yo'rg'alab ketdi. Ko'chalar zim-ziyo, jimjit, hech kim yo'q. Yuganni mahkam ushlab ket-

yapman. Xadraga yetganda, jin ko'chaga dadamning oshnasining ko'chasiga qayrildim. Ikki tabaqali o'ymakor eski eshik oldida to'xtab, qamchi dastasi bilan eshikni shaq-shaq urdim. Jimjit. Biroz quloq solib kutdim, hech kim chiqavermagandan keyin qattiqroq yana ustama-ust bir necha marta eshikni qoqdim. Hech kim chiqmadi, ko'cha qorong'i, ba'zan itlarning hurgani eshitalardi, xolos. Kechikkan bo'lsam, ketib qolganmikan, deb o'yladim ichimda. Yana bir marta qattiqroq qoqib ko'rdim-da, ortiq kutmadim, sabrim chidamadi, uning ketganligiga ishondim, „chuh!“ deb otga qattiq bir qamchi urdim-da, jo'nadim. Yo'l-yo'lakay hech kim uchramaydi, faqat unda-munda mudrab o'tirgan qorovullar ko'rinadi. Taxtapulda dahshatli guvullab oqayotgan Kalkovuz ko'prigidan o'tayotganimda jimjit ko'chalarni otimning dukuri to'ldirib yuborganday bo'ldi. Shunda men ham hali tong otmaganligini payqadim, „attang, shoshibman-da, vaqtiliroq uyg'onibman“, dedim o'z-o'zimga. Ko'nglimga vahima tushsa ham „Tavakkal!“ — deb otni qamchiladim. Yunusobodga o'tdim. Daraxtlarning shovullashi, qamishlarning shatir-shutiri vahimani borgan sayin oshiradi, lekin nuqul otni qamchilayman, tezroq biror choyxonaga yetib olishni mo'ljalayman. Onda-sonda dehqonlarning uylari ko'rinadi, itlarning vovullagani eshitaladi. Bir vaqt qarasam uzoqda, yo'lning chetida bir qora ko'rinyapti, yaqinlashishim bilan u asta yo'lning o'rtasiga tushdi. Men yaqinlashganimda: „To'xta bola, shahardan chiqdingmi? — deb so'radi mendan xunuk, bo'g'iq ovoz bilan, boshiga bostirib telpak kiygan siyrak soqolli pakana kishi. — Tush otdan!“ — dedi otning jiloviga qo'l uzatib. „Jon aka, yo'limni to'smang, Yangibozorga ketyapman, ehtimol hazildir lekin otni bermayman“, dedim sekin. „Yaxshilik bilan tush, bo'lmasa xafa qilaman!“ — deb xirilladi pakana. „Xo'p, xo'p, hozir tushaman“, deyman, lekin yuragim shuv etib ketdi, jon holatda jilovni ikkinchi tomonga qarab siltab yuboraman. Ot hurkib ketadi, sakrab depsinadi, ustma-ust qamchi solaman. Ot pishqirib, chopib ketadi, ehtimol ot ham odamning yomon sharpasini payqagandir, qattiq chopadi. Orqamdan „Badbax!“ — deb qichqirgani-yu dumalanib quvlaganini eshitaman, lekin ot bir zumda yelday uchib uzoqqa olib ketadi. Yana hamma yoq jimjit. Faqat yuragimning gurs-gurs urganini, otimning dukurini eshitaman. Tong endi-endi oqara boshladi shekilli, bitta-yarimta odam ko'rindi. Endi yo'lto'sardan qutilganimga ishondim, otni ham sekinroq yo'rttirdim. Shabada esib, osmonning cheti qizara boshlaganda, men G'ishtko'prikka yetib, choyxona oldida to'xtadim. Samovarchi o'rnidan turib, tagidagi yamoq ko'rpachani yig'ish-

tirayotgan ekan. „Xo’sh, saharlab nima qilib yuribsan, tinchlikmi o’zi?“ — deb so’radi ariq chetiga cho’qqayib yuz-qo’lini yuva-yuva. „Kelmadimi?“ — deb so’radim undan to’rt yoqqa alanglab. „Kim?“ — dedi taajjub bilan samovarchi. ariqdan boshini ko’tarib. Dadamning oshnasi-da bilasiz-ku Qosim cho’tirni?“ — dedim. „Ha bilaman, e-e vaqtlik turgansan-da, kelib qoladi, xotirjam bo’l, uka, otni huv otxonaga boyla“, deb choyxonaning yonboshidagi eski bir otxonaga ishora qildi. „O’tir, damingni ol, birpasda choy qaynataman“, dedi samovarchi. Suv quyib, o’tin yorib, ikir-chikir ishlariga kirishib ketadi. Otni otxonaga boylab, oldiga beda tashladim, choyxonaga qaytib, yo’ldagi voqeani ichimga sig’dirolmaganimdan samovarchiga aytdim. Hovliqib, ko’pirtirib gapirdim. „Rostdanmi? E, tavba, ha shunday yomon odamlar bo’ladi, haromilar!“ — deb so’kdi boshini chayqab samovarchi. U dadamni yaxshi tanirdi. „Rost, amaki, lekin xo’p olishdim, jag’iga o’xshatib solardim-u, qo’rqinqiradim, yoshman-da. Qosim aka yonimda bo’lganida-ku, bemalol olishar edim-a!“ dedim. „Xumpar-ey, yoshsan-ku!“ — deb qotib kuldi samovarchi, yakkam-dukkam tishlarini ko’rsatib. Tong tamom otganda samovar burqirab qaynadi. Xurjundan bir kulcha olib burdaladim-da ishtaha bilan yedim, ustidan issiq choyni ho’plab-ho’plab ichdim. Oftob chiqdi. Birin-ketin yo’lchilar kela boshladi. Bir vaqt qarasam, „Assalom!“ deb, otini yetaklab Qosim aka ko’rinib qoldi. Men suyunganimdan irg’ib o’rnimdan turdim-da, unga qarab yugurdim: „E, tavba! Sho’ttamisan?“ — deydi Qosim aka yoqasini ushlab. „Qiziq bo’ldi, bir vaqt uyg’onsam hamma yoq yop-yorug’, shoshilinch bilan otni egarladim-u, siznikiga jo’nadim. Xo’p eshigingizni qoqdim, ichkaridan birorta tovush bo’lmagandan keyin, ketib qolgansiz, deb o’ylabman. Yanglishibman-da, oydin ekan, tong otdi debman, qoq yarim kechada yo’lga tushibman. Yo’lda biram dahshatli voqea bo’ldiki, hozir aytib beraman. Qosim aka, otingizni bering boylab kelay!“ — dedim-u otni yetaklab ketdim. Qosim aka hayron bo’lganicha qotib qoldi. „Yopiray, nima voqea bo’ldi?“ — deb so’radi u men otni boylab kelib oldiga o’tirganimda. „Govkushga bir bosh tiqib chiqay dedim-u, lekin balki Musavoy aynigandir, deb qayrilmasdan yo’lga tusha qolgan edim“, dedi. Men bugun bo’lgan gapni Qosim akaga so’zlab berdim. Voqea shu. — dedim aravakashga qarab.

— E, yolg’on gapga o’xshaydi-ku, — dedi u ishongisi kelmay.

— Yo’g’-e, Xudo haqqi, hammasi rost! — deyman gapimni uqdirib.

— E, tavba! — deydi aravakash otni sekin haydab, yomonlar ko'pda, ko'p yomonlar. Men o'zim bu yo'llarda ko'p yuraman, zim-ziyo kechalarda yop-yolg'iz yuraman, ammo biror marta bitta qaroqchi ko'rmadim, sira ko'rmadim. Ot o'g'rilar ko'p, deb eshitaman, lekin o'zim yo'liqmadim, tole-da, xudoga shukur, tole, — dedi aravakash boshini qimirlatib.

Olisda ko'kimtir, viqorli tog'lar tizmasi ko'rinmadi, cho'l olovday yonadi, o'tlar, gullar hammasi qovjiragan. Xullas, chang yuta-yuta nihoyat bir manzilga yetamiz.

Birdan bu yerda ham bir voqea ro'y berdi. Katta bir karvon, necha-necha aravalar Yangibozordan bug'doy ortib kelgan ekan, to'satdan bir ot kasal bo'lib o'lib qolibdi. Aravakashning xo'jayini semiz, sersoqol o'rta yoshli kishi jahldan bo'g'ilib qichqirdi:

— Aytmadimmi dayus, otni yeding! Shoshma, jazongni bera-man, haromi, itvachcha!

Yigirma bir-yigirma ikki yoshlardagi yuvoshgina aravakash yigit: — Xo'jayin, faqir odamman, hech gunohim yo'q, — deydi ko'z yoshlarini to'kib.

Men aravakash boyaqishga achinaman. Shu topda otning boshida to'dalanib turgan aravakashlardan keksagina bir kishi engashib otni ko'ra boshladi:

— Bas-bas! — dedi bo'ynini tiklab, yosh aravakashga. — O'ldi, vassalom. Ehtimol, nuxala bo'lgandir, ehtimol, boshqa bir darddir, ishqilib o'ldi-da, yig'laganning foydasi yo'q. Lekin, chirog'im, bu yuvosh bola ekan, — deydi keksa aravakash otning egasiga qarab, — bu mo'min bola, tegma.

— Mo'min emish-a, bu bachchag'ar, lapashang, otning tilini bilmaydi, haromi! — qichqiradi xo'jayin bolaga do'q qilib.

Birdan u aravakash yigitchani shaq-shaq ura boshlaydi. Men yigitchaga achinaman, yig'lab yuboraman. Keksa aravakash oqarib ketadi. Darrov yigitchani chetga oladi-da, xo'jayiniga g'azab bilan qichqiradi:

— Alam qildimi, mo'ltoni, otning xuni kerak bo'lsa men beraman!

Xo'jayin indamaydi, xo'mrayib jim qoladi.

— Bas, buning yukini ikki qopdan bo'lib aravalarga ortinglar-da, g'ir etib Toshkentga ravona bo'linglar. Ishning ko'zini bilish kerak, — deydi keksa aravakash.

Ikki kun yo'l bosib, oqshom paytida Yangibozorga yetamiz.

ABDULLA QAHHOR

(1907—1968)

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan Abdulla Qahhor 1907- yilda Qo‘qon shahrida temirchi oilasida dunyoga keldi. O‘rta ma‘lumotni Qo‘qonda olgan Abdulla 1925- yilda Toshkentga kelib, „Qizil O‘zbekiston“ ro‘znomasida ishlaydi.

Abdulla Qahhorning ijodi 1924- yildan boshlangan. Yozuvchining „Olam yasharadi“ nomli birinchi hikoyalar to‘plami 1938- yilda chop qilindi.

Yozuvchining urushdan keyingi yillarda yaratgan „Qo‘shchinor chiroqlari“ (1951) romani kollektivlashtirish mavzusiga bag‘ishlangan. U o‘zining „Shohi so‘zana“ (1951), „Og‘riq tishlar“ (1954), „Tobutdan tovush“ (1962), „Ayajonlarim“ (1967) komediyalari bilan o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

Yozuvchining „Sinchalak“ (1958), „Muhabbat“ (1968), „O‘tmishdan ertaklar“ (1965) qissalari o‘zbek prozasining taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvoni, orden va medallar bilan taqdirlandi. U 1968- yil 25- may kuni 61 yoshida vafot etdi.

O‘G‘RI

(*O‘tmishdan*)

Otning o‘limi — itning bayrami.
(*Maqol*)

Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi. O! Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan. Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish — uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi.

Odamlar dod ovozigga o‘rganib qolgan: bironvi eri uradi, bironvning uyi xatga tushadi. Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko‘zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi. Xotinlar o‘g‘rini qarg‘aydi, it huradi, tovuqlar qaq‘alaydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho‘kiz sig‘ishiga aql ishonmasligi to‘g‘risida kishilarga gap ma‘qullaydi.

Qobil boboning qo‘shnisi — burunsiz ellikboshi kirdi. U og‘ilga kirib teshikni, ho‘kiz bog‘langan ustunni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko‘rdi, so‘ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

— Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi! — Uning og‘ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag‘ishlagan edi, bu so‘zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig‘lab yubordi.

— Xudo xayr bersin... Ola ho‘kiz edi...

Odamlar o‘g‘ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho‘kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to‘g‘risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G‘ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig‘idan to‘xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o‘g‘ri teshgan yerni yana bir ko‘rdi. Qobil bobo qo‘l qovushtirib uning ketidan yurar va yig‘lar edi.

— Yig‘lama, yig‘lama deyman! Ho‘kizing oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa topiladi.

Ellikboshi ho‘kizni juda naqd qilib qo‘ydi — go‘yo u ko‘chaga chiqsa bas — ho‘kiz topiladi. Bu „xudo yallaqagur“ shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo‘lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o‘ziga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma‘lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto‘xtov aminga xabar qilmoqchi bo‘lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi. Quruq qoshiq og‘iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo‘ladi?

Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho‘kizni bo‘ynidan bog‘lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro‘para bo‘lganda, amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi:

— Ha, sigir yo‘qoldimi?

— Yo‘q... sigir emas, ho‘kiz, ola ho‘kiz edi.

— Ho‘kiz? Ho‘kiz ekan-da! Himm. Ola ho‘kiz? Tavba!...

— Bori-yo‘g‘i shu bitta ho‘kiz edi. ...

Amin kuldi.

— Yo‘qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho‘kiz edi?

— Ola ho‘kiz. ...

— Yaxshi ho‘kiz birov yetaklasa keta beradimi?
— Bisotimda hech narsa yo‘q. ...
— O‘zi qaytib kelmasmikin? ... Birov olib ketsa qaytib kela ber. deb qo‘yilmagan ekan-da! Nega yig‘lanadi? A? Yig‘lanmasin!
Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

— Qidirtirsakmikin-a? — dedi amin, — suyunchisi nima bo‘ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga „Ma, ho‘kizing“ deganday bo‘lib ketdi.

— Kam bo‘lmang, — dedi pulni uzatib, — yana xizmatinigzdaman.

— Men beto‘xtov pristavga xabar beraman. O‘zi chaqirtiradi.

Bir hafta o‘tdi. Bu hafta ichida kampir duoning zo‘ri bilan „qulf ochadigan“ azoyimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpich tovoq jo‘xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo‘ldi:

— Ha, ho‘kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi!

Qobil bobo yor-do‘stlari bilan kengashdi — pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo‘ladi? Ma‘lum bo‘ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uch tovuq, garchi bari quruq bo‘lsa ham, Qobil boboning o‘zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo‘ni-qo‘shni, yor-birodarlar o‘zaro yig‘ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o‘tib bo‘lmaydi. Tilmoch tortiqni oldi va beto‘xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va‘da qildi. Cholning butun bo‘g‘inlari bo‘shashib ketdi, keyin tutaqishdi, ammo go‘rda bir narsa deya oladimi! „O‘ynashmagin arbob bilan, seni urar har bob bilan“. Pristav bitta kulangir, bitta farang tovuq, uch so‘m pulni olgandan keyin, Qobil boboning baxtiga, „beto‘xtov hokimga xabar beraman“ demasdan „aminga bor“, deya qo‘ya qoldi. Amin „ellikboshiga borilsin“ dedi.

— Gumoningizni ayting bo‘lmasa! — dedi ellikboshi tajang bo‘lib, kim olganini men bilmasam, avliyo bo‘lmasam! Olgan odam allaqachon so‘yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz erinmasangiz, ko‘nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko‘nchilikka tushgan bo‘lsa, allaqachon charm bo‘ldi: xudo biladi, kavush bo‘lib bozorga chiqdimi...

— Endi bizga juda qiyin bo‘ladi-da. Peshonam sho‘r bo‘lmasa...
— dedi chol yerga qarab.

— Ey, yosh bolamisiz! Nega yig‘laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho‘kiz bo‘lsa bir gap bo‘lar, xudo ajalga to‘zim bersin! Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho‘kiz bersin. Bitta ho‘kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p achindi va yerni haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin „kichkinagina“ sharti bor. Bu shart kuzda ma‘lum bo‘ladi...

G‘AFUR G‘ULOM

(1903—1966)

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri G‘afur G‘ulom 1903- yil 10- mayda Toshkent shahrining Qo‘rg‘ontepa mahallasida mehnatkash oilasida tug‘ildi. Shoir liro-epik janrlarda (1930—1935) „Ko‘kan“ poemasini, „To‘y“, „Ikki vasiqa“ balladalarini yaratdi. 30- yillar G‘afur G‘ulom hikoya, ocherk, felyetonlar qatori „Netay“, „Yodgor“, „Tirilgan murda“ kabi qissalarini o‘z kitobxoniga taqdim etdi.

G‘afur G‘ulomning 20 ga yaqin she‘riy to‘plamlari chop etilgan. U O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi (1943) edi. 60 yillik yubileyi munosabati bilan unga O‘zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berildi. Shoirning ko‘pgina asarlari qardosh xalqlar, Osiyo va Yevropa tillariga tarjima qilingan.

O‘zbek she‘riyatining ulkan namoyandasi, ulkan so‘z san‘atkori G‘afur G‘ulom milliy adabiyotimizning rivojiga katta hissa qo‘shgan adibdir. Adib 1966- yilda og‘ir xastalikdan so‘ng vafot etdi.

BILIB QO‘YKI, SENI VATAN KUTADI

Sen bukun sinfda shod yurak bilan,
Sinov navbatini kutib turasan.
A‘lo mamlakatning a‘lo farzandi,
Bilib qo‘yki, seni vatan kutadi!

Globusdan bo‘lgan har kichik nuqta
Millionlab qondoshga vatan albatta.
Mustasno xalqimiz yashar abadiy,
Bilib qo‘yki, seni Batan kutadi!

Jabrda masala qo‘sh muammodir,
Xuddi shunda bir ulug‘ qurilish jodir.

Sen katta injener ertami, indin,
Bilib qo‘yki, seni Batan kutadi!

She‘rdir, lirika, balki oddiy til,
Xalqlarning tillari bir xil emas, bil!
Diplomat bo‘larsan, shu bukun, endi,
Bilib qo‘yki, seni Batan kutadi!

Fanlar ko‘p, fanlar bor o‘rganishga kuch:
Yerda yur, suvda suz, osmon uzra uch.
Hammasidan a‘lo barchadan oldin
Bilib qo‘yki, seni Batan kutadi!

SHUM BOLA

(*Hikoya*)

Bir kuni kechqurun xizmatkorlar bilan o‘tirib qanday qilib boyni o‘z joyiga chaqirib kelish to‘g‘risida maslahatlashdik, ham kim borishini o‘ylashdik, nima deb chaqirib kelishni fikrlashdik. Toinki „innaykeyin“ dardidan keyin boyning o‘zini tinkasi quriydigan bo‘lsin.

Chek menga chiqdi.

Erta bilan bir otga minib, boyning oldiga qarab yo‘l soldim. Yo‘l-yo‘lakay ming xayollarga botib o‘ylayman. Qanday qilib „innaykeyin“iga javob topish kerak?

Yetib borib otdan tushdim. Boy shiyponda kalla go‘shiti bilan nonushta qilib o‘tirgan ekan. Salom berib, sekingina poygakka cho‘kka tushib o‘tirdim.

— Xo‘sh?!

— Shunday o‘zim, sizni sog‘inib, bir ko‘rib kelay deb kelgan edim.

— Yaxshi, yaxshi, barakalla, juda ham quruq kelmagandursan, biror ishing bordur, xo‘sh, nimaga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo‘ygan shartim esimga tushib qoldi. „Shart qilgan yolg‘onni endi gapirmasang, qachon gapirasan“, dedim-da, gap boshladim:

— Anavi, haligi, dandon sopli pichog‘ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so‘zdan keyin menga „innaykeyin“ savoli yog‘ila boshladi.

— Xo‘sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro‘zg‘orda mening pichog‘imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

— Tozi itingizning terisini shilayotgan edik, suyakka tegib sinib qoldi.

— Iyya?! — dedi boy. — Tozining terisini mening dandon sopli pichog‘imda shilasanlarmi, o‘zing ayt-chi, nimaga shildilaring?

— Shoshib qoldik-da, o‘lib qolgandan keyin, bekor ketmasin, deb terisini shilib oldik.

— Nima qilib o‘ldi?

— Harom o‘lgan otning go‘sh tidan ko‘p yeb qo‘ygan ekan, bo‘kib o‘ldi.

— Harom o‘lgan ot go‘sh ti qayoqda ekan?

— Ha, o‘zimizning to‘riq qashqaning go‘sh tini yeb o‘ldi-da, begona ot emas.

Boy alanglab qoldi.

— Hay-hay, bola, og‘zingga qarab gapir, to‘riq qashqa o‘ldi dedingmi? Xo‘sh nima qilib o‘ldi?

— Xomlik qilib o‘ldi.

— Nimaga xomlik qiladi?

— Hech aravaga qo‘shilmagan ekan, biz uni aravaga qo‘shib, suv tashigan edik, zo‘riqib o‘ldi.

— Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan-bir boqib qo‘ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar la‘natlar!

— Ha, o‘t tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o‘tiradimi, duch kelganini qo‘shib, ishqilib bir chelak bo‘lsa ham suv tashiy beradi-da!

Boyning chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham darmoni qolmadi. Og‘zidan olib qo‘ydi-da, baqraygancha menga tikilib:

— O‘zing jinni-pinni bo‘ldingmi? O‘t tushdi deganing nima deganing, qayerga o‘t tushdi, nimaga tushadi?

— Sog‘man, xo‘jayin, o‘t avvalo og‘ilxonaga tushdi. Ot sho‘rliklarning hammasi nobud bo‘lib ketdi-da, xo‘jayin.

— Iyya, og‘ilxonada o‘t nima qiladi?

— Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shuki, o‘t ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak.

— Axir omborda o‘t chiqadigan narsa yo‘q-ku? Bug‘doy bor edi, to‘g‘ri, guruch bor edi, to‘g‘ri, yog‘ bor edi, gazmol bor edi, to‘g‘ri, shulardan o‘t chiqadimi?

— Berdisini aytguncha shoshmang, xo'jayin, omborga qo'rg'ondan o'tibdi. Og'ilxonaga ombordan o'tgan bo'lsa kerak. Shunaqa qilib bir-biriga tutashib ketgan-da.

— Iyya, hali qo'rg'on yondi degin!

— Qo'rg'on ham yondi, ombor ham yondi, og'ilxona ham yondi, otlar ham o'ldi, itingiz ham o'ldi, pichog'ingiz sindi.

— Qo'rg'onga qayerdan o't ketibdi?

— Shamdan tutashib ketibdi, shamdan.

— Hoy, o'zing jinni bo'lib qolibsana, o'g'lim! Axir, mening dargohida shamga kun qoldimi? Qator-qator lampalar, o'zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchi fonarlar qayoqqa ketibdi, kerosinni bo'lsa bir yilga yetarligini bochka-bochka zapas qilib qo'ygan edim. Nimaga sham yoqasanlar!

— Xo'jayin, deyman, o'zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da! Butun boshli o'likning arvo'higa sham yoqmay, lampa yoqadimi? Kelgan arvo'h nimaning shu'lasini bilan o'ynashadi. Axir, kosaga suv quyib, ustiga olma shoxi qo'yiladi. Kelgan arvo'h avval shoxga qo'nib o'tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirlpirab turgan shu'lasini bilan o'ynashadi.

Mening entak-tentak so'zlarimdan boy talmovsirab qoldi. Go'yo shu gaplarni eshitgisi kelmaganday, sekin. qo'rqa-pisa so'radi:

— Kim o'ldi?

Shu yerda men yuzimga qalbaki qayg'ular chiqarib. ho'ngrab yig'lab yubordim.

— Kenjatoy o'g'lingiz Bo'riboyvachcha. terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb. yiqilib tushib bir marta „dada“, dedi-yu, „g'iyq...“ etib jon berdi.

Boy gaplarimning keyingi jumllarini eshitdimi, eshitmadimi bilmayman, choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yordi-yu, soqolini yulib, dodlab yig'lamoqqa boshladi. Men ham qo'shilishib yig'lar edim.

Bir nafas ayyuhannos solib yig'lagandan keyin men to'xtadim, boy ham to'xtadi. Boyning juda ham o'pkasini uzib yuborganimdan endi uni yupatish uchun o'zimdan bir gap to'qimoqchi edim.

— Xo'jayin. — dedim. — xudo berardan qismasin, xafa bo'l-mang, bordi-yu. o'g'lingiz o'lib. uyingizga o't tushgan bo'lsa. pichoq singan bo'lsa. hammasini o'rnini bosadigan bitta xushxabar ham topib kelganman.

Boy g'iqillab turib so'radi:

— Xushxabaring qursin, padar la'nat, qanaqa xushxabar?

— O‘rtancha qizingiz Adol opam dunyoga arziydigan bitta o‘g‘ilcha tug‘dilar.

— Iyya! — dedi boy ko‘zlarining shox soqqasi chiqquday, — Adol opang hali erga chiqmagan-ku!

— Biz ham shunisiga hayronmiz-da xo‘jayin. Xudo beraman desa, erga tegmasa ham berar ekan. Bolani ayting-a, bolani, na-birangizni ayting-a, xo‘jayin. Badal aravakashingiz bor-ku, quyib qo‘yganday o‘shaning o‘zginasi.

Boy ortiq chidab turolmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o‘rimidan yeydigan kaltakni nasiya qilib jo‘nab qoldim. Mendan biror soatlardan keyin, tulpor saman otda barlari osilib ketgan alpang-talping, bir ko‘zi yerda, bir ko‘zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab, yig‘lab boy kelib qoldi.

„Yana biror falokat yuz berib qolmasin“, deb o‘zimni chetga oldim. Boyning yig‘lab kelishini uy ichlari eshitib, ular ham „bir balo bo‘pti shekilli“, deb uydin yig‘lab chiqa boshladilar. Bir-birlarini quchoqlab arosat boshlanib ketdi.

Yig‘i tamom bo‘lgandan keyin, bir-birlarini anglashib surishtira boshladilar. Keyin ma‘lum bo‘lishiga qaraganda, na ot, na it o‘lgan, na qo‘rg‘onchaga o‘t tushgan, na pichoq singan. Bo‘riboyvachcha bo‘lsa so‘laykayini oqizib o‘zi chiqib qoldi.

O‘sha kuni men ko‘rinmay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib, chalpak qilib ko‘tartirib olib keldi. Avval qurttakina qilib yigirma qamchini bosh-ko‘z aralash yedik. So‘ngra so‘radi:

— Hoy itdan tuqqan, bu qilig‘ng nimasi?!

— Axir boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay xo‘jayin, har zamonda bir yolg‘on gapiraman, deb.

— Bu o‘sha yolg‘oningmi?

— Lekin bu hammasi emas edi.

— Agar hammasi bo‘lmasa, butun yolg‘on qilsang, men xonavayron bo‘lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la‘nat seni, qorning oshga to‘ymasin, juvonmarg bo‘l! Haydang bu kazzobni!

Haydab chiqarmoqchi bo‘ldilar. Ketish oldida boydan haq talab qildim. Chunki boyning eshigida bir oy-u o‘n to‘qqiz kun ishlagan ekanman. Haligacha bergan yigirma ikki tiyin choychaqani bosib qolib, qayoqdagi sasigan, qurt tushgan olmalardan ikki pud olmani bitta chipta qopga solib berdi. Men shunga ham shukur qilib, nomozshom paytida yo‘lga tushdim.

ZULFIYA
(1915—1997)

O‘zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915- yilda Toshkentda hunarmand oilasida tug‘ilgan. Shoiraxotin-qizlar bilim yurtida o‘qib yurgan vaqtlaridayoq she‘r mashq qilardi. Uning „Hayot varaqlari“ nomli birinchi she‘rlar to‘plami 1932- yilda nashr qilingan. Zulfiya uzoq yillar „O‘zbekiston xotin-qizlari“ va keyinroq „Saodat“ jurnallarida bosh muharrir bo‘lib ishlagan. Zulfiya ijodiy kamolotida uning hayot yo‘ldoshi, o‘zbek xalqining sevimli shoiri Hamid Olimjonning o‘rni juda katta. „Qizlar qo‘shig‘i“ (1938), „Hijron kunlarida“ (1944), „Men tongni kuyalayman“ (1953), „Yuragimga yaqin kishilar“ (1958), „Kuylarim sizga“, „O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush“ (1965) kabi she‘riy to‘plamlarida Zulfiya vatanni madh etadi, fidokor kishilar haqida kuylaydi. Zulfiya tinchlik va do‘stlik haqidagi asarlari uchun Respublika davlat mukofoti, Javoharlal Neru va „Nilufar“ nomli xalqaro mukofotlar bilan taqdirlangan. Uning she‘rlari rus, ingliz, nemis, hind, arab, fors, bolgar, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan. Jamoatchilik faoliyati uchun Mehnat Qahramoni unvoni va qator orden va medallar bilan taqdirlangan. Zulfiya nomini abadiylashtirish maqsadida 1999- yilda 15—25 yoshgacha bo‘lgan iqtidorli talabalar uchun Zulfiya nomli Davlat mukofoti ta‘sis etilgan.

BAHOR KELDI SENI SO‘ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...
 Qancha sevar eding, bag‘rim, bu bahorni,
 O‘rik gullarining eding maftuni.
 Har uyg‘ongan kurtak hayot bergan kabi
 Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.
Mana, qimmatligim, yana bahor kelib
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,
U ham yosh to‘kdi-yu chekildi nari.

Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,
Yashil qirg‘oqlarni qidirib chiqdi.
Topmay, sabri tugab, bo‘ron bo‘ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog‘laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.
Qirlarga ilk chiqqan qo‘ychivonlardan
„Qayda shoir“ deya ayladi so‘roq.
Barida sukunat, ma’yuslik ko‘rib,
Horib, charchab keldi, toqatlari toq...

O‘G‘LIM, SIRA BO‘LMAYDI URUSH

To‘lisharmi o‘lkada bahor,
Quyosh kezar osmon ko‘ksida.
Qaldirg‘ochlar qanotni qoqar,
Undan soya labi ustida.
Mana, o‘g‘lim labi ustida
Qaldirg‘ochning mayin qanoti.
O‘spirinim toza ko‘ksida,
Kunda oshar yangi his toti.
Bo‘yi oshib ketdi bo‘yimdan,
Bosa olar ko‘ksiga boshim.
Sevgim qurib bergan uyimda,
O‘sdi mening katta yo‘ldoshim.
Yurak to‘la shodlik, mehr, baxt,
Uning ko‘zlariga boqaman.
Nigohiday tiniq va yorqin
Orzu to‘lqinida oqaman.
Orzulari qalbinga ziynat,
Hayotidir ko‘zim qorasi.
O‘kinaman, ba‘zida faqat,
Yonida yo‘q, uning otasi.
Urush! Noming o‘chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko‘p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.
Yulding ota demak baxtini,
Juda murg‘ak go‘daklarimdan.

Yaxshi ham bor shunday Vatani,
Dalda bo'ldi yuraklarimga.
Ota bo'lib soldim men yo'lga,
Ona bo'lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o'g'il o'stirgan
Bir davlatmand boy bo'lib qoldim
Qancha ishonch, umid baxsh etar,
Ham Vatanga, ham menga bu dil,
Qoya kabi yonimdan chiqib,
Suyan, — deydi, — kiftimga dadil.
Men onaman, mening yuragim
Farzandlarim quvonchiga kon.
Dil orziqar, ba'zan tilagim
Vahimalar o'ragan zamon.
Yo'q, urushning nomi ham o'chsin.
Mening o'g'lim kerak hayotga.
Istamayman, uning dudlari
Qo'nsin labi uzra qanotga.
Bas, bas, ezgu onalar qalbi,
Yashay olsin bexavf, baxt bilan.
Mehnatimiz, g'azab, sevgimiz
Tinchlik, deydi butun xalq bilan.
Ko'krak suti va mehnat bilan
Biz jahonga berganmiz turmush,
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O'g'lim, sira bo'lmaydi urush!

OLTIN KUZ

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan,
Atlas tabiatli go'zai chog'ingni.
Daraxtlar libosi rango-rang, gulgun
Ko'zni erkalagan chaman bog'ingni...
Sevaman, yerlarga rangdor yaproqlar
Yumshoq va rang-barang gilam to'shasa.
Gul terganday terib barg qizaloqlar,
Qushlarday gurpanglab yayrab o'ynasa.
Dalada paxtalar kumushi porlab —
Momiq yuzlarini quyoshga tutsa.
Terimchi chechanlar etaklab, qoplab
Tog'day xirmonlarga keltirib to'ksa —

Men behad sevaman! Yengim shimarib,
Qizlar orqasidan yuraman men ham.
Keng vodiy qo‘ynida ko‘ksim qabarib,
Yayrayman, nash’aga to‘laman bu dam.
Simob to‘lqinlari tutib osmonni,
Muttasil yomg‘irlar zeriktirsa ham,
Kumush buloqlarning suvlari sokin,
Qushlar inlariga kirib olsa ham.
Men g‘amgin boqmayman, ko‘nglimda bahor,
Oltin yaproqlarga qarab tolmayman.
Yasan kelinchakday har bir daraxtni
Sevaman! Nigohim uza olmayman.
Bulut chodirini yirtib, mo‘ralab,
Chiqsa quyosh, ko‘kka bo‘laman maftun.
Sevaman nurlarda pati yaltirab,
Oppoq kabutarlar qilsalar o‘yin.
To‘zoni yuvilgan barglar shamolda,
Rangini ko‘z-ko‘zlab qilganda huzur,
Hozir tingan yomg‘ir tomchilarida,
Oltin yaproqlarda yonib toza nur —
Gavhar marjon kabi yaltirab tursa,
Meni ham o‘raydi she‘riy hayajon!
Quyoshni qarshilab chiqib ayvonga,
Nurlarga ko‘milib yuraman shodon.
Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan!
Tovusday bezangan daraxt, bog‘larni!
Yomg‘irli oqshoming, quyoshli tonging,
Xayolga cho‘mganim go‘zal onlarni!

O‘LMAS UMARBEKOV

(1934—1995)

O‘lmas Umarbekov 1934- yilda Toshkentda tavallud topgan. O‘rta maktabni muvaffaqiyatli tugatgach, Toshkent davlat dorilfununining filologiya fakultetiga kirib, 1956- yilda uni a‘lo baholarga bitirdi.

Adib qisqa umr ko‘rgan bo‘isa ham, o‘nlab hikoyalar, qissalar, dramatik asarlar yozib, o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirdi. Uning „Odam bo‘lish qiyin“ romani, „Shoshma quyosh“, „Qiyomat qarz“, „Arizasiga ko‘ra“, „Yer yonganda“ kabi dramatik asarlari haligacha dolzarbligi bilan el og‘zidan tushmay keladi.

1992- yilda adib „O‘zbekiston xalq yozuvchisi“ degan yuksak nomga, „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi“ degan faxriy unvonga sazovor bo‘lgan. Oddiy jurnalistlikdan ish boshlagan O‘. Umarbekov 10 yilga yaqin „O‘zbekfilm“ga boshchilik qilgan. 1982- yilda O‘zbekiston madaniyat vaziri o‘rinbosari lavozimiga tayinlangan. 1985- yildan O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasiga rais bo‘lgan, keyinroq Osiyo va Afrika yozuvchilarining birdamlik qo‘mitasi raisi, 1989—1991- yillarda esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi raisining o‘rinbosari lavozimida ishlab kelgan. U qaysi sohada ishlamasin, ijodning qaysi turida qaysi mavzuda asar yaratmasin, hamisha o‘z eli, yurti g‘ami bilan yashagan.

ODAM BO‘LISH QIYIN

(Asardan parcha)

Saodat opa charchadi shekilli, og‘ir xo‘rsinib, ko‘zlarini yumdi. Gulchehra uning faqat qoshlarigina qorayib turgan, oppoq, rangsiz yuziga tikilar ekan, nima demoqchi ekanligiga tushunmasdi.

— Nima demoqchisiz, aya?

— Hozir... Guli, dadang bilan gaplashdim. O‘sha yangi chiqqan doktor ko‘rsa, men tuzalib ketaman. Maboda tuzalmasam, bu yog‘i... bu yog‘i oz qoldi.

— Nima deyapsiz aya?! — jerkib berdi Gulchehra.

— Eshit. Bu yog‘i oz qoldi. Tashvishdan, azobdan qutulaman. Dadang ham rozi. Sen bor. O‘qi. Qo‘qonga borasanmi, Toshkentga borasanmi — o‘zing bilasan. Toshkentga borganing ma‘qul. Qosimjon bor... Innaykeyin... Zovut ayaning nabirasi... Yolg‘iz bo‘lmaysan...

— Aya!..

— Bor. Biz dadang bilan o‘qimadik. O‘qiyolmadik. Dadang urushga ketib qoldi. Men ish bilan bo‘ldim. Lekin o‘qigan qizlarni ko‘rsam, havasim kelardi. Dadang yaxshi odam. Urushdan qaytganida, sen o‘qi, dedi. Besh yil tez o‘tib ketadi, kutaman, dedi. Men, yo‘q, dedim. Uni yolg‘iz tashlab ketgani ko‘zim qiymadi... sen o‘qi.

Gulchehra onasidan bunday gaplarni sira kutmagan edi. U onasini yaxshi bilardi, lekin bunchalik bag‘ri kengligini xayoliga keltirmagan, aksincha, ittifoqo ketmoqchi bo‘lsam, yubormaydilar, deb o‘ylab yurardi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, hozir uning chakka suyaklari bo‘rtib turgan za‘faron chehrasiga tikilar ekan, xo‘rligi kelib, ko‘zlariga yosh quyildi.

— Muncha yaxshisiz, aya! — u o‘zini onasining ko‘kragiga yashirib muzdek peshanasini, erta oqargan sochlarini silay boshladi.
— Muncha yaxshisiz? Ketmayman hech qayoqqa! Sizni kimga tashlab ketaman? O‘qish bir gap bo‘lar. Sirdan o‘qiyman. Yilda ikki-uch marta borib kelaman insitutga. Keyin, oz qoldi, demang, aya. Odam qo‘rqadi. Siz hali ko‘p yashaysiz! Tuzalib ketasiz!...

— Koshki edi, Guli...

Saodat opa qurigan oppoq qo‘llari bilan qizini quchoqladi, yuz-ko‘zlarini siladi.

— Shundoq dersen devdim o‘zim ham, Guli... Lekin menga o‘xshashingni istamayman. Sening boshqalardan qayering kam? Aqlli, esli-hushlisan, har qanday o‘qishni eplab ketasan? Yo‘q, dema, bor. Dadang ham rozi.

— Yo‘q, aya. Ketmayman.

Saodat opaning ko‘zlarida yosh ko‘rindi.

— Yig‘lamang, aya. Hamma aytganlaringiz bo‘ladi, hammasi bo‘ladi, mana ko‘rasiz, yig‘lamang.

— Yig‘layotganim yo‘q.

Saodat opa jilmayishga harakat qilib, ko‘zlarini arta boshladi. Gulchehra uning ko‘m-ko‘k tomirlari bo‘rtib turgan qo‘llariga qarab, „Qanday tashlab ketaman? Shu ahvolda tashlab ketib bo‘ladimi?“ deb o‘ylardi va yupatishga intilardi.

— Bilasizmi, aya? — dedi u bir mahal. — Bugun juda g‘alati tush ko‘rdim. Aytib beraymi?

— Hm, — boshini qimirlatdi Saodat opa.

— Eshiting. Ertalab ekan. Dadam hovlida yuz-qo‘llarini yuva-yotgan emishlar. Alisher ko‘chada, oftobda o‘tirgan emish. Siz o‘choq boshida nimadir pishirayotgan emishsiz. Men bo‘lsam, men nima qilayotganimni bilmayman. Bir mahal dadamlar chaqiribdilar...

Gulchehra dadasining ovozigga o‘xshatib, yo‘g‘on ovozda qichqirdi.

— Hoy! Ovqatlaringdan darak bormi?

Uning ovozi juda kulgili chiqdi shekilli, Saodat opa kulib yuborgan edi, yo‘tal tutdi. Gulchehra to‘xtab, uning ko‘kragini bosdi.

— Gapiraver... — dedi Saodat opa ro‘molchasini silkitib.

— Shunda siz, „hozir!“ dedingiz-u, bir lagan shirguruch olib keldingiz. Keyin dadam hammamizni ko‘chaga olib chiqdilar. Ammo ko‘cha yo‘q edi.

— Shu o‘zimizning ko‘cha-ya? — so‘radi ko‘zlarini ochib Saodat opa.

— Ha, shu ko‘cha yo‘q. Uning o‘rnida katta maydon turgan emish. Maydonning o‘rtasida samolyotga o‘xshagan oppoq bir narsa.

— Bu nima, — deb so‘radingiz siz.

— Dirijabl, — dedilar dadamlar. — Atayin senga olib keldim. Sayohat qilamiz. Qani, o‘tiringlar.

Hammamizni dirijabl lopillab osmonga ko‘tardi-da, bulutlarni yorib o‘ta boshladi. Juda ko‘p uchdik. Siz Alisherni mahkam ushlab olibsiz. Nuqul dadamlarni turtib:

— Hoy bo‘ldi. Bolalar qo‘rqadi, deysiz. Dadamlar bo‘lsa, kuladilar. Gulchehra bu yog‘iga nima deyishini bilmay, to‘xtab qoldi.

— Keyin nima bo‘ldi? — so‘radi Saodat opa. Uning xuddi Gulchehraniki singari yirik, qora ko‘zlari kulardi.

ERKIN VOHIDOV

(1936)

Erkin Vohidov Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida 1936-yilning 28- dekabrda qishloq o‘qituvchilari oilasida dunyoga keldi. Otasi Cho‘yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon davrning obro‘-e‘tiborli, ma‘rifatli, faol kishilari edilar. Afsus, ular uzoq yashamadilar. Vatan urushida qatnashib, og‘ir yarador bo‘lib qaytgan ota, so‘ng ona dunyodan o‘tdi; bo‘lg‘usi shoirning opasi va ukasi ham go‘dakligida vafot etgan edi. Ikki qisqa umrning yolg‘iz yodgori bo‘lib Erkin toshkentlik tog‘asi qo‘lida qoldi. Uning o‘spirinlik, yoshlik yillari Toshkentda o‘tdi. Erkin ulg‘aygan xonadon ma‘rifatga, san‘atga, adabiyotga tashna edi. Erkin Vohidovdagi nafosatga, she‘riyatga mehr va mayl shu xonadonda yana shu davrlarda shakllandi. Erkin juda erta qo‘liga qalam oldi. 7- sinfda o‘qib yurganida „Mush-tum“ jurnalida birinchi she‘ri bosildi. Maktabni bitirgach, Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetiga kirib o‘qidi. Universitet ta‘limi shoirning ijodiy taqdirida chuqur iz qoldirdi; birinchi she‘rlar kitobi „Tong nafasi“ talabalik yillarida yaratildi.

O‘ZBEGIM

(*Qasida*)

Tarixingdur ming asrlar

Ichra pinhon, o‘zbekim

Senga tengdosh Pomir-u

Oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim.

So'ylasin Afrosiyob-u
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon o'zbekim.
Al-Beruniy, Al-Xorazmiy,
Al Farob avlodidan,
Asli nasli balki Uzluq,
Balki Tarxon o'zbekim.
O'tdilar sho'rlik boshingdan
O'ynatib shamshirlarin
Necha qon, necha sulton,
Necha ming xon, o'zbekim.
Tog'laring tegrangda go'yo
Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu
Ikki daryo — ikki chashming,
Chashmi giryon, o'zbekim.
Qaysari Rum nayzasidan
Bag'rida dog' uzra dog',
Chingiz-u Botu tig'iga
Ko'ksi qalqon o'zbekim.
Yog'di to'rt yondin asrlar
Boshingga tiyiri kamon,
Umri qurbon, mulki taroj,
Yurti vayron, o'zbekim.
Davri zulmga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen — Muqanna, sen — sarbadorsen,
Ko'ksi qalqon o'zbekim.
Ma'rifatning shu'lasiga
Tolpinib zulmat aro,
Ko'zlaringdan oqdi tunlar
Kavkabiston, o'zbekim.
Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk —
Qo'ydi narvon o'zbekim.
Mir Alisher na'rasiga
Aks sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi
Shoh-u sulton o'zbekim.

Ilm she'rd a shoh-u sulton,
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat,
Zor-u nolon o'zbekim.
Mirza Bobur — sen, fig'oning
Soldi olam uzra o't,
Shoh-u Mashrab qoni senda
Urdu tug'yon, o'zbekim.
She'riyatning gulshanidan
So'ldi mahzun Nodira,
Siy m tanni yuvdi ko'z yosh,
Ko'mdi armon, o'zbekim.
Yig'ladi furqatda Furqat
Ham muqimlikda Muqiy m,
Nolishingdan Hind-u Afg'on
Qildi Afg'on, o'zbekim.
Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o'zbekim.
Ortda qoldi ko'hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon, o'zbekim.
Bo'ldi osmoning charog'on
Tole xurshidi bilan,
Bo'ldi asriy tiyra shoming
Shu'la afshon, o'zbekim.
Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon o'zbekim.
Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,
Ko'kragida tog' ko'targan
Tanti dehqon, o'zbekim.
O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o'zbekim.

Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo'lsam
Sodiq o'g'lon, o'zbekim.
Menga Pushkin bir johon-u
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksi osmon, o'zbekim.
Qayga bormay boshda do'ppim,
G'oz yurarman. gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbekim.
Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et
O'zbekim, jon o'zbekim.

YOSHLIGIM

Yoshligim kel, kuyga to'lgan qalbim oltin sozi bo'l,
Men qo'shiq aytay to'lib, bir lahza jo'r ovozi bo'l.
Dilga oqsin baxtli umrim, kuy bo'lib, ohang bo'lib,
Sen uning „Oromijon“i, „Gulyor“u „Shahnozi“ bo'l.
Orzu-istakdin-ku, shodon dilga bog'labsan qanot,
Bu tilak osmonining doim baland parvozi bo'l.
Ketmagin aslo, hayotim gulshanin tark etmagin,
Bir umr men birla qolgin, bu ko'ngil hamrohi bo'l.
Yoshligim dostoniga men shu'ladin yo'ndim qalam,
Ey sahar ufqi, uning sen zarvara qog'ozi bo'l.
Yoshligim sen menga bergan kuch, shuuring, g'ayrating
Xalq-u yurtga baxsh etolsam, shunda mendan rozi bo'l.

SAID AHMAD

(1920—2008)

O'zbek adabiyotining yetakchi noshirlaridan biri Said Ahmad Xusanxo'jayev 1920- yili Toshkentning Samarqand darboza mahallasida ziyoli oilada dunyoga keldi. Uning birinchi hikoyalar to'plami „Tortiq“ 1940- yilda nashr etiladi. Urush va urushdan so'nggi yillarda Said Ahmad ko'plab felyeton, ocherk va hikoyalar

yozdi. „Sher yurak“ (1942), „Farg‘ona hikoyalari“ (1948), „Muhabbat“ (1949) kabi to‘plamlar nashr etildi.

Said Ahmadning barcha hikoyalari zamonaviy mavzuda yozilgan. Uning hajviy hikoyalari taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan yaramas odatlar ustidan kuladi, ma‘naviy-axloqiy masalalarni o‘rtaga qo‘yadi. O‘zbek psixologiyasiga singmaydigan, milliylikdan yiroq, bewatan, yangicha urf-odatlar, udumlar ustidan ham qahqaha otib kuladi. Uning „Xanka bilan Tanka“, „Lampa shisha“ kabi o‘nlab hajviyalari shular jumlasidandir. Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o‘zbek radio va televideniya quvnoq miniaturalar teatriga asos solgan.

„Ufq“ romanida (1964) Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o‘zbek dehqonlarining front orqasida ko‘rsatgan mehnat qahramonliklari atroflicha hikoya qilinadi. Said Ahmad mohir drammaturg sifatida ham tanildi. Uning „Kelinlar qo‘zg‘oloni“, „Kuyov“ kabi asarlari shular jumlasidandir. Said Ahmad ham qatag‘onlik zulmining ikkinchi to‘lqiniga duchor bo‘lgan, lager azoblarini tortgan ijodkordir. O‘z talanti va ona xalqiga sadoqat, katta ishonch adibni so‘z san‘atkori darajasiga yetkazgan. U O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza mukofoti sovrindori hamdir.

KELINLAR QO‘ZG‘OLONI

(Asardan parcha)

Usta Mahkamning kichik qizi Inobat mahmadonagina chiqqan. Kelin ayalari ham, opalari ham undan zirillab turishadi. Shundoq gaplarni topib gapiradiki, naq jon-joningdan o‘tib ketadi. Tili chiqqandan beri biron gapni javobsiz qoldirmagan. O‘ziga o‘xshagan shaddodgina ammasi doimo uning peshanasiga mushtlab turib gapirardi:

— Sen o‘lgurga bo‘shroq qaynona uchrasa, ajalidan besh kun oldin o‘ldirasan, senga Hoji ona bas kelmasa, mundog‘rog‘i til tortmay o‘ladi

Inobat o‘z kelin ayalari qolib, qo‘shni kelinlarni ham turtkilab chiqardi.

Inobatning onasi ikki-uch sovchini qaytardi. Yoqmaganidan emas, rahmi kelganidan, insof yuzasidan qaytardi. Sovchi bo‘lgan xotin halimdek yumshoqqina ekan. Inobat uni ikki kunda shaftoliqoqi qilib qo‘yadi. Ikkinchisi parishtalikkina, har ikki gapning birida, o‘zim o‘rgilay, deb turardi. Inobat unga bir shaqillasa naq bechoraning ko‘ngli ketib qoladi-ya.

Shunday qilib, necha sovchilarga yo‘q degan ona o‘zlaridan besh mahalla naridagi „Yetti og‘ayni botirlar“ning kichigidan kelgan sovchilarga darrov „xo‘p“ deb, opkelgan nonini ushatdi. „Yetti og‘ayni botirlar“ ning onasi butun shaharga tanilgan, kelin zotini bodroq qilib qovuradigan „general kampir“ nomini olgan xotin edi.

Unashilgan kunining ertasiga ammasi Inobatning peshanasiga yana mushtlab dedi:

— Endi o‘lding. Qaynonang tiriklayin yeb qo‘yadi.

Inobat uni pisand qilmadi.

— Menimi? Ovora bo‘ladi. Ignaning teshigidan o‘tqazvoraman.

Xullasi unisi u dedi, bunisi bu dedi. To‘y bo‘ldi. Inobat jindek pardozi bilan oydekkina kelin bo‘ldi. Ayniqsa to‘yning ertasiga gul-gul ochilib ketdi.

Shaharga doston bo‘lgan to‘y ham tugadi. Olti ovsin uch kun idish-tovoqlarni qatron qilishdi. Dasturxon-sochiqlarni qaynatib yuvib, dorga yoyishdi.

Qaynona ishga aralashmay, ayvonda tasbeh o‘girib, kelinlarning ishlariga qarab o‘tirardi. O‘rtancha kelin tez-tez uning oldiga borib, orqasidagi yostiqni to‘g‘irlab, choyni yangilab berardi.

Inobat ularning oldida bekor turishga xijolat bo‘lib naridan beri ovsinlariga qarashardi. O‘rtancha kelin choy damlab ayvonga, kampir oldiga ketdi. Inobatning oldida cho‘nqayib o‘tirgan kichik ovsini sekin turtib:

— Ko‘ryapsizmi, shpion o‘lgurni! Shunga ehtiyot bo‘ling. Shum kampirning agenti u.

Inobat piq etib yubordi.

— Kulmang, aylanay ovsin, boshingizga tushganda bilasiz.

Bir hafta o‘tmayoq, bu uydagi sir-asror Inobatga oynadek ravshan bo‘ldi qo‘ydi.

Inobat yettinchi kelin bo‘lib tushgan edi. Kampir yetti o‘g‘il ko‘rgan: yettovini ham o‘qitib, oyoqqa turg‘azgan. O‘g‘illari ona izmidan bir qadam chiqishmasdi. Topgan-tutganlarini — ona qo‘liga tutqazishardi. Yetti o‘g‘il, yetti kelin bir qozonda ovqat yeyishar, bironta kelin o‘zicha qozon osolmasdi. Kampir ro‘zg‘orxonaning kalitini nimchasing tugmasiga bog‘lab olgan, kechqurun masalliqarni olib borib, qozon bir marta qaynaguncha oshxonadan chiqmasdi.

Kelinlarining hammasi ishlashardi. Ertalab, nonushtaga fotiha o‘qilganidan keyin, kampir ichkaridan hamyonini opchiqib,

kelinlariga ellik tiyin, o'g'illariga bir so'mdan qo'yadi. Maktabga boradigan nevaralariga o'n tiyindan beradi. Keyin hamyonini yana opkirib ketadi.

Har oyning o'n beshida o'g'illari, kelinlari birin-ketin kelib, maoshlarini uning oldiga qo'yishadi. Kampir shoshmay sanab olaveradi. O'n besh kunlik maosh ming so'mga etmasa, qovog'i osilib ketardi.

Kampirning yana bir odati bor edi. U kechqurun kelinlar, o'g'illar uy-uylariga kirib ketganlarida hammasining uyi ostonasida g'imirsib yuradi. Qaysi birining tuflisi yirtilgan, yo tagicharmi yedirilgan bo'lsa, yig'ib oladi. Ertasiga ishdan qaytguncha guzardagi ustaga bir xalta qilib opchiqib, butlab olib keladi.

Xullasi, bu uyda kampir marshaldek edi. Ipidan ignasigacha uning nazarida edi. Yetti oila kechqurun kampirning ayvoniga to'planishardi. Chunki shu yetti oila uchun bitta televizor bor edi. Hamma barobar ko'radi. Kampir esnadi deguncha, o'rtancha kelin darrov turib o'chiradi. Kino kinoligicha, konsert konsertligicha qoladi.

Ovsinlar bitta shu kampirdan, bitta shu o'rtancha ovsindan qo'rqishadi. Ro'zg'orda nimaiki achchiqlik bo'lsa, shu o'rtancha kelin sababchi. U kechalari mahsichan yurib, ovsinlarining derzasiga quloq soladi. Nima qilishyapti, nima deyishyapti, darrov kampirga yetkazadi. Kechasi aytilgan gap ertalab tong otmay kampirning og'zidan chiqadi.

Xullasi bu uy o'z podshosi, o'z vaziri bor kichkinagina mamlakatga o'xshardi. Bu „mamlakat“ning o'z qonunlari, o'z tartiblari bor edi.

ABDULLA ORIPOV

(1941)

Inson tabiati bilan uning taqdiri o'rtasida ba'zan ajib bog'lanishlar bo'ladi. Abdulla Oripov Navro'zni, bahorni alohida bir intiqlik bilan sevadi. Uning ijodida Navro'z va bahorga bag'ishlangan qanchadan qancha ajoyib satrlar, she'rlar bor. Shoirning o'zi ham Navro'z kiradigan kun 21- martda 1941- yilda tug'ilgan. Qashqadaryo viloyati Koson tumani, Nekuz qishlog'idagilar faxr bilan uni bizning hamqishlog'imiz deb ataydilar.

Oila boshlig'i oddiy dehqon Orif bobo farzandlarining ta'lim-tarbiyasiga, ayniqsa, halol va mehnatsevar bo'lib yetishuviga katta

e'tibor berdi. Abdullaning bolaligi dov-daraxtlar kam, lekin zavq-shavq ko'p, suv oz, biroq sarrin shaboda-yu, ertaklari mo'l Qo'ng'irtog' etaklaridagi qirlarda o'tdi.

Serfarzand oila — 4 qiz, 4 o'g'il, ular ichidagi kenjasi Abdulla nainki oila yoki maktab, balki, umuman qishloqda o'tkir zehni va qobiliyati bilan ajralib turar edi. U 17 yoshida o'rta maktabni oltin medal bilan tugatdi. 1958- yildan Toshkent davlat universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo'limida tahsil ola boshladi.

Universitetdagi qaynoq hayot, muhit Abdulla Oripovning shaxs sifatida tarbiyalanishida, talabalik dunyoqarashi shakllanishida, shoir bo'lib oyoqqa turishida, chiniqishida muhim rol o'ynadi. Uning dastlabki „Umr duch qilarkan“, „Hali oldindadir go'zal kunlarim“, „Sendan yiroqda“ she'rlari bosilib chiqdi. Hozirgacha kechgan 35 yillik ijodi davomida shoir ko'pdan ko'p asarlar e'lon qilib, O'zbekistonning peshqadam shoirlaridan biriga aylandi. „Onajon“, „Ruhim“, „O'zbekiston“ she'rlari shular jumlasidandir.

Abdulla Oripov mustaqil O'zbekiston Respublikasining madhiyasini yozgan va O'zbekiston Yozuvchilar uyshmasiga ko'p yillar rahbarlik qilgan taniqli shoir, O'zbekiston xalq deputati, yirik jamoa arbobidir.

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI?

Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo!
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho?!
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki qiyoshimi sevgimga sabab,
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman.
Nechun ardoqlayman tuprog'ini men,
O'paman tuprog'ingni bebaho Vatan.
Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng,
Nechun u tuproq deb yig'ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?

Xo'sh ne uchun sevaman O'zbekistonni?
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go'zal so'zlardan oldin,
Men ta'zim qilaman ona xalqimga.

MUHAMMAD YUSUF

(1954—2001)

O'zbek xalqining iste'dodli shoirlaridan biri Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatida tug'ildi. O'рта maktabni tugatgandan so'ng, Respublika rus tili va adabiyoti institutini (1978-yil) tamomladi. 1978—1980- yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980—1986- yillarda „Toshkent oqshomi“ gazetasida, 1986—1992- yillarda esa „O'zbekiston ovozi“ gazetasida faoliyat ko'rsatdi.

U o'nga yaqin she'riy to'plamlarning, o'nlab qo'shiqlarning muallifi sifatida shuhrat qozondi. Uning dastlabki she'rlari birinchi bor „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“ gazetasida 1976-yilda chop etilgan. Shundan sing „Tanish teraklar“ (1985), „Bulbulga bir gapim bor“ (1987), „Iltijo“ (1988) va shu kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989-yilda „Uyqudagi qiz“ nomli she'riy to'plami uchun unga Respublika yoshlar mukofoti berildi.

QAYDA BOR

Yomg'ir yog'ar shitirlab
Nurmi, ipak tolalar.
Bahor kelsa qiqirlab,
Qirga chiqar lolalar
Lolalar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor...
Ko'kni bulut o'raydi,
Yerni yomg'ir allalar.
Rayhon hidin taraydi,
Donga intiq dalalar.
Dalalar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor...
Qalbga taskin izlasang —
Turg'un cholni so'ragin.
„Tanovar“ni tinglasang

Sel bo'ladimi yuraging.
Navolar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor...
Ko'ringanni duolar,
Qilar bizda momolar.
El-u yurtga omonlik
Tilar bizga momolar.
Momolar har joyda bor
Bizda bori qayda bor...
Bizning bo'ston qayda bor,
Shohimardon qayda bor,
So'lim Surxon qayda bor.
Samarqand non qayda bor.
O'zbekiston qayda bor?!

TOHIR MALIK

(1946)

Tohir Malik 1946- yili Toshkentda ziyolilar oilasida tug'ildi. U maktabni tugatgandan keyin, Toshkent Davlat Dorilfununining jurnalistika bo'limida o'qiydi. Tohir Malikning birinchi asari 1971-yilda „Hikmat Afandining o'limi“ nomi bilan chop etilgan fantastik qissasi bo'ldi. So'ngra „Zaharli g'ubor“ (1978) ilmiy fantastik asari „Somon yo'li elchilari“ (1979), „Chorrahada qolgan odamlar“ (1985), „Qaldirg'och“ (1987), „Bir ko'cha, bir kecha“ (1988), „Alvido bolalik“ (1989), „So'nggi o'q“ (1990), „Shaytanat“ (1995) kabi o'nlab hikoya va qissalar to'plami chop etildi. Yozuvchi ko'pincha fantastik va sarguzasht yo'nalishida yozadi. Shu orqali ham hayot, odamlar va jamiyat haqida ancha keng mushohada yuritadi.

SHAYTANAT

(*Romandan parcha*)

1949- yilning 31- dekabri. Tongga yaqin onasining ingrayotganini eshitdi. Keyin otasi nimadir dedi.

— Uyg'ondingmi, toychoq? — dedi dadasi ostonada turib. — Turaqol, ayangni kasalxonaga tashlab kelaman. Bugun qorbobo senga ham chana, ham uka olib keladiganga o'xshaydi. Sen yaxshi bola bo'lib o'tirib tur.

— Dadasi, tanchaning cho'g'ini o'chirib qo'ying. Toychog'ingiz sovqotibdi, — dedi. Dadasi engashib, ko'rpaning bir tomonini ko'tardi-da, kulini titib, cho'g'ini o'chirdi.

Keyin jo'nab ketishdi.

U joyiga yotdi. Avvaliga yolg'izlikdan biroz qo'rqdi. So'ng uxlab qoldi. Bu safar qorni ochib uyg'ondi. Sandal ustini qoplab turgan to'rt burchakli katta patnisda bir burda non, bir siqim turshak bor edi.

Ko'cha tomondan bolalarning quvnoq qiyqirishlari keldi. Non bilan turshakni yeb bo'lguncha „ko'chaga chiqsam dadam urishadilar“, deb o'ziga o'zi so'z berib o'tirdi. Qorin g'ami biroz arigach, dik etib o'rnidan turdi-yu, ayasi tikib bergan paxtalikni egniga ildi.

Ana shu paytda ko'cha eshigi ochilib, ikki kishi kirib keldi. Ayyonga chiqib oyoqlarini tap-tap urib, qorni qoqishdi. So'ng eshikni ochib tanchali uyga kirishdi.

— Uyda kim bor? — deb so'radi past bo'yli kishi.

— Otang qayerda? — deb so‘radi novcharog‘i.

— Dadam ayam bilan ketdilar.

— Qayoqqa?

— Uka olib kelgani.

Ular bir-birlariga g‘alati qarab oldilar.

— Joyingda qimirlamay o‘tir, — deb buyurdi past bo‘yli kishi.

Qo‘rqib ketganidan qimirlashga ham holi qolmadi.

Ular etiklarini yechmay, eski kigiz ustida iz qoldirib, tokcha tomonga o‘tishdi. Kitoblarni titkilashdi. Keyin sandiqni ochishdi.

U titray boshladi. „Hech narsa topisholmasa, meni o‘ldirishadi“, degan xayolga kelib, yig‘lab yubordi.

— Nimaga yig‘layapsan, qo‘rqyapsanmi? — dedi novcha odam.

— Qo‘rqma, biz o‘g‘ri emasmiz. Biz xalqni o‘g‘ri, muttaham dushmanlardan himoya qiladigan odamlarmiz. Sening otang ham dushman. Oddiy emas, xalq dushmani!

— Bolaga bu gaplarni gapirmang, foydasi yo‘q.

— Foydasi bor. Bilib qo‘ysa, chakki bo‘lmaydi. Tanishuv tugagach, bittasi patnisni surib qo‘yib, kursi ustiga, ikkinchisi deraza tokchasiga o‘tirib, papiros tutatdi.

Ular uzoq kutishdi. Nihoyat, ko‘cha eshigi og‘zida dadasi ko‘rindi. Qo‘lida chana! U suyunganidan irg‘ib turib, tashqariga yugurib chiqishi kerak edi. Ammo o‘rnidan jilolmadi. O‘g‘lining peshvoz chiqmaganidan dadasi ham ajablanib: „Toychoq, uydamisan?“ deb qo‘ydi. Eshikni ochib, tanchali uy ichkarisiga bir odim tashladi-yu, hayratlanib to‘xtadi.

— Siz qamoqqa olindingiz, — dedi past bo‘yli odam, uning orqasiga o‘tib.

— Xalq dushmani sifatida, — dedi novcha odam, uning ro‘parasiga turib olib.

Dadasi indamadi. U „Dadam ikkalasini urib-urib ko‘chaga otvorsalar edi“, deya juda-juda istagan edi. „Nimaga urmayaptilar, kuchlari yetmaydimi? Men borman-ku!“

— Dadamga tegmang! Tegmang dadamga! — daf‘atan kelgan hayqiriqni to‘xtata olmadi. Irg‘ib turib uzun bo‘ylining yelkasiga tirmashdi.

— Jim bo‘l, ilonvachcha! — U shunday deb itarib yubordi.

— Bolaga tegmang! — deb baqirdi dadasi.

— Bo‘ldi, tomosha tamom, yur, — dedi past bo‘yli odam.

— Birodarlar, — bu safar dadasining ovozi titrab chiqdi, — axir bugun yangi yil, o‘g‘lim yolg‘iz. Ertaga tong sahar aytgan yeringizga o‘zim yetib boraman.

— Mumkin emas, yur.

Dadasi ularga boshqa yalinmadi. Faqat „O‘g‘lim bilan xayrlashib olay“, deb izn so‘radi. Ruxsat tekkach, uni bag‘riga olib yuzini yuziga bosdi. Shunda yuziga dadasining ko‘z yoshi tegib, u ham yig‘lab yubordi.

— Yig‘lama o‘g‘lim, Jalil o‘rtog‘ingnikiga chiqib o‘tir. Men ertalab qaytaman. Ayang senga uka olib keladi. Otini Samandar deb qo‘yamiz. Esingdan chiqmasin — Samandar!

Dadasi shu ketganicha qaytmadi.

PIRIMQUL QODIROV

(1928—2011)

O‘zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri Pirimqul Qodirov 1928- yilda Tojikiston Respublikasining O‘ratepa tumani-dagi Kengyo‘l qishlog‘ida tavallud topdi. 1951- yilda Toshkent Davlat Dorilfununini tugatib, Jahon adabiyoti institutining aspiranturasiga kiradi. „Abdulla Qahhorning urushdan keyingi ijodi“ mavzusida nomzodlik ilmiy ishini himoya qiladi. 1963—1976- yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining katta ilmiy xodimi vazifasini bajardi.

Adib ijodining debochasi talabalik yillarida e‘lon etilib, tolibi ilmlar hayotini, ularning ichki olamini badiiy bayon qilgan „Studentlar hikoyasi“ 1950- yilda bosmadan chiqdi. Ketidan „Jon shirin“, „Kayf“, „Olov“ hikoyalari, „Besh yilliklar farzandi“, „Qadrim“, „Erk“, „Meros“ qissalari, „Najot“ afsona-qissasi, „Sarguzashtlar“, „Yayra institutga kirmoqchi“ nomli qissa va hikoyalar to‘plami, „Uch ildiz“, „Olmos kamar“ romanlari kitobxonlarga taqdim etildi.

Oldin „Yulduzli tunlar“, „Avlodlar dovoni“ bilan Pirimqul Qodirov o‘zbek tarixiy romanini ustoz Oybekdan keyin yangi pog‘onaga ko‘tardi.

„Yulduzli tunlar“ romani uchun Pirimqul Qodirov 1982- yili Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Unga O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berilgan. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputatidir.

YULDUZLI TUNLAR

(Romandan parcha)

Otasining maxfiy maktubi borganda Humoyun Sambxalda og‘ir kasalga chalinib to‘shakda yotgan edi. Maktubni o‘qigach odamlariga:

— Meni tezroq Agraga yetkazinglar! — deb buyurdi.

Dehliga kelguncha Humoyunning isitmasi yana oshib, kasali battar og'irlashdi. Uni olib kelayotgan Hindubek yo'lda biror korhol bo'lishidan qo'rqib, darhol Agraga xabar yubordi-yu, o'zi Dehlida qolib Humoyunni eng yaxshi tabiblarga davolata boshladi.

Lekin dor-u darmon kor qilmas, qora bezgakka o'xshash bir dard Humoyunni kecha-yu kunduz kuydirib, go'yo jingak qilib tashlamoqda edi.

Agradan ikki kecha-yu kunduz otliq yo'l yurib, Mohim begim yetib keldi. Daryo yo'li tinchroq va salqinroq deyishib, Humoyunni Dehlida kemaga solishdi-da, oqim bo'ylab Agraga olib kelishdi.

Humoyunni taxtiravonga yotqizib, sakkiz yigit Zarafshon bog'iga ko'tarib kirdi. Bobur rangi yerday unnuqib ketgan Mohim begimni ko'rgandayoq, yuragi „shuv“ etib ketdi. Yigitlar ko'tarib kelayotgan taxtiravon uning ko'ziga tobutday sovuq ko'rindi.

Humoyun tuni bo'yi alahlab behush yotdi. Faqat sahar palla ko'zini xiyol ochib, tepasida turgan otasini tanidi, o'rnidan turgisi kelib qimirladi, lekin boshini ko'tarishga ham madori yetmadi. Otasining maxfiy maktubida yozilgan gapga rozi bo'lolmasligini aytmog'chi bo'lib:

— Biz... xizmatda... sizensiz... — „Mumkin emas!“ deganday bosh chayqadi-yu, keyin yana alahlay boshladi. — G'ulga uring... uring! Ketdi!.. To'xta!..

Humoyun nafasi qaytganday talvasa qilib, o'zini u yoqsan bu yoqqa bir-ikki otdi-yu, yana hushidan ketdi.

Saroy tabiblari bu og'ir dardga hech bir davo topolmadilar. Mohim begim yum-yum yig'laydi. Bobur suyukli o'g'lini hadeb o'tga-suvga solib, shu kasallikka o'zi ham sababchi bo'lganday o'rtanardi. Og'ir paytlarda Bobur suyanib o'rgangan odamlar biron chora topishni undan kutadilar. Lekin hozir u ham chorasizlikdan o'zini qo'yadigan joy topolmay qiynaldi. Keksayib, munkillab qolgan shayxulislom Boburning yoniga keldi:

— Hazrati oliylari, ko'p g'am chekmang, parvardigor g'oyibdan shifo yuborgusidir, — dedi. — Tabiblardanki ish chiqmadi, endi xudo yo'lga dunyo molidan tasadduq qilmoq kerak.

Bobur shayxulislomning niyatiga tushunolmay:

— Qaysi moldan? — deb so'radi.

— Jon omon bo'lsa javohir topilur. O'shal... ashxas olmos yaxshi tasadduq bo'lg'ay.

Bobur Jamna ustida kemada o'ltirganda Humoyun keltirib ko'rsatgan olmosni esladi.

— Ko'hinurnimi?

Shayxulislom tasdiq ma'nosida bosh irg'adi. Bobur hushini bir joyga yig'ib:

— Taqsir, kimga tasadduq qilaylik? — deb so'radi.

Qiymati ulkan oltin xazinalariga barobar keladigan bu olmosni o'g'rilardan qo'riqlab turish uchun ham juda ko'p navkar kerak edi. Shuni biladigan shayxulislom „menga“ deyishga tili bormadi.

— Murtazo Ali mozoriga, — dedi. — Din yo'liga.

Mozor va Ko'hinur olmosi bir-biriga mutlaqo qovushmaydigan narsalar edi. Dindorlarning kattasi shayxulislom bo'lganligi uchun olamni bezaydigan bu go'zal olmos aylanib kelib uning sandig'iga tushishi aniq. Bobur hozir mol-u dunyoni o'ylaydigan ahvolda bo'lmasa ham Humoyunga taqdim etilgan bu noyob gavharga munkaygan shayxulislom ko'z tikkani uni sergaklantirdi. Ruhoniylar ilojini topsa podshohdan ham baland turishga va ularning boshiga og'ir kun tushganidan foydalanib o'z hukmlarini o'tkazishga intilishlari ko'pdan ma'lum edi.

— Taqsir, nazaringizda, o'shal olmos azizmi yoki mening jonim aziz?

Shayxulislom hang-mang bo'lib:

— Nechun unday deysiz, hazratim! — dedi. — Undoq olmoslarning yuztasidan sizning bir mo'yingiz azizroqdir!

— Minnatdormen! Undoq bo'lsa, men Humoyunga jahondagi barcha olmoslardan ham azizroq bir narsamni qurbon qilmoqchimen. Faqat bu qurbonni siz-u bizga o'xshagan bandalari emas, zarur bo'lsa parvardigorning o'zi olsin!

Bobur o'ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o'tib, Humoyunning to'shagi yoniga keddi.

— Humoyun, jigarbandim! — dedi u hamma eshitadigan tovush bilan. — Sening betoqatlig'ingga men toqat keltiray. Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin!

Behush yotgan Humoyun bu gaplarni eshitmas, lekin bemorning xobgohidagi ayollar, mulozimlar, tabiblar, ruhoniylar — hammasi Boburga quloqlarini ding qilib qarab turardilar.

Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch marta aylandi-yu:

— Yo, parvardigor! — deb iltijo qildi. — Menki Boburmen, agar jon berish mumkin bo'lsa, umr-u jonimni Humoyunga

qurbon qildim! Azroyil mening jonimni olsin-u xudo Humoyunga shifo bersin!

Mohim begim yig'idan to'xtab, Boburga qo'rquv aralash hayrat bilan tikilib turardi. Keksa shayxulislom esa hozirning o'zidayoq Humoyunning sog'ayib ketishini va Boburning hol-sizlanib yiqilishini kutganday ancha vaqt ota-bolaga baqrayib qarab turdi. Lekin kutilgan mo'jiza yuz bermadi. Behush Humoyun alahlab bir nima dedi-da, yana jim bo'ldi.

Boburning badanidan „lop“ etib olov chiqqanday bo'ldi, vujudi qizib ketdi. U hamon behush yotgan Humoyunga qarab:

— Ko'tardim dardingni! — dedi-da, yelkasiga og'ir yuk olgan odamday qaddi xiyol egilib xobgohdan chiqib ketdi...

Yigirma uch yoshli Humoyunning yigit yuragi otasi ko'rsatgan ruhiy madaddan kuch olib, og'ir kasallikni axiyri yengdi. Oradan bir hafta o'tgach, u kasal ko'rishga kelganlarni o'rnidan turib qabul qildi. Yana ikki kundan so'ng otasini borib ko'rish uchun xobgohidan chiqdi.

Bobur o'g'lini Orombog'ning to'ridagi xonayi xosda qabul qildi. Humoyun uning qarshisida tiz cho'kib, ko'ziga yosh olib gapirdi:

— Hazratim, men sizning iltijongiz bilan shifo topmishmen. O'zimga kelganimdan beri xudodan tilaymenki, sizning umringiz uzoq bo'lsin! Bu ulug' davlatni siz barpo etdingiz. Hammamizning pushti panohimiz o'zingizsiz. Parvardigor bizga rahm qilsin!

Bobur o'g'lini yelkasidan olib o'rnidan turg'izdi:

— Mana, shukur, yuribmen-ku, o'g'lim. Sen ko'p xavotir bo'lma.

— Ammo shayxlar: „Hazratim o'g'liga kelgan ajalni o'zlariga oldilar“, deb ko'nglimga g'ulg'ula soldilar.

Bobur o'g'liga o'ng yonidan joy ko'rsatdi.

— Humoyun, o'g'lim, mardona bo'l, eng og'ir yuklar endi sening yelkangga tushadigan ko'rinadir. Xayriyat, tuzalib ketding. Agar mutaassib shayxlarning gapiga kirib, Ko'hinur olmosini tasadduq qilsam, ular g'olib chiqmasmidi?

„Humoyunni biz o'shal tasadduq evaziga qutqarib qoldik, biz podshohdan ham zo'rmiz!“ deb tantana qilmasmidi?

Imon-u e'tiqod bunday g'arazlardan baland turmog'i kerak-ku, axir!

— Ilohim, siz haqqingizdagi karomatlari ham yolg'on chiqsin!

— Har qalay, sen Olloh-u taologa g'arazli shayxlar orqali emas, bevosita imon-u e'tiqodning orqali iltijo qilishga o'rgangin.

Shayxlar mudom podshohning tepasiga chiqib, unga hukmini o'tkazishga intilurlar. Shundan ehtiyot bo'lg'in.

— Toki tirikmen, bu o'g'itingizga hamisha amal qilgaymen!.. Endi... Hazratim, Sambxal chegarasida yana qonli to'qnashuvlar bo'lmoqda emish. Ijzat bersangiz, men borib chegaralarni tinchitsam...

Bobur indamay o'rmidan turdi-da, xonayi xosning to'ridagi sandiqni ochdi. Humoyun tik turgan holda otasiga yuzlanib qo'l qovushtirdi.

Bobur sandiqdan oq ipak matoga o'ralgan qilichni oldi.

— Humoyun, o'g'lim, mening qancha umrim qolgani xudoning o'ziga ayondir. Sohibqiron bobokalonimizning mana shu qilichini endi sen taqmog'ing kerak. Bu qilichga „Kuch — adolatlidir“ degan so'zlar bitilgan. Doim odil bo'lg'in-u mag'lub bo'lmagin!

Bobur qilichni o'g'liga ikki qo'llab uzatdi. Humoyun tabarruk qilichni tiz cho'kib oldi-da, uning muqaddas yozuv bitilgan joyini ko'zlariga surib o'pdi.

— Mayli, — dedi Bobur. — Sambxal notinch bo'lsa, borib tinchitgin-u o'ringga Hindubekni qo'yib qaytgin. Endi davlat ishini zimmangga olmog'ing kerak...

Yomg'ir fasli o'tib, osmon yana bulutlardan tozalandi, tunlar salqin bo'lib qoldi. Bobur uyqusiz tunlarda bog'ga chiqar va yulduzlarni tomosha qilgisi kelib osmonga qarardi. Lekin tanida isitmaning balandligidan osmondagi yulduzlar joyidan ko'chib, girdobga tushib aylanib ketayotganday ko'rinar, ko'ngli behuzur bo'lib, osmondan darhol ko'zini olardi.

Kunduz saroyda davlat ishlarini qilgan paytida goh shayx-ulislomni, goh nufuzli a'yonlarni uchratur, ular Boburga avvalgidan ham pastroq egilib ta'zim qilishar, lekin o'lishi muqarrar bo'lgan bemorga qaraganday musibatli ko'zlar bilan qarashar, muomalalaridagi alohida muloyimlik ham shundan dalolat berar edi. Ularning e'tiqodiga binoan, Bobur o'z hayotini o'g'liga qurbon qilgan, shuning uchun Humoyun tuzalib ketgan, endi ko'zga ko'rinmas ajal qilichi Boburning boshi ustida osilib turar edi.

Ochiq aytilmaydigan, haddan ortiq mayin gaplar, ta'zim-u tavozelar ostiga yashiriladigan bu mash'um ishonch Boburga juda og'ir ta'sir qilar, goho atrofida aylanib yurgan o'lim sharpasini uning o'zi ham sezganday bo'lardi.

Mezon o'tib, qavs oyi kirganda Boburning kasalligi battar og'irlashdi, Biror joyida yara yoki shish yo'q, nuqul ichi kuyadi, isitmasi ko'tarilib, uxlay olmaydi, rangi kun sayin so'lib boradi. Mavloni Yusufiy mamlakatning eng mashhur tabiblaridan uch-

to'rttasini chaqirtirib maslahatlashdi. Bemorning tomiridan qon olib ko'rishdi. G'onning rangi sog'lom odamnikidek tiniq emas, allanechuk iriganga o'xshab qolgan edi.

Tabiblar o'zaro kengashib, „Malika Bayda bergan zaharning qonda asorati qolgan“ degan xulosaga keldilar va qonni tozalaydigan dorilardan, anor suvidan ko'proq berishni buyurdilar.

Lekin bu narsalarning hech biri kor qilmadi. Bobur holsizlanib yotib qolgach, Humoyunga chopar yuborishdi.

Humoyun kelsa, otasi o'z xobgohida baland oq to'shakda terga botib yotibdi. Rangi sap-sariq bo'lib ketgan. Boburning bosh tomonida Xonzoda begim pat yelpig'ich bilan uning yuzini yelpiyapti. Oyoq tomonida Mohim begim g'am-g'ussaga botib, haykalday beharakat o'ltiribdi.

Humoyun tiz cho'kib, otasining to'shagini quchoqladi. Boburning ozg'in qo'lini o'pib ko'rishdi, so'rashdi. So'ng otasining bu ahvoliga o'zi sababchi bo'lganday yonib gapirdi:

— Nechun bizga bunchalik jon fido qildingiz, hazratim?

Bobur majolsiz tovush bilan:

— Sen buni o'zingdan ko'rma, — dedi. — Illat qonda emish. Bilmadim... Har qanday olov ham yonib-yonib axiyri bir kun...

— Bobur „o'chadi“ demoqchi bo'ldi-yu, lekin ayollarni ayadi:

— Alangasi pasayadir. Men umr bo'yi ayovsiz yondim.

— Biz uchun ham kuyib-yongansiz! Endi bu qarzlarni uzishga mening butun umrim yetmagay!

— Qarzingni menga uzolmasang... farzandlaringga uzarsen...

Bobur to'xtab-to'xtab so'zlayotgan bo'lsa ham ko'nglidagi gaplarini ravon aytayotgani Humoyunni umidlantirdi. U otasining so'zini bo'lmay, jim quloq sola boshladi.

— Temuriylarning ko'pchiligi... fidoyilikni unutilib... yo'q bo'lib ketdi. O'g'il otani o'ldirdi. Og'a iniga xiyonat qildi... Oqibatda... bari razolatning qurboni bo'ldi... Undan ko'ra... yaxshilikning fidosi bo'lgan afzal emasmi?... Mana amming Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib o'zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo'lishga undab keddi... Sen ham endi inilaring-u... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o'rgatgin.

Bobur to'shakning orqa tomonidagi harir oq pardaning ortiga boshini burib qaradi. Parda ortida odam borligini Humoyun endi payqadi.

— Tohirbek, juzdonni keltiring, — dedi Bobur.

Shu vaqtgacha qimir etmay o'tirgan Tohir endi tez o'rnidan turdi-yu, tokchadagi katta charm juzdonning ichidagi yangi muqovalangan qo'lyozmasi bilan ikki qo'llab ko'tarib keldi.

— Badaxshonda, „Vaqoyi“ni so‘ragan eding, — dedi Bobur Humoyunga. — Mana, yozib tugatdim. Ol.

Tog‘lar orasida Bobur: „Bu kitob bitganda mening umrim ham tugagay!“ degani Humoyunning yodiga tushdi. U juzdon ichidagi kitobni olib peshanasiga surib o‘par ekan, ko‘zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. Yirik bir yosh tomchisi zarhal muqova ustiga tomib tushganini Bobur ham ko‘rdi.

— Sendan iltimosim, — deb davom etdi Bobur. — Buni avlodlaring ham o‘qisin... Xatolarimni takror etmanglar. Yaxshi ishlarim... oz bo‘lsa, ko‘paytiringlar. Bu kitobdan nusxalar ko‘chirtirib, Samarqandga... Toshkentga... Andijonga... munosib odamlarga yuborin... Men tug‘ilgan yurt bilan aloqani uzmanglar. Shoyad men bitgan kitoblar... ikki oradagi aloqaning rishtalari bo‘lsa...

Bobur Mavlono Fazliddinga qarab:

— Yana bir o‘tinchim bor, — dedi. — Olamdan ko‘z yumsam... Kobulda o‘zingiz tarhini chizgan bog‘ bor... Tog‘ tepasida... Abadiy oromgohim.. o‘sha Guzargohda bo‘lsin... Ortiqcha dabdabasiz... shoirona bir tarh chizing...

Mavlono Fazliddin o‘pkasi to‘lib gapirolmadi. Tasdiq ma‘nosida bosh irg‘adi-yu, ko‘zidan oppoq soqoliga oqib tushgan yoshni artib eshikdan chiqdi.

O‘TKIR HOSHIMOV

(1941)

Talantli yozuvchi O‘tkir Hoshimov 1941- yilda Toshkentda ishchi oilasida tugildi. U o‘rta maktabni bitirgach 1959—1964-yillar Toshkent Davlat Dorilfununining filologiya fakulteti jurnalistika bo‘limida ta‘lim oldi. Uning birinchi ocherklar to‘plami 1962-yilda „Po‘lat chavandoz“ nomi bilan nashr etildi. So‘ngra „Cho‘l havosi“ (1963), „Odamlar nima derkin“, „Shamol esaveradi“, „Bahor qaytmaydi“ (1970), „Qalbinga quloq sol“ (1973), „Uzun kechalar“ (1975), „Nimadir bo‘ldi“ (1976), „Quyosh tarozisi“ (1980), „Dunyoning ishlari“ (1982) hikoya va qissalari to‘plamlari hamda „Nur borki, soya bor“ (1979), „Ikki eshik orasi“ (1986) romanlari bosilib chiqdi. Uning „Tushda kechgan umrlar“ romani chop etilgan. Unda shaxsga sig‘inish va qatag‘onlik davri illatlari haqida hikoya qilinadi. 1974- yili esa „Birovning tashvishi“ nomli psixologik dramasi sahnalashtirildi. Bundan tashqari, O‘tkir Hoshimov O‘rta Osiyo respublikalarining qator teatrlarida namoyish qilingan „To‘ylar muborak“, „Sizdan u gina, bizdan bu gina“

kabi pyesalar muallifidir. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1991) O‘tkir Hoshimov „Dunyoning ishlari“ qissasi uchun Oybek nomidagi (1982) hamda „Ikki eshik orasi“ romani uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga (1986) sazovor bo‘lgan.

TARIX „XATOSI“

To‘qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazimiy algebra faniga asos soldi.

O‘ninchi asr. Abu Nasr Farobiy Aristotelning „Metafizika“ asariga eng mukammal sharh yozib, „Ikkinchi ustoz“ unvonini oldi.

O‘n birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy yer bilan oy o‘rtasidagi masofani o‘lchadi. Ibn Sino meditsina Qomusi — „Tib qonunlari“ni yaratdi.

O‘n to‘rtinchi asr. Sohibqiron Amir Temur Yevrosiyoning yarmini tasarrufiga oldi. Ahli ilm boshini silab, o‘lmas obidalar yaratdi.

O‘n beshinchi asr. Ulug‘bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o‘lmas „Xamsa“sini yozdi.

O‘n oltinchi asr. „Boburnoma“ olamga tarqaldi.

O‘n yettinchi asr. Shoh Jahon dunyodagi yetti mo‘jizaning biri — „Tojmahal“ni bunyod etdi.

Yigirmanchi asr. O‘zbek-sovet olimlari misli ko‘rilmagan „ix-tiro“ qildilar: tarix „xato“sini tuzatib, o‘tmishda biz yoppasiga „savodsiz“ bo‘lganimizni isbotlab berdilar...

LAYLAK

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g‘o‘r edi, bola go‘dak edi... Kunlarning birida ona-bola qishloqqa — uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo‘lishdi. Ona qaddini g‘oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi. Qishloq g‘uzarida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko‘rib angrayib qoldi: chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun bir qush turar edi.

Bola mo‘jiza ko‘rgandek taqqa to‘xtab qoldi.

— Anavi nima, oyi? — dedi o‘sha tomondan ko‘z uzmay.

— Laylak, o‘g‘lim, laylak! — ona o‘g‘lining boshini silab qo‘ydi. — Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to‘xtab qoldi.

— Nima u oyi? — dedi tag‘in chinor uchiga ko‘z tikib.

— Laylak, o‘g‘lim, laylak.

— Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi:

— Bir oyog‘i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bo‘ynini cho‘zib tumshug‘ini osmonga qaratib silkitar, shunda „tarak-tarak“ degan ovoz eshitilardi.

Bola tag‘in to‘xtab qoldi.

— Nima o‘zi u, oyi?

Uning ko‘zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turar. Mingta yumishi bor. Hali shaharga qaytishi kerak.

— Laylak, dedim-ku jinnivoy, — deb ohista egilib, o‘g‘lining yuzidan o‘pdi. — Senga salom beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

... Oradan o‘ttiz besh yil o‘tdi. Bola yigit bo‘ldi. Onasi keksayib qoldi. Oyog‘idan mador, ko‘zidan nur ketdi.

Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o‘sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g‘oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini, og‘ir-og‘ir ko‘tarib bosganча harsillab kelardi. Gu-zardagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali bor ekan. Buni qaranki, chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo‘ydi-yu, qadamini tezlatdi. Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko‘zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko‘ziga g‘alati ko‘rindi.

— Anavi nima, o‘g‘lim? — dedi to‘xtab

— Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to‘rt qadam yurib to‘xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko‘rinyapti. Qiziq...

— Nima, o‘g‘lim? — dedi ko‘zlarini pirqiratib. O‘g‘il taqqa to‘xtadi. G‘ashi keldi. O‘zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo‘lib qolarkan-da!

— Laylak! — dedi jerkib. — Laylak deyaпman-ku, karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumishi ko‘p. Hali shaharga qaytishi kerak...

Uning g‘o‘r, go‘dak bolalari bor...

O'ZBEKCHA-RUSCHA LUG'AT

A

adashmoq — заблуждаться
afsus-nadomat — сожаление, огорчение
aks — отражение
amaldor — должностное лицо, чиновник
amri vojib — приказ
anjom — утварь
arqon — верёвка, канат
asta — тихо, медленно, потихоньку
astoydil — искренне, от всего сердца
atama — термин
avj — высшая (кульминационная) точка, вершина
axtarmoq — искать
ayamoq — жалеть, беречь
ayyor — хитрец, плут
ayyorona — хитро, ловко
a'yon — вельможа, придворный
ag'dar-to'ntar — переворачивать, опрокидывать
achchiq-chuchuk — салат из помидоров с луком; горести и тягости жизни (перен.)

B

baham ko'rmoq — делиться с кем-либо
bahramand bo'lmoq — пользоваться (чем-либо)
bahra olmoq — наслаждаться
bazmi jamshid — праздник, вечеринка
bedavo — неизлечимый
behad — безграничный
behi — айва

behush — потерявший сознание
bekor — не имеющий дела или работы, бездельник
berahm — безжалостный
bexosdan — случайно
beo'lchov — безмерный
beg'am — беспечный, беззаботный
bilag'on, bilarmon — знающий
bisot — утварь, добро, пожитки
bozirgon — торговец, купец (фолькл.)
bog'-rog' — сад, парк
bukur — сутулый, горбатый.
buloq — родник, источник
bulg'anmoq — пачкаться
bunyod etmoq — создавать
bo'ynimdagi tumorim — талисман

D

dab-durustdan — вдруг, внезапно
daf — изгонять, удалять
daf'atan — вдруг, внезапно, неожиданно
dam olmoq — отдыхать
darhol — немедленно
darig' — возглас сожаления
dasht — степь
da'vat — зов, призыв
dilozor — обижающий
dolzarb — актуальный, наиболее существенный
donishmand — мудрец
dor — сооружение из мачт и канатов, по которым ходят канатоходцы
dunyoqarash — мировоззрение, взгляд

do'landa — боярышник

do'mbira — барабан

do'zax — ад

Е

ehtiros — страсть

ekin — посеv

elat — народность.

erinchoq — ленивый

ezgulik — благодеяние, доброе дело

e'tibor — внимание

e'tiqod — убеждение

Ғ

falak — небо, небеса, небесная сфера, небосвод

falokat — беда

farmoyish — распоряжение

farosat — догадливость, проницательность

farovon — изобильный

faryod (qilmoq) — крик, вопль, кричать, вопить

faxr — гордость, честь, почёт

fayzli — уютный

fazilat — достоинство

fikr — мысль

firoq — разлука

fuqaro — гражданин, житель, народ

fusunkor — чарующий, очаровательный, обаятельный

fuzalo — образованные (люди), учёные

Г

gavda — туловище, корпус, тело

gavjum — людный

gard — пятно, пыль, прах

gina-advovat — разные обиды и недовольство, попреки

gumbaz — купол, свод

go'r — могила

Н

halol — честный, добросовестный

halqa — круг, кольцо

hamisha — всегда, все время, постоянно

hamkor — сотрудник, товарищ

haqiqat — честность

hayqiriq — крик, вопль, рёв

hashamatli — величественный

hijrat — переселение, эмиграция

hiyla — хитрость, коварство

hudud — территория

hujra — каморка, келья

hujum — наступление, нападение

hush — сознание, чувство, память, рассудок

И

iltifot — внимание, любезность

ilg'amoq — необозримый

ilg'or — авангард, передовой

imkon — возможность

inoq — дружный

in'om — подарок, дар

iqbol — счастье, успех, удача

isbot — доказательство, довод

istamoq — желать, хотеть

iste'dod — способность, талант

iste'mol — употребление

istiqbol — перспектива, встреча

istisno — исключение

ixlosmandlik — преданность

izhor — выражение, изъяснение, высказывание

izzat-nafs — самолюбие, чувство самоуважения

izzat-ikrom — уважение, почтительность, почтение

ishonch — верность

ishtiyoq — сильное желание, увлечение

Ж

jalb qilmoq — привлекать

jamg'arma — накопления

jar — овраг
jarayon — течение, процесс
jarangdor — звонкий, звучный
jazirama — знойный, палящий
jazo — наказание
jigargo'sha — родной, едино-
кровный
jiyda — джида, лох восточный,
низколистный
jonkuyar — преданный всей душой
junjimoq — ёжиться

К

kalima — слово, фраза, выражение
kamolot — зрелость, совершенство
kamtarlik — скромность
karomat — чудесная сила
kayfiyat — самочувствие, на-
строение
kashfiyot — открытие, изобретение
kashachi — вышивальщица
kechmoq — отказать
keng — широкий, широко
kibrlanmoq — высокомерничать,
вести себе надменно, высокомерно
kitobfurush — книготорговец
konchi — шахтёр, горняк, рудокоп
koyitmoq — умять, уморить
kulba — хижина
kulfat — несчастье, горе
kurak — деревянная лопата
ko'nikmoq — привыкать, свык-
нуться
ko'r — слепой

Л

latifa — анекдот
lavha — эпизод, отрывок
lazzat — удовольствие
lashkarboshi — полководец, во-
еначальник
la'nat — проклятие
lohas — разморенный, расслаб-
ленный, вялый

loyqa — муть
lozim — нужный, необходимый
lutf — благоволение
lo'ttiboz — жулик, плут

М

mahliyo — очарованный
majburiyat — ответственность
majolsiz — бессильный
majruh — инвалид
makr — хитрость
manmanlik — зазнайство, высо-
комерие
mansab — чин, звание
mansub — относящийся, при-
надлежащий
manzara — зрелище, пейзаж
maqbara — мавзолей
maqbul — приятный
maqom — мотив, мелодия; статус
maqsad — цель
maqto'v — восхваление, похвала
mardonavor — мужественный
maskan — обиталище, место
жительства
mast — пьяный
matonat(li) — стойкость, стойкий
mavqe — положение
mavsumiy libos — сезонный наряд
maxfiy — тайный, секретный
mazkur — упомянутый, данный
mashaqqat — трудность
mashshoq (sozanda) — музыкант
ma'mur — администратор
mash'al — факел
mehmon — гость
mezbon — хозяин дома
me'morchilik — архитектурный
minmoq — оседлать коня
mis — медь, медный
miskar — медник
monelik qilmoq — не препят-
ствовать
mudarris — преподаватель мед-
песе

mudofaa — оборона
mudramoq — дремать, вздремнуть
muhtoj — нуждающийся
mukammal — завершённый, доведённый до совершенства
muloyim — мягкий
mumtoz — отборный
muomala — обращение, обшение
murabbiy — воспитатель, наставник
murodga yetmoq — достигать цели
muruvvat — великодушие
musaffo — чистый, прозрачный
mustahkam — прочный, прочно
mustahkamlamoq — крепить, закреплять
mustahkamlik — прочность
mutafakkir — мыслитель
muvaffaqiyat — успех, удача
muvofig — согласно, соответствующий
muyassar bo‘lmoq — достичь, удостоиться
mushkul — трудный, тяжёлый
mung‘aymoq — жалкий взгляд
mo‘jizakor — чудотворный
mo‘tabar — почтенный, авторитетный, дорогой

N

nafrat — гнев, отвращение
najot — помощь
naqsh — резьба, узор, орнамент
naychi — музыкант, играющий на нае
nihol — молодое деревце, саженец
nishona — примета, признак; плод
nogiron — ослабевший, потерявший силы, инвалид
noinsof — нечестный
noloyiq — неблагоприятный, недостойный

nomus — честь
noqobil — непослушный, непокорный
novcha — высокий
noyob — редкостный
nuqson — недостаток
no‘xat — зёрнышко, горошина

O

obida — памятник, надгробный камень
odamgarchilik — человечность
ohista — тихо, неторопливо, медленно
oliyjanob — великодушный
ont ichmoq — клясться
oqilona — умно, разумно, рассудительно
or-nomus — стыд
orasta — убранный, прибранный, опрятный
oromgoh — место отдыха, лагерь
ochiq ko‘ngil — добродушный, сердечный

P

padari buzrukvor — достопочтенный отец
parvarishlamoq — ухаживать
parvona — ночная бабочка, мотылёк
patnis — поднос
peshvoz — встречать, выходить навстречу
pirpirak — вертушка
poda — стадо
poklik — чистота, опрятность
pona — клин
puxta (pishiq) — прочный, крепкий
pushaymon — раскаяние, сожаление

Q

qabriston — кладбище
qad, qad-qomat — фигура, стан
qadrdon — близкий, дорогой человек
qamal — осада, блокада, окружение
qariya — старик, пожилой человек
qarich — мера длины, равное расстоянию между большим пальцем и мизинцем руки
qarmoq — удочка
qaroqchi — разбойник, пират
qarorgoh — стоянка, место пребывания, место жительства
qasamyod — клятва
qiliq — поступок, выходка
qir-adir — возвышенность, холмистая степь
qirg'ich — тёрка
qissa — повесть
qiyiq — срезанный, разрезанный, кривой, искривлённый
qiyiqcha — вышитый платок, завязываемый на пояс
qiyofa — облик, внешний вид, наружность
qunt (qilmoq) — усердно заниматься, усердие
qurol-yarog' — оружие, вооружение
quruq meva — сухофрукты
quvg'in (qilingan) — изгнание, быть изгнанным
qo'rimoq — оберегать, охранять
qo'rg'on — крепость, укрепление

R

rahmdil — милосердный
randalamoq — строгать, фуговать
ranjimoq — обижаться, огорчаться
ravnaq — блеск, сияние, процветание

ravo ko'armoq — дозволенный, допустимый
rasm-rusm — обряды и обычаи
rasta — торговый ряд
razolat — подлость, низость
rag'batlantirmoq — поощрять
rang-barang — разноцветный
rang-ro'yi — цвет лица, вид
rioya etmoq — соблюдение, выполнение
rizq — пропитание, пища, хлеб насущный
rohat — удовольствие, наслаждение, блаженство
ruhlanmoq — вдохновлять

S

sabr-matonat — твёрдость, стойкость
sahro — пустыня, степь
salobat — величие, величавость
salqin — прохлада
samon yo'li — Млечный Путь
sarboz — сарбаз, рядовой солдат
sarmast — слегка опьянённый, хмельной
sarson-sargardonlik — мытарство
sath — поверхность, уровень
savlat — важность
saxiy — добрый, великодушный
sayyoh — турист
serzarda — раздражительный, вспыльчивый
sir-sinoat — тайна, секрет
sodiq bo'lmoq — быть верным, преданным
sohil — берег
soha — область, сфера, профиль
son-sanoqsiz — бесчисленный
soqchi — страж, сторож
soya-salqin — тень
soz — хорошо, великолепно, прекрасно
suhat qurmoq — беседовать, разговаривать

sulton — повелитель
suymoq — ласкать
so'lim — пышный и миловидный
so'ri — виноградные шпалеры

Т

tafovut — разница, различие, отличие
takabbur — горделивый
talaba — студент
talqin qilmoq — проповедь
tanbeh — замечание
tanho — единственный
tanqid — критика
taqir-tuqur — звукоподражание стуку, грохоту, треску
tancha — сандал
taqlid — подражание, подражать
taqsimlamoq — делить, разделить
tarz — форма, вид
tasavvur qilmoq — представить
tavoze — учтивость, почтительность
taxtakach — кухонная доска для нарезки овощей
tayanch — опора, подпорка
ta'minlamoq — обеспечивать
ta'rif — описание
tekislamoq — подравнивать
tevarak — окружение
tirishqoq — старательный, усердный, прилежный
titramoq — дрожать
tobe — подчинение, зависимость
tokcha — полка
tola — волокно
toyimoq — скользить, отступить, ошибаться, сбиваться
toychoq — жеребёнок
tog'olcha — алыча
tugun — узел
tuhfa — подарок, дар
turshak — сушёный абрикос

tus olmoq — принять серьёзный вид, обернуться
tuyilmoq — казаться, представляться, ощущаться
tuyg'u — чувство
to'garak — кружок
to'ti — попугай

У

ulamo — учёный
umurtqa — позвоночник
urf-odat — обычай
usta, ustakor — мастер, знаток, ас
uzr — извинение

V

vasiyat — завещание
vayrona — развалина
voqif — осведомлённый, знающий
vaziyat — положение

X

xalfa — подмастерье
xalos — избавление, освобождение
xam — согнутый, изогнутый, согбенный, сгорбленный
xavfli — опасный
xayrixoh — доброжелательность
xirmon — хирман, склад
xislat — свойство, качество, особенность
xohish-ixtiyor — желание, охота
xor-zor — попавший в бедственное положение, впавший в нужду
xotirjamlik — спокойствие, душевный покой, безмятежность
xudbin — эгоист
xulq-atvor — поведение, манера
xurjun — перемётная сума
xushmanzara — красивый, живописный
xushmuomalalik — вежливость, обходительность

xushomadgo‘y — лстивый, угодливый

xushqomat — стройный, статный

xushxabar — добрая, радостная весть, приятное известие

Y

yakson etmoq — уничтожать

yalqov — лентяй, лодырь, бездельник

yaltiroq — блеск, лоск, глянец

yaxlit — цельный, целый

yauramoq — жить привольно

yigirmoq — пряхть

yiroy — даль

yonboshlamoq — ложиться, лечь на бок

yovuz — злой

yovvoyi — дикий

yorug‘ — светлое

yupun — лёгкий, тонкий

yupatmoq — утешать, успокаивать

yo‘ldosh — спутник

yo‘ndirmoq — не заставишь со-
строгать то, чего нет

Z

zahmat (qiyinchilik) — страдание, испытание, тягость, трудность

zanjir — цепь

zavol — упадок, отмирание

zaxira — запас, припасы

zavqlanmoq — получать, испыты-
вать удовольствие

zehn — разум

zilol (suv) — чистая, прозрачная вода

zinhor — ни в коем случае, ни-
сколько, отнюдь

ziyod — выше, больше

ziyrak — догадливый

zoye — напрасно

zulm — гнёт, угнетение, тира-
ния, насилие, жестокость

zulmat — мрак, тьма, темнота

zo‘raymoq — усиливать

O‘

o‘lchagich — измеритель

o‘roq — серп

o‘sma — усьма (растение, со-
держашее красящее вещество,
используемое для окрашивания
бровей)

o‘tkir — острый

o‘ng‘aysizlanmoq — неудобство,
стеснение, неловкое положение

o‘g‘ri — вор

G‘

g‘amgin — грустный, печальный,
горестный

g‘am-qayg‘u — горе

g‘animat — удобный, благо-
приятствование; добыча

g‘arib — одинокий

g‘aribona — бедно

g‘arq bo‘lmoq — тонуть, утопать

g‘ash bo‘lmoq — лёгкое раздра-
жение

g‘ashlamoq — испытывать раз-
дражение, беспокойство

g‘ildirak — колесо

g‘iybat — сплетня, злословие

Sh

shabada — лёгкий, прохладный
ветерок

shaksiz — несомненно

sharpa — луч света, отражение

she‘rga solmoq — складывать в
стих

shijoat — храбрость, смелость

shogird — ученик, подмастерье

shubhasiz — несомненно

shu‘la — свет, проблеск

sho‘rlik — несчастный, бедняжка

Ch

chala-chulpa — наполовину, не-
качественно, не до конца вы-
полненная работа

chana — сани

chang'i — лыжи

chigit — семена хлопчатника

chora — мера

chorasiz — безвыходный

chuqur — глубокий, глубоко

cho'l-u biyobon — безводная степь

cho'pon — пастух

cho'g' — раскалённые угли, искра

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
Oʻzbek tili Oʻzbekiston Respublikasining davlat tilidir	5

I boʻlim. Oʻtilganlarni takrorlash

Fonetik tovush oʻzgarishlari va imlo tamoyillari	6
Oʻzbek tilida soʻz tarkibi	12
Oʻzbek tilida gap tuzilishi	20

II boʻlim. Subyektни ifodalash

Subyektни shaxs va kasb otlari orqali ifodalash	26
Subyektни narsa-buyum va oʻrin-joy otlari bilan ifodalash	32

III boʻlim. Predikatni ifodalash

Predikatni feʼllar bilan ifodalash	39
Predikatni feʼldan boshqa soʻzlar bilan ifodalash	45
Subyekt va predikat oʻrtasidagi munosabatni ifodalash	50
Harakatning zamonini ifodalash	55
Harakatning bajarilish yoki bajarilmasligini ifodalash	62
Harakatning voqelikka munosabatini ifodalash	66
Bajaruvchisi aniq va noaniq harakatni ifodalash	72
Oʻzgalarga bajartirilgan harakatni ifodalash	77

IV boʻlim. Obyektни ifodalash

Toʻldiruvchi va uning ifodalanishi	84
Toʻldiruvchining turlari va ularning ifodalanishi	89

V boʻlim. Belgini ifodalash

Belgini sifatlab ifodalash	95
Qarashlilikni ifodalash	102
Belgini izohlab ifodalash	102

VI boʻlim. Holatni ifodalash

Harakatning holatini ifodalash	116
Oʻrin maʼnosini ifodalash	120
Payt maʼnosini ifodalash	127
Sabab maʼnosini ifodalash	132
Maqsad maʼnosini ifodalash	137
Natija maʼnosini ifodalash	142
Shart maʼnosini ifodalash	146

To'siqsizlik ma'nosini ifodalash	150
Daraja-miqdor ma'nosini ifodalash	154
O'xshatish-qiyoslash ma'nosini ifodalash	158

VII bo'lim. Fikrni bog'lanishli ifodalash

Fikrga munosabat bildirish	162
O'zgaralar fikrini ifodalash	168
Fikrni o'zlashtirib ifodalash	172
Fikrni bog'lanishli ifodalash	176

VIII bo'lim. Fikrni turli uslublarda ifodalash

Nutq va matn turlari	179
Fikrni so'zlashuv va badiiy uslubda ifodalash	188
Fikrni publitsistik uslubda ifodalash	196
Fikrni ilmiy uslubda ifodalash	200
Fikrni rasmiy uslubda ifodalash	205
Mustaqil o'qish uchun qo'shimcha materiallar	212
O'zbekcha-ruscha lug'at	278

**81.2 O'zb
M 93**

Muhiddinova X.S.

O'zbek tili: oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik/ X.S. Muhiddinova, Z.I. Salisheva, X.S. Po'latova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Qayta ishlangan 2-nashri. — Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2012. 288-b.

ISBN 978-9943-02-519-6

**УДК: 811.512.133(075)
КБК 81.2 O'zb**

**X.S. MUHIDDINOVA, Z.I. SALISHEVA,
X.S. PO'LATOVA**

O'ZBEK TILI

Oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik

Qayta ishlangan 2-nashri

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2012*

Muharrirlar *L. Jo'rayev, L. Babayeva*
Badiiy muharrir *B. Ibragimov*
Texn. muharrir *T. Greshnikova*
Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*
Musahhihlar *M. Ibrohimova, Z. G'ulomova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 161. 14.08.2009. Original maketdan bosishga ruxsat etildi 3.09.2012. Bichimi 60×90¹/₁₆. Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi. Shartli b.t. 18,0. Nashr t. 17,0. 1000 nusxada bosildi. Buyurtma №161-12.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy // Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko'chasi, 1-uy.
Shartnoma № 07-70-12.